ISSN: 2181-3035
№ 4 30.05.2022



Mirzo Ulug'bek (1394-1449)

TALQIN VA TADQIQOTLAR

respublika ilmiy-uslubiy jurnali

- Aniq fanlar
- Tabiiy fanlar
- Tibbiyot fanlari
- Texnika fanlari
- Iqtisod fanlari
- Filologiya fanlari
- Pedagogika fanlari
- Ijtimoiy-gumanitar fanlar
- Psixologiya fanlari
- San'at va madaniyat fanlari
- Jismoniy tarbiya va sport

talqin@bk.ru
+99891-152-93-14
www.talqinva tadqiqotlar.uz

@TALQINVATADQIQOTLAR

Talqin va tadqiqotlar

ilmiy-uslubiy jurnal

scientific-methodical journal

научно-методический журнал

Bosh muharrir:
I.I.Abdumannonov

Mas'ul muharrir:
O.S.Isroilov

Jurnal bir oyda ikki marta chop etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiya agentligida 2022- yil 12 - fevralda 1540 raqam bilan ro'yxatga olingan.

ISSN 2181 - 3035

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

Tel: +99891-152-93-14
E pochta: talqin@bk.ru
Сайт: www.talqinvatadqiqotlar.uz

Tahrir kengashi:

Qo'ldashev Sherali Temiraliyevich
O'z FA Sharqshunoslik instituti
tarix fanlari nomzodi, dotsent
Bazarov Odiljon
Filologiya fanlari doktori
Qo'qon davlat pedagogika instituti
Abdukarimov Jamoliddin Ahmadaliyevich
Xo'jand davlat universiteti dotsenti (Tojikiston)
Masharipova Gularam Kamilovna
Falsafa fanlari doktori, professor
Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti
Qozoqov Tohirjon Qodiraliyevich
Namangan davlat universiteti
tarix fanlari nomzodi, dotsent
Abdullayev Ravshanjon Inomjon o'g'li
O'z FA Tarix instituti
Tojiyeva Gulnora Akramxonovna
Xalq ta'limi a'lochisi
Abdullayeva Maftunaxon Umidjon qizi
Qo'qon davlat pedagogika instituti
Raximova Zuxraxon Maxmudovna
O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti
Jo'rayeva Sobira Eshqurbonovna
O'zMU jurnalistika fakulteti, o'zbek adabiyotshunosligi kafedrasi katta o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
Akbarov Qobuljon Yakubovich
Qo'qon davlat pedagogika instituti, tarix fanlari nomzodi
G'ofurovTo'lqinjon Zafarjon o'g'li
Qo'qon davlat pedagogika instituti, matematika fani o'qituvchisi
Baymenova Kamshat Saparbayevna
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti
Bazarov Otabek Odilovich
Qo'qon davlat pedagogika instituti, PhD
G'ulomova Nargiza Sa'dullayevna
Navoiy VXTXQTMOHM Tillarni o'qitish metodikasi katta o'qituvchisi
Rahimova Maftuna Odilovna
Qo'qon davlat pedagogika instituti, PhD
Mirzaahmedova Kamola Toxirovna
Toshkent pediatriya tibbiyot instituti farmakologiya, fiziologiya kafedrasi dotsenti

MUNDARIJA / TABLE OF CONTENTS / СОДЕРЖАНИЕ

1.	MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING MAKTAB TA'LIMIGA TAYYORLASH HAMDA IJODIY QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISHDA XORIJ TAJRIBALARIDAN FOYDALANISH Bekmurodova Yulduz Panji qizi, Choriyeva Nigora Rahmonberdi qizi	5
2.	O'QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO'NALTIRISH Axmatova Feruza Batirovna	9
3.	MATN VA LUG'AT BILAN ISHLASH YO'LLARI Khalilova Gulbahor Adilovna	18
4.	BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING IJODIY FAOLIYATGA TAYYORLASH TEXNOLOGIYASI Davlayeva Malika Abraxmatovna Eshkarayev Ulug'bek Choriyevich	21
5.	BOSHLANG'ICH SINF O`QUVCHILARGA UNLI VA UNDOSH HARFLARNI FARQINI TUSHUNTIRISH Xakimova Maftunaxon Xoldoraliyevna	31
6.	YARIM O'TKAZGICHLARDA TERMOELEKTRIK XODISALAR Naziraliyeva Umidaxon, Marifov Salohiddin	34
7.	KASBGA YO'NALTIRISH VA TA'LIM JARAYONI ISHTIROKCHILARINING PSIXOLOGIK, FIZIOLOGIK SALOMATLIGI Qurbonova Aziza Bahodirovna	46
8.	MUHAMMADRIZO ERNIYOZBEK O'G'LI OGAHIY IJODIDA INSONPARVARLIK G'OYALARI Ro'zimova Odila Bahodir qizi, Jumaniyozova Durdona Qurbonnazar qizi	50
9.	BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKA FANINING O'QITILISHI Samatova Surayyo	55
10.	ҚАРАҚАЛПАҚ ХАЛЫҚ ҚОСЫҚЛАРЫНДА СОМАТИКАЛЫҚ ФРАЗЕОЛОГИЗМЛЕР Сайманова Айнура Мадреймовна	59
11.	BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI GLABALLASHUV JARAYONIDA MA'NAVIY HURUJLARDAN HIMOYA QILISH TEXNOLOGIYASI Normurodova Aziza Karim qizi, Ashurov Nazar Raxmatullayevich	65
12.	BOSHLANG'ICH TA`LIMDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH YO'LLARI Umarova Fariza Huvaydullayev	73
13.	DORIVOR O'SIMLIKLARNING INSON HAYOTIDAGI O'RNI Hamdamova Vaziraxon	76
14.	MATEMATIKA DARSLARIDA DIDAKTIK O'YINLARDAN SAMARALI FOYDALANISH USULLARI Dadajonova Dilafruz Yulchibayevna	79
15.	XITOY VA G'ARB DAVLATLARI O'RTASIDAGI DASTLABKI MUNOSABATLAR TARIXIDAN Xasanov Jaxongir Taxirovich	82
16.	O'QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO'NALTIRISH CHORA TADBIRLARI Atamuratova Surayyo Mammatjonovna	86
17.	O'QUVCHILARNING OG'ZAKI NUTQINI RIVOJLANTIRISH USULLARI Olimova Gavxaroy Nosirjonovna	91
18.	ONA TILI DARSLARINI INTEGRATSIYA USULLARIDA TASHKIL QILISH Bazarova Dilnoza Bazarovna	95
19.	METHODS ON HOW TO IMPROVE TEACHING READING Kurbanova Nargiza Ibrakhimovna	100
20.	MARG'ILONIYLAR OILASINING FIQH ILMIGA QO'SHGAN HISSALARI Isoqjonov Muhammadibrohim	105
21.	O'ZBEK SHE'RIYATIGA O'Z JUMLASI BILAN KIRIB KELGAN SHOIRA HALIMA XUDOYBERDIYEVANING 75 YILLIGIGA BAG'ISHLANADI Masharipova Danakhon Atabekovna	113
22.	ZAMONAVIY O'ZBEK SHERIYATIDA POETIK TAFAKKURNING YANGILANISHI FAXRIYOR SHE'RLARI MISOLIDA Mo'minova Nurxon	119
23.	BUGUNGI KUNDA MAMLAKATIMIZDA XOTIN-QIZLARGA TA'LIM TIZIMIDA YARATILAYOTGAN IMKONIYATLAR Primov Sunnatillo Elmurod o'g'li	122

24.	O'QUVCHI-YOSHLARNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MUAMMOLARINI OLDINI OLISH VA ULARNI BARTARAF ETISH Shamuratova Feruza, Ruzimova Tamara	126
25.	IJTIMOIY PSIXOLOGIK MUNOSABAT MEZONLARI Xodjayeva Gulyor Ahmedovna, Madaminova Madina Abdirasulovna	128
26.	BOSHLANG‘ICH SINFLARDA AXBOROT- RESURSLARI INTEGRATSIYASI TIZIMINI RIVOJLANTIRISH MAZMUNI Xurramov Jasurbek O‘ralovich	131
27.	ИСТОРИЯ ИЗУЧЕНИЯ ВОЛЬФРАМОНОСНОСТИ УЗБЕКИСТАНА Норкулов Азиз Норпулат угли, Алимов Мехрикул Умаркулович Пирматов Эшмурат Аъзимович, Аликулов Шухрат Шарофович	134
28.	ОНА ТИЛИ ДАРСЛАРИДА НОАНЪАНАВИЙ ДАРСЛАР, УЛАРНИ ЎТКАЗИШ УСУЛЛАРИ Қаюмова Насиба Қулуқбаевна	138
29.	ОЛИЙ ТАЪЛИМ ТИЗИМИНИ АХБОРОТЛАШТИРИШНИНГ ЎЗИГА ХОСЛИГИ Турсунов Рахмонали Бозорбой ўғли	141
30.	ПРАВИЛА И ТЕХНОЛОГИЯ ВЫПОЛНЕНИЯ ПУТЕВЫХ РАБОТ Махамаджонов Шухратжон Шавкат угли Ўралов Акмал Шакар угли	146
31.	ИЗУЧЕНИЕ И ВЫБОР МЕТОДА ПОЛУЧЕНИЯ ЗАГОТОВКИ И НАЗНАЧЕНИЕ ПРИПУСКОВ ПО ПРОИЗВОДСТВЕННЫЕ ПРОГРАММЫ Ҳамроева Мухлиса Обид қизи, Рахматова Дилдора Жўрабек қизи	149
32.	АНАЛИЗ И ИССЛЕДОВАНИЯ ВЫБОРА МАТЕРИАЛОВ И СРЕДСТВ ИЗГОТОВЛЕНИЯ ШТОКА БУРОВЫХ МАШИН Ҳамроева Мухлиса Обид қизи, Рахматова Дилдора Жўрабек қизи	153
33.	ФИЗИКА ПӘНІ САБАҚТАРЫНДА АҚПАРАТТЫҚ ТЕХНОЛОГИЯЛАРДЫ ҚОЛДАНЫП, ОҚУШЫЛАРДЫҢ ҚЫЗЫҒУШЫЛЫҚТАРЫН ДАМЫТУ Үсенова Фариза	157
34.	YUQORI SINFLARDA TO‘LA KVADRAT TENGLAMANI O‘RGATISH METODIKASI Yadgarova Dilsoz Xamidullayevna, Ibatova Nargiza Xomudovna, Namatova Gulsara Bekchanovna	160
35.	8–9 YOSHLI GIMNASTIKACHILARNING JISMONIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI Jo‘raboyev Nodirbek Nuriddinovich	167
36.	ADABIYOT DARSLARIDA MUMTOZ ASARLARNI O‘RGANISH METODIKASI Ubaydullayeva Orasta Ziyodullayevna	170
37.	ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА СПОРТ-СОҒЛОМЛАШТИРИШ ИШЛАРИНИ ТАШКИЛ ҚИЛИШ Рахматов Баёзиддин Камолиддинович	176
38.	INKLYUZIV TA’LIMNING TASHKIL ETILISHI VA UNING ISTIQBOLLARI Rushana Xamrayeva Kozim qizi, Pokiza Jalolova Muzaffarovna	182
39.	САВОД ЎРГАТИШ ЖАРАЁНИДА ИННОВАЦИОН УСУЛЛАР Н.А.Мўминова	186
40.	ХОДИМЛАРГА БЕРИЛАДИГАН РАҒБАТЛАНТИРИШЛАР АУДИТИНИНГ ЗАРУРИЯТИ Нажимова Нигора Ибрагимовна Д.Д.Пашаходжаева	189
41.	САЙЙИД ИСЛОМХЎЖА – ХИВА ХОНЛИГИНИНГ БОШ ВАЗИРИ Рахманова Мархабо, Эрназарова Мунира, Болтаева Моможон	194
42.	ЎРТА ОСИЁ ШАХАРСОЗЛИГИДА МЕЪМОРИЙ АНСАМБЛ ВА КОМПЛЕКСЛАР ТУЗИШ САНЪАТИ Джамилова Мафтуна Дилмурод қизи	197
43.	MONITORING THE DECLINE OF PLANTS AND TREES IN ANDIJAN AND VALLEY REGIONS THROUGH ARTIFICIAL ROAD IMAGES, DETERMINING THE CHANGES IN GROUNDWATER CONDITIONS WITH THE HELP OF GIS TECHNOLOGIES Nasibov B.R. Boliyeva I.A. Abduqodirova K.B.	202
44.	АҲОЛИ ПУНКТЛАРИДА ШАКЛЛАНГАН ОҚОВА СУВЛАРНИ ТОЗАЛАШ МУАММОЛАРИ Б.Ш.Исмаилхўжаев К.Б.Абдуқодирова, И.А.Болиева	214
45.	ГЛАГОЛ В РУССКОМ ЯЗЫКЕ Джуманиязова Гулчехра Курбанбаевна	220

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING MAKTAB TA'LIMIGA TAYYORLASH HAMDA IJODIY QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISHDA XORIJ TAJRIBALARIDAN FOYDALANISH

Bekmurodova Yulduz Panji qizi
Choriyeva Nigora Rahmonberdi qizi
Termiz davlat universitetining Pedagogika instituti
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi magistrantlari
https://doi.org/10.5281/zenodo.7256921

Annotatsiya: Maqolada Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash hamda ularda ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda xorij tajribalaridan foydalanishga oid fikrlar berilgan.
Kalit so'zlari: MTT, ijodkorlik, maktab ta'lim, tayyorlov, o'qishga tayyorlik.
Annotation: The article provides recommendations on how to use foreign experience to prepare preschool children for school education and increase their creative potential.
Keywords: MTT, creativity, school education, preparation, readiness to study.

Bugungi kunda xorij tajribalaridan andoza olish, ijodiy yondashgan holda amaliyotga joriy etish, zamon talabiga mos ravishda meyyoriy hujjatlar, o'quv-metodik adabiyotlar, o'quv-metodik majmualarni ishlab chiqish, ilg'or xorijiy tajriba asosida maktabgacha ta'lim muassasalarining rahbar va mutaxassislarida zamonaviy menejment va pedagogik texnologiyalar bo'yicha sohaga oid bilimlar va ko'nikmalarni shakllantirish vazifalari dolzarb masalalar sirasiga kiritilmoqda. Shu bois mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish yuzasidan farmon va qarorlar qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrdagi "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ, 2017-yil 9-sentabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish choratadbirlari to'g'risida"gi PQ, 2017-yil 30-sentabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF Farmoyishi shular jumlasidandir.

Bolalarni maktabga tayyorlash bo'yicha xorijiy davlatlarning ilg'or tajribalarini o'rganish yuzasidan alohida adabiyotlar, tadqiqot ishlari juda kam, bu boradagi manbalarning faqatgina elektron resurslari mavjud bo'lib, ularni ham internetning turli veb saytlaridan topib, tarjima qilib o'rganish mumkin. Masalan, bu mavzuda

B.E.Parmonov, I.G‘.Mamajonov, R.Mamatov, M.X.Qilichovalar ilmiy izlanishlar olib borgan.

Jumladan B.E.Parmonov “Maktabgacha ta’lim tashkilotida bolalarni tarbiyalashda xorijiy tajribalarning psixologik jihatlari” maqolasida xorijiy davlatlarning ilg‘or tajribalarini yoritgan. Buyuk Britaniya, Rossiya federatsiyasi, Yaponiya, Germaniya kabi davlatlarining ilg‘or tajriblarini tahliliy o‘rgangan. I.G‘ Mamajonov, R.Mamatovlar esa “Germaniya davlati ta’lim tizimi”ni o‘rganishda qisman maktabgacha ta’lim tizimiga oid ma’lumotlarni kiritib o‘tgan.

Bilamizki, O‘zbeksiton Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunga muvofiq maktabgacha ta’lim va tarbiya olti yoshdan yetti yoshgacha bo‘lgan bolalarni boshlang‘ich ta’limga bir yillik majburiy tayyorlashni ham nazarda tutadi. Endilikda respublikamizdagi 6 yoshdan 7 yoshgacha bo‘lgan barcha ta’lim olishga layoqati bo‘lgan bolalar davlat va nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida 1 yillik maktabgacha tayyorlov guruhida boshlang‘ich sinflarga tayyorlanadi va ularga sertifikat beriladi. Bu jarayon rivojlangan mamlakatlarda esa ancha ilgari boshlanadi. Masalan, Italiyada bolalar 3 yoshdan 6 yoshgacha maktabga tayyorlanadilar. Bu jarayon davlat bog‘chalarida va xususiy katolik bog‘chalarida amalga oshiriladi. Buyuk Britaniyada esa 1988-yilda «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonuni kuchga kirgan. Unda nafaqat ta’lim standartlari, balki bolalarni maktabga qabul qilish vaqtida ruhiy rivojlanish darajasiga bazaviy baho berish ham belgilangan. Angliya, Shotlandiya va Uelsda majburiy ta’lim 5 yoshdan, Shimoliy Irlandiyada esa 4 yoshdan boshlanadi. Shuning uchun ham majburiy ta’limda o‘qitishni boshlash muddati Yevropada engerta deb hisoblanadi.

Bolalarni maktabga tayyorlash – bolalar hayotining barcha sohalarini qamrab oladigan murakkab, ko‘p qirrali vazifadir. Uni hal qilishda bir qator jihatlarni ajratib ko‘rsatish odatiy holdir. Birinchidan, kelajakda muvaffaqiyatli o‘quv faoliyatining asosi bo‘lgan bolaning shaxsiyati va uning bilim jarayonlarining uzluksiz rivojlanishi, ikkinchidan, boshlang‘ich maktabda yozish, o‘qish va hisoblash elementlari kabi ko‘nikma va qobiliyatlarni o‘rgatish zarurati.

Maktabga tayyorlik bu – jismoniy, aqliy, ijtimoiy va bolaning sog‘lig‘iga putur yetkazmasdan maktab o‘quv dasturini muvaffaqiyatli o‘zlashtirish uchun zarur bo‘lgan bolaning rivojlanishi darajasidir.

Shuning uchun “o‘qishga tayyorlik” tushunchasi quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

fiziologik tayyorlik – jismoniy rivojlanishning yaxshi darajasi;

Psixologik tayyorlik – bilim jarayonlarining yetarlicha rivojlanishi (diqqat, xotira, fikrlash, idrok, tasavvur, sezgi, nutq), o‘rganish;

ijtimoiy tayyorlik – tengdoshlar va kattalar bilan muloqot qilish qobiliyati.

Maktabga tayyorgarlikning har uch tarkibiy qismi yaqindan o‘zaro bog‘liq, u yoki bu tarzda biron bir tomonning shakllanishidagi kamchiliklar ta’limning muvaffaqiyatiga ta’sir qiladi.

Bolalarni maktabga tayyorlash davomida ularda ijodiy qobiliyatlarni ham rivojlantirib boorish lozim. Zamonaviy jamiyat o‘z kuchini insoniyat manfaati yo‘lida yo‘naltiradigan ijodiy, oddiy odamlarni talab qiladi. Shu munosabat bilan zamonaviy ta’limning asosiy vazifasi - ijodiy, mustaqil va erkin shaxsni tarbiyalashdir, chunki kelajakning rivojlanishini belgilovchi shaxs bu ijodkorlikdir. Prezident qaroriga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlangan va unda quyidagicha vazifalarni amalga oshirish nazarda tutiladi: maktabgacha ta’lim sohasidagi normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish, maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish; bolalarning sifatli maktabgacha ta’lim bilan qamrovini oshirish, undan teng foydalanish imkoniyatlarini ta’minlash, mazkur sohada davlat-xususiy sherikligini rivojlantirish; maktabgacha ta’lim tizimiga innovatsiyalarni, ilg‘or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish; maktabgacha ta’limni boshqarish tizimini takomillashtirish, maktabgacha ta’lim muassasalari faoliyatini moliyalashtirish shaffofligi va samaradorligini ta’minlash, maktabgacha ta’lim tizimiga maktabgacha ta’lim tizimi xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish, tanlab olish va rivojlantirishga mutlaqo yangi yondashuvlarni joriy etish. Ijodiy rivojlanishning qiymati bolalar uchun yangi bilimlarni, dunyosini boyitadigan o‘zgarishlarni, maktabgacha yoshdagi shaxsning shaxsiy fazilatlarini namoyon etishiga hissa qo‘shishi bilan belgilanadi. Ijodiy faoliyatda atrofdagi haqiqatni o‘rganish, bola “yangi faolik” kabi yangi narsalarni doimiy ravishda kashf qilmoqda.

Katta yoshdagi insonning ijodiy namoyon bo‘lishining dastlabki shartlari maktabgacha tarbiya davridan boshlanadi. Shuning uchun maktabgacha yoshdagi bolalarda shaxsni rivojlantirishning dastlabki bosqichlarida jarayonni va ijodiy rivojlanishning shakllanishini o‘rganish kerak. Psixologik va pedagogik fanlar bo‘yicha shaxsiy rivojlanish uchun asos - bu jarayon haqida doimiy fikr mavjudligidir. Uning oldida maktabgacha yoshdagi bolaning ijodiy rivojlanishi sodir bo‘ladi. Turli xil faoliyat turlari: o‘yin, vizual, konstruktiv, musiqiy, teatr, mehnat shaxsini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bolalarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishning asosiy xususiyatlari quyidagilar hisoblanadi:

– bolaning ijodiyotda turli qirralarini namoyish etishi uchun yo‘l ochib berish;

– bolalarda bilishga oid qiziqishlarini rivojlantirishga qaratilgan motivatsion qiziqish tomonlariga e’tibor berish;

– jarayonda bolaning o‘zi ham faol ishtirok etadi ya’ni tarbiyalanuvchi tarbiyaning faqat obyektigina emas, balki atrofdagi voqealarga ta’sir etuvchi subyekt hamdir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy rivojlanishida ontogenezning dastlabki bosqichlarida bola grafika faoliyati bolalarning atrofdagi haqiqatning badiiy mahoratining samarali shakllaridan biri bo‘lib, ular ob’ektlar va hodisalarni tasavvur qilishadi. Grafik faoliyat bolaning shaxsiyatini rivojlantirish bosqichlarini aks ettiradi, bu ijodiy rivojlanishning tegishli pedagogik tashkiloti uchun hisobga olinishi kerak.

Grafik faoliyatini har tomonlama rivojlanib borishi muxim sanaladi. O‘tmishning ko‘plab mashhur faylasuflari va pedagoglari bolalarning tarbiyalanishida muhim ahamiyatga ega ekanini alohida ta’kidladilar. Shunday qilib, Aristotel, D.Diderot, Ya Komenskiy va boshqa bir qator olimlar grafik faoliyat go‘zallik tuyg‘usini shakllantirishga imkon yaratib, san’at asarlari va tabiatning go‘zalligini yoqtirish qobiliyatini shakllantirdi.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, Maktabgacha tarbiya jarayonida maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy rivojlanishi quyidagi pedagogik shartlar bajarilsa samarali bo‘ladi: 1.Tarbiyachi bolani ijodiy qobiliyatini rivojlatirish uchun daslabki raxbatlantiruvchi pedagogik sharoitni yaratishi lozim. 2.Bolani ijodiy faoliyati tizimi mexanizimini ishga tushirishda o‘yin faoliyatini imkoniyatlaridan samarali foydalanishi kerak. 3.Tarbiyachini kasbiy bilim, malaka va tajribasida bola ijodiy foliyatini rivojlantiruvchi tizim bo‘lishi va amaliyotda ishlashi kerak.. 4.Hamkorlik pedagogikasi imkoniyatlaridan keng foydalanish ni yo‘lga qo‘yish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Muslimov N., Usmonboyeva M., Sayfurov D. Pedagogik kompetentlik va kraetivlik asoslari. – T.: 2015

2.Sodiqova Sh.A. Maktabgacha pedagogika. – T.: 2017

3.Parmonov B.E. Maktabgacha ta‘lim tashkilotida bolalarni tarbiyalashda xorijiy tajribalarning psixologik jihatlari. Science and Education‖ Scientific Journal. 2018

4.Fazilova D.X. Xorijiy tajribalardan foydalanish va innovatsion texnologiyalar modulidan o‘quv–uslubiy majmua. Jizzax, 2021

5.Усманов Ф. Ўзбек тилидаги ўхшатиўларнинг лингвомаданий тадқиқи. Филол.фан.ном. дисс. автореферати. Toshkent – 2020

6.Nabiyeva D.A., Nurmonova S.D.Современное Жанроведение Или Генристика: Теории, Методы, Перспективы // Theoretical & Applied Science. 2020/4.

7.Nurmanova D. Linguistic Concept of the Text // Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT. 2021/9/18.

O‘QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO‘NALTIRISH

Axmatova Feruza Batirovna
Termiz shahar 19-umumiy o'rta ta'lim maktabi psixologi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7256925

Annotatsiya: ushbu maqola o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish mavzusida yozilgan bo‘lib, unda maktab yoshidagi va bitiruvchilarni o‘zi o‘ylagan kasbga yo‘naltirish haqida ma’lumotlar yozilgan.
Kalit so‘zlar: kasb, Ta’lim to‘g‘risidagi qonun, klassifikatsiya, mahorat.

Bugungi kunda kasb-hunarga yo‘naltirish sohasida mavjud bo‘lgan ilmiy xulosalar va tavsiyalar hamda umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilarini kasb-hunarga yo‘naltirish, xususan, kasblar olami bilan tanishtirish usullarini yangilash zarurati yuzaga kelmoqda. O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish tizimi kasbiy targ‘ibot va tashviqotni o‘z ichiga olgan kasbiy ma’rifat (kasbiy axborot); u yoki bu soha, kasbga bo‘lgan shaxs qiziqish va qobiliyatlarining birlamchi kasbiy tashxisi, kasb tanlashda mutaxassislar tomonidan individual, guruhiy yordam ko‘rsatishga qaratilgan kasbiy maslahatlar, ko‘proq muvofaqqiyatga erishishi mumkin bo‘lgan kasbni tanlab olishga qaratilgan kasbiy tanlov, ishlab chiqarish amaliyoti jarayonida amalga oshiriluvchi ijtimoiy-kasbiy moslashuv, tanlangan kasbni o‘rganish jarayonida burch, mas’uliyat, kasbiy or-nomus hislarini o‘quvchilarda shakllantirishga qaratilgan. Undan ko‘zlangan maqsad o‘quvchilarga kasblar olami, kasblarning belgi va xususiyatlari, kasb klasifikatsiyasi, kasblar professiogrammasi, hududning qaysi kasblarga ehtiyoji borligi to‘g‘risidagi axborotlarni berishdan iborat bo‘lib, ular asosida o‘quvchi o‘zini qiziqtirgan, jamiyat uchun zarur bo‘lgan kasbni tanlaydi.

1997 yil 29 avgustda O‘zbekistonda “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” qabul qilidi.

Ushbu xujjatlarda kasbga tanlashga yo‘llash haqida Prezidentimiz I.Karimov o‘z nutqida quyidagilarga alohida e’tibor bergan:

Bugungi kunda oldimizga qo‘ygan buyuk maqsadlarimizga ‘pue niyatlarimizga erishishimiz, jamiyatimizning yangilanishi, hayotimizning taraqqiyoti va istiqboli amalga oshirilayotgan islohatlarimiz, rejalarimizning samarasi taqdiri – bularning barchasi, avvalambor, zamon talablariga javob beradigan yuqori malakli, ongli mutaxassis kadrlar tayyorlash muammosi bilan chambarchas bog‘liqligini barchamiz anglab yetmoqdamiz.

SHu bilan birga, hammamiz yana bir haqiqatni anglab yetmoqdamiz. Faqatgina chinakam ma’rifatli odam inson qadrini, millat qalriyatlarini, bir so‘z bilan aytganda,

o‘zligini anglash, erkin va ozod jamiyatda yashash, mustaqil davlatimizning jahon hamjamiyatida o‘ziga munosib, obro‘li o‘rin egallashi uchun fidoyilik bilan kurashishi mumkin.



Bugungi kunda mutaxassis kadrlarni tayyotlash, ta’lim va bilim berish tizimi, hayotimizda, jamiyatimizda bo‘layotgan islohot, yangilanish jaryonlari talablari bilan yaqindan bog‘lanmaganligi har tomonlama sezilmoqda.

Ochiq tan olish kerak: maktablarning moddiy bazasi juda nochor. Bu masalada naqadar oqsoqligimizni, nochorligimizni, birinchi navbatda, qishloq joylaridagi ahvol-vaziyat misolida ochiq tan olishimiz kerak.

Ikkinchi masala, avval aytganimdek, tarbiyachi, ya’ni o‘qituvchiga borib taqalyapti. Tarbiyachining o‘ziga zamonaviy bilim berish, ularning ma’lumotini, malakasini oshirish kabi paysalga solib bo‘lmaydigan dolzarb masalaga duch kelmoqdamiz. Mening fikrimcha, ta’lim-tarbiya tizimini o‘zgartirishdagi asosiy muammo ham mana shu yerda. O‘qituvchi bolalarimizga zamonaviy bilim bersin, deb talab qilamiz. Ammo zamonaviy bilim berish uchun, avvalo, murabbiyning o‘zi ana shunday bilimga ega bo‘lishi kerak. Shu bilan birga, o‘qituvchi va murabbiylarning hayotiy talablarini qondirish, ularni rag‘batlantirish, ularning o‘z ishi, kasbidan mamnun bo‘lishini ta’minlashimiz lozim. Albatta, bu masalani birdaniga yechish qiyin, lekin uni yechmasdan turib, kelajak avlod tarbiyasi to‘g‘risida gapirishning o‘zi mutlaqo nomaqbuldir.

Norasida bolaning miyasi, ongi nimani o‘ziga singdira oladi, nimani qabul qilmaydi? Afsuski, bu haqda hech kim bosh qotirayotgani yo‘q. SHu masalalar bilan shug‘ullanishi kerak bo‘lgan mutasaddi institut va markazlarimiz yetarli. Xulosa shundayki, bugungi umumta’lim jarayonidagi uch bosqichdan hech qaysisida o‘ziga yarasha talab yo‘q. Boshqacha aytganda, har qanday o‘quv bosqichiga aniq talablar standart darajasida rasmiylashtirilgani yo‘q.

SHunga qarab, o‘quv jarayoni, mazmuni, o‘qitiladigan darsliklar sonini, qanaqa sinfda qanday bilim va tarbiya berish kerakligini aniqlash mumkin bo‘ladi.

Misol uchun, umumta’lim maktablarida o‘qitilayotgan fanlarning soni 20 ga yetadi. Lekin, afsuski, o‘quv rejalarida yoshlarga axloq va odob, ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy bilimlar asoslarini o‘rgatadigan fanlar yetarli o‘rni olgan emas. Mavjud fanlar esa tarkiban eski holida saqlanib qolmoqda. Bu esa mustaqillik va bozor iqtisodiyoti sharoitida yuzaga chiqqan davlat milliy ehtiyojlarni qondirishga to‘sqinlik qilmoqda. Hammamizga ayonki, ta’lim darslikdan boshlanadi. Achchiq bo‘lsa ham tan olishga majburmiz: deyarli barcha sohada darsliklarimiz ahvoli bugungi va ertangi kun talablari darajasida emas. Bir e’tibor bering: pedagogika tajribasida “bitiruvchi”, degan ibora bor. Bu iboraga izoh berib o‘tirishning hojati yo‘q. Ya’niki, bola maktabni bitirsa bas, uning bilim va tarbiyasi haqida gapirmasa ham bo‘laveradi. Ta’lim-tarbiya islohoti haqida gapirar ekanmiz, uning mazmunini lo‘nda qilib ifoda etish mumkin: bizga bitiruvchilar emas, maktab ta’limi va tarbiyasini ko‘rgan shaxslar kerak. SHu joyda yana bir og‘ir savolga duch kelamiz: bolalar qaysi sinfdan boshlab mustaqil fikr yuritishga o‘rgatiladimi? Aminmanki, o‘rgatilmaydi. Mabodo biror o‘quv o‘qituvchiga e’tiroz bildirsa, ertaga u hech kim havas qilmaydigan ahvolga tushib qoladi. Maktablardagi jarayonda o‘qituvchi hukmron. U boladan faqat o‘zi tushuntirayotgan narsani tushunib olishni talab qiladi. Prinsip ham tayyor: “Mening aytganim-aytgan, deganim-degan”.

O‘qituvchi va o‘quvchi munosabatidagi majburiy itoatkorlik o‘rnini ongli intizom egallashi juda qiyin kechayapti. O‘qituvchining bosh vazifasi o‘quvchilarda mustaqil fikr yuritish ko‘nikmalarini hosil qilishdan iboratligini ko‘pincha yaxshi tushunamiz, lekin, afsuski, amalda, tajribamizda unga rioya qilmaymiz.

Ushbu ma’lumotlar orasida kasb klasiffikatsiyasi alohida ahamiyatga ega bo‘lib, uning qanchalik aniq va mukammal o‘zlashtirib olinishi o‘quvchining ko‘plab kasblar orasidan o‘z imkoniyatlariga mosini to‘g‘ri tanlashini belgilaydi.

Kasb klassifikatsiyasi haqida so‘z yuritishdan avval o‘quvchilarning kasb va mutaxassislik tushunchalari hamda ular o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlarni aniq ajratib olishlariga erishish lozim. Keyinchalik kasb klassifikatsiyasi asosida turli interfaol mashqlarni bajarishda bu tushunchalarning ma’no va mazmunini ajrata olish o‘quvchilarga yordam beradi. Buning uchun ushbu tushunchalarning ta’riflarini keltirish kerak.

Kasb-bu jamiyat uchun zarur bo‘lgan, ijtimoiy mehnat taqsimoti natijasida chegaralangan, insondan jismoniy, aqliy, ma’naviy kuch talab etuvchi va sarflangan kuch evaziga insonga mavjud bo‘lish hamda rivojlanish imkonini beruvchi faoliyat sohasidir, masalan, o‘qituvchi, shifokor, injener, dizayner va hokazo. Mutaxassislik esa bitta kasb ichida tor doiradagi faoliyat turidir. Masalan, tarix o‘qituvchisi, matematika o‘qituvchisi, stomatolog, kardiolog, pediatr, quruvchi-muhandis, loyihalovchi-muhandis, injener-konstruktor, badiiy libos dizayneri va hokazo. Bundan tashqari, mansab, lavozim hamda ilmiy unvon tushunchalariga ham to‘xtalib

o‘tish foydadan holi bo‘lmaydi. Lavozim – bu egallangan kasb va mutaxassislik doirasidagi mehnat jarayonini tashkil etish va unga rahbarlik, boshchilik qilish bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyat turidir. Masalan, maktab direktori, o‘quv-tarbiya ishlari bo‘yicha rahbar o‘rinbosari, bo‘lim boshlig‘i, bosh injener, zavod direktori, bosh shifokor va hokazo.

Ilmiy unvon – bu egallangan kasb va mutaxassislik sohasi bo‘yicha kiritilgan yangilik va kashfiyotlar uchun beriladigan ilmiy darajadir. Masalan, fan nomzodi, dotsent, fan doktori, professor va h.k.

Barcha kasb-hunarga yo‘naltirilgan ishlarni o‘rganishda shunday xulosalarni chiqarish mumkin. Ya’ni, kasbiy ma’rifat (kasbiy axborot) o‘quvchiga kasblar olamida “kompas” vazifasini bajaradi: aksariyat hollarda o‘quvchilar ommaviy va nufuzli bo‘lgan kasblarni tanlashga intiladilar; ayrim hollarda o‘quvchilarning kasblar haqidagi bilim va tajribalari yuzaki bo‘lib, uning yaqqol ko‘zga tashlanuvchi, tashqi belgilari hamda xususiyatlariga tayanib qolishadi; kasbiy muvaffaqiyat zamirida mashaqqatli mehnat yotishi haqidagi ularning bilimlari ko‘p hollarda tor va sayoz bo‘ladi; o‘quvchilarni kasb-hunarga samarali yo‘naltirish uchun ular albatta kasblar olami haqida muayyan bir tasavvurlarga ega bo‘lishlari, ya’ni shu bugungi kungacha yer yuzida mavjud bo‘lgan kasb-hunar va mutaxassisliklar, lavozim o‘rtasidagi farqlar, ularning paydo bo‘lish hamda yo‘qolib ketish sabablarini bilishlari lozim. SHuningdek, to‘g‘ri kasb tanlashga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar, ishlovchi shaxsning jismoniy, aqliy, ruhiy, axloqiy xususiyatlariga bo‘lgan kasb talablari, mehnat xususiyatlari va ularning insonga ta’siri, zamonaviy ishlab chiqarish sohalari va turlari, kasb-hunar ta’limi hamda ta’lim muassasalari haqidagi ma’lumotlardan xabardor bo‘lishi, har bir o‘quvchi o‘zining shaxsiy, individual-psixologik-fiziologik xususiyat va sifatlarini yaxshi bilishi hamda ularni hisobga olgan holda o‘zi uchun ko‘proq mos keluvchi mehnat faoliyati sohalarini tanlay olish malakasiga ega bo‘lishi kerak.

Kasb klassifikatsiyasi mavzusini o‘quvchilarga tushuntirishdan avval bu atamaning mazmunini biroz kengroq tushuntirib berish lozim.

Klassifikatsiya – bu narsa va hodisalarning anglangan tartibi bo‘lib, ularni biror-bir muhim belgisi bo‘yicha turlarga ajratishdir. O‘quvchilar turli klassifikatsiyalar bilan botanika, zoologiya, ona tili va boshqa fanlarni o‘rganishda tanishib chiqishgan hamda uning qulayligini anglashgan. Masalan, hayvonot dunyosi klassifikatsiyasi fan dunyosini o‘rganishga yordam berib, o‘quvchi biror notanish jonivorga to‘qnash kelganda tashqi belgilariga qarab uning xarakteristikasini, ma’lum bir tur va oilaga kiritishi yoki aksincha, jonivorni ko‘rmay turib, biroq uni ma’lum bir tur va oilaga kirishini bilgan holda asosiy belgilari bo‘yicha xususiyatlarini tuzishi mumkin bo‘ladi.

Kasb klassifikatsiyasi turlari bilan o‘quvchilarini tanishtirishdan oldin kasb klassifikatsiyasi uchun asos qilib tanlangan belgiga bo‘lgan talablar o‘quvchilarga aytib o‘tilishi lozim, chunki klassifikatsiya uchun kasblarning hohlagan belgilarini olish mumkin emas. Kasb klassifikatsiyasi uchun asos qilib tanlangan belgi quyidagi talablarga javob berishi kerak:

Tanlangan kasb belgisi o‘zgarmas, muntazam bo‘lishi.

Tanlangan kasb belgisi barchaga tushunarliligi.

Tanlangan kasb belgisi aniq, yorqin bo‘lishi.

Tanlangan kasb belgisi bitta belgi bo‘yicha faqat bitta guruhga tegishli bo‘lishi.

Ushbu talablarning biriga javob bera olmasa, bu kasb belgisini klassifikatsiya qilish uchun asos qila olmaymiz. O‘quvchilar e’tiboriga kasblarning beshta belgisi (mehnat nomi; mehnat xarakteri; mehnat mahsuloti; mehnat qilish uchun talab etiladigan bilim, ko‘nikma, malaka darajasi, kasblarning mamlakat xo‘jaligining biror sohasiga tegishli bo‘lishi) havola etiladi. Ular har bir kasb belgisidagi kamchilik, ya’ni kasb klassifikatsiyasi uchun tanlanayotgan belgilarning to‘rtta talabdan qaysi biriga javob bera olmasligini aniqlashlari lozim.

Kasb-hunarga yo‘naltirish – umuminsoniy madaniyatni shakllantirish jarayonining tarkibiy qismlaridan biri sifatida yosh avlodning kasbiy tiklanishi, tabiat in’om etgan (tug‘ma) qobiliyatlarini rivojlantirish ko‘maklashish, insonga kasbiy o‘zligini anglashiga yordam beruvchi maxsus chora-tadbirlar majmuasi bo‘lib, uning imkoniyat va ehtiyojlarini hisobga olgan holda, bandlik va maqbul ta’lim turini tanlash ishlarida, turli xil malakali kasb mutaxassislariga bo‘lgan ehtiyojlarda jamiyatning g‘amxo‘rligi sifatida namoyon bo‘ladi.

Kasb-hunarga yo‘naltirish ishining bosh maqsadi o‘ziga xos usullar yordamida mutaxassisning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini kuchaytirish va aholining samarali bandligini oshirishga erishishdan iborat.

Kasb-hunarga yo‘naltirishning asosiy maqsadi – yosh avlodni ongli va mustaqil ravishda kelgusi ta’lim yo‘nalishini (akademik litsey yoki kasb-hunar kolleji) tanlashiga yoki shaxsning psixofiziologik xususiyatlari, qiziqishi, qobiliyati, moyilliklari va jamiyatning kadrlarga bo‘lgan ehtiyojidan kelib chiqqan holda mehnat qilish sohasini tanlashga tayyorlashdan iborat.

Kasb-hunarga yo‘naltirish quyidagi ikki asosiy vazifani hal qilishga qaratilgan:

- mehnat imkoniyatlarini oqilona taqsimlash va foydalanish hisobiga mamlakatning iqtisodiy salohiyatini mustahkamlash;

- shaxsni ijtimoiy va iqtisodiy himoyalash, chunki o‘z qiziqishlari, moyillik va imkoniyatlariga mos kelgan kasbni tanlagan inson ham kasbiy, ham moddiy jihatdan tezroq uni o‘zlashtiradi va sezilarli natijalarga erishadi.

Kasb-hunarga yo‘naltirish ishining pirovard natijasi ijtimoiy – iqtisodiy omil bo‘lib, shaxsga ham, davlatga ham real foyda keltiradi.



Kasb-hunarga yo‘naltirishda quyidagi tamoyillar asos qilib olingan:

- kasb-hunarga yo‘naltirish xizmatlarining majmuaviy xarakterdaligi;

- iqtisodiy rivojlanish va mehnat bozorini o‘rganish va prognoz qilish orqali jamiyat va shaxs qiziqishlarini muvofiqlashtirish;

- shaxsni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik tashxis qilish shakli, uslublari va vositalarining ilmiy asoslanganligi;

- O‘zbekiston fuqarolarining va (lozim bo‘lganda) boshqa davlat fuqarolarining o‘qish, ish joyi, yoshi, jinsi, millati va diniy dunyoqarashidan qat’iy nazar kasb-hunarga yo‘naltirish xizmatlaridan foydalanishga teng huquqligi;

- kasb tanlash yoki almashtirish, ta’lim turi va ishga joylashish imkoniyatlariga nisbatan kasbiy va boshqa axborotlarning tushunarliligi;

- umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘quvchilariga psixologik-pedagogik va kasb-hunarga yo‘naltirish xizmatlarini ko‘rsatishning majburiyligi va bepulligi, aholining boshqa guruhlariga davlat darajasida kafolatlangan kasbiy tashxis va maslahat berishning ixtiyoriyligi;

- kasbiy tanlov, tashxis va maslahat xulosalarining ob’yektivligi, maxfiyligi va tavsiyaviy xarakterda ekanligi;

- kasb-hunarga yo‘naltirish xizmatlari xodimlarining kasbiy axloq normalariga rioya etishligi.



Kasb-hunarga yo‘naltirish ishlarining asosiy ob’yekti:

umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 1-9 sinf o‘quvchilari;

oliy o‘quv yurtlari talabalari va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarining o‘quvchilari;

ishdan bo‘shashi kutilayotganlar;

ish qobiliyati cheklangan shaxslar.

Ma’lumki, xalq ta’limining asosiy bugunini uzluksiz ta’lim tashkil etadi. SHu sababli, bu masalaga alohida diqqat-e’tibor qaratish darkor. Uzluksiz ta’limni davlat ta’lim standartlari va tegishli ta’lim dasturlari bilan ta’minlashda, avvalo, ularning jahon talablari darajasida bo‘lishiga, yuksak ma’naviyat zaminida qurilganiga asosiy e’tibor berish kerak. SHuning uchun ham umumta’lim dasturlarini maktabgacha tarbiya, boshlang‘ich, umumiy ta’lim va maktabdan tashqari ta’lim tarzida tuzsak, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Buning uchun quyidagi tizimni asos qilib olsak, ko‘zlangan natijalarga erishamiz, deb o‘ylayman.

Birinchi. Maktabgacha ta’lim. Uch yoshdan boshlanib, olti-etti yoshgacha oilada, bolalar bog‘chasida va mulkchilik ko‘rinishidan qa’ti nazar, boshqa xil ta’lim tashkilotlarida olib boriladi.

Ikkinchi. Boshlang‘ich ta’lim. 1-4 sinflarni o‘z ichiga oladi va bunda o‘qish olti-etti yoshdan boshlanadi.

Uchinchi. Umumiy ta’lim. Bunda o‘quvchilarga 5-9 sinflar doirasida bilim va tarbiya beriladi.

Alohida ta’kidlab o‘tishimiz kerak; umumta’lim maktabi barchamiz uchun majburiy bo‘lib, ularda bolalarimizga umumiy bilim asoslarini chuqur o‘rgatishimiz kerak, tom ma’noda farzandlarimizning dunyoqarashini shakllantirish va kengaytirishimizga asos solishimiz kerak.

To‘rtinchi. O‘rta maxsus bilim va kasb-hunar ta’limi. O‘qish muddati 3 yildan kam bo‘lmagan akademik va kasb-hunar litseylari va kollejlari.

Beshinchi. Oliy mutaxassislik ta’limi, odatda o‘n sakkiz-o‘n to‘qqiz yoshdan boshlanib, to‘rt yildan kam bo‘lmagan muddatda davom etadi.

Oliy mutaxassislik ta’limi bakalavrlik hamda magistraturaga bo‘linadi.

Bakalavrlik – yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, bazaviy oliy ta’lim berish demakdir. Unda o‘qish kamida 4 yil davom etib, oliy ma’lumot va tayanch mutaxassislik diplomini olish bilan tugaydi.

Magistratura aniq mutaxassislik bo‘yicha oliy kasbiy ta’lim bo‘lib, bakalavrlik negizida kamida ikki yil davom etadi. Undagi tahsil yakuniy kvalifikatsion davlat attestatsiyasi va magistrlik dissertatsiyasini himoya qilish bilan nihoyasiga yetkaziladi.

Shu bilan birga, biz o‘z ehtiyojlarimiz va ichki sharoitlarimizdan kelib chiqib, uzluksiz ta’limning rasmiy tizimida yakunlovchi bir bosqichni ham joriy etishimiz kerak. Bu bosqich ikki darajaga bo‘linadi, ya’ni aspirantura va doktoranturadan iborat bo‘ladi.

Aspirantura nihoyasiga yetkazilgan magistrlik negizida 3 yil davom etadi.

Aspiranturaning maqsadi – muayyan mutaxassisliklar bo‘yicha oliy kvalifikatsiyali ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlarni shakllantirish. Aspirantura akademik va kvalifikatsion imtihonlari hamda nomzodlik dissertatsiyalarini himoya qilish bilan yakunlanadi. Bu yakunlarga ko‘ra, tanlangan mutaxassislik bo‘yicha “fan nomzodi” ilmiy darajasi beriladi.

Doktorantura fan nomzodi ilmiy darajasi negizida 3 yil davom etadi, dissertatsiya himoya qilish bilan yakunlanadi. YAkunga ko‘ra, tanlangan mutaxassislik bo‘yicha “fan doktori” ilmiy darajasini beriladi. Boshqacha aytganda, bu sohada avvalgi tartib saqlanib qoladi. Bulardan tashqari, yangi tizimda qo‘shimcha kasbiy ta’lim – qayta tayyorlash va malaka oshirish masalasiga ham katta e’tibor berilishi kerak.

Kadrlar tayyorlash milliy modeli: Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat;

SHaxs – kadrlar tayyorlash tizimining bosh sub’yekti va ob’yekti, ta’lim sohasidagi xizmatlarning iste’molchisi va ularni amalga oshiruvchi;

Davlat va jamiyat – ta’lim va kadrlar tayyorlash tizimining faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni amalga oshiruvchi kadrlar tayyorlash va ularni qabul qilib olishning kafillari;

Uzluksiz ta’lim – malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo‘lib, ta’limning barcha turlarini, davlat ta’lim standartlarini, kadrlar tayyorlash tizimi tuzilmasi va uning faoliyati ko‘rsatish muhitini o‘z ichiga oladi;

Fan – yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi va ulardan foydalanuvchi, ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chiquvchi;

Ishlab chiqarish – kadrlarga bo‘lgan ehtiyojni, shuningdek ularning tayyorgarlik sifati va saviyasiga nisbatan qo‘yiladigan talablarni belgilovchi asosiy buyurtmachi, kadrlar tayyorlash tizimini moliya va moddiy-texnika jihatidan ta’minlash jarayonining qatnashchisidir.

MATN VA LUG‘AT BILAN ISHLASH YO‘LLARI

Khalilova Gulbahor Adilovna
Andijon viloyati Qo‘rg‘ontepa tumani
15- maktab ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7256959

Annotatsiya: maqolada darslik va u bilan ishlash, nazariy ma’lumotlar bilan birga mavzu ko‘lami keng bo‘lgan matnlar, murakkab bo‘lgan asarlardan olingan parchalar va sintaktik tahlil uchun berilgan mumtoz adabiyotdan olingan gaplar ustida ishlash yuzasidan tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: ona tili mashg‘uloti, tilni o‘qitish, matn va u bilan ishlash, darslik

Ma’lumki, yangi avlod darsliklari ko‘p yillik an’analarga o‘zgartirish kiritib, jahonning ta’limi rivojlangan davlatlar andazasiga mos ravishda va o‘zbek ta’limi modelining yutuqlarini o‘zida aks ettirishga yo‘naltirilgan.

Keyingi yillarda bosqichma-bosqich 2017-yili 6-7-10-sinf darsliklari, 2018-yili 11-sinf darsliklari, 2019-yili 8-9-sinf darsliklari yangi nashrdan chiqdi. Darsliklarda oldingi nashrdagi yutuqlar saqlab qolinishi bilan birga, ularga yangicha yondashuv bilan qaraldi. Har bir sinflarda nazariy ma’lumotlar uchun ajratilgan soatlar qisqartirilib, o‘rniga o‘quvchi dunyoqarashi, tahliliy fikrlashi, so‘z boyligiga ega bo‘lishi nazarda tutilgan ” Matnlar ustida ishlash” turkum mavzular kiritilgan. So‘zlarning imlo va izohli lug‘atlari berib borilgan. Buni 8-sinf ona tili darsligi misolida ko‘radigan bo‘lsak, 102 soat yillik dars soatidan 17 soat ”Matn va lug‘atlar ustida ishlash”, ”Mumtoz matn va lug‘atlar ustida ishlash”, undan tashqari 9 soat dars ”Ijodiy matn. Insho va uning turlari” turkum mavzulari uchun ajratilgan. Buni raqamlar bilan ifodalasak, yillik soatning 25 foizi matnlar ustida ishlash uchun berilgan. Yangi darslik, yangicha qarashlar, yangi yondashuvlar ham o‘qituvchi, ham o‘quvchi uchun murakkablik tug‘dirgani tabiiy. Hattoki shu darslik tahlili uchun ijtimoiy tarmoqlarda alohida telegram guruhlari ochilgani, unda ona tili va adabiyot fani o‘qituvchilari birlashib, maslahatlashib har bir mavzu ustida ishlab borishgani darslikning barcha uchun murakkablik tug‘dirganidan dalolat beradi. Darslik nazariy ma’lumotlar bilan birga mavzu ko‘lami keng bo‘lgan matnlar, anchayin tahlili murakkab bo‘lgan asarlardan olingan parchalar va sintaktik tahlil uchun berilgan mumtoz adabiyotdan olingan gaplar bilan ham o‘qituvchini, ham o‘quvchini o‘ylantirdi. 1.Topshiriq sifatida berilgan so‘zlar izohini o‘rganish uchun o‘quvchi tugul o`qituvchilar ham ”O‘zbek tilining izohli lug‘ati” to‘liq ta’minlanmagan. Izoh sifatida: ”O‘zbek tilining izohli lug‘ati” ning yangi nashri taqdimoti iyul oyida bo‘lib o‘tdi, lekin u kirill yozuvida. Lotin yozuviga asoslangan yangi o‘zbek yozuvidagi

nashri taqdimoti sentabr oyiga mo‘ljallanibdi. Asosiy lug‘atga talabgor auditoriya keyingi avlod vakillari ekanligini inobatga olsak, nega avval lotin yozuviga asoslangan yangi o‘zbek yozuvida nashr etilmagani hayratlanarli. 2.”Mumtoz asarlar lug‘ati”, ”Navoiy asarlari lugati”ni topish qiyin, chunki bu lug‘atlar ancha yillar avval nashr qilingan. Qog‘oz varianti hamma o‘qituvchilarda ham bor emas. Dars vaqtida o‘quvchi uyali aloqa vositalardan ta’lim muassasalarida ishlatishga qo‘yilgan cheklov tufayli elektron variantidan foydalanish imkoniyati mavjud emas. 3.O‘qituvchi salohiyatining yetarli emasligi, chunki barcha OTMlarda ham ”Mumtoz adabiyot” fanlari birdek o‘qitilmaydi. Ayniqsa, aruz nazariyasi barcha ona tili va adabiyot fani o‘qituvchilarning og‘riqli nuqtasi hisoblanadi.Darslikda berilgan ruknga bo‘lib o‘qish topshirig‘ini bajarish uchun, avvalo, rukn nima, hijo nima kabi so‘roqlarga javob bera olishi kerak. 4.Ba’zi lug‘at uchun darslikda berilgan so‘zlar va izohi o‘rtasida nomuvofiqlik mavjud. Masalan, “ Mengizlari gul-gul, mijjalari xor, Qaboqlari keng-keng, og‘izlari tor” (85- bet, 117- topshiriq) baytida aslida “yuz” ma’nosini bildituvchi “Mengiz” so‘zining izohi sifatida “yuzdagi xol” jumlasi berilgan. “Xol” so‘zi “meng” so‘zining muqobili hisoblanadi. Agar o‘quvchi shu izoh bo‘yicha tahlil qilsa, shoir nazarda tutgan badiiy go‘zallikdan ancha uzoqlashgan bo‘lmaymizmi?! Xuddi shunday xatolikka 101-betdagi 151-mashqda jadval asosida berilgan lug‘atni misol keltirishimiz mumkin. Unda “meva” so‘zi berilgan, lekin jadvalda uning muqobili bo‘lgan “samar” so‘zi yo‘q. 5.O‘qituvchilar uchun “O‘qituvchi kitobi” qo‘llanmalarining mavjud emasligi. Mening fikrimcha, o‘quv dastur yaratilgach, darslik bilan bir paytda “O‘qituvchi kitobi” qo‘llanmasini ham yaratish, uni ham sinovdan o‘tkazish zarur. Yuqoridagi sabablarni keltirishdan maqsad darslikni qoralash emas, balki bunday darsliklar yaratishdan avval bu darslikka ilova tarzida lug‘atlar, metodik 78 Май 2021 7-қисм Тошкент qo‘llanmalar, darsning samarali metodologiyasini yaratish zarur ekanligini ta’kidlamoqchiman. Xo‘p, darsda matnlar, lug‘atlar ustida ishlandi. Yuqoridagi hech muammo mavjud emas va darsdan ko‘zlangan maqsadga erishildi deylik, lekin bu topshiriqlar, matnlar o‘quvchi hayotida qanchalik ahamiyatga ega? Yetarli salohiyat va mahoratga ega bo‘lmagan o‘qituvchi “Matn ustida ishlash” turkum mavzularini qanday o‘qityapti? O‘quvchi matnni o‘rganayotganda unga muhim deb qarayaptimi? Shu matnlar orqali olgan bilimi, hech yo‘q, OTMga kirishida asqotyaptimi? To‘g‘ri, o‘tgan yillarda 10-11-sinfdagi lug‘ati berilgan so‘zlar testga qamrab olindi, lekin matnlarchi? Ular asli nima uchun darslikka kiritilgan edi? O‘quvchi uchun eng zerikarli dars-matn ustida ishlangan dars. Chunki unda uqish kerak bo‘lgan grammatika nisbatan kam, matnlar asarlardan olingan parcha bo‘lgani uchun undan olingan tushuncha ham yetarli bo‘lmaydi. 8-sinf ona tili darsligida berilgan matnlar esa mumtoz adabiyot matnlaridan parcha ekanligi yanada qiyinchilik tug‘dirdi. Kitobxonlik darajasi avvalgi avlodlarga nisbatan maqtarli bo‘lmagan bugungi o‘quvchiga zamonaviy

badiiy adabiyotlarni o‘qitish katta ish bo‘lib turgan bir paytda mumtoz matn mag‘zini chaqish uchun 1 soat kamlik qiladi. Sinf o‘quvchilari salohiyatining turlicha ekanligini inobatga olsak, eng zerikarli, eng samarasiz darslar matn bilan ishlash soatlariga to‘g‘ri keladi. Chunki yuqorida sanab o‘tgan muammolarni inobatga olsak, o‘quvchi matnni mustaqil tahlil qilay desa, lug‘at kitobi yo‘q, mag‘zini chaqay desa, tasavvufiy matn. Bunday matnlar alohida bilim va tayyorgarlik talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ne’matov va b. O‘zbek tili struktural sintaksisi. -T.: Universitet, 2000
2. Mengliyev B. O‘zbek tilining struktur sintaksisi. –Qarshi, 2003
3. G‘ulomov A, Asqarova M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Sintaksis. -T.: 1989
4. Qurbonova M. Hozirgi zamon o‘zbek tili. -T.: 2002

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING IJODIY FAOLIYATGA TAYYORLASH TEXNOLOGIYASI

Davlayeva Malika Abraxmatovna
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti ta'lim tarbiya nazariyasi va metodikasi boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 1-kurs magistranti
Eshkarayev Ulug'bek Choriyevich
Ilmiy rahbar pedagogika fanlari doktori, dotsent
https://doi.org/10.5281/zenodo.7256967

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinfda o‘yinlar vositasida o‘quvchilar ijodiy faoliyatini shakllantirish yo‘llari, o‘yinlar asosida o‘quvchilarning ijodkorligini rivojlantirish, kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarni ijodiy faoliyat jarayoniga tayyorlash, uning pedagogik ahamiyati, o‘quvchilarda ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish metodikasi, zamonaviy ta’lim yondashuvlari asosida o‘quvchilar ijodiy faoliyatini tashkil etish usullari, yo‘llari va samaradorligi haqida fikrlar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: ijodiy faoliyat, o‘qitish, mashg‘ulot, boshlang‘ich ta’lim, o‘quv jarayoni, o‘qituvchi, o‘quvchi faoliyati, hamkorlikda o‘qitish.

Abstract: This article discusses ways to form the creative activity of primary school students through games, the development of students' creativity based on games, the preparation of primary school students for the process of creative activity, its pedagogical significance, student creativity. methods of development, ways, methods and effectiveness of organizing the creative activity of students on the basis of modern educational approaches.

Keywords: creative activity, teaching, lesson, elementary education, educational process, teacher, student, learning in cooperation.

Zamonaviy ta’limning mohiyatini ochib berish, pedagog faoliyatini keng qamrovli yoritish. Bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy mahorat va darsga ijodiy yondoshib, unda o‘qitishning yangi shakl usullarini qo‘llash. Ta’lim o‘qituvchi va o‘quvchilarning hamkorlikdagi faoliyati bo‘lib, shu jarayonda shaxsning taraqqiyoti, uning ma’lumoti va tarbiyasi ham amalga oshadi. Darslarda o‘qituvchi o‘z bilimi, ko‘nikma va malakalarini mashg‘ulotlar vositasida o‘quvchilarga yetkazadi, o‘quvchilar esa uni o‘zlashtirib borishi natijasida undan foydalanish qobiliyatiga ega bo‘ladi. O‘rganish jarayonida o‘quvchilar o‘zlashtirishning turli ko‘rinishlaridan foydalanishadi, ya’ni o‘zlashtirilayotgan ma’lumotlarni qabul qilish, qayta ishlash hamda amaliyotga tatbiq etishda o‘ziga xos tafovutlarga tayanadi. Ta’lim jarayonida

o‘qituvchi va o‘quvchilarlarning dars paytidagi hamkorligi, o‘quvchilarning mustaqil ishlashi, sinfdan tashqari ishlar shaklida ta’lim va tarbiya masalalari hal etiladi.

Ta’limning maqsadi jamiyat ehtiyojiga mos ravishda shakllanadi. Shunday ekan, ta’lim-tarbiya maqsadi mos va mutanosib bo‘lishi kerak. Ilmiy adabiyotlarda ta’limning maqsadi imkoniyatlaridan to‘g‘ri, aniq, o‘rinli foydalanish ko‘nikma va alakalarini hosil qilish, mantiqiy-ijodiy tafakkurni rivojlantirish, kommunikativ savodxonlikni oshirish, milliy g‘oyani singdirish, sharqona tarbiyani shakllantirish, shaxsni ma’naviy boyitishdan iboratligi ta’kidlangan. Ta’limiy maqsad asosida o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, og‘zaki va yozma savodxonlikni oshirish, mantiqiy afakkurni rivojlantirish orqali ularning muloqot madaniyati takomillashtiriladi.

Tarbiyaviy maqsad asosida esa ma’naviy, g‘oyaviy, nafosat tarbiyasi beriladi. Til o‘rganish jarayonida xalqning madaniy-axloqiy qadriyatlariga yaqinlashtirish imkoni paydo bo‘ladi.

Ulug‘ donishmandlardan biri «kelajak tashvishi bilan yashasang, farzandlaringga yaxshi bilim ber, o‘qit», degan ekan. Yurtimizda ta’lim-tarbiya tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar haqiqiy ma’noda bir-ikki yillik yoki qisqa davrda samaraga erishishga qaratilgan ish emas, balki chin ma’noda bir necha yuz yillarga tatiydigan o‘zgarish bo‘ldi, desak xato bo‘lmaydi. Prezidentimizning kelajagimiz, kelajak avlodimiz haqida qayg‘urib, yurtimizning barcha farzandlari – mening farzandlarim, ular bizlardan ko‘ra kuchli, bilimli va albatta baxtli bo‘lishlari kerak, degan g‘oyasi zamirida donishmandlarcha siyosat yotganini ko‘rsatadi.

Ma’lumki, ta’limda ilg‘or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalarini tatbiq etish o‘quv mashg‘ulotlarining samaradorligini oshiribgina qolmay, ilm-fan yutuqlarini amaliyotda qo‘llash orqali mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, har tomonlama barkamol yuksak ma’naviyatli shaxsni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ijodkorlik faoliyatini rivojlantirishda ijodiy qobiliyatni shakllantirishga, ilmiy-ijodiy izlanishlarga yo‘llaydigan, bilishga oid ilmiy faoliyatni tashkil etish shakl va metodlaridan foydalanish o‘z samarasini berdi. Bu borada ijodiy faoliyatni rivojlantirish darslariga dialog-darslar munozara, bahs, suhbatlar, fantaziya, izlanish darslari, muammolar qo‘yish va ularni yechish darslari; ishtirokchilik darslari, modellashtirish, badiiy texnik ijodkorlik, ijod qilish, kichik kashfiyotlar yaratish, insholar yozish, solnomalar tuzish, ishbop o‘yinlardan, innovatsion metodlardan foydalanish kabilar eng samarali bo‘ldi. ta’lim jarayonida dars shakllarining o‘yin usullari sifatida o‘qitishning ma’lum bir paytida o‘tkaziladi.

O‘qituvchi va o‘quvchi talabaning maqsaddan natijaga erishishida qanday texnologiyani tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikkala tamonning asosiy maqsadi aniq: natijaga erishishga qaratilgan, bunda o‘quvchi –talabalarning bilim saviyasi,guruh xarakteri,sharoitga qarab ishlatiladigan texnologiya tanlanadi,

masalan, natijaga erishish uchun balkim kompyuter bilan ishlash lozimdir, balkim film, tarqatma material, chizma va plakatlar, turli adabiyotlar, axborot texnologiyasi kerak bo‘ladi, bular o‘qituvchi va o‘quvchi-talabaga bog‘liq.Shu bilan bir qatorda o‘qitish jarayonini oldindan loyihalashtirish zarur, bu jarayonda o‘qituvchi o‘quv predmetining o‘ziga xos tamonini, joy va sharoitni, TSO ni, eng asosiysi, o‘quvchining imkoniyati va ehtiyojini hamda hamkorlikdagi faoliyatini tashkil eta olishini hisobga olishi kerak, shundagina, kerakli kafolatlangan natijaga erishish mumkin. Qisqa qilib aytganda o‘quvchi talabani ta’limning markaziga olib chiqishi kerak.

O‘qituvchi tomonidan har bir darsni yaxlit xolatda ko‘ra bilish va uni tasavvur etish uchun bo‘lajak dars jarayonini loyihalashtirib olishi zarur. Bunda o‘qituvchiga u tomonidan bo‘lajak darsni texnologik xaritasini tuzib olishi katta axamiyatga egadir. Chunki darsning texnologik xaritasi xar bir mavzu, xar bir dars uchun o‘qitilayotgan predmet, fanning xususiyatidan,o‘quvchi talabalarning imkoniyati va extiyojidan kelib chiqqan xolda tuziladi.

O‘qituvchi tomonidan o‘zi o‘qiyotgan fanning har bir mavzusi, har bir dars mashg‘uloti bo‘yicha tuzilgan yuqoridagi kabi texnologik karta unga fani, predmetini yaxlit xolda tasavvur etib yondashishga, tushunishiga, yaxlit o‘quv jarayonining boshlanishi, maqsadidan tarqatib, erishiladigan natijasiga ko‘ra olishiga yordm beradi. Ayniqsa texnologik kartani o‘quvchi talabaning imkoniyati, ehtiyojidan kelib chiqqa xolda tuzilishi uni shaxs sifatida ta’limning markaziga olib chiqishga olib keladi. Bu esa o‘qitishning samaradorligini oshirishga imkon yaratadi.

O‘qitish jarayonida o‘quvchi talabalarga shaxs sifatida qaralishi, turli pedagogik texnologiyalar hamda zamonaviy metodlarni qo‘llanilishi ularni mustaqil, erkin fikrlashga, Izlanishga, har bir masalaga ijodiy yondashish, ma’suliyatni sezish, ilmiy tadqiqod ishlarini olib borish, tahlil qilish ilmiy adabiyotlardan unimli foydalanishga, eng asosiysi, o‘qishga, fanga, pedogogka va o‘zi tanlagan kasbiga bo‘lgan qiziqishlarni kuchaytiradi.

Bunday natijaga erishish amaliyotda o‘quv jarayonida innovotsion va axborot texnologiyalarini qo‘llashni taqoza etadi. Ular juda xilma-xildir. Biz ulardan bazilari xaqida to‘xtalib o‘tamiz va ularni o‘tkazish tartibi xaqida qo‘llama beramiz. Ushbu metodik qo‘llanmada keltirilgan zamonaviy metodlar, yoki o‘qitishning samarasini oshirishga yordam beruvchi texnologik treninglar o‘quvchi talabalarda mantiqiy, aqliy, ijodiy, tanqidiy, mustaqil fikrlashni shakllantirishga, qobiliyatlarini rivojlantirishga, raqobatbardosh, yetuk mutaxassis bo‘lishlariga hamdaMutaxassisga kerakli bo‘lgan kasbiy fazilatlarni tarbiyalashga yordam beradi.

Biz quyida o‘qitish jarayonida qo‘llash mumkin bo‘lgan metodlardan foydalanib o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantiramiz. Ularninng mavzuni tez va oson tushinishiga sababchi bo‘lamiz.

“Tarmoqlar” metodi o‘quvchi talabani mantiqiy fikrlash, umumiy fikr doirasini kengaytirish, mustaqil ravishda adabiyotlardan foydalanishni o‘rgatishga qaratilgan.“3x4” metodi- o‘quvchi talabalarni erkin fikrlashi, keng doirada turli g‘oyalarni bera olishi, ta’lim jarayonida yakka, kichik guruh xolda tahlil etib, xulosa chiqara olishi, ta’rif bera olishiga qaratilgan.

Boshlang‘ich ta’limda o‘yin ijodiy faoliyatning bir shaklidir. Bunda o‘kuvchi ijtimoiy va moddiy borliqni bilish hamda anglash asosida emotsional - xissiy, intellektual-axloqiy rivojlanadi. O‘yinlar, ularning inson taraqqiyotidagi o‘rni haqida psixologiya, etnografiya, madaniyat, pedagogika fanlarida bir qator tadqiqot ishlari olib borilgan.

XIX asrning oxirida nemis olimi K.Gross o‘yinlarni tizimli o‘rganishga harakat qilgan bo‘lsa, nemis psixologi K.Byuller o‘yinlarni «qoniqish hosil qiluvchi» faoliyat sifatida tadqiq etadi. L.S.Vigotskiy, A.N.Leontyevlar fikricha, o‘yinlarni nazariy jixatdan ijtimoy tabiatiga ko‘ra ma’lum faoliyatiga yo‘naltirilganligi bilan bog‘lab, tadqiq etgan bo‘lsalar, D.B.Elkonin shaxs xulqini boshqarishni tarkib toptirib, uni takomillashtiruvchi faoliyat sifatida talqin etadilar. Lekin o‘yinlarni yagona va eng muhim asosiy xususiyati uning ta’limdagi axamiyatliligidir.

O‘yinlarda bolaning xulqi erkin shakllanadi va ijtimoiylashadi. O‘yinlarning eng muxim jihati uning ikki tamonlama xarakterga egaligi bo‘lib, uning dramatik san’atga ham mosligidir. Bir tamondan o‘yin ishtirokchilari uni amalgam oshirishda muayyan nostandart vazifalar bilan bog‘liq xaqiqiy faoliyatni bajarsalar, ikkinchi tamondan esa o‘yinlar bu faoliyatning aksariyat paytlarida ma’suliyatni his etgan holda haqiqiy vaziyatlardan chetga chiquvchi shartli xususiyat ham kasb etadilar. Demak, o‘yinlarning ikki tomonlama vazifani bajarishi uning rivojlanuvchi natijaga ega bo‘lishiga sabab bo‘ladi. O‘yin faoliyati elimentlaridan ta’lim jarayonida keng foydalaniladi. Ular ishbop oyinlar, dedaktik o‘yinlar, rolli o‘yinlar, kompyuter o‘yinlari shular jumlasidandir.

Ishbop o‘yinlar kasb faoliyati predmeti yoki ijtimoiy mazmunini qaytadan yaratish shakli bo‘lib, amaliyotning ana shu turiga xos munosabatlar tizimini modellashtirishdir. Ishbop o‘yinlarni o‘tkazishda uning qatnashuvchilari faoliyatini maxsus (o‘yin tarzida) imitatsiya modelida rivojlantirishdan iboratdir. O‘yinlarning xarakteriga ko‘ra o‘quv jarayoni o‘yinlari tadqiqotchilik o‘yinlari, boshqaruv va attestatsiyaga doir o‘yinlar turiga bo‘linadi. O‘quv jarayoniga doir o‘yinlar o‘quv predmetlar bo‘yicha istiqbolda kasbiy faoliyatini to‘g‘ri tashkil etish va shaxsni maqsadga muvofiq shakllantirishga shart-sharoitlar yaratadi. Ana shu shart-sharoitlar natijasida olingan yangi bilimlar kelgusi kasbiy faoliyatni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishga yordam beradi. Ma’lumki, ta’lim hamkorlikka asoslanib, jamoaviy xarakter kasb etadi; kasbga xos faoliyat qoidalari va jamoaning ijtimoiy qoidalariga mos holda amalga oshadi. Ana shu ma’noda ta’limning didaktik va tarbiyaviy ahamiyati o‘zaro

birlashib, o‘yin faoliyati shaklida o‘quvchilarning faolligi ortadi. Ishbop o‘yinlarda tavsiya etilgan muammoli topshiriq maqsadga muvofiq dialogik muloqot asosida ishtirokchilarni rag‘batlantiradi, qiziqishlarini orttiradi, emotsional ruh paydo qiladi.

Sinkveyn usuli. Sinkveyn - fransuz tilida «5 qator» ma’nosini bildiradi. Sinkveyn- ma’lumotlarni sintezlash (bir butunga keltirish)ga yordam beradigan qofiyalanmagan she’r bo‘lib, unda o‘rganilayotgan tushuncha(hodisa, voqea, mavzu) to‘g`risidagi axborot yig`ilgan holda, o‘quvchi so‘zi bilan turli variantlarda va turli nuqtai nazar orqali ifodalanadi. Sinkveyn tuzish- murakkab g`oya, sezgi va hissiyotlarni bir nechagina so‘zlar bilan ifodalash uchun muhim bo‘lgan malakadir.

Sinkveyn tuzish jarayoni mavzuni yaxshiroq anglashga yordam beradi.

Sinkveyn tuzish qoidalari:

1-qator: Mavzu bir so‘z bilan ifodalanadi (odatda ot tanlanadi).

2-qator: Mavzu ikkita sifat bilan ifodalanadi (2 ta sifat yoziladi).

3-qator: Mavzu doirasidagi hatti-harakatni uchta so‘z bilan ifodalanadi.(3 ta fe’l yoki ravishdosh yoziladi).

4-qator: Mavzuga nisbatan munosabatni anglatuvchi va to‘rtta so‘zdan iborat bo‘lgan fikr yoziladi.(4 ta so‘zdan iborat jumla yoziladi).

5-qator: Mavzu mohiyatini takrorlaydigan, ma’nosi unga yaqin bo‘lgan bitta so‘z yoziladi (mavzuga sinonim so‘z yoziladi).

Misol: Shaxs

Serg`ayrat va baxtiyor.

Izlanadi, fikr yuritadi, komillikka intiladi.

Naqadar buyuk va murakkab mavjudot. Inson. Klaster usuli. Klasterlarga ajratish- o‘quvchilarga biror-bir mavzu to‘g`risida erkin va ochiq tarzda fikr yuritishga yordam beradigan pedagogik strategiyadir. Bu usul ko‘p variantli fikrlashni o‘rganilayotgan tushuncha (hodisa, voqea)lar o‘rtasida aloqa o‘rnatish malakalarini rivojlantiradi. «Klaster» so‘zi g`ujm, bog`lam ma’nosini anglatadi. Klasterlarga ajratishni da’vat, anglash va mulohaza qilish bosqichlaridagi fikralashni rag`batlantirish uchun qo‘llash mumkin. U asosan yangi fikrlarni uyg`otish, mavjud bilimlarga yetib borish strategiyasi bo‘lib, muayyan mavzu bo‘yicha yangicha fikr yuritishga chorlaydi.

Didaktik o‘yinlar ta’limiy maqsadlarni amalga oshiradigan va ularga moslashtirilgan bo‘ladi. Didaktik o‘yinlar tizimidan birinchi marta maktabgacha jarayonida foydalanishga doir F.Fribil va M.Montisorilar ishlab chiqqan bo‘lsa, boshlang‘ich ta’lim uchun O.Dikroli tadqiqotlar olib borgan. 60-70 yillardan boshlab faqat boshlang‘ich ta’limda emas, umumiy o‘rta ta’limda ham foydalanila boshladi.

80-yillarda ayniqsa, ishbop o‘yinlar keng tarqala boshlandi. Ishbop o‘yinlarning asosiy xususiyati o‘yin rejasining o‘quv maqsadiga yo‘nalganligidadir. Chunki o‘quv maqsadi o‘yin vazifalari doirasida etiladi.

Demak, o‘yinlar bolalarning asosiy faoliyat turi bo‘lib, u orqali kichik maktab yoshdagi o‘quvchilar hayotni, borliqni, tevarak - atrofni o‘rganadilar va unga moslashadilar.

Klasterlar tuzishdan yangi mavzuni mukammal o‘rganmasdan oldin foydalanish maqsadga muvofikdir.

Klaster tuzish ketma-ketligi:

Katta varog` qog`ozning o‘rtasiga yoki sinf doskasiga yoxud yozish uchun foydalanish mumkin bo‘lgan sathga «kalit» so‘z yoki gap yoziladi;

Shu mavzuga tegishli deb hisoblangan va xayolga kelgan so‘z va gaplar yoziladi;

Fikrlar paydo bo‘lganda va ularni yozganda fikrlar o‘rtasida mumkin bo‘lgan bog`lanishlarni belgilash;

Fikrlar tugamaguncha yoki vaqt tamom bo‘lgunicha xayolga kelgan barcha fikrlar yozilaveradi;

Keltirilgan so‘z va fikrlar mazmuni va yaqinligiga qarab toifalarga ajratib chiqiladi.

Insert usuli. Insert usuli tushunishni kuzatish vositasidir. Insert- bu o‘quv jarayonida o‘z anglashini faol kuzatish uchun o‘quvchilarga imkoniyat beradigan kuchli vositadir, chunki shunday holler borki, odam matnni oxirigacha o‘qib, u yerda nima yozilganligini eslab qololmasligi mumkin. Bu esa odam nima o‘qiyotganini tushunmay, o‘qish jarayonida faol bo‘lishga qatnashmaydigan va o‘z anglashini kuzatmaydigan hollarning misolidir. Insert- bu matn bilan ishlaganda faollikni qo‘llab- quvvatlash uchun kuchli vositadir.

O‘quvchi matn bilan ishlayotganda bir qator belgilarni qo‘yib boradi, ular esa quyidagi ma’nolarni bildiradi:

V - bilganlarimni tasdiqlaydi

+ - yangi axborot

- - bilganlarimga zid keladi

? - meni o‘ylantirib qo‘ydi.

Ikki qismlik kundalik usulidan ham matn bilan ishlash jarayonida foydalanish mumkin. Bu usul birinchidan, mavzu matnini chuqur tushunishga yordam bersa, ikkinchidan, o‘quvchilarni ijodiy tafakkurga undaydi, ularning mustaqil fikr yuritishlarini kuchaytiradi. Berilgan matn o‘qib chiqilgach, daftar varag`i quyidagi tarzda ikki qismga bo‘linadi:

Parcha sharh. Chap tomondagi «Parcha» deb yozilgan qismga o‘quvchilar matn yuzasidan biror parcha yoki ularga qattiq ta’sir qilgan narsa yoki ularni haqiqatda hayron qoldirgan timsol haqida yozishlari kerak. Ehtimol, bu ularga shaxsiy tajribalaridan nimanidir eslatgandir, balki ularni qiziqtirgan yoki o‘ylantirib

qo‘ygandir. Balki ular bu fikrga, narsaga qo‘shilmaslar. Balki bu narsa o‘quvchi uchun yangilikdir, balki shu narsa mohiyatini tushunib yetmagandir.

Varaqning «Sharh» deb yozilgan o‘ng tomoniga chap tomondagi tanlangan parcha (yoki parchalar) ga sharh yoziladi. Bunda nima uchun ushbu parchani tanlab olganligi, bu narsa uni nima haqida o‘ylashga majbur etganligi, shu munosabat bilan unda qanday fikrlar tug`ilganligi haqida sharh beriladi.

Kubiklar usuli. Kubiklar- o‘zgartirilayotgan kelajakka asoslanib mavzuni ko‘rib chiqishga yordam beradigan o‘qitish usulidir. Har tomonlamam fikrlashga (yozishga) yordam beradigan har xil yo‘l-yo‘riklar yozilgan kubik ishlatiladi. Tomonlarining hajmi o‘rtacha 15-20 sm bulgan qutichaga qog`oz yopishtirib, kubik yasash mumkin. Kubikning har bir tomoniga quyidagi oltita yo‘l-yo‘riq yoziladi: buni tasvirlang, buni taqqoslang, buni o‘zaro bog`lanishini ko‘rsating, buni tahlil qiling, buni qo‘llang, yaxshi va yomon tomonlarini ko‘rsating (dalillar yordamida).

O‘tiladigan mavzu yoki biror tushuncha shu jadval savollari asosida tahlil qilib chiqiladi.

Shunday qilib ishbilarmonlik o‘yinlari qo‘llash sohalari nihoyatda ko‘p. O‘quv maqsadlarida kompyuterdan foydalangan holda qo‘llaniladigan ishbilarmonlik o‘yinlari o‘quvchilarning hayotida to‘g‘ri mavqega ega bo‘lishlari, o‘zi istagan, orzu qilgan hayotiy vaziyatlarni yaratishga o‘rgatadi va undaydi, eng asosiysi ishlab chiqarish jarayonida o‘zini erkin muloqotga oson kirishuvchi shaxs, bilimdon mutaxassis sifatida namoyon qilishga zamin yaratadi. Ishbilarmonlik o‘yinlarining tuzilishi.

1 - bosqich Tayyorlanish bosqichida boshlang‘ich sinf o‘quvchilari har xil holatli masalalarni yechishning nazariy asoslarini o‘rganadilar. Obyekt sifatida o‘yin modeli, o‘yin holatlari ishtirokchilari majburiyatlari, o‘yin o‘tkazish tartib va qoidalar hamda o‘quvchilari bilimini baholash tizimi bilan tanishiladi. Ko‘rgazmali qurollar, kerakli ko‘rsatmali materiallar dars uchun tayyorlanadi. Ayrim masalalar mustaqil o‘rganiladi.

2 - bosqich. Kirish qismi. Ishbop o‘yinida guruhlar tashkil qilinadi, liderlar tanlanadi, ishtirokchilarga rollar taqsimlanadi. Xodimlar tanlashda qatnashchilar anketa so‘rovi yordamida aniqlanadi. Lavozimlarga tayinlashda buyruq loyihasi ko‘rib chiqilib va yuqoridan tasdiqlanadi. Rol taqsimoti qatnashchilarning shaxsiy jihatlaridan va solohiyatidan kelib chiqqan holda eksperiment usuli yordamida belgilanishi mumkin. Bu bilan qatnashchilarning shaxsiy jihatlari va salohiyatlari belgilangan rollarga mos kelib o‘yin yuqori darajada o‘tadi.

3 - bosqich. O‘yin jadvalini amalga oshirish, bir tomondan barcha guruhlarni bir xil yuklamalar bilan ta’minlab, ikkinchi tomondan vazifalarni taqsimlab qarorlar qabul qilish jarayonini tezlashtiradi va ularning guruhlarida muhokama qilish ishlari olib boriladi.

4 - bosqich. Xulosa chiqarish bosqichi, o‘yin natijalarini tahlili rahbar tomonidan yoki ishtirokchilar tomonidan olib boriladi. Ishtirokchilar tomonidan baholash jarayoni olib borilganda erkin suhbat shaklida o‘tkazilib, o‘qituvchi tahlil yo‘nalishini boshqarib va tuzatishlar kiritib turadi. Ishbilarmonlik o‘yinlarining g‘oliblari e’lon qilinadi. Qabul qilingan boshqaruv qarorlarining asosiy jihatlari va o‘ziga xos xususiyatlari ko‘rsatiladi, bunda katta iqtisodiy samara beradigan, qabul qilingan, muhim qarorlar alohida ta’kidlanadi. O‘yin guruhlari rahbarlarining tavakkal qilishdan ishbilarmonligi guruh umumiy balini belgilashda hisobga olinadi hamda kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha maslahatlar beriladi. Ishbilamonlik o‘yinidan olingan natijalar bo‘yicha o‘quv jarayonini tashkil etish bo‘yicha maslahatlar taklif qilinadi.

Ishbop o‘yinlarining belgilari:

- boshqaruv obyekti va muhitning modeli va mavjudligi.
- rollarning mavjudligi.
- qaror qabul qilishda rollarning faoliyat maqsadlarining farqliligi.
-ishtirokchilarning o‘zaro munosabati.
- umumiy maqsadning mavjudligi.
- jamoa bo‘lib qarorlar ishlab chiqish.
- o‘yin davomida qarorlar tizimini tadbiq qilish.
- qarorlarning ko‘p variantliligi.
- hissiy zo‘riqishni boshqarish.
- o‘yin ishtirokchilarini jamoa tomonidan alohida baholash

Boshlang‘ich sinfda o‘qish darslarini samarali tashkil etishga tayyorlash maqsadida o‘qish darslarida mashg‘ulotlar mustaqil ish va izlanish metodlarida, aqliy hujum usulida tashkil etish mumkin. Bunda o‘quvchilarga maktabda o‘qitiladigan hikoya, ertak, she’r, masal kabi adabiy janrlarga xos badiiy xususiyatlarini o‘qib o‘rganishga yo‘llash, asarni mustaqil tahlil qila olish, uning mazmuni va g‘oyasini o‘zlashtirish, o‘qish malakasi, nutq madaniyatini egallash asosiy ahamiyatga ega bo‘ladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish lozimki, ta’lim – tarbiya jarayonida ijodiyxarakterdagi topshiriqlarni bajarishda o‘quvchilar muammoli vaziyatlarni aniqlash, tahlil qilish va mustaqil ravishda qaror qabul qilish ko‘nikmalarini egallaydi, ko‘rgazmali vositalar tayyorlash, ilmiy tavsifdagi izlanishlarni talab qiladigan masalalarni hal qilish uslublari bilan tanishadi. Bugungi kun ta’lim oluvchidan faol harakat qilishni, mustaqil qaror qabul qilishni, hayotning o‘zgarayotgan sharoitlariga tez moslashishni talab qiladi. Buning uchun, ta’lim oluvchi zarur bilimlarni mustaqil egallash va amaliyotda qo‘llash; muammolarni yechishga qaratilgan qarashlarni taklif qilish, yangi muammolarni aniqlash va yechish; erkin va mustaqil fikrlash; innovatsion g‘oyalar yaratish qobiliyatiga ega

bo‘lish; o‘zining intellektual salohiyati rivojlantirish ustida mustaqil ishlash kabi ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishi lozim. Shu bilan birga dars mashg‘ulotlarida o‘yin-topshiriqlarni takrorlash yoki mustahkamlash darslarida foydalanilsa ijobiy natija beradi. O‘yin-topshiriqning qaysi bir turini tanlash darsning turiga, sinf o‘quvchilarining o‘yin-topshiriqlarni bajarishga o‘rgatilganlik darajasi, ularning bilim saviyasi, mustaqil ijodiy ishlash imkoniyatlari, o‘rganilganlarni xotirada tez tiklay olishi, ijodkorlikning qay darajada shakllanganiga ham bog‘liq bo‘lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Дилова Н.Г. Значение процесса педагогического сотрудничества в формировании личности учащихся начальных классов. Сборники конференций НИЦ Социосфера. (2014).

2. Расулова З.Д. Программные инструменты - важный фактор развития творчества учащихся. Вестник науки и образования. (2020).

3. Dilova N.G. Sharq allomalarining ilmiy merosi – uchinchi renesans uchun katta imkoniyat. Science and Education. (2021).

4. Расулова З. Замонавий ахборот-коммуникация технологиялари ўқув жараёнларини ривожлантиришнинг муҳим омили сифатида. Science and Education. (2021).

5. Dilova N.G. Ajdodlarimiz merosi vositasida bo‘lajak o‘qituvchilarga ta’lim-tarbiya berishning ahamiyati. Science and Education. (2021).

6. Расулова З.Д. Компьютер воситасида технология дарслари самарадорлигини ошириш. Science and Education. (2021).

7. Дилова Н.Г. Бошланғич таълимда ўқувчиларда шахслараро муносабатларга киришиш кўникмаларини шакллантириш имкониятлар. Science and Education. (2021).

8. Расулова З. Бўлажак технология фани ўқитувчисининг билим, кўникмасини ривожлантиришда дастурий таълим воситаларининг ўрни. Science and Education.. (2021).

9. Дилова Н.Г. Шахслараро муносабатларга асосланган таълим жараёнини моделлаштириш. Science and Education. Vol. 2, Issue 10, 534-546 бетлар. (2021).

10. Расулова З.ДИнновацион педагогик технологиялар асосида олий таълим муассасаси ўқув жараёнларини такомиллаштириш мазмуни. Science and Education. (2021).

11. Дилова Н.Г. Педагогик ҳамкорлик жараёнининг мазмуни ва уни ташкил этиш тамойиллари. Science and Education. (2021).

12. Расулова З. Педагогик дастурий воситалардан фойдаланиб бўлажак технология фани ўқитувчиларининг касбий маҳоратини ошириш йўллари. Science and Education. (2021).

13. Dilova N.G. O‘quvchilarning shaxsiy sifatlari – pedagogic hamkorlikning dastlabki tamoyili. Science and Education. (2021).

BOSHLANG‘ICH SINF O`QUVCHILARGA UNLI VA UNDOSH HARFLARNI FARQINI TUSHUNTIRISH

Xakimova Maftunaxon Xoldoraliyevna
Farg'ona viloyati Farg'ona tumani
4-sonli informatika va axborot texnologiyalariga ixtisoslashtirilgan
davlat umumiy o'rta ta'lim maktabi boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7256972

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich sinflarda jumladan boshlang‘ich sinfda tovushlar, unli va undosh tovushlar va ularning farqini tushuntirish bo'yicha fikr-mulohazalar keltirildi.

Kalit so'zlar: fonetik, morfologik, jarangli, jarangsiz,unli, undosh, usual,tovush

Kichik yoshdagi o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqni egallashlarida fonetikadan olgan bilimlarining ahamiyati katta:

a) fonetik bilimga asoslangan holda boshlang‘ich sinf o‘quvchilari savod o‘rganish davrida o‘qishni va yozishni bilib oladilar;

b) fonetik bilim so‘zni to‘g‘ri talaffuz qilish (tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilish, urg‘uli bo‘g‘inni ajratish, orfoepik me’yorga rioya qilish) asosini tashkil etadi;

v) fonetik bilim morfologik va so‘z yasalishiga oid bilimlar bilan birga o‘quvchilarda qator imloviy malakalar (jarangsiz va jarangli undoshlarning yozilishi) shakllantirish uchun zamin bo‘ladi;

g) fonetik bilim gapni ohangiga ko‘ra to‘g‘ri aytish, logik urg‘u va gap qurilishidagi to‘xtamlarga rioya qilish uchun zarur;

d) so‘zning tovush tomonini bilish uning ma’nosini tushunish va nutqda ongli qo‘llash uchun muhimdir; hózir va hozúr, átlas va atlás so‘zlari maьnosidagi farq faqat urg‘u orqali ajratiladi. So‘zning tovush tomonini tasavvur qilish so‘zlarni talaffuzda farqlash, ayrim so□zlarni to□g‘ri talaffuz qilish va qo‘llash uchun zarur.

Maktab dasturiga muvofiq, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari fonetik-grafik ko‘nikmalar tizimini hosil qiladilar: tovushlar va harflar, unli va undosh tovushlar, jufti bor jarangli va jarangsiz undoshlar, jufti yo‘q jarangli va jufti yo‘q jarangsiz undoshlar; so‘zni bo‘g‘inlarga bo‘lish, urg‘uli bo‘g‘inni ajratish ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar. Bolalar maktabga kelgunga qadar ham nutqning tovush qurilishini amaliy o‘zlashtiradilar, ammo ular maxsus o‘qigunlariga qadar so‘zni bo‘g‘inlarga bo‘lishni, so‘zdagi tovushlarni izchil talaffuz qilishni bilmaydilar. boshlang‘ich sinfo‘quvchilarida so‘zni to‘g‘ri talaffuz qilish, bo‘g‘inlarga bo‘lish, undagi har bir tovushni tartibi bilan aniq aytish ko‘nikmasini shakllantirish ustida maqsadga muvofiq ishlash, o‘z navbatida, analiz, sintez, taqqoslash, guruhlash kabi aqliy

o‘yinlarni bilib olishga, shuningdek, tovushlarning tabiati, so‘z tarkibida bir-biriga ta’siri kabi ayrim elementar bilimlarni o‘zlashtirishga imkon beradi.

1- sinfda fonetika va grafikani o‘rganishga katta o‘rin beriladi, chunki o‘quvchilar o‘qish va yozish jarayonini shu sinfda egallaydilar. Bu bilimlar keyingi sinflarda mustahkamlanadi, takomillashtiriladi.

Tovush murakkab tushuncha bo‘lgani uchun boshlang‘ich sinflarda unga ta’rif berilmaydi. Shunga qaramay, bolalarda tovush haqida to‘g‘ri ilmiy tasavvur amaliy o‘yinlar yordamida hosil qilinadi. Bunda yetakchi usul so‘zdagi tovushlarniig talaffuzi hamda so‘zning leksik ma’nosi so‘zdagi tovushlarning tarkibiga bog‘liqligi ustida kuzatish hisoblanadi. Masalan, aka, uka, opa, ona, ota, kul, gul, qora, qara kabi bir unli yoki bir undosh bilan farqlanadigan so‘zlar har xil lug‘aviy ma’noni ifodalaydi.

So‘zning tovush tarkibi ustida ishlash savod o‘rgatish davridanoq boshlanadi. Bolalar bu davrda talaffuz qilingan yoki eshitilgan so‘z tovushlardan tuzilishini bilib oladilar. Ular so‘zni tovush tomonidan tahlil qilishga o‘rganadilar, ya’ni so‘zni bo‘g‘inlarga bo‘ladilar, so‘zdagi tovushlarni tartibi bilan aytadilar. Bunda tovush tomondan tahlilni harf tomondan tahlil bilan aralashtirmaslikka alohida ahamiyat beriladi.

So‘zning tovush tarkibini to‘g‘ri tasavvur etish undagi harflarni tushirib qoldirmay yoki o‘rnini almashtirmay yozish malakasini shakllantirish uchun ham, so‘zni to‘g‘ri talaffuz qilish uchun ham katta ahamiyatga ega. SHuning uchun savod o‘rgatishdan so‘ng ham so‘zni tovush tomondan tahlil qilish o‘yinlari yordamida so‘zdagi tovushlar tarkibini aniqlash ko‘nikmasini takomillashtirish ustida ishlab borish zarur.

Ma’lumki, nutq tovushlari ikki katta guruhga bo‘linadi: unli tovushlar va undosh tovushlar. Buni o‘quvchilarga tushuntirishda ularning quyidagi belgilari hisobga olinadi:

1) talaffuz qilinish usuli (unli tovush talaffuz qilinganda havo oqimi og‘iz bo‘shlig‘idan erkin ravishda o‘tadi, undosh tovush talaffuz qilinganda, havo og‘iz bo‘shlig‘ida to‘siqqa uchraydi);

2) ovoz va shovqinning ishtiroki (unli tovushlar faqat ovozdan iborat, undosh tovushlar talaffuz qilinganda shovqin eshitiladi, ba’zan shovqin va qisman ovoz eshitiladi);

3) bo‘g‘in hosil qilish xususiyati (unli tovushlar bo‘g‘in hosil qiladi, undosh tovushlar bo‘g‘in hosil qilmaydi).

O‘quvchilar bu belgilarni yodlab olishlariga yo‘l qo‘ymaslik, aksincha, 1-sinfdanoq bolalarda tovushni talaffuz qilganda, ovoz yoki shovqin eshitilganda nutq a’zolarining vaziyatini kuzatish ko‘nikmasini o‘stirib borish lozim. Bunday kuzatishlar IV sinfda davom ettiriladi va umumlashtiriladi. Tovushlarni

o‘zlashtirishga bunday yondashish, unli va undosh tovushlarni puxta o‘zlashtirishga imkon berishi bilan birga, o‘quvchilarning aqliy qobiliyatini o‘stirish vazifasini ham bajaradi; xususan, bolalar kuzatilgan hodisaning bir necha belgilarini taqqoslashga, umumlashtirishga o‘rganadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Boshlang‘ich sinflarning takomillashtirilgan davlat ta'lim standarti. “Boshlang‘ich ta'lim” jurnali. 2006-yil, № 5.

2.Boshlang‘ich ta'limning takomillashtirilgan o‘quv dasturi. “Boshlang‘ich ta'lim” jurnali. 2006

YARIM O‘TKAZGICHLARDA TERMOELEKTRIK XODISALAR

Naziraliyeva Umidaxon
Marifov Salohiddin
Farg‘ona Davlat Universiteti
fizika fani magistratura 1-kurs talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7257010

Annotatsiya: ushbu maqolada yarimo'tkazgichlar turi va ularning vazifasi hamda yarimo'tkazgichlarda termoelektrik hodisalar haqida batafsil bayon qilinadi.
Kalit so'zlar: yarimio'tkazgichlar, termoelektrik, elektr toki, o'tkazgichlar, rezina, delielektrik va h.k.
Абстракт: В данной статье подробно описаны виды полупроводников и их функции, а также термоэлектрические явления в полупроводниках.
Ключевые слова: полупроводники, термоэлектрики, электрический ток, проводники, резина, делиэлектрик и др.
Annotation: This article describes in detail the types of semiconductors and their functions, as well as thermoelectric phenomena in semiconductors.
Keywords: semiconductors, thermoelectric, electric current, conductors, rubber, delielectric, etc.

Moddalarning elektr o‘tkazuvchanlik xususiyatlarini tekshirib, ularni uch xilga ajratish mumkin: Elektr tokini yaxshi o‘tkazuvchi moddalar – bular o‘tkazgichlar deb ataladi. O‘tkazgichlarga asosan metallar kiradi.

Elektr tokini o‘tkazmaydigan moddalar - bular dielektriklar deb ataladi. Rezina, plastmassa, toza suv kabilar dielektriklardir. O‘tkazuvchanligi o‘tkazgichlar bilan dielektriklar orasida bo‘lgan moddalar ham bor. Bu moddalarni o‘tkazgich deb bo‘lmaydi, chunki ular elektr tokini yaxshi o‘tkazmaydi. Shuning uchun bunday moddalar yarimo‘tkazgichlar deb ataladi. Mendeleyev davriy jadvalining IV gruppasiga kiruvchi germaniy - Ge, kremniy Si, selen Se shuningdek, III va V gruppasidagi elementlarning kimyoviy birikmasidan hosil bo‘lgan murakkab moddalar: arsenid-galliy - GaAs, fosfor-galliy - GaPa va shunga o‘xshash moddalar yarimo‘tkazgichlardir. Yarimo‘tkazgichlarning solishtirma elektr qarshiligi 10^{-6}±10^{10} Om·m atrofida bo‘ladi. Odatda yarimo‘tkazgichlarning xususiy elektr o‘tkazuvchanligi uncha katta bo‘lmaydi, chunki ularda erkin elektronlar soni juda oz, masalan uy haroratsida germaniyda erkin elektronlar kontsentratsiyasi « $3\cdot10^{13}$ sm^{-3} atrofida bo‘ladi. Tajribalarning ko‘rsatishicha yarimo‘tkazgichning haroratsi 1^oC ko‘tarilganda uning elektr qarshiligi 3-5% ga kamayadi va ularning xususiy elektr o‘tkazuvchanligi ortadi. Metallarda bu holning teskarisi bo‘lib, harorati 1^oC

ko‘tarilganda qarshiligi 0,3 % ga ortadi. Issiqlik ta’sirida elektr qarshiligini o‘zgartiradigan elementlarga termistorlar deyiladi.

Elektronning metalldan vakuumga ajralib chiqib ketishi uchun sarflanadigan energiyasini elektronning chiqish ishi deyiladi. U bilan bog'liq ikkita sabab mavjud.

1. Agar elektron qandaydir sabab bilan metalldan chiqib ketsa, o'sha joyda ortiqcha musbat zaryad hosil bo'ladi va elektron unga tortiladi.

2. Ayrim elektronlar metallni tark qilib chiqgach uning sirtida to‘planib, manfiy zaryadli «elektron buluti»ni yaratadi. Bu bulut sirtqi qatlamdagi kristall panjaraning musbat ionlari bilan birgalikda, maydonni yassi kondensator maydoniga mos keluvchi, ikkilanma elektrik qatlam hosil qiladi.

Shuning uchun elektron, metalldan ajralib chiqish jarayonida uni ushlab qoluvchi, o‘sha qatlamlar orasidagi elektrostatik maydon kuchlariga qarshi ish bajarishga majbur bo‘ladi:

$A = e\Delta\varphi$


bundagi $\Delta\varphi$ -potensiallar farqini sakrab o‘zgaruvchi sirt potensiali deyiladi. Qatlamlar tashqarisida elektr maydoni mavjud emasligi uchun, muhitning potensiali nolga teng bo‘ladi. Metall ichidagi elektronning potensial energiyasi vakuumga nisbatan manfiy bo‘lib, uning miqdori $-e\Delta\varphi$ ga teng. CHiqish ishi elektron volt (eV)larda ifodalanadi:

$1eV=1{,}6\cdot10^{-19}KIV=1{,}6\cdot10^{-19}J$

Chiqish ishi metallarning kimyoviy tabiatiga va ular sirtining tozaligiga bog‘liq bo‘lib, u turli metallar uchun bir necha elektron-volt qiymati chegarasida o‘zgaradi (masalan, qalay uchun 2,2eV). Agar metall sirtini ishqoriy yer metallari (Sa, Sr, Ba) bilan qoplansa, unda chiqish ishi 2eV gacha kamayadi.

Qizdirilgan metalldan elektronlarning ajralib chiqish hodisasini termoelektron emissiya hodisasi deb aytiladi. Oddiy, ikki elektrodli lampa, vakuumli diod yordamida termoelektron emissiya qonunlarini o‘rganish mumkin. Havosi so‘rib olingan bu lampa ichida K katod va A anod deb ataluvchi ikkita elektrod joylashgan (1.1 -rasm).


Agar diodni zanjirga ulab, katod qizdirilsa va anodga musbat kuchlanish berilsa, elektr toki hosil bo‘ladi.



Rasm. p-n o‘tish sxemasi.

Bu bog‘lanish vakuumli diodning volt-amper xarakteristikasi deyiladi. Bu holda, anod toki va kuchlanishi orasidagi bog‘lanish diagrammasi egri chiziqdan iborat bo‘ladi, ya’ni mazkur bog‘lanish Om qonuniga bo‘ysunmaydi.

U ning kichik musbat qiymatlari sohasida termoelektron tok va anod kuchlanishi orasidagi bog‘lanishni Boguslavskiy - Lengmyur qonuni yoki ba’zi hollarda «uch taqsim ikki» qonuni deb ham yuritiladi.



1.2.-rasm. Yarimo‘tkazgichli diodning tuzilishi.

$$I = BU^{3/2}$$

Bunda B - elektrodlarning shakli, o‘lchamlari va o‘zaro joylashuvigagina bog‘liq bo‘luvchi koeffitsient.

Agar anod kuchlanishi oshirilib borilsa, dastlab zanjirdagi tok kuchi ham o‘sib boradi. So‘ngra esa, uning miqdori to‘yinish toki deb ataluvchi maksimal qiymatga etgach, o‘sishdan to‘xtaydi. Bu jarayon, haroratsi o‘zgarmas bo‘lgan katoddan ajralib chiquvchi barcha elektronlarning to‘liq holda anodga etib borishi ro‘y bergunga qadar davom etadi. Bu esa to‘yinish tokining zichligi katod materialining emissiya qobiliyatini xarakterlaydi degan xulosaga olib keladi.

To‘yinish tokining zichligi Richardson-Deshman formulasi bilan aniqlanadi:

$$j_m = CT^2 e^{-A/(kT)}$$

Bunda, A - elektronning katoddan chiqish ishi, T- termodinamik harorat, C - barcha metallar uchun bir xil bo‘lgan doimiy. Bu formuladan ko‘rinib turibdiki, katod haroratsi qanchalik yuqori bo‘lsa va katoddan elektronlarning chiqish ishi qanchalik kichik bo‘lsa, to‘yinish tokning zichligi shunchalik katta bo‘ladi. Xaqiqatdan xam, sof volframdan yasalgan katod haroratsini 1000 K dan 3000 K gacha ko‘tarilishi natijasida to‘yinish tokning zichligi deyarli 10^{16} marta ortadi.

Diodning asosiy xususiyati elektr tokini faqat bir yo‘nalishda o‘tkazishidir. Diodda anod katodga nisbatan musbat potensialga ega bo‘lgandagina katoddan anod tomon elektronlar oqimi o‘tadi. Dioddan o‘zgaruvchan toklarni to‘g‘rilash maqsadida foydalanish mumkin.

Tok yarim davrlarda anodning potensiali musbat, katodniki esa manfiy bo‘ladi. Shuning uchun lampa orqali tok o‘tadi. Juft yarim davrlarda esa anodning potensiali manfiy, katodniki musbat bo‘lganligi uchun lampa berk bo‘ladi, ya’ni elektr tokini o‘tkazmaydi. Demak, diod orqali faqat bir yo‘nalishdagina elektr toki o‘tadi. Uchta elektrodi bo‘lgan lampani triod deb ataladi. Uchinchi elektrod katod bilan anod orasida (katodga yaqin masofada) joylashtirilgan to‘rdan iborat bo‘ladi.

Bu lampada katod bevosita qizdiriladi. Katod atrofidagi spiral to‘r vazifasini o‘taydi. Katod va to‘rni o‘rab turgan metall silindr esa anod bo‘lib xizmat qiladi. To‘rga musbat kuchlanish berilganda to‘r va katod orasida vujudga kelgan elektr maydon termoelektronlarga tezlashuvchi ta’sir ko‘rsatadi. To‘r anodga qaraganda katodga ancha yaqin bo‘lganligi uchun to‘rdagi kuchlanishning ozgina o‘zgarishi anod tokining ancha o‘zgarishiga sababchi bo‘Iadi. Demak, tokga beriladigan kuchlanishini o‘zgartirish yo‘li bilan triodning anod zanjiridagi tokni boshqarish mumkin. Umuman elektronlar oqimi hosil qilish lozim bo‘lgan qurilmalarda keng qo‘llaniladi.

Kontakt potensallar farqi 1797- yilda A.Volta ikki metall o‘zaro kontaktlashsa, ulardan biri musbat ikkinchisi esa manfiy zaryadlanishini aniqladi. Natijada metallar orasida kontakt potensiallar farqi deb yuritiluvchi potensiallar farqi vujudga keladi. Agar Al, Zn, Sn, Pb, Sb, Bi, Hg, Fe, Си, Ag, Au, Pt, Pd kabi metallar, ko‘rsatilgan ketma- ketlikda kontaktlashtirilsa, unda bar bir metall o‘zidan keyingi istalgan metall bilan musbat zaryad namoyon etib kontaktlashadi. Bu qatorni Volta qatori deb yuritiladi. Volta tajribaga tayanib quyidagi ikki qonunni aniqladi:

Kontakt potensiallari farqi o’zaro tegishuvchi metallami faqat kimyoviy tarkibiga va haroratsiga bog‘liq bo‘ladi.

O’zaro ketma-ket ulangan bir xil haroratli turli o’tkazgichlardan tasbkil topuvchi tizimning kontakt potensiallari ayirmasi oraliq o’tkazgichlarning kimyoviy tarkibiga bog‘liq emas, balki faqatgina ikki chetdagi metallarning bevosita ulanishidan hosil bo‘luvchi kontakt potensiallar ayirmasigagina teng bo‘ladi. Turli metallarda chiqish ishining turlicha bo‘lishi buning birinchi bosh sababi hisoblanadi. Elektronlarning, chiqish ishi kichik bo‘lgan metalldan chiqish ishi katta bo‘lgan metallga o‘tishi oson bo‘lgani uchun birinchi metall musbat, ikkinchisi esa manfiy zaryadlanib qoladi. Ularning chegarasida-ichida kuchli elektr maydoni bo‘lgan, turli ishorali zaryadlarning qo‘sh qatlami hosil bo‘ladi.

Bu maydon elaktronlarning bundan buyon, birinchi metalldan ikkinchisiga o‘tishiga to‘sqinlik qilib, teskari jarayonga esa yordamlasha boshlaydi. Natijada bu ikki jarayon orasida dinamik muvozanat yuzaga keladi, qo‘sh qatlam orasidagi kuchlanganlik (potensiallar farqi) o‘zining maksimal qiymatiga erishadi.

Agar 1-metalldan chiqish ishi A_1, 2-metalldan chiqish ishi A_1 ($A_2>A_1$) bo‘lsa, toki potensiallar farqi: $\Delta\varphi_{1,2}=\frac{A_2-A_1}{e}=\frac{A_1-A_2}{e}$ ga tenglashmaguncha 1-metalldan 2-siga o‘taveradi.

Endi elektronlar chiqish ishlari bir xil ($A_1=A_2$) bo‘lgan, ammo erkin elektronlar kontsentratsiyasi har xil bo‘lgan ($n_2< n_1$) metallar kontaktini ko‘rib chiqaylik. Ravshanki, $n_2<n_1$ bo‘lsa, erkin elektronlarning birinchi metalldan ikkinchi metallga ortiqcha o‘tishi (diffuziyasi) boshlanadi. Natijada birinchisi musbat, ikkinchisi manfiy zaryadlanib, ular orasida yana potensiallar farqi hosil bo‘ladi. Uning qiymati erkin elektronlar konsentratsiyasiga bo‘g‘liq bo‘ladi:

$$\Delta\varphi_{12}=\frac{kT}{e}\ln\frac{n_1}{n_2}$$

Ko‘rib o‘tilgan ikki sababning natijaviy ta’siri ostida birinchi va ikkinchi metallar orasidagi kontakt potensiallar farqi quyidagicha ifodalanadi:

$$\Delta\varphi_{12}=\Delta\varphi'_{1,2}+\Delta\varphi''_{1,2}\ \text{ yoki }\ \Delta\varphi_{12}=\frac{A_1-A_2}{e}+\frac{kT}{e}\ln\frac{n_1}{n_2}$$

Olinagan ifodani kontaktlangan uch xil metall uchun umumlashtirib ko‘raylik. Kirxgofning II qoidasiga binoan, tizimning to‘liq kontakt potensiallar ayirmasi kontaktlangan qismlardagi kontak potcntsiallar ayirmalarining yig‘indisiga teng:

$$\varphi_1-\varphi_2=-\frac{A_1-A_2}{e}+\frac{kT}{e}\ln\frac{n_1}{n_2}-\frac{A_2-A_3}{e}+\frac{kT}{e}\ln\frac{n_2}{n_3}$$


$$\varphi_1 - \varphi_2 = -\frac{A_1 - A_3}{e} + \frac{kT}{e}\ln\frac{n_1}{n_3}$$

Demak, uch va undan ortiq xildagi metallar kontaktga keltirilsa, tizimning to‘liq kontakt potensiallar ayirmasi, oraliqdagi metallarning tabiatiga bog‘liq emas ekan. Bu farq ikki chekkadagi metallarning tabiati bilan belgilanar ekan.

Voltaning ikkinchi qonuniga binoan, bir xil haroratli, bir nechta metalldan tashkil topuvchi berk zanjirda EYuK vujudga kelmaydi, ya’ni elektr toki hosil bo‘lmaydi. Lekin, kontaktlar haroratli turlicha bo‘lsa, zanjirda termoelektrik tok deb ataluvchi, tok paydo bo‘ladi. Metallarda, yarimo‘tkazgichlarda issiqlik ta’siri ostida elektr hodisasi, elektr ta’sirida issiqlik hodisalari ro‘y berishi mumkin. Buni termoelektrik hodisalar deb ataladi. Uning hosil bo‘lish tabiati bilan bog‘liq bo‘lgan quyidagi effekt bilan tanishamiz.

Yarim o‘tkazgichli asboblarning ko‘pchiligi bir jinsli bo‘lmagan yarim o‘tkazgichlardan tayyorlanadi. Xususiy xolatda bir jinsli bo‘lmagan yarim o‘tkazgich bir sohasi p–turdagi, ikkinchisi esa n-turdagi monokristaldan tashkil topadi.Bunday bir jinsli bo‘lmagan yarim o‘tkazgichning p va n – sohalarining ajralish chegarasida hajmiy zaryad qatlami hosil bo‘ladi, bu sohalar chegarasida ichki elektr maydoni yuzaga keladi va bu qatlam elektron – kovak o‘tish yoki p-n o‘tish deb ataladi. Ko‘p sonli yarim o‘tkazgichli asboblar va integral mikrosxemalarning ishlash printsipi p-n o‘tish xossalariga asoslangan. P-n o‘tish hosil bo‘lish mexanizmini ko‘rib chiqamiz. Soddalik uchun, n– sohadagi elektronlar va p– sohadagi kovaklar sonini teng olamiz. Bundan tashqari, har bir sohada uncha katta bo‘lmagan asosiy bo‘lmagan zaryad tashuvchilar miqdori mavjud. Xona haroratsida p–turdagi yarim o‘tkazgichda akseptor manfiy ionlarining kontsentratsiyasi N_a kovaklar kontsentratsiyasi p_r ga, n–turdagi yarim o‘tkazgichda donor musbat ionlarining kontsentratsiyasi N_d elektronlar kontsentratsiyasi n_n ga teng bo‘ladi. Demak, p- va n–sohalar o‘rtasida elektronlar va kovaklar kontsentratsiyasida sezilarli farq mavjudligi tufayli, bu sohalar birlashtirilganda elektronlarning p – sohaga, kovaklarning esa n-sohaga diffuziyasi boshlanadi. Diffuziya natijasida n– soha chegarasida elektronlar kontsentratsiyasi musbat donor ionlari konsentratsiyasidan kam bo‘ladi va bu soha musbat zaryadlana boshlaydi. Bir vaqtning o‘zida p-soha chegarasidagi kovaklar kontsentratsiyasi kamayib boradi va u akseptor kiritmasi bilan kompensatsiyalangan ion zaryadlari hisobiga manfiy zaryadlana boshlaydi. Musbat va manfiy ishorali aylanalar mos ravishda donor va akseptor ionlarini tasvirlaydi. Hosil bo‘lgan ikki hajmiy zaryad qatlami p-n o‘tish deb ataladi. Bu qatlamharakatchan zaryad tashuvchilar bilan kambag‘allashtirilgan. Shuning uchun uning solishtirma qarshiligi p- va n–soha qarshiliklariga nisbatan juda katta. Ba’zi adabiyotlarda bu qatlam kambag‘allashgan yoki i – soha deb ataladi.

Asosiy zaryad tashuvchilar uchun bu maydon tormozlovchi bo‘lib ta’sir ko‘rsatadi va ularni p-n o‘tish bo‘ylab erkin harakat qilishlariga qarshilik ko‘rsatadi.



1.3 – rasm.

Termoelektr hodisalar - ket maket ulangan turli qattiq o‘tkazgichlardan iborat elektr toki zanjirida elektr va issiqlik jarayonlari orasidagi o‘zaro bog‘lanishga asoslangan fizik hodisalar. Zeyebek, Pelt’ye va Tomson effektlari termoelektr hodisalar bo‘lib, ular asosida bu hodisalarning miqdoriy kattaliklari aniqlanadi. Har xil tarkibli va ulanish nuqtalarida harorat turlicha bo‘lgan ikki o‘tkazgichda elektr yurituvchi kuch (e.yu.k.) — termo e.yu.k. hosil bo‘lishini nemis fizigi T.I. Zeebek 1821 yilda kashf etgan.

1953 yilda termo e.yu.k.ning yana bir manbai — elektronlarning fononlarga ergashish effekti ochildi.


Agar qattiq jismda haroratlar o‘zgarishi yuz bersa, u holda issiq tomondan sovuq tomonga harakat qilayotgan fononlar soni teskari tomonga harakatlanayotganlarga nisbatan ko‘proq bo‘ladi. Natijada fononlar elektronlar bilan to‘qnashib, ularni ham o‘ziga ergashtiradi va sovuq tomonda manfiy (issiq tomonda musbat) zaryad to‘plana boshlaydi. Bu jarayon hosil bo‘layotgan potensiallar ayirmasi fononlar harakatini muvozanat holatga keltirguncha davom etadi. Metallarda elektronlar konsentratsiyasi katta va u haroratga bog‘liq emas. Elektronlar energiyasi ham haroratga bog‘liq emas, shuning uchun metallarda termo e.yu.k. kichik. Yarimo‘tkazgichlarda va ularning qotishmalarida termo e.yu.k. katta qiymatga erishadi. Chunki ularda tok tashuvchilar konsentratsiyasi kichik va u haroratga bog‘liq bo‘ladi. Tok tashuvchilar oqimida issiqlik muvozanatining buzilishi barcha termoelektr hodisalarga sabab bo‘ladi. Barcha termoelektrik koeffitsiyentlarning mutloq qiymati tok tashuvchilar konsentratsiyasi kamayishi bilan kattalashadi; shuning uchun ular yarimo‘tkazgichlarda metallar va ularning qotishmalaridagiga nisbatan o‘n va, hatto, yuz marta katta bo‘ladi. Termoelektr hodisalar haroratlarni o‘lchashda va issiqlik energiyasini elektr energiyasiga aylantirishda qo‘llaniladi.

Yarimo‘tkazgichlar – o‘tkazgichlar va dielektriklar o‘rtasidagi moddalardir. Ularga juda ko‘p kimyoviy moddalar (germaniy, kremniy, selen, tellur, va boshq.) va juda ko‘p turdagi kimyoviy birikmalar kiradi. Bizning tevarak - atrofimizni o‘rab turgan deyarli barcha neorganik moddalar yarimo‘tkazgichlardir. Tabiatda eng ko‘p tarkalgan yarimo‘tkazgich kremniy bo‘lib, u yer qobig‘ining 30% ni tashkil qiladi. Yarimo‘tkazgichlarning asosiy belgilaridan biri shundan iboratki, ularning fizik

xossalari tashqi ta’sirga – haroratning o‘zgarishi yoki kirishmalar kirishiga kuchli bog‘langan. Yarimo‘tkazgichlar haroratsini maqsadli o‘zgartirib yoki uni legirlab (kirishma kiritib), uning fizik xossalarini, jumladan, elektrik o‘tkazuvchanligini boshqarish mumkin.Bundan 180 yil ilgari odamlarga turli o‘tkazgichlar elektr tokini turlicha o‘tkazishi ma’lum edi.

1821- yilda ingliz kimyogari Hemfri Devi harorat ortishi bilan metallning elektr o‘tkazuvchanligi kamayishini aniqlagan. Uning shogirdi Maykl Faradey 1833 –yilda tajribalarni davom ettirib, oltingurgut va kumush birikmasi elektrik o‘tkazuvchanligi harorat ortishi bilan pasayishini emas, aksincha ko‘tarilishini kuzatgan. So‘ngra, u o‘tkazuvchanligi haroratga g‘ayrioddiy bog‘langan yana bir necha moddalarni kashf qildi. Lekin, o‘sha paytlarda bu dunyo ilm ahlini qiziqtirmadi. 1873- yili selenning (Se) qarshiligi yorug‘lik nuri ta’sirida o‘zgarishi aniqlangandan so‘ng, bu ishlarga qiziqish ortdi. Selen fotoqarshiliklar tezda turli optik asboblarda qo‘llanila boshladi. Oddiy selen ustunidan qilingan fotoqarshilik birinchi yarimo‘tkazgichli asbob bo‘ldi. Uning elektrik o‘tkazuvchanligi yoritilganda qorong‘ulikdagisiga nisbatan kattalashar edi.Avval, 1948-yili nuqtaviy, keyin 1951-yili yassi tranzistorlar kashf qilinishi, yarimo‘tkazgichli elekronikaning jadal rivojlanishiga olib keldi. Tranzistorlar ishlash qonuniyatini tushuntirish uchun yarimo‘tkazgichlarda kechadigan qator fizik jarayonlarni ko‘rib chiqish zarur bo‘ladi. Dast avval ulardagi elektrik o‘tkazuvchanlik mexanizmiga to‘xtalib o‘tamiz.

Elektrik o‘tkazuvchanlik.Ma’lumki, barcha moddalar turli kimyoviy bog‘lar hosil qilgan atomlardan tuzilgan bo‘lib, bu bog‘lar ularning ko‘plab fizik va kimyoviy xossalarini, jumladan, elektrik o‘tkazuvchanligini belgilaydi. Masalan, tuz va yog‘ dielektriklar guruhiga mansub bo‘lib, elektr tokini o‘tkazmaydi, metaldan qilingan sim esa juda yaxshi o‘tkazgichdir. Metalning yuqori elektrik o‘tkazuvchanligi sababi nimada? Metallarning elektrik o‘tkazuvchanligi. Kristal panjarada metal atomlari juda zich joylashgan – har bir metal atomi o‘n ikkitagacha qo‘shni atom bilan bevosita bog‘langan bo‘lishi mumkin. Shuning uchun metal atomining tashqi elektron qobig‘idagi valent elektronlar “erkin” bo‘lib, metal ichida tartibsiz issiqlik harakatidagi “elektronlar gazi” ni hosil qiladi. Kristal panjara tugunlaridagi metal ionlari esa, shu elektron gaz ichiga botirilgandak joylashgan. Metallarning kristal panjara tugunlarida joylashgan ionlari ham, erkin elektronlari ham betartib issiqlik xarakatida ishtirok etadi. Ionlar kristal panjara tugunlarida tebranma harakat qiladi, erkin elektronlar esa kristal bo‘ylab betartib ilgarilanma harakatda bo‘ladi (1.4 -rasm)




1.4 – rasm metalning kristal panjarasidagi erkin elektronlar harakati.

Erkin elektronlar o‘zlarining betartib issiqlik harakati davomida kristall panjara tugunlaridagi metal ionlari bilan to‘qnashib turadi. Metal sirtiga yaqin biror elektron shu to‘qnashishlar natijasida metaldan chiqib ketishi ham mumkin. Buning uchun uning energiyasi potensial to‘siq deb nomlanuvchi energiyadan yuqori bo‘lishi zarur. Metalning potensial to‘siq balandligi (energiya birligida) uning chiqish ishi deb ataladi. Xona haroratsida ko‘p erkin elektronlarning issiqlik xarakat energiyasi potensial to‘siqni yengib chiqish uchun yetarli bo‘lmaydi. Metal o‘tkazgich chetlariga potensiallar farqini (kuchlanishni) qo‘ysak, erkin elektronlarning betartib issiqlik harakatidan tashqari, tartiblangan (bir tomonga yo‘nalgan) harakati paydo bo‘ladi, ya’ni elektr toki hosil bo‘ladi. Aynan erkin elektronlarning metallardagi yuqori zichligi ularing yuqori elektrik o‘tkazuvchanligini belgilaydi.

Yarimo‘tkazgichlarning elektr o‘tkazuvchanligi. Endi yarimo‘tkazgich kristali panjarasini ko‘rib chiqamiz. Yarimo‘tkazgich atomlari kovalent bog‘langan bo‘ladi. Misol sifatida to‘rt valent elektronli germaniy (Ge) kristalini ko‘rib chiqamiz. Kovalent bog‘larning mustahkamligi tufayli germaniy kristalidagi elektronlar metalldagilarga nisbatan ancha mustahkam joylashib olgan. Shuning uchun oddiy sharoitlarda erkin ya’ni yaxshi joylasha olmagan bog‘lanmagan, erkin elektronlar kam bo‘lganligi uchun ularning o‘tkazuvchanligi metalarnikidan ko‘p marta kichikdir. Bunday kristal bo‘lagi chetlariga elektrik kuchlanish bersak nima bo‘ladi? Biz kristallga 0^0 K da katta kuchlanish qo‘yib unda kuchli elektrik maydon hosil qilganimizda ham, u maydon atomlarning elektron orbitalarini ozgina deformatsiyalaydi xolos, atomlar orasidagi elektronlarni uzib tashlay olmaydi. Natijada erkin elektronlar hosil bo‘lmaydi, tok ham ortmaydi. Shunday qilib toza germaniy 0^0 K da (past haroratlarda) bu dielektrikdir.

Germaniy kristalida erkin elektronlar hosil bo‘lishi uchun qandaydir yo‘l bilan atomlar orasidagi kovalent bog‘larni uzish kerak. Bunga turli yo‘llar bilan erishish mumkin. Ulardan biri bu kristallni qizdirishdir. Unda bir qism valent elektronlar qo‘shimcha issiqlik energiya ta’sirida kovalent bog‘lanishdan uzilib chiqib ketadi. Faraz qilaylik, qizdirish natijasida atomlar orasidagi bir bog‘lanish uzildi, urib chiqarilgan elektron esa erkin elektronga aylanadi. Bunda uzilgan bog‘ (kovak) bilan nima sodir bo‘ladi?



1.5 – rasm. Germaniy kristalidagi juft elektron bog‘lari


Natijada “kovak” qo‘shni atomga siljiydi. U atom o‘z navbatida boshqa atomdan elektronni tortib oladi va x.k. Natijada bitta elektroni yetishmaydigan chala bog‘ kristal bo‘ylab tartibsiz erkin ko‘chib yurishi mumkin. Uzilgan bog‘larning (kovaklarning) ko‘chib yurishi qo‘shni bog‘lardagi elektronlarni tortib olish hisobiga sodir bo‘ladi, shuning uchun har safar bir atom o‘zining uzilgnan bog‘i uchun elektron tortib olganda, u bilan birga bog‘ning kompensatsiyalanmagan musbat zaryadi ham ko‘chib yuradi. Bu holatni xuddi yarimo‘tkazgichda yangi musbat zaryadli zarracha paydo bo‘lganidek qabul qilish mumkin. Ushbu zarraning zaryadi elektron zaryadiga teng bo‘lib, ishorasi esa musbatdir. Bunday kvazi zarralar (“kvazi” – deyarli degan ma’noni bildiradi) “kovak”lar deb nomlanadi.

Bog‘dan uzilib chiqqan erkin elektron va uning o‘rnida hosil bo‘lgan kovak cheksiz uzoq vaqt turaolmaydi. Ma’lum bir vaqtdan so‘ng (10^{-12} dan 10^{-2} sek gacha) ular bir biri bilan yana uchrashib qoladilar va ikkalasi ham yo‘q bo‘lib ketadi, buni rekombinatsiya deb ataladi. Rekombinatsiya paytida energiya ajralib chiqadi, uning qiymati elektron-kovak juftligini hosil qilish uchun sarf bo‘lgan energiyaga tengdir. Ba’zan bu energiya nurlanish ko‘rinishida ajralib chiqadi, ko‘p xollarda esa bu energiya kristal panjaraga berilib, uni qizdiradi. Erkin elektronlar va kovaklar hosil qilgan o‘tkazuvchanlik yarimo‘tkazgichlarning xususiy o‘tkazuvchanligi deb ataladi.


Kovaklar va erkin elektronlar juft juft bo‘lib paydo bo‘ladi, shuning uchun toza yarimo‘tkazgichlarda ularning zichligi teng bo‘ladi:

$p = n$

Diffuziya natijasida n soxa chegarasida elektronlar kamayib, musbat zaryadli qatlam, p soxa chegarasida kovaklar kamayib manfiy zaryadlangan qatlam hosil bo‘ladi. Shunday qilib p – n o‘tish chegarasida ikki xil zaryadlangan qatlam hosil bo‘ladi. Bu qatlam berkituvchi qatlam deb nomlanib, unda shakllangan elektrik maydon diffuziyani davom ettirishga yo‘l qo‘ymaydi. Bunda berkituvchi qatlam hosil qilgan maydon kuchlanganligi kamayib, kontakt qatlam orqali tok o‘tishi osonlashadi. Kuchlanish oshgani sari p – n o‘tishdan o‘tayotgan tok kuchi ham ortadi. Bu to‘g‘ri kuchlanish deb ataladi.



1.8 - rasm.



1.9.rasm. P-n o‘tishning sxematik ko‘rinishi.

Termomagnit hodisalar – harorat gradiyenti mavjud bo‘lgan o‘tkazgich va yarimo‘tkazgichlarni magnit maydoniga kiritilganda hosil bo‘ladigan hodisalar. Bunda magnit maydoni elektron (kovak)lar harakatini o‘zgartirishi natijasida o‘tkazgich uchlarida elektr potensiallar va qo‘shimcha haroratlar farqi vujudga keladi. Magnit maydoni kuchlanganligi, harorat gradiyenti, issiqlik oqimining zichligi va bu hodisa o‘lchanadigan yo‘nalishga parallel vektorlarning o‘zaro vaziyatiga qarab, Termomagnit hodisalar har xil bo‘ladi. Harorat gradiyentiga perpendikulyar yo‘nalishda o‘lchanayotgan termomagnit hodisalar ko‘ndalang, parallel yo‘nalishda o‘lchanayotgani esa bo‘ylama termomagnit hodisalar deb ataladi. Yarimo‘tkazgichlarni elektr o‘tkazuvchanligini faqatgina haroratni o‘zgartirib emas, balki yorug‘lik ta’sir ettirib ham o‘zgartirish mumkin.

Yorug‘lik ta’siri ostida yarimo‘tkazgichlarning aktiv qarshiligi keskin kamayadi, elektr o‘tkazuvchanligi esa oshadi. Yorug‘lik ta’siri ostida o‘z qarshiligini o‘zgartiradigan elementlar fotorezistorlar yoki fotoqarshiliklar deyiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. S. Zaynobiddinov, Teshaboyev A. T. ‘Yarimo‘tkazgichlar fizikasi’ T. «O‘qituvchi» 2001 yil.

2. Mamatkarimov O.O, Vlasov S.I, Nazirov D.I. Yarim o‘tkazgich materiallar va asboblar fizikasi praktikumi. Toshkent. 2006 y. Str. 165-173

3. A.Azimov “Yarimo‘tkazgichlar fizikasi”. Toshkent. O‘qituvchi

4. Mamatkarimov O.O, Vlasov S.I, Nazirov D.I. Yarimo‘tkazgich materiallar va asboblar fizikasi praktikumi. Toshkent. 2006 y. Str. 165-173

5. A.Azimov “Yarimo‘tkazgichlar fizikasi”. Toshkent. O‘qituvchi

6. “Yarim o‘tkazgichli asboblar fizikasi” o‘quv qo‘llanma O.O.Mamatkarimov, B.X.Qo‘chqorov Namangan 2019y

7. С. Зайнобиддинов, А.ТешабоевЯримўтказгичлар физикаси қўлланма. Toshkent “O‘qituvchi “ 1999 yil.

8.Яримўтказгичасбоблар физикаси А.Тешабоев ва бошкалар. Қўлланма хаёт нашриёти.Андижон 2002 йил

9. А.Тешабоев, С. Зайнобиддинов ва б. Яримўтказгичлар ва яримўтказгичли асбоблар технологияси. Т. Ўзбекистон, 2005.

10. Ю.М.Тоиров, В.Ф.Цветков Технология полупроводникових и диэлектрические материалов, М. 1990

11. М.Набиев, Я.Усмонов Термо електр параметрларни ўлчаш, Фарғона 2013йил.

12.К.В.Шалимовой Практикум по полупроводникам и полупроводникым приборам.Москва - 1968.

13. В.В.Пасинков, В.С.Соронкин Материали электронной техники, М. 1986.

14.Э.Н.Назиров, Д.Э.Назиров ва б. Яримўтказгичлар физикаси луғати, Т. 2008.

15.Ю.Готра Технология микроэлектронних устройств. М, 1991

16.“Яримўтказгич термоелектрик материллар олиш технологияси” илмий-услубий қўлланма.

17.S.D.Nurmurodov, A.X.Rasulov, K.G.Baxadirov Materialshunoslik va konstruksion materiallar texnologiyasi. Toshkent 2015, Darslik.

KASBGA YO‘NALTIRISH VA TA’LIM JARAYONI ISHTIROKCHILARINING PSIXOLOGIK, FIZIOLOGIK SALOMATLIGI

Qurbonova Aziza Bahodirovna
Qaraqalpog'iston Respublikasi Qo'ng'irot tumani
31-sonli maktab psixologi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7257030

Kasbga yo‘naltirish va ta’lim jarayoni ishtirokchilari tushunchasi va uning sharxi. Ta’lim jarayonida o‘quvchilarga kasbiy maslahat, kasbiy saralsh, kasb tanlash masalalari bo‘yicha yo‘nalishlar berish. Ta’lim jarayoni va kasb tanlovchilarning psixologik, fiziologik salomatligi. Yosh davrlar psixologiyasi va kasb tanlash masalalari. Yetuk insonni tayyorlashda meditsina, psixologiya va falsafiy bilimlarning o‘rni.

Kasb–inson ish faoliyatining ma’lum tajriba, tayyorgatlik talab etadigan faoliyat turi, sohasi, hunardir. Kasbga umumiy yoki maxsus ma’lumot hamda amaliy tajriba yo‘li bilan erishiladi. Kasbga yo‘naltirish borasidagi ilk bilimlar va tavsiyalar maktabdan to‘plab boriladi. Kasb tanlashda ta’lim muassasining va pedagog-psixologlarning ahamiyati katta.

O‘qituvchi o‘zi tarbiyalayotgan o‘quvchilarga ta’lim berib borar ekan, shu bilan birga ularni kasb tanlashlariga ham yordam beradi. Bizga ma’lumki, maktabning kelajakda kasb tanlashga imkoniyati bo‘lgan yoshlarga ta’lim berishdan iborat asosiy vazifasi -bu o‘quvchilarning fan asoslarini faol, ongli, mustahkam va tizimli ravishda egallashini ta’minlashdir. Bular asosida o‘qituvchi o‘quvchilarga ma’lum bir kasblarni tanlashlari uchun tavsiyalar berib boradi.

Ta’lim jarayoni ishtirokchilari bu o‘qituvchi va o‘quvchi hisoblanadi. Bu yerda ta’lim beruvchi pedagogni va ta’lim oluvchi o‘quvchi nazarda tutiladi. Bular birgalikda ta’lim jarayoni ishtirokchilari hisoblanadi. Shuni ta’kidlash kerakki ta’lim olayotgan o‘quvchi va ta’lim beruvchi o‘qituvchining o‘ziga xos bo‘lgan psixologik xususiyatlari va jismoniy imkoniyatlari mavjud bo‘ladi. Bular esa o‘z navbatida ta’lim olishga o‘z ta’sirini ko‘rsatib boradi.

O‘qituvchi ta’lim berish davomida bolalarning iqtidoridan va qobiliyati va qiziqishidan kelib chiqib, maktabdan keyingi uzluksiz ta’limni qaysi yo‘nalishiga ta’lim olish uchun kirishlariga yordam beradi. Maktabdan kasbiy maslahat berish uchun o‘qituvchi o‘zi ham kasbiy maslahat to‘g‘risidagi ma’lumotga ega bo‘lishi kerakligi kelib chiqadi. Kasbiy maslahat bu asosan yoshlarga kasblar haqida ilmiy asoslangan maslahat berish bo‘lib, u asosan yoshlarni qobiliyati, manfaatlari, qiziqishlari, intilishlari asosida kasb tanlashlariga yordam beruvchi sohadir. Kasbiy maslahat har bir kasb haqida ma’lumotlarga ega bo‘lishi shuningdek kadrlarga

bo‘lgan ehtiyojlar, mehnat faoliyati, kasbning ijtimoiy–iqtisoiy va sanitar-gigienik statusi, kasbga o‘qitish va insonga kasb qo‘yadigan talablar haqida ma’lumotga ega bo‘lish kerak. Bunda inson psixik xususiyatlariga, meditsina va jismoniy ko‘rsatkichlariga va kasbga mos kelmaslik to‘g‘risida ham ma’lumotga ega bo‘lish kerak.

Kasbiy maslahat yosh davrlariga qarab, ma’lumot darajasiga qarab va unda ishtirok etayotgan o‘qituvchilariga, ota-onalarining ishtirokiga qarab muvaffaqiyatli chiqadi.

O‘qituvchi o‘quvchilarga ta’lim berish davomida ularni kasb tanlashlariga yo‘llanmalar berar ekan shunung bilan birga ularni psixologik va jismoniy salomatligi haqida ma’lumotga ega bo‘lishi kerak bo‘ladi. Kasb tanlovchi hisob-langan o‘quvchilar o‘zlarini ruhan va jismonan sog‘lom ekanliklarini meditsina ko‘rigidan o‘tib tasdiqlashlari mumkin bo‘ladi. Bundan tashqari maktab psixolog-lari va shifokorlari har doim ularni kuzatib boradilar. Psixik xususiyatlari yoshiga qarab rivojlanib borayotgan o‘quvchi o‘zidagi psixologik xususiyatlarni kuzatish orqali o‘zgarib borishini bilib boradi. Boladagi diqqat, sezgi, fahm-farosat, xarakter, tafakkur qilish, qobiliyat va boshqa psixologik xususiyatlar o‘quvchining rivojlanib borishi bilan o‘zgarib, takomillashib boradi. Ayniqsa bu o‘smirlik davrida juda yaqqol ko‘zga tashlanadi. O‘sib borayotgan bolada jismonan o‘zgarishlar ham sodir bo‘lib boradi. O‘quvchining jismonan imkoniyatlari ko‘payadi. O‘zini va jismoniy kuchini boshqarish, tanasidagi o‘zgarishlarni kuzatish orqali, o‘zida kattalarga o‘xshash tomonlar paydo bo‘lishini ko‘radi. Bular esa uni psixologik jihatidan kattalardek tutishga, o‘zini ma’lum bir kasbda ko‘rishga intiltiradi. Umuman olganda o‘quvchidagi psixologik va jismoniy tomonlar asosan uning nerv-fiziologik tomonlari bilan bog‘liq bo‘ladi. Insondagi yuz berayotgan psixologik va jismoniy o‘zgarishlar uning miyasi bilan, psixofiziologik jarayonlar va nerv-fiziologik jarayonlar bilan uzviy bog‘liq bo‘ladi. Bularni o‘rgangan olimlar insonni kasbiga xos tomonlarini ham ko‘rsatib berganlar. Insonni jismoniy va ruhiy sog‘ligini o‘rgangan olimlar qatoriga I.M.Sechenov, I.P.Pavlovni ko‘rsatish mumkin. Kasb bilan bog‘liq masalalar ko‘proq keyinchalik K.M.Gurevich nomi bilan bog‘liqdir. K.M.Gurevich kasb masalasi bilan shug‘ullanar ekan insondagi individual–psixologik xususiyatlarning asosida psixofiziologik jarayonlar yotishini ko‘rsatib, I.P.Pavlov, B.M.Teplov olib brogan ishlarga suyangan holda tushuntirib berishga intiladi.

O‘quvchilarni yoshi katta bo‘lib brogan sari undagi xarakter, odatlar o‘zgarib boradi. Bu uning jismoniy va psixologik taraqqiyoti bilan bog‘liq bo‘ladi.

B.M.Teplov ko‘rsatib o‘tganidek kasb tanlashdagi insonni har xil xatti-harakati, uning o‘ziga xosligi, uning ishonchi, qiziqishi, bilimi, layoqati, odati, o‘ziga xosligi, uning ishonchi, qiziqishi, bilim, layoqati, odati, o‘ziga xosligi shaxs psixologik hayoti bilan bog‘liq bo‘ladi. Insonda yuz berayotgan jarayonlarning psixologik va fiziologik

tomonlarining asosi bu u yoki darajada sodir bo‘layotgan shartli bog‘lanishlar hisoblanadi. B.M.Teplov bir xil sharoitlarda ham insonlar bir-biridan ajralib turishini, bilim olishida, ish bajarishdagi psixofiziologik imkoniyatlari har xil bo‘lishini ko‘rsatib o‘tdi. Bu jarayon I.P.Pavlov tomonidan nomlangan nerv tizimiga yoki oliy nerv faoliyatiga bog‘liq bo‘ladi.

I.P.Pavlov tasavvuricha nerv tizimini uchta xususiyati mavjud. Bu uning kuchi, harakatchanligi va muvozanatligidir. Bular nerv tizimining xususiyatlari o‘zaro munosabatda insonga xos bo‘lgan 4 temperamentni shakllantiradi. Bular sangvinik, xolerik, flegmatik va melanxolik tiplardir. Bular esa insondagi jismoniy va psixologik jarayonlarda, ularning holatlarini tushuntirib berishda katta ahamiyatga ega bo‘ladi.

Bu kabi ko‘plab tadqiqotlarda kasb tanlovchining psixologik va jismoniy sog‘lomligi masalasi ko‘rilgandir. O‘qituvchi o‘quvchi bilan o‘zaro munosabatda bo‘lganida uning psixologik va fiziologik holatlari ham o‘zgarib boradi. Tanasi sog‘ va ruhi sog‘lom bo‘lgan o‘quvchi o‘zi tanlayotgan kasbni aniq va irodasiga asoslanib tanlab oladi.

Yosh davrlari o‘ziga xos bo‘lgan psixologik va jismoniy tuzilishni olib keladi. Kasb tanlashda bolalarni yoshiga asosan o‘ziga xos bo‘lgan psixologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda kasbga bo‘lgan munosabati shakllanadi. Inson bilimining har xil yo‘nalishlarida: pediatriyada, antropologiyada, psixologiyada yoshiga qarab klassifikatsiya qilishning har xil ko‘rinishlari mavjud. Inson hayotini differensiyalashga qarab asosan uning har xil ko‘rinishlaridan foydalanamiz. Eramizdan avval VI asr-Pifagor klassifikatsiyasi:

-Shakllanish davri (0-20 yosh)

-Yoshlik davri (20-40)

-Kuchga kirgan davri (40-60)

-Qarilik davri (60-80)

Xuddi shuningdek, kasb tanlash bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘plab klassifikatsiyalar mavjuddir. Deylik D.Syuper klassifikatsiyasi.

1) O‘sish davri (tug‘ilgandan 14 yoshgacha)

2) Izlanish davri (15 yoshdan 24 yoshgacha)

3) Egallagan martabasini mustahkamlash (25 dan 44 yoshgacha)

4)Inqiroz davri (65 dan keyingi davr)

Kasb tanlash bilan bog‘liq davrlarga suyangan E.A.Klimov bo‘yicha kasb klassifikatsiyasi. Bunda E.A.Klimov 9 ta fazani ko‘rsatadi. Bular: *Shakllanmagan kasb tanlash-bunda bolalarda ma’lum bir kasbga nisbatan qiziqish va havas ortadi.*Tanlash fazasi-bunda inson kasb tanlashga tegishli masalalar bilan bevosita shug‘ullana boshlaydi yoki bu majburiy tarzda yuz beradi.*Muxlislik fazasi–bunda inson kasb tanlash yo‘liga o‘tadi va uni egallaydi (bunda kasb-hunar kollejlari, litseylar, maktablarda o‘qiyotgan talabalar va oliygohlarda kasbni egallab diplomga

ega bo‘lgan mutaxassislar kiradi). *Moslashish fazasi-yosh mutaxassis kollektiv me’yorlariga moslashadi va har xil kasbiy vazifalarni bajaradi. *Internal faza-bu endi malakaga ega bo‘lgan o‘z kasbini sevuvchi, mustaqil ravishda kasb bilan bog‘liq masalani yecha oladigan shaxs. *Usta bo‘llganlik fazasi-bunda ishchi oddiy va eng murakkab kasbga xos bo‘lgan masalalarni yecha oladi. U o‘ziga xos individual, qaytarilmas faoliyat turini egallagan bo‘ladi. *Avtoritarlik fazasi- Avtoritet-bu o‘z kasbini ustasi, nomi chiqqan mutaxassis hisoblanadi. Kasbiy vazifalarni bajarishda malakaga, bilimga, uddalay olishga, ishni tashkil eta olish bilan bog‘liq bo‘lgan yordam chilarga ega bo‘lgan shaxsdir. *Shogirdlar yaratuvchi faza-o‘z kasbiga usta bo‘lgan bu inson shogirdlar orttira oladi va hamfikrlarga ega bo‘ladi.

Kasb tanlashda yana shuni bilish kerakki bolalarni jismoniy tuzilishi va o‘sib borishining evolyutsion davrlari mavjud. Shulardan kelib chiqqan holda bolalar o‘zlari yoqtirgan kasblarni tanlab boradilar. Eng muhimi har bir shaxs tanlagan kasblarini o‘z imkoniyatlarini, psixologik va fiziologijk salomatligiga e’tibor bergan holda tanlasalar maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.F.R.Abduraxmonov. Z.E.Abduraxmonova -Kasb psixologiyasi. Toshkent-2018

2. 2.E.A.Klimov. “Kak vibrat professiyu” Moskva, 1990-yil.

3.Umumiy psixologiya..G‘oziyev.Toshkent-2002

MUHAMMADRIZO ERNIYOZBEK O‘G‘LI OGAHIY IJODIDA INSONPARVARLIK G‘OYALARI

Ro‘zimova Odila Bahodir qizi
Jumaniyozova Durdona Qurbonnazar qizi
Xorazm viloyati Shovot tumani 19-umumta’lim maktabi
Ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7257047

Annotatsiya: Mazkur maqolada buyuk so‘z ustasi, sohir qalam sohibi, Xorazm farzandi Muhammadrizo Erniyozbek o‘g‘li Ogahiy she’rlaridagi boy mazmun, tugal fikr, hayotiy xulosalar haqida fikr yuritiladi. Xalq dardi, ma’rifat ishqi bilan yonib yashagan shoirning ayrim she’rlari mushohadaga tortiladi. Ogahiy lirikasidagi insonparvarlik g‘oyalarining namunalari tadqiqot obyekti sifatida olindi.

Kalit so‘zlar: adabiy an’ana, adabiy muhit, badiiy adabiyot, ma’naviy kamolot, gumanizm, poeziya, xalqchillik

Аннотация: В этой статье обсауждается богатое содержание, целостное мышление и важные выводы в стихах Агахи, сына Хорезма, одного из самых ярких литературных деятелей, который связывает новую узбекскую литературу с классической литературой с многовековыми традициями. Некоторые из стихов поэта, который жил с любовью людей и просвещения, соблюдаются.

Ключевые слова: литературная традиция, литературная среда, художественная литература, духовная зрелость, гуманизм, поэзия, популизм

O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Abdug‘aniyevich Karimov “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarida quyidagicha fikr bildirgan edi: “Sarchashmalari buyuk ajdodlarimizning tafakkuri va muddaolaridan boshlanadigan xalqimizning boy ma’naviy qadriyatlari iqtisodiy o‘zgarishlarimizning mustahkam poydevori bo‘lib xizmat qiladi. Demak, bizning vazifamiz, avvalambor, mana shu ma’naviyatimiz sarchashmalarini va bobokalonlarimizning boy an’analarini davom ettirishdir”.[1] degan edilar. Haqiqatdan ham, buyuk ajdodlar ilmiy merosini o‘rganish, ularni hayotga tatbiq qilish, ularga xos va mos zurriyot bo‘lib yetishish biz uchun ham farz, ham qarzdir.

Buyuk so‘z ustasi, nuktadon, insonparvar Muhammadrizo Erniyozbek o‘g‘li Ogahiy ijodini kuzatar ekanmiz uning har jabhada mukammal ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Buni, ayniqsa, Ogahiyning lirik merosida ko‘rishimiz mumkin. Ogahiy lirikasi faqat mavzu ko‘lamining kengligi, g‘oyaviy dunyosining boyligi bilangina emas, ayni zamonda, chuqur fikrlar silsilasining ohori to‘kilmagan ifodasini ta’min

[1] I.A.Karimov Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. Toshkent. 2008. 78-bet.

etgan yuksak badiiy fazilatlari bilan ham diqqatga sazavordir. Ogahiyning har bir ijod mahsulida o‘ziga xos orginallik, so‘zlar mag‘zidagi misli ko‘rilmagan sehrni sezishimiz mumkin. Ijtimoiy g‘azallari orqali ijodkor insonlarga marhamat qilish, xushmuomala bo‘lish, murosa yo‘lini tutish, birovning haqqiga hiyonat qilmaslik, yaqinlarga yaxshilik ulashish, Olloh ne’matlarini qadriga yetish, boshqalarga zulm qilmaslik, tilni tiyish, nafsni yengish, ilm o‘rganish, halol mehnat qilish va boshqa insoniy fazilatlarga ega bo‘lish haqida haqida uqtiradi. Shu bilan birga, ushbu ilmiy meros namunalarida Xiva xonligidagi bo‘lib o‘tgan o‘sha davrdagi xalq qo‘zg‘alonlari, Eron va Afg‘oniston urushi, Buxoro xonligidagi ziddiyatlar, islom dini mazhablari orasidagi keskin nizolar va talato‘plar oqibatida xalq boshiga kelgan musibat va fojealarni haqli ravishda tasvirlangan.

Ogahiy 1872 yilda parokanda bo‘lgan badiiy merosini jamlab “Ta’viz ul-oshiqin” (“Oshiqlar tumori”) nomli devon tuzib qoldirdi. Madaniyatimizning durdonasi bo‘lgan bu devon o‘zbek mumtoz she’riyatining 22 janrini o‘z ichiga qamrab olgan.

Ogahiy ijodida XIX asr Xiva xonligidagi ijtimoiy hayot o‘z ifodasini topgan. Bu davrga kelib, Turkiston Rusiya tomonidan bosib olingandi, xalq ikki yoqdan zulm ostida qolgandi. Ogahiy bundan qattiq qayg‘urardi, xalq hur, ozod yashashini orzu qilardi. Ogahiy dunyoga, insonga tuganmas muhabbat, hayotga cheksiz mehr bilan qaraydi, ijtimoiy jarayonlarga qattiq qiziqadi. Shoir insonni hayot go‘zalliklarini, muhabbat shavq zavqini to‘lib toshib tarannum etadi. Mutafakkir o‘z asarlariga ijtimoiy fikrlarni mahorat bilan singdirib yuboradi. Misol uchun mashhur “Feruz” ashulasidagi quyidagi satrlarni eslaylik:

Ey shoh, karam aylar chog‘i teng tut yomonu yaxshini,
Kim, mehr nuri teng tushar vayronu obod ustina.
Xoki taning barbod o‘lur, oxir jahonda necha yil,
Sayr et Sulaymondek agar taxting qurib bod ustina.

Ogahiyning yuksak insonparvarlik ruhi bilan sug‘orilgan g‘oyalari xon va shoir Feruzning siyosiy-ma’rifiy tarbiyasiga ta’sirqiladi. U tarixchi olim sifatida Xiva xonlariga, yirik tarixiy shaxslarga bag‘ishlab qasidalar yozgan. Shoirning “Qasidai nasihat” degan qasidasi bunga yaqqol misol bo‘ladi. Asar Feruzga bag‘ishlangan. Ogahiy o‘z nasihatlarida saltanatni boshqarishning yo‘lyo‘riqlarini ko‘rsatadi, mamlakat va xalqni adolat bilan idora etish yo‘llarini belgilab beradi. Bu qasida masnaviy janrida yozilgan bo‘lib, shoirning siyosiy-ma’rifiy qarashlarini yorqin ifoda qiladi. Shoir fikricha, har qanday davlat boshlig‘i hokimiyatni mustahkamlash uchun barcha ijobiy fazilatlarga ega bo‘lishi lozim. Podshohi himmatli, shijoatli, adolatli, g‘ayratli, saxovatli, hayoli, sof niyatli, madaniyatli, hamiyatli kambag‘alparvar bo‘lishi zarur. Hukmdor shu fazilatlarga ega bo‘lsa hokimiyati kamol topadi, mamlakati farovon bo‘ladi, degan fikrni ilgari suradi. Ogahiy davlatni boshqarishning

yo‘llarini ham ko‘rsatib o‘tgan. Shoirning fikricha, shoh shariat ahkomlariga qattiq amal qilmog‘i darkor. Aysh ishratdan, fitna va g‘iybatdan, g‘aflatdan, yalqovlikdan, zulmrazolatdan, chaqimchilikdan, molparastlikdan uzoq bo‘lishi kerak. Xiva xoni Feruz Ogaxiyning davlatni boshqarish to‘g‘risidagi maslahatlariga quloq tutgan, uning hikmatali baytlarini marmar toshlarga yozdirib arzxonalariga qo‘ydirgan, ko‘p ezgu ishlarni amalga oshirgan. Bu davrda Xorazm xalqi mahalliy boylar va rus bosqinchilari zulmi ostida qolgandi. Lekin shunga qaramay xonlikda madaniy-ma’rifiy ishlar rivoj topdi. Bunda Ogahiyning ma’rifiy hissasi katta bo‘ldi. Ogahiyning Feruzga bergan siyosiy saboqlari bugun ham o‘z qiymatini yo‘qotgan emas.

Mutafakkir shoir jamiyatning insonparvarlik imkoniyatlarini oshirishning barcha yo‘llaridan foydalanishga harakat qildi, hukmdorlarni adolatga, rahm-shafqatga da’vat etdi. Ogahiy Sayid Muhammadxon iltimosiga binoan 1857 yilda qasida yozdi.

Bas, endi raiyatga qil imdod,
Topay desang ikki jahonda murod.
Ilohe, bu qasr ichra qilyun makon,
Bu manzilni fahm etmagil jovidon.
Vafosiz durur dahr iqboli bil,
Baqosiz durur mulk ila moli bil.
Ko‘ngil qo‘ymagil mulk bunyodig‘a,
Yet, albatga, mazlumlar dodig‘a!

Qasida ko‘hna Arkda xonning arzxonasidagi marmar ustunga o‘yib yozildi. Shoir o‘z qasidasida insonparvarlik g‘oyalarini olg‘a surdi, adolatparvar, ma’rifatparvar davlat rahbarlarini orzu qildi va xonni shunga da’vat etdi.

Ogahiy Xiva xonligining 1813 yildan 1873 yilgacha bo‘lgan tarixini izchillik bilan boy manbalar asosida yozib qoddirgan. Ogahiyning tarixiy asarlariga akademik V. V. Bartold yuqori baho bergan: “Munis va Ogahiy tomonidan yaratilgan adabiy va tarixiy asarlar… voqealarni bayon etish va ularda keltirilgan daliliy manbalarning ko‘pligi jihatidan bizgacha yetib kelgan Qo‘qon va Buxoro xonliklari tarixi bo‘yicha bo‘lgan hamma asarlarni o‘zidan ancha orqada qoldiradi”. Ogahiyning tarixiy asarlari daliliy manbalarning boyligi va ishonchli bo‘lishi bilan ajralib turadi. Ogahiyning tarixiy asarlari qo‘shni qardosh xalqlarning tarixini o‘rganishda birinchi manba hisoblanadi. Uning tarjima asarlari Xorazm ijodkorlarini arab, fors-tojik adabiyotining noyob durdonalari bilan tanishtirdi, xalqning ma’naviy saviyasini bir pog‘ona balandga qo‘tardi, o‘zbek adabiyoti xazinasini yangi asarlar bilan boyitdi, xalqlar o‘rtasidagi do‘stlik va madaniy aloqalarni mustahkamladi. Ijodkor o‘z asarlarida insoniyatni, undagi go‘zal va oliyjanob fazilatlarni ulug‘lagan, ularning aksi bo‘lgan g‘ayriinsoniy illatlarni qoralagan. Ogahiy badiiy merosi “Taviz ul-oshiqin” (Oshiqlar tumori) nomli devoniga jamlangan. Quyida Ogahiy “Devoni”ga

kiritilgan g‘azallarni o‘rganish orqali, ularning mavzu-mundarijasini, ularda qo‘llanilgan tazod san’ati namunalarini yoritishga va tahlil qilishga harakat qilamiz

Ogahiyning devonidagi “Dildor mandin o‘zgaga” matla’li g‘azali boshdan-oyoq tazod san’ati vositasida yaratilgan:

Vahki, aylab lutfu ehson yor mandin o‘zgaga,
Aylamas zulmu sitam izhor mandin o‘zgaga.[2]

G‘azalda shoir bir nechta tazodga xos tushunchalarni qarshilantirish orqali lirik qahramon boshiga ishq savdosining naqadar azob va alamli ekanini ta’kidlaydi, oshiq dardini kuchaytirib, bo‘rttirib tasvirlashga erishadi. “Man va o‘zga” shaxslari, shuningdek “aylab, aylamas” kabi harakatni anglatuvchi so‘zlar ham zid ma’nolar tashigan holda tazodlarni yuzaga keltirib turibdi.

“Qoshu ko‘zung” radifli g‘azali ishqiy mavzuda bitilgan g‘azallar sirasiga kiradi. Ushbu g‘azalda lirik qahramon ijodkorning o‘zi. Bu g‘azaldan mashuqaning uzori, uzun sunbul sochlari, oshiqqa qilayotgan jabr-zulmi, qancha yoqishga urunsa ham tinmasdan jafo qilayotgani yuksak shoirona mahorat bilan ta’riflangan. Birinchi baytda “jon ber”, ikkinchi baytda “o‘lturdi” birikmalari orqali an’anaviy tazodlarga duch kelamiz:

Shirin labingdan Ogahiy jismiga jon berkim, oni
O‘lturdi bir imo qilib boqqach qiyo qoshu ko‘zung. (67)

Ogahiyning “Netay” radifli g‘azalida ham tazodning yuqoridagi ko‘rinishdagi tasviriga duch kelishimiz mumkin:

Jon labidan chu bermadi jismima, vahki qoshdin
Qatlima bir ishora yo‘q, bo‘lmasa bo‘lmasun, netay. (53)

Ogahiy tazodning xilma-xil ko‘rinishlardan juda ustalik bilan foydalanib, inson qalbi, xohish-istaklari, muhabbat yo‘lidagi iztiroblarini g‘oyat ta’sirchan tasvirlashga erishadi. Shoirning qo‘llagan tazodlari boshqa she’riy san’atlar bilan tutashib ketgan o‘rinlarni ham kuzatish Ogahiy mahoratini yana bir karra namoyish etadi:

Yuzing hayolida bog‘i behisht bo‘lur beshak,
Yo‘lungda manzil agar bo‘lsa dashtu tog‘ ham. (31)

yozadi shoir ”Sharobi shavqing ila” matla’li g‘azalida. Mazkur baytdagi ”Agar vasling hayolida yo‘lga otlanadigan bo‘lsam, yo‘lingda tog‘-u dashtlarga uchraydigan bo‘lsam ular menga behisht bog‘lariday ko‘rinadi” degan fikrni ”bog‘i behisht” va ”dashtu tog‘” birikmalarining qarama-qarshi ma’nolaridan foydalangan holda juda ta‘sirli qilib kitobxonga yetkazishga erishgan. Bu o‘rinda shoir qo‘llagan tazod san’ati mubolag‘a shaklini ham olib, barkamollik kasb etgan.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Ogahiy o‘z lirikasida boy tarixga ega bo‘lgan mumtoz she’riyatimiz an’analarini davom ettirib, g‘oyat o‘ynoqi va dilbar g‘azallar

[2] Ogahiy. 6 tomlik, 1-jild. Devon, T.: Adabiyot va san’at nashriyoti. 1971-yil. 46-bet. (Bundan keyingi baytlar mana shu manbadan olinadi, sahifasi davs ichida ko‘rsatiladi.)

bitdi. Ularda hayot go‘zalligini, insonning orzu-intilishi, muhabbati va ma’naviy olami o‘z ifodasini topdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. I.A.Karimov Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. Toshkent. 2008. 78-bet.
2. Ogahiy. 6 tomlik, 1-jild. Devon, T.: Adabiyot va san’at nashriyoti. 1971-yil.
3. Yoqubjon Is’hoqov. So‘z san’ati so‘zligi. Toshkent. 65-bet.
4. “Ilmi bade’ dar zaboni forsiy”. Toshkent. 1966-yil. 163-bet.

BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKA FANINING O'QITILISHI

Samatova Surayyo
Namangan viloyati Norin tumani
17-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7257060

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabning eng quyi va ahamiyatli qismi hisoblangan boshlang‘ich sinflarida matematik fanining o‘qitilishi va unda zamonavoiy pedagogik texnologiyalarning qo‘llanilishi haqida batafsil bayon qilinadi.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich sinf, matematika, Ta’lim dasturi, maktab, bolalar psixologiyasi, metodika va h.k.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga matematikani muvaffiqiyat bilan o'qitish uchun mehnat faoliyatini boshlovchi o'qituvchi matematika o'qitishning ishlab chiqilgan tizimini, ya'ni boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasini egallagan bo'lishi va shu asosda mustaqil ravishda ijodiy ishga kirishishi kerak. «Metodika» grekcha so'z bo'lib, «metod» degani yo'l demakdir. Matematika metodikasi pedagogika fanlari tizimsiga kiruvchi pedagogika fanining tarmog'i bo'lib, jamiyat tomonidan qo'yilgan o'qitish maqsadlariga muvofiq matematika qonuniyatlarini matematika rivojining ma'lum bosqichida tadqiq qiladi. Matematika boshlang'ich ta'lim metodikasining predmeti quyidagilardan iborat:

Matematika o‘qitishdan ko zda tutilgan maqsadlarni asoslash. (nima uchun o'qitiladi).

Matematika o'qitish mazmunini ilmiy ishlab chiqish (ya'ni matematikadan qaysi material boshlangich sinflarda o'rganilishi, nima uchun aynan shu material tanlanishi, boshlangich sinflarda kursning har qaysi ayrim masalasi umumlashtirishning qanday darajasida o'rganilishi, mavzular qanday tartibda o'rganilsa, eng ratsional bo'lishi ko'rsatiladi).

O'qitish metodlarini ilmiy ishlab chiqish. (qanday o'qitish kerak, ya'ni o‘quvchilar hozirgi kunda zarur bo lgan bilim, malaka, ko nikmalarni va aqliy qobiliyatlarini egallab oladigan bolishlari uchun oquv ishlari metodikasi qanday bo'lishi kerak? Masalan, 10 ichida sonlarni qo'shish va ayirishni qanday o'rganish kerak, jumladan, bu mavzuda qo'shishning o'rin almashtirish xossasini qanday ochib berish kerak?).

O'qitish vositalarini - darsliklar, didaktik materiallar, ko'rsatma - qo'llanmalar va texnik vositalarni ishlab chiqish (nima yordamida o'qitish?). kerak!

Ta'limni tashkil etishni ilmiy ishlab chiqish (darsni va ta'limning darsdan tashqari formalarini qanday o‘tkazish?. O quv ishlarini qanday tashkiliy metodlarda o‘tkazish kerak?. O quv prosessida ta'limiy va tarbiyaviy masalalarni qanday qilib samaraliroq hal qilish kerak?).

O‘quvchilar matematika darsida olgan bilimlarini kundalik hayotda uchraydigan elementar masalalarni yechishga tatbiq qila olishga o‘rgatish, o‘quvchilarda arifmetik amallar bajarish malakalarini shakllantirish va ularni mustahkamlash uchun maxsus tuzilgan amaliy masalalarni hal qilishga o‘rgatish, matematika o‘qitishda texnik vosita va ko‘rgazmali qurollardan foydalanish malakalarini shakllantirish. Bunda asosiy e’tibor o‘quvchilarning jadvallar va hisoblash vositalaridan foydalana olish malakalarini tarkib toptirishga qaratilgan. O‘quvchilarni mustaqil ravishda matematik bilimlarni egallashga o‘rgatish. O‘quvchilar imkoni boricha mustaqil ravishda qonuniyat munosabatlarini ochishlari, kuchlari etadigan darajada umumlashtirishlar qilishlari, shuningdek, og‘zaki va yozma xulosalar qilishga o‘rganishlari kerak. O‘qitish samaradorligining zaruriy va muhim sharti o‘quvchilarning o‘rganilayotgan materialni o‘zlashtirishlari ustidan nazoratdir. Didaktikada uni amalga oshirishning turli shakllari ishlab chiqilgan. Bu o‘quvchilardan og‘zaki so‘rash; nazorat ishlari va mustaqil ishlar; uy vazifalarini tekshirish, testlar, texnik vositalar yordamida sinash kabi usullardir. Didaktikada dars turiga, o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga va h.k. bog‘liq ravishda nazoratning u yoki bu shaklidan foydalanishning maqsadga muvofiqligi masalalari, shuningdek, nazoratni amalga oshirish metodikasi yetarlicha chuqur ishlab chiqilgan.

Boshlang‘ich maktabda matematika o‘qitish metodikasida mustaqil va nazorat ishlari, o‘quvchilardan individual yozma so‘rov o‘tkazishning samarali vositalari yaratilgan. Ba’zi didaktik materiallar dasturning chegaralangan doiradagi masalalarining o‘zlashtirilishini reyting tizimida nazorat qilish uchun, boshqalari boshlang‘ich maktab matematika kursining barcha asosiy mavzularini nazorat qilish uchun mo‘ljallangan. Ayrim didaktik materiallarda (ayniqsa, kam komplektli maktab uchun mo‘ljallangan) o‘qitish xarakteridagi materiallar, boshqalarida esa nazoratni amalga oshirish uchun materiallar ko‘proqdir. Boshlang‘ich maktab matematikasida barcha didaktik materiallar uchun umumiy topshiriqlarning murakkabligi bo‘yicha tabaqalashtirilishidir. Bu materiallar tuzuvchilarning g‘oyasiga ko‘ra ma’lum mavzu bo‘yicha topshiriqning biror usulini bajarishi o‘quvchining bu mavzuni faqat o‘zlashtirganligi haqidagina emas, balki uni to‘la aniqlangan darajada o‘zlashtirganligi haqida ham guvohlik beradi.

Matematika o‘qitish metodikasida “o‘quv materialini o‘zlashtirilish darajasi” tushunchasining mazmuni to‘la ochib berilmagan.O‘qituvchilar uchun qo‘llanmalarda didaktik materialning u yoki bu topshirig‘i qaysi darajaga mos kelishini aniqlashga imkon beradigan mezonlar aniq emas. Amaliyotda o‘qituvchilar ko‘pincha biror

topshiriqning usullarini biri boshqalaridan soddaroq yoki murakkabroq deb aytadilar. Bundan tashqari, didaktik materiallar qanchalik san’atkorona tuzilgan bo‘lmasin, ularning mazmuni va tuzilishida qanchalik sermahsul va chuqur g‘oyalar amalga oshirilmasin, ular baribir barcha metodik vazifalarni tezda hal etishga qodir emas, chunki hech qanday o‘rgatuvchi mashina O‘qituvchining intuisiyasini, ya’ni hissiyotini almashtira olmaydi. Shunday qilib, didaktik materiallarni o‘quvchilarning o‘quv materialini o‘zlashtirish darajasini nazorat usullaridan biri sifatida qarash lozim. Shu bilan birga muayyan usul mazkur sinf, mazkur o‘qituvchi uchun eng yaxshi usul bo‘lmasligi ham mumkin. Shu sababli didaktik materiallar o‘qituvchini o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirish darajasini aniqlash imkonini beradigan individual tekshirish uchun nazorat turlarini tuzishdan xalos eta olmaydi.Bu umummetodikaning asosiy vazifalaridan biridir.

Bolalarni o‘qitishga tayyorlashda asosiy ish metodi tahlil, sintez, taqqoslash, umumlashtirish, tabaqalashtirish kabi aqliy operasiyalarni bajarish malakalarini shakllantirishga qaratilgan bo‘lishi kerak. Bunday ishlar o‘quvchilarnig og‘zaki va yozma nutqlarini rivojlantirishga katta yordam beradi, matematik bilimlarni o‘zlashtirishga qiziqishi kuchaya boradi. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitishning tashkiliy shakllari dars, uy vazifalarini mustaqil bajarish, o'quvchilarning yakka tartibda guruh va jamoa bo'lib ishlashlari, ekskursiyalar,sinfdan tashqari ishlardan iborat.

O'quvchilar, imkoni boricha, mustaqil ravishda qonuniyat munosabatlarini ochishlari, kuchlari yetadigan darajada umumlashtirishlar qilishlari, shuningdek, og'zaki va yozma xulosalar qilishga o'rganishlari kerak.O'qitish samaradorligining zaruriy va muhim sharti o'quvchilarning o'rganilayotgan materialni o'zlashtirishlari ustidan nazoratdir. Didaktikada uni amalga oshirishning turli shakllari ishlab chiqilgan. Bu o'quvchilardan og'zaki so'rash; nazorat ishlari va mustaqil ishlar; uy vazifalarini tekshirish, testlar, o'tkazish kabi usullardir. Didaktikada dars turiga, o'quvchilam ing yosh xususiyatlariga va h.k. bog'liq ravishda nazoratning u yoki bu shaklidan foydalanishning maqsadga muvofiqligi masalalari, shuningdek, nazoratni amalga oshirish metodikasi yetarlicha chuqur ishlab chiqilgan.Boshlang'ich maktabda matematika o'qitish metodikasida mustaqil va nazorat ishlari, o'quvchilardan yakka (individual) yozma so'rov o'tkazishning samarali vositalari yaratilgan. Ba’zi didaktik materiallar dastuming chegaralangan doiradagi masalalarining o'zlashtirilishini reyting tizimida nazorat qilish uchun, boshqalari boshlang'ich maktab matematika kursining barcha asosiy mavzularini nazorat qilish uchun m o'ljallangan. Ayrim didaktik materiallarda (ayniqsa, kam komplektli maktab uchun m o'ljallangan) o'qitish xarakteridagi materiallar, boshqalarida esa nazoratni amalga oshirish uchun materiallar ko'proqdir.Matematika o ‘qitishda mustaqil ishlar.Matematika o‘qitish jarayonida o'quvchilaming faolligini oshirish va matematikaga bo'lgan qiziqishini

rivojlantirish omillaridan biri - O‘quvchilar bilan olib boriladigan mustaqil ishlardir.Matematika darslarida mustaqil ishlar yangi materialni o‘rganishga tayyorgarlik ko‘rishda, yangi tushunchalar bilan tanishishda, bilim, uquv va malakalami mustahkamlashda, shuningdek,bilimlami nazorat qilishda amalga oshiriladi. O'qitish shakli - bu o'quvchilaming o'quv-bilish faoliyatlarini uni turli sharoitlarda (sinfda, ishlab chiqarishda va hokazo). o'tkazilishiga muvofiq ravishda o'qituvchi tomonidan tarbiyaviy o'qitish jarayonida foydalaniladigan qilib tashkil etilishidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Umumiy o‘rta ta‘limning Davlat ta‘lim standartlari. Boshlang‘ich ta‘lim Ta‘lim taraqqiyoti‖ jurnali, Toshkent ―Sharq‖, 1999, 7 - soni

2.Levenberg L.Sh. va boshqlar. ―Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi Toshkent ―O‘qituvchi

3.Bikbaeva N.U. va boshqalar. ―Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi Toshkent ―O‘qituvchi‖ 1996 yil.

4.Skatkina A.A. ―Metodika prepodaveniya matematiki v sredney shkole.‖ Moskva ―Prosvesheniе‖.

5.“Inequalites. Theorems, Techniques and Selected problems” (Zdravko Cvetkovski).

ҚАРАҚАЛПАҚ ХАЛЫҚ ҚОСЫҚЛАРЫНДА СОМАТИКАЛЫҚ ФРАЗЕОЛОГИЗМЛЕР

Сайманова Айнура Мадреймовна
Қарақалпақ мәмлекетлик университети
таяныш докторанты
https://doi.org/10.5281/zenodo.7257073

Аннотация: Ҳәзирги ўақытта улыўма тил билиминде, соның ишинде қарақалпақ тил билиминде тил ҳәм мәденият арасындағы байланыс, тиллик бирликлерде мәденияттың сәўлелениўи ҳәм оны үйрениў әҳмийетли мәселелерден бири есапланады. Бул мақалада қарақалпақ халық қосықларындағы айырым соматикалық фразеологизмлер басқа түркий тиллер менен салыстырмалы түрде үйренилди.

Таяныш сөзлер: халық қосықлары, үрп-әдет, дәстүр, фразеологизм, соматикалық фразеологизм,, соматизм, сомонимиялық лексикалық бирлик.

Қарақалпақ тилиндеги соматикалық фразеологизмлердиң көпшилик бөлегин адамның сыртқы ағзалары атамалары қатнасқан фразеологизмлер қурайды. «Сомонимиялық лексикалық бирликлерге адамның тутас денеси бас, бастың бөлимлери, мойын, желке, дененің жоқары бөлими, жуўмақланған бөлими киреди. Олардан бой, бас, мойын, жаўырын, көкирек, қарын, жанбас, аяқ, сан, қол, т.б. ири бөлимлери соматикалық фразеологизмлердеги меронимлик (ири бөлеклери) қатнастағы бөлеклери деп атаўға болады» [1.107].

Халық қосықларында бас, төбе, мойын, маңлай, бет, қол, бармақ, аяқ, арқа, т.б. соматизмлер қатнасқан фразеологизмлер ушырасады.

Қарақалпақ тилиндеги соматикалық фразеологизмлер ишинде бас соматизми арқалы билдирилген бирликлер үлкен топарды қурайды. Қарақалпақ халық қосықларында бас сөзи доминант болып келген басынан дәўлети ушты, бас қосыў, бастан аяқ, басына жетти, басына қайғы салды, басына ис түсти, басына салды, басына саўда түсти, төбеси көкке жетти фразеологизмлери қолланылған. И.Кенесбаев бас сөзиниң оғада өнимли фразеологиялық доминант екенлигин айтады [2.55-60]. «Улыўма бас сөзи адамзат санасында, әсиресе түркий халықлардың миллий инаным, түсиниклеринде кийели уғым. Бас сөзинен жасалған соматикалық фразеологизмлер басқа дене мүшелери атамалары доминантлығында келген фразеологизмлерге қарағанда аңлататуғын мәниси бойынша, эмоциональлық-экспрессивлик бояўы жағынан да белгили салмаққа ийе. Бас сөзи – ақыл, сана, даналық, биринширлик, жоқарылық, үстемлик, улыўма адамды басқарыўшы күш сыпатындағы мәнини де аңлатады.

Соның менен бирге, бул фразеологизмлерде халықтың салт-дәстүри, турмыс-тиришилиги, қоршаған орталықты таныў, аңлаў, билиў түсиниги, халықлық қәдирият, менталитет өзгешелигин де қамтыйды» [1.56].

Инсанның қандайда бир қыйыншылыққа дус келгени яки бахытсызлыққа ушырағаны басына ис түсти, басына саўда түсти, басына салды, басына қайғы салды, басынан дәўлети ушты, т.б. фразеологизмлери арқалы аңлатылады. Басына ис түсти фразеологизми қыйыншылыққа ушырады, бир бәлеге жолықты [3.31] сыяқлы мәнилерди аңлатыў ушын жумсалады. Қандай ис басыңа түсти ақ боз ат («Ақ боз ат», 209-бет). Қазақ тилинде мүтәжликке ушырады, аўыр халға тап болды, қыйын-қыстаў күн туўды, мүсәпир болды сыяқлы мәнилерди де аңлатады [2.58]. Өзбек тилинде болса бул фразеологизм сийрек ушырасады. Басына саўда түсти фразеологизми формалық жақтан да, мәнилик жақтан да жоқарыдағы фразеологизмге жақын болып, қыйналыў, қайғырыў, күйиниў мәнилерин билдиреди [3.31]. Не саўдалар түсти мениң басыма («Муңлы қыз», 197-бет). Басқа түркий тиллерде, соның ишинде қазақ ҳәм өзбек тиллеринде бул фразеологизм дерлик ушыраспайды. Басына салды фразеологизми жаманлық иследи, қыйыншылыққа дуўшар етти мәнилерин билдиреди [3.31]. Қудайым өлимди басыңа салғанын («Қоңыратбай», 205-бет). Пәлек басқа салса қыйын дәрт екен («Халқабадты сағындым», 157-бет). Қазақ тилинде басына қудай салды формасында ушырасалы, бир иске дуўшар болды, көнбеўге шара қалмады, шарасыз күн болды мәнисин аңлатады [2.58]. Өзбек тилинде болса бундай фразеологизм дерлик жумсалмайды. Басына қайғы салды фразеологизми қыйналыў, азапланыў мәнилерин аңлатады [3.31]. Қайғы бир түсти басыма («Жоқлаў», 217-бет). Тәңирим басқа қайғы дәртлер салады («Муңлы қыз», 197-бет). Қазақ тилинде де усы мәнини билдиреди [2.58]. Өзбек тилинде болса қолланылмайды. Басынан дәўлети ушты фразеолигзми бурынғы дәўири өтти, бахыты тайды мәнилерин билдиреди [3.31]. Келген қайғы ҳәсирет, Басыңнан дәўлет кетпесин («Естелик альбом қосықлары», (155-бет). Қазақ тилинде бул фразеологизмниң басынан қусы кетти варианты қолланылып, бахты тайды, сәтсизликке ушырады мәнилерин аңлатады [2.59].

Сондай-ақ «бас» сөзи қатнасқан төмендегидей фразеологизмлер де жумсалған: Бас қосыў фразелогизми бирлесиў, шөлкемлесиў, сондай-ақ турмыс қурыў, үйлениў мәнилерин де аңлатады [3.29]. Еки яқшы бул дүньяда бас қосса (350-бет) Абысын менен бас қоссаң, Ҳеш ўақ кетпес намысың («Бет ашар, 54-бет»). Бул фразеологизм қазақ тилинде бир жерге жыйналыў, мәжилис қурыў, кеңесиў ҳәм биригип турмыс күрыў, үйли-жайлы болыў [2.56], ал өзбек тилинде болса араласыў ҳәм қатнасыў мәнилерин аңлатады [4.57]. Демек, оның аңлататуғын мәниси қарақалпақ ҳәм қазақ тиллеринде дерлик бирдей, ал өзбек тили менен салыстырғанда азы-кем өзгешелик сезиледи. Бастан аяқ

фразеологизми ҳаммесин, тутас, түўел мәнилерин аңлатады [3.29]. Бастан аяқ билип ал, Билгениңди илип ал («Нәсият айтымал», 44-бет) Бул фразеологизм қазақ тилинде де [2.57], өзбек тилинде де [4.45] дәл усы мәнини аңлатады. Басына жетти фразеологизми қурбан болыў, жоқ қылыў өлтириў, қуртыў мәнилерин билдиреди [3.30]. Бул сум дүнья басларыма жетти деп («Әкеме жоқлаў», 233-бет). Қазақ тилинде [2.58] ҳәм өзбек тилинде [4.46] жоқ қылыў өлтириў мәнилерин аңлатады.

Халық қосықларында ҳәдден тыс қуўаныў, шадланыў мәнисин аңлатыў ушын, әсиресе бет ашар қосықларында келин түсирип атырған қәйин ененің қуўанышқа толы сезимлерин билдириў мақсетинде төбеси көкке жетиў фразеологизми жийи қолланылған. Төбеси көкке жетти фразеологизми қатты қуўаныў, мәс болыў мәнилерин билдирип келеди [3.149]. Келин келди дегенде, Көкке жетер төбеси («Бет ашар», 50-бет). Ийилип сәлем берген соң, Көкке жетти төбеси («Бет ашар», 54-бет). Бул фразеологизм қазақ тилинде төбеси көкке еки-ақ ели жетпеди (тиймей қалды), төбесин көкке жеткизди (тийгизди) формаларында да қолланылып, қатты қуўаныў, шадланыў, қуўанышы тасыў мәнилерин аңлатады [2.282]. Өзбек тилинде болса басы көкке жетти, басы аспанға жетти формаларында қолланылып, қатты қуўаныў деген мәнини аңлатады [4.49].

«Бас» - адамның дене мүшелериниң орны бойынша барлық мүшелердиң ең жоқарысында жайласқан. Бас адамды бағдарлайтуғын, барлық ис-ҳәрекетлерин нусқап көрсететуғын хызмети менен бирге, бас мий яғный, ақыл-сананың жайласқан орны [1.58]. Сонлықтан бул соматизм қатнасып келген фразеологизмлер барлық ўақытта жоқарылық, ақыллылық, басшылық мәнилерин аңлатыў ушын хызмет етеди.

Үркек, қашаған ҳайўанларды қолға үйретиў ушын мойынына қурық (арқан) салынған. Халық арасындағы мойынына арқан (қурық) салыў фразеологизми де дегенине көндириў, бағындырыў мәнилерин аңлатады [3.124]. Әсиресе ата-анасының мәжбүрлеўи менен өз теңине қосыла алмаған қызлардың тәғдири төмендеги қосық қатарларында усы фразеологизм арқалы билдирилген: Бермеймен деген жан әкем, Мойныма қурық салды («Бәйит», 161-бет). Бул фразеологизм қазақ тилинде де усы формада ҳәм мәниде жумсалады [2.217]. Өзбек тилинде болса ушыраспайды.

Адамның қандайда бир қыйын аҳўалын яки жақын инсанынан ажыралыў сыяқлы ҳалатын аңлатыў ушын маңлайы қурыды фразеологизми қолланылады. Ол сорлаў, жолы болмаў, сәтсизликке ушыраў сыяқлы мәнилерди билдиреди [3.121]. Қалғаныма анаңның маңлайы қурып («Игамның аўзынан айтқан сәлеми», 240-бет). Туўысқан түркий тиллерде, соның ишинде қазақ ҳәм өзбек тиллеринде бул фразеологизм қолланылмайды. Және де маңлай сөзи қатнасып

келген маңлайынан сыйпады фразеологизми де ушырасады. Ол ғамхорлық етиў, аяў, жарылқаў мәнилерин билдиреди [3.121]. Өзиңнен қалған жалғыздың, Маңлайынан ким сыйпар («Жоқлаў», 201-бет). Қазақ тилинде де усы мәнилерди аңлатады [2.214]. Өзбек тилинде болса дерлик қолланылмайды.

Халық қосықларында «қол» сөзи менен байланыслы бирқанша фразеологизмлер жумсалған, олар ҳәр қыйлы мәнилерди аңлатып келген. Мәселен, қол бериў фразеологизми жәрдемлести; шәкирт болды; ўәделести мәнилерин билдиреди [3.111]. Қытай қызы киятыр жол бериңиз, Он төрт урыў жыйналып қол бериңиз («Той қосықлары», 28-бет). Қазақ тилинде бул фразеологизм ийшан, пир, тәўип т.б. жолын қуўыў, услаған жолына түсиў, бас ийиў мәнилерин аңлатады [2.189]. Өзбек тилинде сәлемлесиў; ийшан яки тәўипке шәкирт болыў мәнилерин аңлатады [4.295]. Жоқарыдағы қосық қатарларында болса сәлемлесиў мәнисинде жумсалған. Оған синоним ретинде қолынан алыў фразеологизми де ушырасады, сәлемлесиў, көрисиў мәнилерин билдиреди [3.114]. Алып қолларынан сәлем дегейсең («Бәйит», 166-бет). Сондай-ақ, «қол» компоненти қатнасқан қолы тиймеў фразеологизми бос ўақты жоқ, жумысы көп, бәнт сыяқлы мәнилерди аңлатады [3.115]. Барыўға сизлерге қолым тиймейди («Иним», 173-бет). Қазақ тилинде тап усы формада ушырасады [2.191] Өзбек тилинде болса қолы тийсе формасында қолланылып, жүдә бәнт болғанлығы ушын ўақыт таба алмаў мәнисин аңлатады [4.302].

«Қол» сөзи қатнасқан фразеологизмлер тек ғана «сәлемлесиў» мәнисин емес, адамның ҳәр қыйлы психологиялық ҳалатын, характерин де билдирип келеди. Мәселен, қолы бармаў фразеологизми қорқыў, қәлемеў мәнилерин билдиреди [3.113]. Арнап хат жазыўға қолың бармай ма («Альбом қосықларынан», 148-бет). Қазақ тилинде бул фразеологизм дерлик ушыраспайды. Өзбек тилинде болса қандайда бир нәрсени ислеўге кирисе алмаў мәнисин аңлатады [4.299]. Ал, қолын бериў фразеологизми болса жарасыў, келисиў мәнилерин аңлатады [3.114]. Сүйген ярым қолыңды бер («Сәлем хат», 131-бет). Туўысқан түркий тиллерде, соның ишинде қазақ ҳәм өзбек тиллеринде бул фразеологизм қолланылмайды. Қол салыў фразеологизми болса урлаў, күш көрсетиў, тәўекел етиў мәнилерин билдиреди [3.112]. Мен сорлыға пәнже салды, қол салды («Бармекен», 194-бет). Қазақ тилинде иске кирисиў ҳәм күш көрсетиў мәнилеринде жумсалады [2.191].

Қарақалпақ халық қосықларында қолланылған айырым фразеологизмлер қарақалпақ тилиндеги фразеологиялық сөзликлерде берилмеген: Жолыңа айдай қараған, Бармағын бүгип санаған («Бет ашар», 58-бет). Яғный күтип атырған инсанының қашан, қайсы күни келиўин асығып, күн санап күтиў сыяқлы аўыспалы мәнини аңлатыў ушын бармағын бүгип санаў фразеологизми жумсалған.

Халық қосықларында қарақалпақ миллетиниң бай үрп-әдет ҳәм дәстүрлери өз сәўлелениўин тапқан. Әсиресе той қосықларында халқымыздың миймандослығы, қонаққа болған айрықша ҳүрмет-иззетин көриўимизге болады. Тойға келгенлерди күтип алыў, оларды жақсылап күтиў ушын ағайин-туўған, қоңсы-қоба аянбастан, шын кеўилден хызмет еткен. Бул тик (аяқтан) турыў (хызмет етиў, ҳүрмет көрсетиў мәнилеринде жумсалады [3.146]). фразеолозизми арқалы аңлатылған, Еки жастың тойында, Тик аяқтан турайық («Бет ашар», 57-бет). Қазақ тилинде тик турыў, тик турып күтиў формаларында жумсалып, барынша хызмет етиў, жақсылап күтиў мәнилерин аңлатады [2.292].

Және де «аяқ» сөзи қатнасқан аяғына басыў фразеологизми хорлаў, қыйнаў, менсинбеў сыяқлы мәнилерди аңлатады [3.23]. Душпанларды аяғыма баспадым («Сәлем», 142-бет). Қазақ тилинде аяққа басыў, аяғына таптаў формасында ушырасады, хорлаў, ар-намысына тийиў мәнилерин аңлатады [2.45]. Өзбек тилинде аяқ асты болыў, аяқ асты қылыў түринде қолланылып, хорлаў мәнисин аңлатады [4.188].

Халқымыз арасында «Ағам барда арқам тамда» даналық сөзи жийи ушырасады. Егер сүйениш ҳәм тирек бола алатуғын инсанымыз болса биз өзимизди ҳәрдайым исенимли ҳәм арқайын тутамыз. Бундай мәнини аңлатып келген аўыспалы мәнили тил бирликлери қурамында көбинесе «арқа» компоненти қатнасып келеди. Арқа сүйери фразеологизми де солардан бири болып, ол ғамхоршы, жәрдемши, қоллаўшы, қәўендер сыяқлы мәнилерди билдиреди [3.13]. Айнанайын ел журтым, Арқа сүйер өзиңсең («Муң қосықлары», 186-бет). Қазақ тилинде арқа сүйеў, арқа тиреў, арқа тутыў формаларында жумсалады, сүйениш қылыў, тирек етиў мәнилерин аңлатады [2.29].

Буннан басқа «бет» компоненти қатнасқан бетине қарамаў фразеологизми жумсалған, ол тартынбаў, аяп отырмаў мәнилерин билдиреди [3.37]. Өзиңнен үлкен адамның, Бетине тике қарама («Бет ашар», 49-бет). Қазақ тилинде бетине туўра қарамады формасында қолланылады, жасқаныў, қаймығыў мәнилерин аңлатады [267]. Өзбек тилинде бул фразеологизм дерлик қолланылмайды.

Жуўмақлап айтқанда, халық қосықларында жумсалған соматикалық фразеологизмлерди, соның ишинде адамның сыртқы ағзалары атамалары қатнасқан фразеологизмлердиң айырымларын үйрениў арқалы төмендегидей жуўмаққа келдик:

1. Халық қосықларында бас соматизми қатнасқан фразеологизмлер басқа соматизмлерге салыстырғанда көпшиликти қурайды, сондай-ақ оларда унамсыз оттенок басым болып келген.

2. Фразеологизмлердиң көпшилиги формалық жақтан да, мәнилик жақтан да туўысқан түркий тиллери (өзбек ҳәм қазақ тиллери) менен салыстырғанда

дерлик бирдей. Тек қарақалпақ тилиндеги айырым фразеологизмлер басқа түркий тиллерде (қазақ ҳәм өзбек тиллеринде) ушыраспайды, айырымларының формасы бирдей болғаны менен аңлататуғын мәнилери ҳәр қыйлы.

3. Олар арасындағы бундай уқсаслық ҳәм жақынлық бул халықлардың қоңсылас жасағанлығынан, мәденияты менен үрп-әдет ҳәм дәстүрлериниң, дүнья танымының уқсас болғанлығынан дерек береди. Бул болса тиллик бирликлерде өз сәўлелениўин тапқан.

Әдебиятлар:

1.Бекниязов Б.К. Қарақалпақстан қазақлары тилиндеги соматикалық фразеологизмлердиң лингвомәдений анализи. Филол.илим.док. (PhD). дисс. – Нөкис. 2021. –Б. 135.

2.Кеңесбаев І. Қазақ тілінің фразеологиялық сөздігі. – Алматы. ҚазАқпарат. 2007. 356 б.

3.Паҳратдинов Қ., Бекниязов Қ. Қарақалпақ тилиниң фразеологизмлер сөзлиги. – Нөкис. Qaraqalpaqstan. 2018. 160 б.

4.Рахматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Тошкент. Ўқитувчи. 1978. 405 б.

5.Қарақалпақ фольклоры. Көп томлық. V том. Қарақалпақ халық қосықлары ҳәм салт жырлары. –Нөкис. Қарақалпақстан. 1980. 467 б.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI GLABALLASHUV JARAYONIDA MA’NAVIY HURUJLARDAN HIMOYA QILISH TEXNOLOGIYASI

Normurodova Aziza Karim qizi
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti ta'lim tarbiya nazariyasi va metodikasi boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 1-kurs magistranti
Ashurov Nazar Raxmatullayevich
Ilmiy raxbar pedagogika fanlari nomzodi, dotsent
https://doi.org/10.5281/zenodo.7257083

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilari uchun ahamiyatli bo‘lgan globallashuv jarayonining dolzarbligi va yoshlarni undan muhofaza qilish yo‘llari hamda milliy mafkura orqali shu kabi ma’naviy hurujlardan himoyalanish texnologiyasi haqida batafsil bayon qilinadi.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta’lim, milliy mafkura, o‘quvchilar psixologiyasi, globallashuv, ma’naviy huruj va h.k.

Аннотация: В данной статье подробно рассматривается актуальность процесса глобализации, важного для младших школьников, и способы защиты от него молодежи, а также технологии защиты от подобных духовных атак через национальную идеологию.

Ключевые слова: начальное образование, национальная идеология, студенческая психология, глобализация, духовность и др.

Annotation: This article discusses in detail the relevance of the globalization process, which is important for primary school students, and ways to protect young people from it, as well as the technology of protection against similar spiritual attacks through national ideology.

Keywords: primary education, national ideology, student psychology, globalization, spirituality, etc.

Bugungi globallashuv jarayonida insoniyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi tubdan o‘zgarib ketdi. Bu o‘zgarishlar natijasida bir qator dolzarb ahamiyatli, ta’sir doirasi jahon hamjamiyatini qamrab olgan, bashariyatning kelajakdagi ijtimoiy taraqqiyotini belgilab berayotgan muammolar vujudga keldi. Bu muammolar insoniyatning global muammolari deb ataladi hamda ularning echimini topish yo‘lida barcha davlatlarning kuch-qudrati, imkoniyat-harakatlari jamlanishi maqsadga muvofiq. Global muammolardan tinchlikni saqlash va qurolsizlanish muammosi eng universal ahamiyatga ega, chunki bu muammo hal etilmasa, Yer yuzida hayot va sivilizatsiyaning kelajagi o‘ta achinarli ahvolga kelishi muqarrar. Insoniyat tarixida,

ba’zi ma’lumotlarga ko‘ra, jami 14 mingdan ortiq urushlar ro‘y bergan va ming afsuski, harbiy mojaro va ziddiyatlar sayyoramizning turli hududlarida hanuzgacha yuz bermoqda. Lekin, global darajada bu muammo jami 70 milliondan ziyod kishi qurbon bo‘lgan ikkita jahon urushi bo‘lib o‘tgan XX asrda keskinlashdi. Hozirgi vaqtda AQSh, Rossiya Federatsiyasi, Buyuk Britaniya, Fransiya, Xitoy, Hindiston va Pokiston jahon hamjamiyatining rasman tan olingan yadroviy qurolga ega davlatlari hisoblanadi.

Boshlang`ich sinf o`quvchilarida milliy g`oya asosida vatanga e`tiqodni tarbiyalash omillaridan yana biri tilning sofligini, tozaligini saqlash va bunga o`quvchilarni chorlashdir. Chunki xalqimizning uzoq o`tmishi, bugungi xayoti-yu ertangi istiqboli mujassamlashgan tilimizda millatning milliy-ma`naviy ruhi, madaniy-ma`rifiy qiyofasi butun murakkabligi bilan namoyon bo‘ladi. Boshlang`ich ta`limda mafkuraviy tarbiya yo`nalishlaridan yana biri – insonning o`z imkoniyatlarini erkin nomoyon qilishi, ijodiy fikrlashga o`rgatish, ijtimoiy-siyosiy faollikni, kattalar ishini davom ettirish mas`uliyatini anglash, boshqaruv ishlarini tushuntirishni tarbiyalash lozim. Boshlang`ich sinf o`quvchilarini milliy g`oya ruhida tarbiyalashda milliy qadriyatlarning o`rni beqiyosdir. Milliy qadriyatlar o`quvchilarni vatanga e`tiqodli, xalqiga sodiq yoshlarni tarbiyalashda muhim o`rin tutadi. Biz tadqiqotlarimiz davomida boshlang`ich sinf o`quvchilarining Vatan, Vatanga e`tiqod xaqida kanday tushunchaga ega ekanliklarini aniqlash maqsadida, o`quvchilar bilan og`zaki savol-javoblar uyushtirdik. Savollarni tuzishdan oldin ularning yosh va psixologik jihatlarini hisobga oldik.

Boshlang`ich sinf o`quvchilarining ruhiy-ma`naviy holatini bilgan holda, axloqiy fazilatlarni yuksak darajada shakllantirish va milliy qadriyatlarga bo`lgan munosabatni o`zgartirish orqali Vatanga e`tiqod tuyg`usini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega. Bu ruhiy-ma`naviy holat darsliklarda aks etgan mavzu yuzasidan o`qituvchi tomonidan qilingan hikoya, suxbat yoki ko`rinish tarzida, xalq og`zaki ijodi namunalarini tinglaganda, ayniqsa, Vatan fidoiylarining qaxramonliklarini hikoya qilganda sodir bo`ladi. Bizga ma`lumki, bolalik deb atalmish bu davr o`zining ishonuvchanligi, taqlidchanligi, qiziquvchanligi hamda soddaligi bilan ular hayotida uchmas iz qoldiradi. Ular yuqoridagi voqealarni tinglaganlarida, o`sha qaxramonlarga o`xshagisi keladi, o`zlarining uyinlarida ularga taqlid qiladilar, ular albatta xalq ximoyachisi va Vatanga e`tiqodli insonlar bo`lishga harakat qila boshlaydilar. Biz boshlang`ich sinflarda milliy qadriyatlar orqali Vatanga e`tiqodni tarbiyalashni asosiy omili bo`lgan dars jarayonida Vatanga e`tiqodni tarbiyalash samaradorligini oshirishda quyidagi tarbiya metodlardan foydalanishni maqsadga muvofiqdir deb bildik: kuzatish va nazorat qilish, suhbat, hikoya, tushuntirish, rag`batlantirish, tanbih berish, ma`qullash, ko`rgazmalilik, namuna ko`rsatish, ishontirish, bahs va munozara metodlardan keng foydalanish lozimdir.

Bugungi kunga kelib globallashuv jarayonida dunyoda g‘oyaviy, mafkuraviy kurash ya’ni dunyoni g‘oyaviy jihatdan bo‘lib olishga bo‘lgan urinish kuchayib bormoqda. Albatta, bunday vaziyatda mustaqilligimizni mustahkamlash, uning barqarorligini, farovonligini, tinchligini va kelajagini ta’minlash har birimizning yuksak burchimizdir. Globallashuv sharoitida ma’naviy tahdidlardan xalqni, xususan o‘sib kelayotgan yoshlarni asrash, ularning qalbiga ezgulik g‘oyalarini singdirish jamiyat hayotining barcha sohalarida izchil amalga oshirilmoqda. Ta’lim tizimining barcha bug‘inlarida ta’lim-tarbiya, targ‘ibot va tashviqotning samarali usul va vositalaridan oqilona foydalanish taqozo etilmoqda. Bugungi kunda globallashuvning ijtimoiy hayotimiz bilan bog‘liqligi xususida Prezidentimiz Sh.M.Miriziyoev o‘z fikrlarini bildirar ekan, “Yangi tahdidlar, jumladan, «ommaviy madaniyat» xavfi va boqimandalik kayfiyati paydo bo‘layotgan,odob-axloq, qadriyatlarning yo‘qolish xavfi yuzaga kelayotgan hozirgi globallashuv sharoitida bu g‘oyat muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu sababli, mening fikrimcha, inson ma’naviy olami, xalqlar madaniyatini belgilaydigan manbalarni asrab-avaylash va boyitish bugungi kunda har qachongidan ham muhimdir”, - deb ta’kidlaydilar.

Bugun dunyo taraqqiyoti shu darajaga etdiki, endi mafkuraviy kurash, ma’naviy salohiyat etakchi o‘ringa chiqdi. Insoniyat taraqqiyoti turli tahdidlar ta’siriga tushib qoldi, xavfsizlik va barqarorligiga rahna solishga, hatto uning hayotini izdan chiqarishga qaratilgan tahdidlar kundan – kunga kuchayib bormoqda endi qurol-yaroqlar emas, balki “fikrga qarshi faqat fikr, g‘oyaga qarshi faqat g‘oya” bilan kurashib olg‘a borish mumkin. Mafkuraviy kurash bir jamiyat, mamlakat ichida ham, xalqaro va davlatlararo miqyosda ham davom etmoqda. Hozirgi vaqtda mafkuraviy vositalar orqali o‘z ta’sir doirasini kengaytirishga intilayotgan siyosiy kuchlar va harakatlar tobora keskinlashib bormoqda.5 Muayyan millat, jamiyat, davlatning tinchligi va barqarorligiga qarshi qaratilgan, siyosiy va konstitutsion tizimni zaiflashtirish va buzishga yo‘naltirilgan, fuqaro va jamiyat xavfsizligiga tahdid soluvchi mafkuraviy tajovuzlar keskinlashmoqda. Bunday tajovuzga qo‘l urayotganlar o‘z yovuz maqsadlariga erishish uchun har qanday usullardan, odamlarning diniy, milliy hissiyotlari, hayotda mavjud bo‘lgan ijtimoiy-iqtisodiy qiyinchiliklaridan ustalik bilan foydalanishga harakat qiladilar. Bugungi kunda ularning aholining ma’lum bir qatlamlari, ayniqsa, yoshlarning qalbi va ongini o‘zlariga ma’qul bo‘lgan g‘oya bilan egallashlari, ya’ni buzg‘unchi g‘oyalar, diniy ekstremizm, g‘oyalarini singdirish kabi g‘arazli maqsadlari xalqqa ayon bo‘lib bormoqda. Ushbu tahdidlar dunyoning turli buzg‘unchi kuchlari tamonidan shunday ustakorlik bilan tarqatilmoqdaki, u o‘zining jozibali tasir kuchi orqali ko‘plab insonlarni kundan – kunga o‘z domiga tortib bormoqda. “Tahdid” deganda inson hayotiy faoliyati, umuman, yashashni chigallashtiruvchi hamda tarixiy davr davomida aniq maqsad uchun yo‘naltirilgan ijtimoiy strukturani, davlatning siyosiy

asosini zaiflashtiruvchi, qolaversa, emirishga qaratilgan mahalliy, hududiy, mintaqaviy ijtimoiy va tarixiy vaziyatni tushunish mumkin6.Albatta bunday buzg‘unchi g‘oyalar xamma joyda ham o‘z ta’sirini o‘tkazmay qolmaydi bunga faqat o‘zimizga ishonch bilan bir yoqadan bosh chiqarsak bu buzg‘unchi g‘oyaga qarshi kurashishimiz mamlakatimiz taraqqiyotini yanada rivojlanishiga xissa qo‘shgan bo‘lamiz.

Bugun dunyoning mafkuraviy manzarasida inson qalbi va ongiga ta’sir o‘tkazuvchi, turli xil vositalar bilan kurash olib boruvchi mafkuraviy poligonlar faoliyati tobora yaqqolroq ko‘zga tashlanmoqda. Taraqqiyotning hozirgi bosqichida jahonda g‘oyat murakkab va tahlikali jarayon kechmoqda. Bular dunyoning siyosiy, mafkuraiy manzarasidagi o‘zgarishlar, taraqqiyotning yangi bosqichiga ko‘tarilishi va bu taraqqiyotga g‘ov bo‘ladigan demokratik rivojlanishni izdan chikaradigan, jamiyat barqarorligiga rahnasoladigan g‘oyaviy-mafkuraviy to‘siqlarning paydo bo‘lishi bilan izohlanadi. Globallashuv jarayonida kishilarni, ayniqsa yoshlarni turli xil ko‘rinishdagi mafkuraviy xurujlar ta’siridan asrashda bir qator quyidagi jihatlarga alohida e’tibor qaratish zarur. Jumladan, mafkuraviy tahdidlarga qarshi doimo sergak, ogoh va hushyor bo‘lib yashash. Yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib etish, ularning ma’naviy ahloqiy tarbiyasini shakllantirish, yoshlar ongida vatanparvarlik, insonparvarlik, mehr-oqibat, el-yurt sha’nini ardoqlash kabi ulug‘vor fazilatlarni kamol toptirishda oila-mahalla-ta’lim muassasasi hamkorligi asosida ish tashkil etish.9 Bugungi axborotlar jadal kechayotgan bir vaqtda axborot xurujlari asiriga aylanmaslik. Demak, axborot kurashi avj olgan XXI asrda yoshlarni mafkuraviy xurujlardan himoya etishda ma’naviy-marifiy targ‘ibot ishlarining ta’sirchanligini oshirish, hayotimizda sodir bo‘layotgan ijobiy o‘zgarishlar haqidagi chuqur tahliliy ma’lumotlarii yosh avlodga etkazish, ularning ijtimoiy faolligini kuchaytirish har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Globallashuv so‘zining lug‘aviy ma’nosi xalqaro integratsiya, ya’ni butun dunyo aholisining bir ijtimoiy tuzum ostiga birlashishi, bir xil vazifa bajarishi protsessi tushuniladi. Globallashuvning mamlakatlar iqtisodiy siyosati va ma’naviyatiga o‘tkazishi mumkin bo‘lgan ijobiy va salbiy ta’siri xususida Hindistonning mashhur davlat arbobi Mahatma Gandining quyidagi so‘zlarida yaxshi ifodalangan: «Men uyimning darvoza va eshiklarini doim mahkam berkitib o‘tira olmayman, chunki uyimga toza havo kirib turishi kerak. Shu bilan birga, ochilgan eshik va derazalarimdan kirayotgan havo dovul bo‘lib uyimni ag‘dar-to‘ntar qilib tashlashi, o‘zimni esa yiqitib yuborishini ham istamayman». Shuning uchun ham milliy istiqlol g‘oyasi bugungi globallashuv jarayonida uyimizni, hayotimizni toza havo bilan ta’minlab, ayni paytda, «dovullar»dan saqlash omili ekanligini anglash mumkin. Globallashuv jarayonining hayotimizga tobora tez va chuqur kirib kelayotganining asosiy sababi esa, birinchi Prezidentimiz qayd etganlaridek, bugungi kunda har qaysi

davlatning taraqqiyoti va ravnaqi nafaqat yaqin va uzoq qo‘shnilar, balki jahon miqyosida boshqa mintaqa va hududlar bilan chambarchas bog‘lanib borayotganidadir. Biron mamlakatning bu jarayondan chetda turishi ijobiy natijalarga olib kelmaydi.

Har bir ijtimoiy xodisaning ijobiy va salbiy tomoni bo‘lganidek globallashuv jarayoni ham bundan mustasno emas. Globallashuvning ijobiy tomoni shundan iboratki, u xalqlarning, davlatlarning, milliy madaniyat va iqtisodiyotlarning yaqinlashishini tezlashtiradi, ularning rivojlanish uchun yangi imkoniyatlar ochadi. Globallashuvning salbiy tomoni esa, ko‘p ming-ming mayda, qoloq etnik guruhlar va millatlarning madaniyati, tili, rasm-rusmlari jahon bo‘ylab kuchayib borayotgan globallashuv jarayonlarida katta millatlar, yirik milliy madaniyatlar, boy tillar bilan raqobatlasha olmay, o‘z-o‘zidan faol ijtimoiy-iqtisodiy, lisoniy-zaboniy hayotdan chetga chiqib qolmoqda. Bunday sharoitda har bir ongli fuqaroning vazifasi – o‘z millatining raqobatbardoshligini ko‘tarish, buning uchun uning faol siyosati, tadbirkor iqtisodiyoti, madaniyatida salmoqli yutuqlari uchun kurashishdir. Hozirgi davr dunyo g‘oyaviy qarama-qarshiliklar murakkab tus olgan, mafkura poligonlari yadro poligonlaridan ham kuchliroq bo‘lib borayotgan davrdir. Dunyoda globallashuv, axborot oqimining tezlashuvi va intensiv-lashuvi, universal texnologiyalar bilan bog‘liq umumbashariy jarayonlar jadallashib bormoqdi. Bunday sharoitda mafkuraviy vositalar orqali o‘z ta’sir doirasini kengaytirishga intilayotgan siyosiy kuchlar va harakatlar ham yo‘q emas. Tajovuzkor millatchilik va shovinizm, neofashizm va fundamentalizm, irqchilik va diniy eksteremizm mafkuralari shular jumlasidandir. Natijada dunyoda inson qalbi va ongini egallash uchun kurash tobora kuchayib bormoqda. Umuman olganda, barcha tadqiqotchi olimlar global o‘zgarishlar madaniy o‘ziga xosliklarga, ayniqsa o‘sib kelayotgan yosh avlod tarbiyasiga, ularning ongi va mafkurasiga ta’sirini o‘tkazishini ta’kidlaydilar. Yosh avlodning miyasi hali yozilmagan oq qog‘oz misoli toza bo‘ladi. Unga nima yozilsa, kiritilsa, o‘sha narsa namoyon bo‘ladi. Biroq ushbu ta’sir doirasi to‘g‘risida har xil munosabat bildiradilar. Ma’lumki, xar kanday kasallikning oldini olish uchun avvalo, kishi organizmida unga karshi immunitet xosil kilinadi. Biz xam farzandlarimizni ona vatanga muxabbat, boy tariximizga, ota-bobolarimizning mukaddas diniga sadokat ruxida tarbiyalash uchun, avvalo ularni kalbi va ongida mafkuraviy immunitetni kuchaytirish lozim. Toki yoshlarimiz milliy uzligini, shu bilan birga, dunyoni chukur anglaydigan, zamon bilan baro-bar kadam tashlaydigan insonlar bulib etishsin. Ana shunda joxil akida parastlarning da’vati xam, mutlako begona goyalari xam ularga uz ta’sirini utkaza olmaydi. Imom Buxoriy (810-870), “Bolaning tabiati islomiy (bu o‘rinda “ishonuvchan”) bo‘ladi, uni qanday g‘oyalar bilan to‘ldirish ota-ona va ustozga bog‘liq”. Globallashuv jarayonida internet yangi aloqaviy vositadir. Globallashuv jarayonida kishilar internetdan xohlagan manbani topadi. Internet

ko‘pchilikni birlashtiradi yoki ajratishi ham mumkin, bundan tashqari agressiv maqsadda ishlaydi, ya’ni u mafkuraviy urush qurolidir, buni ilmda «kiberterrorizm» deydi. Aslida axborot sohasidagi globallashuv insoniyat uchun, dunyoning barcha hududlaridagi odamlarning o‘zaro muloqoti uchun, ilm-fan va madaniy boyliklarni o‘zlashtirish uchun ulkan imkoniyatlar yaratadigan jarayondir.

Global miqyosda insoniyatning ba’zi masalalarda murosaga yuzlanishiga to‘g‘ri keladi. Shulardan biri, bizningcha, internetda terrorizmni parvarishlovchi sahifalarni nazorat qilishga yo‘naltirilgan hamkorlikdir. Shunisi qiziqki, bu veb sahifalarning qurboni faqatgina yoshlar emas, balki katta yoshdagi kishilar ham o‘zining ma’naviy boyligining to‘liq emasligi hamda buzg‘unchi g‘oyalarga moyilligi tufayli qurbonga aylanmoqdalar. Buning uchun, terroristik deb tan olingan guruhlar, kimsalarga mutaxassislar tomonidan tan olingan saytlarga serverlardan joy bermaslik, ularni yopishga qaratilgan chora-tadbirlarni qilish maqsadga muvofiqdir. Bu o‘rinda BMT katta rol o‘ynashi mumkin.

Bugungi kunda mamlakamizda olib borilayotgan barcha ishlarning, islohotlarning negizida yosh avlodni haqiqiy Vatanga e`tiqodli, ma`naviy-axloqiy, insoniy fazilatlari yuksak darajada shakllangan insonlar qilib tarbiyalash yotadi. Mamlakatimiz rivojlanish jarayonini boshidan kechirayotgan bir paytda, yoshlarda mustahkam e`tiqodni shakllantirish davr talabidir. Yoshlarimizda Vatan ravnaqi yulida xizmat qilish, Vatan manfaatini o`z manfaatlaridan ustun qo`yish, Vatanni qo`riqlash, yurt tabiati va boyliklarini asrash eng asosiysi Vatanga nisbatan chin e`tiqodni tarbiyalash o`qituvchi-pedagoglarning hayotiy vazifasidir. Toki Vatan muqaddas tushuncha ekan, shu Vatan tuprog`i va millat sha`ni uchun jon bergan bobolarning, aka-ukalarning xotirasi hurmati yoshlarni xaqiqiy Vatanga e`tiqodli insonlar qilib yetishtirishning ayni vaqtidir. Mamlakatimizni rivojlantirish, dunyo miqyosiga olib chiqish bugungi yosh avlodning burchi va vazifasidir. Bu borada ularda yuqorida aytganimizdek chin e`tiqodni shakllantirish, ularni qo`llab-quvvatlash xalqimiz va hukumatimizning vazifasidir. Buyuk alloma, mutafakkirlarimiz ning ma`naviy merosi, xalqimizning boy og`zaki ijodi, yozma manbalari, go`zal bayramlari hamda urf-odatlari, xalq xunarmandchiligi, o`lkashunoslik manbalari yosh avlodni har tomonlama yetuk insonlar qilib tarbiyalash borasidagi benihoya qimmatli boylikdir. Maktabda milliy qistiqlol g`oyasini o`rganish natijasida o`quvchilarda axloqiy sifatlarning yanada takomillashuvi bilan birga, kelajakda, hayotda, jamiyatda o`z yullarini tanlashi, mustahkam e`tiqodli insonlar bo`lib yetishuviga hamda o`zlarida mavjud bo`lgan xatolarni tuzatishga yordam beradi. Boshlang`ich sinf o`quvchilarini Vatanga e`tiqodli insonlar bo`lib yetishuvida maktab va oila hamkorligining ustuvorligini rad etmagan holda, bu ishlarga ota-onalarni jalb etish bilan birga, ular bolalarga ibrat bo`lishlari, avvalo o`zlari ham Vatan tushunchasini muqaddas hisoblab, milliy

qadriyatlarni yaxshi bilishlari, milliy qadriyatlarimizga nisbatan farzandlarida hurmat hissini tarbiyalab borishlari kerak.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda mafkuraviy tahdidlar aholining ma'lum bir qatlami, ayniqsa, yoshlarning qarashlarini o'zlariga ma'qul bo'lgan yo'nalishda o'zgartirish, diniy ekstremizm, axloqsizlik kabi buzg'unchi g'oyalarni singdirishga urinishdek ko'rinishlarda sodir bo'lmoqda. Mafkuraviy tahdidlarga qarshi doimo sergak, ogoh va hushyor bo'lib yashashni o'rganish, murakkab va tahlikali hayotning shafqatsiz o'yinlari to'g'risida biryoqlama va soxta tasavvurlar shakllanmasligiga alohida e'tibor berish lozim. Buning uchun insonlarda sog'lom hayot tarzi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat-ehtirom, o'z kuchiga va ertangi kunga ishonch tuyg'ularini yanada kamol toptirish zarur. Boshqalarning tasavvuriga muvofiq, globallashuv iqtisodiy sohada emas, balki diniy sohada katta xavf-xatar tayyorlamoqda, chunki, globalizm va axborot dunyoviy xarakterga ega bo'lgan bir paytda xudosizlik targ'iboti bilan uyg'unlashtiriladi. Yana boshqalarning qarashlarida globallashuv millatga va milliy o'ziga xoslikka putur etkazadi. Madaniy, shu jumladan diniy qadriyatlar, turmush tarzi ham xavf ostida qoladi. Bunday yondashuvga moyillik bildirayotgan fan va siyosat arboblari uchun madaniy o'ziga xoslikni saqlashga intilish asosiy maqsaddir. Chunki hozirda internet tarmog'idan foydalanadiganlarning asosiy qismini yoshlar tashkil qilmoqda. Yoshlar esa millat va davlat kelajagidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Mirziyoev.Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat biln davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild –T.: O'zbekiston, 2018. 29-30-betlar.

2.Mirziyoev.Sh.M..Jamiyatimizni erkinlashtirish, islohotlarni chuqurlashtirish, ma'naviyatimizni yuksaltirish va xalqimizning hayot darajasini oshirish – barcha ishlarimizning mezoni va maqsadidir. T. 15. -T.: O'zbekiston. 2017. –326 b.

3.Safoeva. S. Globallashuv jarayonining ijtimoiy hayot sohalariga ta'siri. // Globallashuv jarayonida jamiyatni demokratlashtirishning siyosiy, falsafiyhuquqiy masalalari. –Toshkent: Falsafa va huquq nashriyoti, 2006, 27-bet.

4.Quchqarov. V. Milliy o'zlikni anglash va barqaror taraqqiyot T.: Akademiya, 2013 67-bet

5.Zokirov B. G'arb tamadduni: inqiroz alomatlari // Tafakkur, 2007. №2. – 23 b.

6.Quronov. M Mafkuraviy tahdidlar va yoshlar tarbiyasi T.: Akademiya,2008 54- bet

7.PULATOV SH.N. XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Hindistondagi ijtimoiysiyosiy vaziyat. Academic Research In Educational Sciences. Volume 1. 2020 468-474 P.

8.Po‘latov, Sh.N., Rabindranat Tagorning Hindiston ilm-ma’rifatga qo‘shgan xissasi.// “SCIENCE AND EDUCATION” Scientific journal Volume 1, Special issue 2020 136-144 P.

9.Po‘latov, Sh.N., Hindistonda pedagogik ta’limning rivojlanish bosqichlari. //“SCIENCE AND EDUCATION” Scientific journal Volume 1, Special issue 2020 21-27 P.

10.Jurayev SH.S., Abu Ali ibn Sinoning falsafiy qarashlarida baxt-saodat masalasi // Academic Research in Educational Sciences, 2 (Special Issue 1), 395-401 P.

11.Saidov S.A., Ibn al-Muqaffaning islom tarjima san’atiga qo‘shgan hissasi. // “Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences” Scientific journal Volume 1, 2021. 332-336 P.

12.Sulaymonov, J. Abdurahmon ibn Xaldunning tamaddun taraqqiyoti haqidagi qarashlarida jamiyat tahlili//Academic Research in Educational Sciences, Vol. 2 Special Issue 1, 2021. 451-455 R.

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH YO‘LLARI

Umarova Fariza Huvaydullayev
Navoiy viloyati Xatirchi tumani
39-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7257102

O‘quvchilarning fikr doirasi, ongi, dunyoqarashlarini o‘stirish, ularni erkin tinglovchidan erkin ishtirokchiga aylantirmoq nihoyatda muhimdir. O‘qituvchi darsda boshqaruvchi o‘quvchilar esa, ishtirokchiga aylanmog‘i lozim. Ana shu vazifani uddalashda innovatsion faoliyat ustunligi ko‘p qirrali samara keltiradi.

Ta`lim jarayonida ilg‘or pedagogik texnologiyalarni faol qo‘llash, ta`lim samaradorligini oshirish, tahlil qilish va amaliyotga joriy etish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir.

Boshlang‘ich ta`lim umumta`lim maktablarining bosh bo‘g‘ini bo‘lgani sababli ana shu jarayonda o‘quvchi shaxsining mukammal rivojlanib borishiga ko‘proq e`tibor berish lozim. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining mas`uliyatlari cheksizdir. Ular maktab ostonasiga endigina qadam qo‘ygan o‘quvchilarni maktab hayotiga ko‘niktirib, zamonaviy bilim olishlariga yo‘l ochib beradilar. Bolalarning o‘qishga munosabatlari, aqliy salohiyatlari ana shu davrda shakllanadi. Bu ham boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining vazifasi mas`uliyatli ekanligini ko‘rsatadi.

Pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan darslar tashkiliy usullari, o‘tkazish metodlariga ko‘ra o‘quvchi ehtiyojiga mos tushishi kerak. Chunki bunday darslar bola ruhiyatiga yaqinroq bo‘ladi. O‘quvchilarning o‘quv materiallarini o‘zlashtirishga bo‘lgan qiziqish, xohish va istaklarini qo‘zg‘otish asosida maqsadga erishish motivatsiya bo‘lib, bu o‘qituvchi va o‘quvchilarning o‘zaro ichki yaqinlashuvidir.

Boshlang‘ich sinfda ta`lim jarayonida o‘quvchilarning o‘qish motivini rivojlantirish katta ahamiyatga ega. Chunki motiv o‘quvchilarni ta`lim jarayoniga qiziqtiradi, darsga faol qatnashishga, bilimlarni egallashga undaydi. Interfaol metodlar o‘qish motivini rivojlantirishga katta yordam beradi.

Boshlang‘ich sinflarda ko‘proq bolalarning yoshini, bilim saviyasini hisobga olish lozimligini unutmaslik kerak. Ularga oddiy, oson va vaqt kam sarflanadigan o‘yin mashqlardan foydalanib, darslar o‘tish yaxshi samara beradi. Ko‘proq atrof-muhit bilan bog‘lab o‘tilgan mashg‘ulotlar bolalar ongini, dunyoqarashini, erkin fikrlash, bayon etish qobiliyatini, mustaqil ishlash ko‘nikmasini rivojlantiradi.

Innovatsion texnologiyalardan dars jarayonida foydalanishning o‘ziga xosligi shundaki, ular o‘qituvchi va o‘quvchilarning birgalikdagi faoliyati orqali amalga

oshiriladi. O‘qitish jarayoni o‘qituvchi hamda o‘quvchilar faoliyatini o‘z ichiga oladi. O‘qituvchining faoliyati o‘quv materialini bayon qilish, o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishini orttirish, fikrini teranlashtirish va e`tiqodini shakllantirish, o‘quvchilarning mustaqil mashg‘ulotlariga rahbarlik qilish, ularning bilim, ko‘nikma va malakalarini tekshirish hamda baholashdan iborat. O‘z ishiga ixlos bilan qaragan o‘qituvchida chinakkam ehtiros bo‘ladi.

Darsning oldindan loyihasi, ya`ni texnologik xaritasi tuziladi. Texnologik xarita tuzish uchun o‘qituvchi darsning har bir bosqichida amalga oshiriladigan ishlar, ularda o‘qituvchining pedagogik va o‘quvchilarning o‘quv bilish faoliyatini tashkil etish, boshqarish va faollashtirish yo‘llari, teskari aloqani amalga oshirish, ularga ajratilgan vaqtni aniq belgilash lozim. Texnologik xaritada albatta tashkiliy qism, yangi mavzuning motivatsiyasi, o‘quvchilar bilimini tekshirish, yangi mavzuni o‘rganish va uni mustahkamlash, erishilgan natijalarni tahlil qilish va yakun yasash kabi bosqichlari bo‘ladi. Bunda o‘qituvchi va o‘quvchining dars davomida bajaradigan ishlari bosqichma-bosqich qayd etiladi. Dars texnologik xaritasining mukammal tuzilishi, maqsad va vazifalarini amalga oshirish, samaradorlikka erishish va bosqichlar o‘rtasidagi uzviylikni ta`minlash, vaqtdan unumli foydalanish imkonini beradi.

“Baliq skeleti” texnologiyasi. Ushbu texnologiya baliq model chizmasi orqali namoyish etilib, bunda o‘quvchilar o‘rtaga tashlangan muammoni har tomonlama ochib berishga harakat qiladilar. Baliq skeleti chizmasi vatmanga chizilib uning tepa qismiga yechilishi kerak bo‘lgan muammo yoziladi. Pastki qismiga muammoni hal etilish yo‘llari yozib boriladi. Masalan, yo‘l harakati darslarida “Yo‘l qoidalari” mavzusida “Svetofor nima uchun kerak?” muammosi qo‘yilsa, bolalar o‘z fikrlari bilan baliq skeletini boyitib boradilar.

Bu usul orqali o‘quvchilar mustaqil, keng, ijodiy, tanqidiy fikrlashga o‘rganadilar.

“Venn diagrammasi”. Ushbu texnologiya ona tili, o‘qish darslarida o‘tilayotgan mavzu haqida o‘z fikriga ega bo‘lish, matn bilan ishlash, o‘rganilgan materialni yodida saqlash, so‘zlab berish, fikrini erkin holda bayon etish, hamda dars mobaynida o‘qituvchi tomonidan barcha o‘quvchilarni baholay olishga qaratilgan metodlardan biridir.

Xulosa qilib aytganda, innovatsion texnologiyalardan foydalanib, o‘tilgan darsda o‘quvchilar o‘z qobiliyati va imkoniyatlarini namoyish qilishga erishadilar, jamoa bilan ishlash malakasiga ega bo‘ladilar, o‘zgalar fikrini hurmat qilishni o‘rganadilar. Bu esa, darsning samaradorligini oshirib, ta`lim sifatini kafolatlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.“Barkamol avlod yili” Davlat Dasturi. – T.: O‘zbekiston, 2010.

2.O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori.- T.: “Sharq”, 1998

3.Abduqodirov A.A., Begmatova N.X. Maktabgacha ta’lim muassasalarida multimedia texnologiyasidan foydalanish uslubiyoti (o‘quv-uslubiy qo‘llanma). – Qarshi: Nasaf, 2011.

4.Alimov N. Maktabgacha yoshdagi bolalarni matematik ta’limga tayyorlash. Maktabgacha ta’lim. – T., 2005.

5.Axmedova M. Maktabgacha yoshdagi bolalarning o‘zlashtirish darajasini aniqlash va tahlil qilish. Bola shaxsini rivojlantirishning dolzarb muammolari mavzusidagi II xalqaro anjuman. – T.: 2008.

DORIVOR O‘SIMLIKLARNING INSON HAYOTIDAGI O‘RNI

Hamdamova Vaziraxon
Bog‘dod tumani 2-IDUM biologiya fani o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7257114

Annotatsiya: ushbu maqola dorivor o‘simliklarning inson hayotidagi o‘rni va hususiyati haqida ma’lumotlar berilgan. Unda inson salomatligi va sog‘ligi uchun foydali o‘qimliklar va ularning turlari bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: o‘simliklar, Abu Ali ibn Sino, mehrigiyo salomatlik markazi, rayhon, ismaloq va bsh.

Qadimdan sharq xalqlari dorivor o‘simliklardan unumli foydalanib, giyoh bilan davolashni hadisini olgan. Xalq tabobati ajdodlarimiz yashagan o‘lkalarda keng rivojlangan.

Buyuk bobokalonimiz Abu Ali ibn Sino mamlakatimizda o‘sayotgan 47 ga yaqin o‘simliklarning shifobaxsh xususiyatlari to‘g‘risida ma’lumot keltirgan. Ibn Sino yaratgan asardagi shifobaxsh o‘simliklardan dori tayyorlash va ulardan kasalliklarni davolashda foydalanish usullari to‘g‘risidagi qimmatli ma’lumotlardan nafaqat o‘z xalqimiz balki butun dunyo ahli foydalanib keltirgan. Biroq keyingi yillarda dorivor o‘simliklardan oqilona foydalanish, ularni shifobaxshlik xususiyatlarni o‘rganish va tabobatga qo‘llash keskin kamayib ketdi. Qancha-qancha maydondagi shifobaxsh o‘simliklarimiz nazoratisiz qoldi.

Ammo mustaqillikning sharofati ila, prezidentimiz say-xarakatlari va shu soxaga bergan e’tiborlari, 2020-yil 10-apreldagi “Yovvoyi holda o‘suvchi dorivor o‘simliklarni muhofaza qilish madaniy xolda yetishtirish, qayta ishlash va mavjud resurslardan oqilona foydalanish” chora-tadbirlari to‘g‘risidagi qarori shifobaxsh o‘simliklarni qaytadan o‘rganish ularni ko‘paytirish, xalq tabobati udumlarini zamonaviy farmosevtika bilan uyg‘unlashgan xolda ishlab chiqarish imkoniyatlarini yanada kengaytirish istiqbolini belgilab berdi.

Ayni paytda yurtimizda 4 ming 300 dan ortiq turdagi o‘simlik ro‘yxatga olingan. Ularning 750 turi shifobaxsh xususiyatiga ega. 122 tur o‘simlik ilmiy tibbiyotga foydalanish uchun yaroqli xisoblanadi. Mustaqillikning e’tirof etishga mintaqamizga yetishirilgan dorivor o‘simliklarning shifobaxshligi bosh hududlardagiga qaraganda ancha yuqoriligi bilan ajralib turadi.

Mehrigiyo korxonasi 100 % tabiiy dorivor o‘simliklardan foydalaniladi. Mehrigiyo 1992-yil salomatlik bog‘i doktor Ali klinikasi nomini olgan.



Mehrigiyo Farg‘ona viloyati Qo‘qon shahri Orzu mergan ko‘chasi 94-uy Uchko‘prik tumanida joylashgan. Mehrigiyodagi ba’zi o‘simliklar bilan tanishib chiqamiz. Qoqio‘t (momaqaymoq) ning foydali xususiyatlari Qoqio‘tning bargi va ildizida achchiq gilikazitlar trakseral birikmalari bor. Abu Ali ibn Sino jigar va istisho kasalligiga qo‘llagan. Qoqio‘tning ildizi bargi poyasidan tayyorlangan damlama jigar va o‘tsiydik haydovchi hamda ishtahani ochuvchi qonni tozalovchi shuningdek surgid ori sifatida ishlatilinadi. Qaynatilgan damlamasi oshqozonda xlorit kislota yetishmasligi sababli rivojlanadigan gastrid podakra va teri kasalliklarida eng yaxshi shifo vositasidir. Bazan damlamasi tinchlantiruvchi vositasi sifatida ishlatilsa yangi uzilgan qoqi bargi shirasi kamqonlik, quvvatsizlik va ko‘krak sohasi og‘riganda eng yaxshi davo bo‘ladi.

Mamlakatimizda yalpizning qora, osiyo suv,qalampir turlari bor. Yalpizning bargi va poyasining qaynatilgan damlamasidan tish og‘rig‘i, milk yalliglanishiga davo bo‘ladi. Abu Ali ibn Sino ichak og‘riqlarini davolashda qabziyat ovqatni yaxshi hazm qilishda tavsiya etgan.Meda ichak yo‘li spazmi sariq kasalligi vabo silda davolangan zamonaviy tibbiyotda yalpizning og‘riq qoldiruvchi yalliglanishga qarshi kurashuvchi jigildon qaynashi qorin dam bo‘lishida yordam beradi. Shuningdek safro haydovchi hamda jigarni tozalovchi angina gripp qiynayotgan bo‘lsa yordam beradi.Yalpizning quritib qaynatilgan damlamasi ko‘ngil aynishini oldini oladi.

O‘smaning foydali xusussiyatlari. O‘smaning yangi uzilgan bargi istemol qilinsa sahr yani qandli diabet kasalligi bilan kasallangan odamlar har kuni ertalab istemol qilinsasahr pasayadi va oshib ketmaydi. O‘smaning so‘llitilgan bargidan olingan suvi soch kiprik qoshfa surtilsa to‘kilishni oldini oladi. Qosh kiprikda kiprik va qosh biti bo‘ladi. Shuning uchun qosh kipriklar to‘kiladi. O‘smaning suvi qosh kiprik bitlarini o‘ldirish xususiyatiga ega. O‘smaning suvi ko‘zning ravshan va tiniq ko‘rishini ta’minlaydi.



Ayniqsa o‘lkamizda yaxshi o‘sishga moslashgan shifobaxsh o‘simliklardan moychechak, arslonquloq, choy o‘ti, tog‘ rayhon, zubturum, kiyik o‘ti, namatak, gulxayri, do‘lana, jag‘-jag‘ qadimdan tabobat gultoji hisoblangan.





Davlatimiz rahbarining yuqoridagi qarori shifobaxsh giyohlarga oid bunday siyosati o‘simlik turlarini munosib o‘rganish, yo‘qolib ketayotgan yovvoyi xoldagi dorivor o‘simliklarni ximoya qilishni kuchaytirish o‘quvchilarga o‘simliklarga hurmat bilan munosabatda bo‘lish va ularni chuqurroq o‘rganish ma’sulyatini mamlakatimiz axliga ega tabobatni yo‘lga qo‘yish va o‘simliklar tabiiy zaxiralarini yaratuvchi imkonini berdi. Bir so‘z bilan aytganda bu soxaga berilayotgan e’tibor mamlakatimizning qimmatli dorivor o‘simliklar bazasini yaratish va ulardan munosib foydlanish qayta ishlash bilan bogliq biznesni yo‘lga qo‘yish xalq tabobatining an’anaviy maxsulotlaridan samarali foydalanishga sharoit yaratmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Biologiya uslubiy qo‘llanma. Qo‘qon. 2014.
2.Abu Ali ibn Sino “Tib qonunlari” to‘plami.
3.Biologlar jurnali. 5-son. 2021.
4.WWW.ziyonet.com.

MATEMATIKA DARSLARIDA DIDAKTIK O‘YINLARDAN SAMARALI FOYDALANISH USULLARI

Dadajonova Dilafruz Yulchibayevna
Farg‘ona tumani 4-IDUM boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7257237

Annotatsiya: Ushbu maqolada matematika darslarida didaktik o‘yinlardan samarali foydalanish usullari hususida so‘z boradi va misollar yordamida tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: matematika, didaktik o‘yinlar, zamonaviy ta’lim, ko‘rgazmalilik, o‘yin qoidasi.

Har tomonlama barkamol insonni shakllantirish bugungi jamiyatimiz oldida turgan dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Hozirgi maktab o‘rindiqlarida o‘tirgan yosh avlod ertaga bizning qo‘limizdan ishimizni oladigan, hayotimizni davom ettirib, o‘zidan keyingi avlodga yetgazuvchi vorislarimiz, O‘zbekiston buyuk kelajagining egalaridir. Barkamol avlod haqida so‘z borganda, davlat ta’lim standartlarini, o‘quv dasturlari va o‘quv adabiyotlarini takomillashtirish. Oliy va o‘rta maxsus ta’lim, umumta’lim tizimida ta’lim yo‘nalishlari va mutahasisliklarini bugungi kun talabalari nuqtai nazaridan qayta ko‘rib chiqish zarur. Shuningdek, o‘quv jarayoniga yangi axborot va pedagogik texnalogiyalarni keng joriy etish, bolalarimizni komil inson etib tarbiyalashda jonbozlik ko‘rsatadigan o‘qituvchi va domlalarga e’tiborimizni yanada oshirish, qisqacha aytganda, ta’lim tarbiya tizimini sifat jihatidan butunlay yangi bosqichga ko‘tarish diqqatimiz markazida bo‘lishi darkor. Shu sababli zamon talablariga to‘liq javob beraoladigan pedagogik texnalogiyalarni barcha fanlarga,xususan,matematika darslarida ham joriy qilish ishlari hozirgi davr talabidir.

Ma’lumki 1-sinfga qabul qilinib, maktab ostonasida ilk qadam qo‘ygan bolaning faoliyatda o‘yin asosiy o‘rinni egallaydi. O‘yin ularning eng sevimli mashg‘uloti bo‘lib, ular har qanday mashg‘ulotni o‘yin bilan uyg‘unlashtirishga harakat qiladi. Shunday ekan o‘qituvchi o‘quvchi faoliyatidan ularning sevimli mashg‘uloti – o‘yinni siqib chiqarmasdan, undan maqsadga muvofiq foydalanish bilan ta’lim jarayonining samaradoligini oshirishi maqsadga muvofiqdir. O‘yin bola hayotining uzviy qismidir. O‘yin orqali bola atrof – muhit, tabiat hodisalari, manzaralar, buyumlar o‘simliklar hayvonlar dunyosi bilan tanishadi.

O‘quvchilarning aqliy va jismoniy faoliyatini tashkil qilishda didaktik o‘yinlar alohida o‘rin egallaydi. Matematika darslarida didaktik o‘yinlardan foydalanish o‘quvchilar zehnini o‘stirish, tez hisoblash ko‘nikmalarini oshirishda muhim

ahamiyat ega. Didaktik o‘yinlar jarayonida o‘quvchilar o‘yin qoidalariga rioya qilishga o‘rganadilar, inoqlik hissi, dunyoqarashlari shakllanib boradi.

Ta’lim jarayonida didaktik o‘yinlar o‘quvchilarning xususiyatlariga ko‘ra tashkil etilishi kerak. Bu esa ularga bilim berishni yengillashtiradi, o‘quvchilarni toliqtirmaslik imkonini beradi.

Didaktik o‘yinlar 2 xil tasnifga egadir. Didaktik o‘yinlarni xilma – xil tashkil qilish mumkin.

Qo‘g‘irchoqlar, o‘yinchoqlar, rasmlar va tarqatmalar, turli geometrik shakilardan ham foydalanish mumkin. Didaktik o‘yinlar maqsadga ko‘ra 4 omilni o‘z ichiga oladi :

1.O‘yinning vazifasi;

2.O‘yinning harakati;

3.O‘yinning qoidasi;

4.O‘yinning yakuni.

Har bir didaktik o‘yinni boshlashdan oldin o‘yinni qoidasi, mazmunini, yakunini nimadan iborat ekanligi tushuntiriladi. O‘quvchilar uni tushunib anglab shu asosida harakat qiladi. Didaktik o‘yinlar tuzilishiga ko‘ra 2 asosiy guruhga bo‘linadi: syujetli-rolli o‘yin va o‘yin – mashqlar.

Syujetli-rolli o‘yin biror syujetga asoslanadi, ro‘llarga bo‘linadi, o‘yin harakteri va qoidasi bo‘ladi. Masalan: “Kema marshrutini aniqla”, “Telefo‘n”, “Telegraf”, “To‘p kimga beriladi?” kabilar.

O‘yin- mashqlarda faqat alohida o‘yin elementi kiritgan bo‘lib, yoki topishmoq, biror qoida yoki o‘yinning biror harakati olinadi. Bunday o‘yinlarga “Zanjir”, “Jim”, “Matematik estafeta”, “Doiraviy misollar”, “Uychani to‘ldir” kabilar kiradi. Bu tur o‘yinlarni tashkil qilish oson, uni o‘tgazishga kamroq vaqt ketadi, lekin o‘quvchilarda syujetli-rolli o‘yinlar o‘yin-mashqlarga ko‘ra ko‘proq qiziqish uyg‘otadi.

O‘yindagi o‘quvchilarning o‘quv – bilish faoliyatiga ko‘ra o‘yinlarni yana bir necha turga ajratish mumkin:

1.O‘quvchi faqat ijrochi sifatida qatnashadigan o‘yinlar: bunda o‘quvchilar namunada ko‘rsatilganidek harakat qiladilar. Masalan: “Naqsh tuzamiz” o‘yini kabi.

2.O‘tilgan bor mavzuni esga olib, takrorlashni talab qiladigan o‘yinlar. Bunda masalan o‘quvchilarning arifmetik amallarni bajarish yuzasidan olgan bilim, ko‘nikma va malakalari mustahkamlanadi. Bunday o‘yinlarga “Matematik baliqchi”, “Eng yaxshi uchuvchi”, “Parashutni qo‘ndir’’ o‘yinlar kiradi. Biror bir narsani o‘zgartirish bilan bog‘liq bo‘lgan o‘yinlar. Bunday o‘yinlarda o‘quvchilar berilgan masala va misolni ularga mantiqiy bog‘liq bo‘lgfan boshqa masala va misol bilan almashtiradilar. Masalan; “Matematik estafeta”, “Zanjir”, “Doiraviy misollar”, ya’ni bunday o‘yinlarga o‘z-o‘zini va bir-birini nazorat qilishga o‘rgatuvchi o‘yinlar ham kiradi: “Nazoratchilar”, “Bilmasvoyni tekshir” va hokazo.

Matematika darslari xususiyatdan kelib chiqib, o‘yin- musobaqalarni va olimpiada o‘yinlarini ham ajratish mumkin. Musobaqa-o‘yinda topshiriqlarni bajarishning tezligi va to‘g‘riligi e’tiborga olinsa, olimpiada o‘yinlarida topshiriqning mazmuni, bajarilish sifati birinchi o‘ringa qo‘yiladi.

Didaktik o‘yinlar bolaning his- tuyg‘usiga ta’sir etib, unda o‘qishga ijobiy munosabat va qiziqish xislatini tarkib toptiradi. Bolalar o‘yinda zo‘rmamnuniyat bilan ishtirok etadilar. O‘yin boshlanishini sabrsizlik bilan kutadilar, ularning ongida beixtiyor ertangi o‘quv kunining quvonchli manzarasi gavdalanadi.

Har bir didaktik o‘yinda ko‘pchilik bolalar yoki butun bir sinf o‘quvchilari ishtirok etadi. Masalan, “Doiraviy misollar” o‘yinida hamma bolalar masala yechadi. “Zanjircha” da 10 nafar, “Do‘koncha”da 8 – 12 nafar bola, “Narvoncha”da esa hamma o‘quvchilar masala yechadilar. Bundan tashqari, o‘yin jarayonida hatto bolalardan ba’zi birlari ishtirok etmasa ham, ular o‘yinda imo-ishoralar bilan qatnashadilar. Masalan, ko‘zlarini yumib, kim necha marta taqillatganini tinglaydilar. “Eng yaxshi hisobchi”, “Kim aniqroq va tezroq kabi o‘yinlarda o‘z o‘rtoqlarining misolni qanchalik to‘gri- noto‘g‘ri yechayotganlarini kuzatib boradilar. Bu esa oqituvchiga o‘quvchi faoliyatiga individual munosabatda bo‘lish imkonini beradi. Didaktik o‘yinlar kuzatuvni, o'xshashlik va farqlarni aniqlash qobiliyatini rivojlantiradi, fikrlashni, e'tiborni va tasavvurni yaxshilaydi. Dars jarayonida qo‘llash darslarning qiziqarli va tushunarli bo‘lishini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. ”Pedagogik texnologiya asoslari”. J.G‘.Yoldoshev,S.A.Usmonov.Toshkent-2004-y

2. N.U.Bikboyeva, E.Ya.Yangiboyeva va boshqalar, “Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi”, T.: “O‘qituvchi”, 2005;

3. ”Xalq ta’limi” jurnali.

4. “Ma’rifat” gazetasi;

XITOY VA G‘ARB DAVLATLARI O‘RTASIDAGI DASTLABKI MUNOSABATLAR TARIXIDAN

Xasanov Jaxongir Taxirovich
Toshkent shahar Uchtepa tumani
Ichki ishlar vazirligining ixtisoslashgan maktab internati
tarix fani o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7257250

Annotatsiya: maqolada Xitoy va G‘arb davlatlari o‘rtasidagi dastlabki munosabatlarning tarixi yoritilgan.
Kalit so‘zlari: G‘arb davlatlari, Xitoy, savdo-sotiq, Buyuk Ipak Yo‘li.
Аннотация: Китайские и западные статьи освещают историю их предыдущих взаимоотношений.
Ключевые слова: страны Запада, Китай, торговля, Великий шелковый путь.
Annotation: Chinese and Western articles cover the history of their previous relationship.
Keywords: Western countries, China, trade, Great Silk Road.

Xitoy qadimdan yirik savdo-sotiq markazi, ko‘plab mahsulotlar ishlab chiqaradigan va yetkazib beradigan mamlakat sifatida ma’lum. Buyuk Ipak Yo‘lini yo‘lga qo‘yilishi Xitoyning savdo-sotiqdagi obro‘sini yanada oshirib yubordi, bu esa, albatta, bu hududga bo‘lgan qiziqishni yanada oshishiga sabab bo‘ldi. Buyuk geografik kashfiyotlar g‘arb davlatlari uchun sharq davlatlariga kirib borish eshiklarini ochib berdi. Shu sababdan g‘arb davlatlari o‘rtasida yangi hududlarni o‘zlashtirish, yangi mahsulotlarga va uni sotadigan bozorga ega bo‘lish maqsadida kurash boshlanib ketdi, Xitoy ham bu jarayondan chetda qolmadi.

Xitoy hududiga dastlabki kirib kelgan va aloqa o‘rnatgan g‘arb davlati sifatida portugallar tilga olinadi. 1516-yilda portugal kemalari Xitoy qirg‘oqlariga yetib kelishgan, hattoki, quruqlikka kirishga ham erishishgan, ammo Xitoy kemalari bilan to‘qnashuvdan keyin bu yerdan haydab solingan. 1531-yilda xitoy va portugal kemalari o‘rtasida jang bo‘lib o‘tdi va jang portugallar mag‘lub bo‘lishdi. Shu voqe’adan so‘ng Xitoy bandargohlarini chet ellik kemalar uchun yopib qo‘ydi. Shunga qaramay ular XVI asrda janubiy Xitoy hududidagi orolga kelib joylashishgan, 1537-yilda Xitoy hukumatidan bu yerda mahsulot uchun ombor qurish huquqini qo‘lga kiritishgan edi. Savdogarlar bilan birga kelgan katolik

missionerlariga esa Xitoy hududida dinni targ‘ib etish huquqi berildi. Shunday qilib portugallarning Makao ustidan uzoq davom etgan hukmronligi boshlandi.[3]

XVII asrning birinchi choragida Xitoyga g‘arb davlatlari ekspansiyasi[4] davom ettirildi. Ispaniya Filippin orollarini egallagach, Xitoyning Luson oroliga hujum qilishdi va bu hududda savdo bilan shug‘ullanuvchi 20 ming xitoyliklarni qirib tashlashdi. Bunday voqea 1639-yilda yana bir bor takrorlandi.

XVII asr boshlaridan Gollandiya Ost-Indiya kompaniyasi Xitoy bilan diplomatik va savdo munosabatlari o‘rnatish uchun bir qancha urinishlarni amalga oshirdi. XVII asrning birinchi yarmida Gollandlar Tayvanda o‘rnashib olishdi, lekin bu uzoqqa cho‘zilmadi, XVII asrning 60 – yillarida gollandlar Chjen Chengun tomonidan Tayvandan haydab solindi, natijada ular Xitoyga savdo va harbiy jihatdan kirib borish imkoniyatidan mahrum bo‘ldi.

Inglizlarning Xitoy bilan o‘rnatilgan dastlabki munosabatlari XVII asr oxirlariga to‘g‘ri kelib, ular Guanchjouda o‘zlarining dastlabki korxonalarini tashkil etishadi va bu keyinchalik ingliz mahsulotlarini tarqatish uchun asosiy hamda muhim hududga aylantiriladi. XVIII asrda inglizlar Xitoydan gollandlarni siqib chiqarishga muvaffaq bo‘ldilar. 1757-yilda Sin imperiyasi Xitoyni chet el bosqinchilaridan saqlash uchun butun Xitoy hududida chet el savdogarlari faoliyatini cheklab qo‘ydi, faqatgina Guanchjou hududi bundan mustasno qoldi.

Xitoydan yevropaliklar birinchi navbatda ipak va chinni olib ketishni hamda tabak va o‘q otar qurollar olib kirishni boshlashdi. Xitoy hukumati hali ham mamlakat hududiga ajnabiylar kirishini ta’qiqlagan edilar. Istisno tariqasida faqatgina portugal, nemis va italyan katolik missionerlariga ruxsat berilgan edi. Ularning tarixda tutgan o‘rni haqida ikkiyoqlama qarash mavjud. Bir tarafdan, ular Xitoyni kelajakdagi bosqinchilik uchun tayyorlashsa; ikkinchi tarafdan, ular mahalliy xalqni g‘arb sivilizatsiyasi va uning yutuqlari bilan tanishtirardilar.

XVII asr boshlarida Xitoy va Rossiya o‘rtasida ilk rasmiy munosabatlar kuzatiladi. 1618-yilda birinchi rus elchilari Pekinga yetib borishdi, ular ortga qaytishda Xitoy imperatorining ikki tomonlama diplomatik va savdo aloqalari o‘rnatish to‘g‘risidagi nomasini olib kelishgan. Ammo, Xitoyda sodir bolgan qo‘zg‘olonlar hamda hukmron sulolaning almashinishi natijasida aloqalar o‘rnatish ancha kechikib ketdi. XVIII asrning 70 – yillarida Rossiya yana Xitoy bilan aloqalar o‘rnatishga urinib ko‘rdi. Ammo, Uzoq Sharq va Markaziy Osiyo masalasidagi kelishmovchiliklar bunga to‘sqinlik qildi. Son’gra bu davlatlar o‘rtasida urush boshlanib ketdi, Sin imperiyasi qo‘shinlari Amur daryosi bo‘yidagi Albazin shahrini egallashdi, natijada 1689-yilda rus-xitoy shartnomasi imzolandi. Bu shartnoma

[3] Пан Т. А. Маньчжурские письменные памятники по истории и культуре империи Цин XVII-XVIII вв. СПБ., 2006.-228 с.
[4] Bosqinchilik siyosati

tarixga “Nerchinskiy”[5] nomi bilan kirdi. Bu shartnomaga ko‘ra Rossiya va Xitoy o‘rtasida savdo aloqalari yo‘lga qo‘yildi, ammo Rossiya ma’lum yon bosishga majbur bo‘ldi. Amur daryosi chap qir’goqlari Sin imperiyasiga, Alabazin shahri esa vayron etilishga kelishildi.

1727-1728-yillarda yana ikkita shartnoma – Burin traktati va Kyaxtin kelishuvi imzolandi, Rossiya yana yon bosishga majbur bo‘ldi.[6] Ammo Rossiya buning natijasida rus-xitoy savdo aloqalarini kengaytirishga hamda rus diniy missiyasi doimiy tarzda Pekinda bo‘lishiga erishdi. Bu missiya a’zolari xitoyliklar tilini, urf - odatlarini o‘rganish va diplomatik vazifalarni bajarish bilan shug‘ullanar edilar. Boshqa g‘arb davlatlari ham Xitoyda o‘z missiyalarini tashkil e’tishga harakat qilishdi, ammo bu urinish muvaffaqiyatsizlik bilan yakunlandi. XVIII asr o‘rtalarida ajnabiylar kirishini taqiqlovchi qonun buni deyarli imkonsiz harakatga aylantirdi.

XVIII asr oxirlariga kelib Xitoyda Britaniyaning harakatlari faollashib qoldi, xususan ularning Ost Indiya kompaniyasi. 1793-yilda Xitoyga lord Makartni boshchilik qilgan elchilar tashrif buyurdi. Ularning maqsadi ikkala davlat o‘rtasida diplomatik aloqalar o‘rnatish, ingliz savdosi ta’sir doirasini kengaytirish, hamda Xitoy hududida inglizlarning erkin yurishi va faoliyatiga ruxsat olish edi. Lekin, imperator Szyanlun bu talablarni rad etdi, hamda Georgga yo‘llagan maktubi oxirida “Qo‘rquvdan titragan holda itoat qiling”, - deb yozib qo‘ydi.

Inglizlardan tashqari Xitoy hududiga kirishga amerikaliklar ham urinib ko‘rishgan. 1784-yildan boshlab ularning kemalari Xitoy qirg‘oqlari bo‘ylarida paydo bo‘la boshlagan.

Shuni ta’kidlab o‘tish joizki, o‘sha paytlarda chet elliklarning Xitoy bilan aloqa o‘rnatishga bo‘lgan har bir urinishlari Xitoy imperatori tomonidan “varvar” larning Xitoy sivilizatsiyalashgan madaniyatini qabul qilishga urinishidek qabul qilinishini, hali tushunib yetmagan edilar. Bu esa Xitoyning boshqa davlatlar bilan teng mavqe’da munosabatlarga kirishishini inkor etardi. Elchilar tomonidan imperatorga sovg‘a keltirilishi, hurmat ramzi tariqasida emas, balki vassallarning imperatorga keltirgan boji sifatida ko‘rilgan.

Xulosa o‘rnida shuni aytib o‘tish kerakki, Xitoyning g‘arb davlatlar bilan dastlabki munosabatlari juda iliq kayfiyatda bo‘lib, endigina hokimyatga kelgan manchjur hukmdorlari ular yordamida hokimiyatni mustahkamlashni niyat qilishgan edi. Ular ajnabiylar kemalarini bandarhohlarga kirib kelishga hamda xitoylik vatanparvarlar bilan kurashda manchjur bosqinchilariga yordam berishiga ruxsat berishgan. Ikkinchi Sin imperatori – Kansi davrida chet ellik missonerlar imperatorning tashqi munosabatdagi eng yaqin maslahatdoshi, artilleriya,

[5] Основная статья: **Российско-китайские отношения http://ru.wikipedia.org/wiki/**
[6] Мясников В. С. Империя Цин и Русское государство в XVII в. — М.: Наука, 1980. — 312 с.

astronomiya, matematika va boshqa sohalarda yordam ko‘rsatishdi. Xitoy bu munosabatlardan ko‘plab foydali narsalarni o‘zlashtirgan.

Ammo manjurlar hokimyatni mustahkamlagach yevropaliklarga munosabatini o‘zgartirdi. Chunki, ularning tub niyatlari Xitoyni ham mahsulot bazasiga aylantirish va bu hududni ekspansiya qilish ekanligini ular sezib qolishdi, shu sababli XVIII asr boshlarida hududlarni chet ellik savdogarlar uchun yopa boshladilar. Xitoyda ochilgan barcha xristianlik cherkovlarining faoliyati to‘xtatildi. Xitoyning “yopiq davlat” siyosati uning g‘arb davlatlari ta’siridan bir qancha vaqt saqlab turdi, ammo butunlay saqlab qola olmadi. XVIII ars oxirlaridan Angliya bu hududga yashirincha tarzda Hindistondan “afyun”[7] olib kira boshladi, natijada XIX asrda uzoq davom etgan “afyun janglari” bo‘lib o‘tgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.История стран зарубежной Азии в средние века. М., 1970. Китай в XVI—XVIII веках.

2.Пан Т. А. Маньчжурские письменные памятники по истории и культуре империи Цин XVII-XVIII вв.СПБ., 2006.-228 с. ISBN 5-85803-309-1

3.Мясников В. С. Империя Цин и Русское государство в XVII в. — М.: Наука, 1980. — 312 с.

4.Основная статья: **Российско-китайские отношения http://ru.wikipedia.org/wiki**

5.Ахмедов Б. Р. АСПЕКТЫ ЗНАКОВЫХ НЕВЕРБАЛЬНЫХ СРЕДСТВ, СПЕЦИФИЧЕСКИЕ ДЛЯ МУЖЧИН И ЖЕНЩИН //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 6

6.Usmanov F.F. Linguocultural competence as the means of identifying images in fixed similes // Theoretical & Applied Science. №5 (73). 2019.

[7] Kuchli narkotik vosita

O‘QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO‘NALTIRISH CHORA TADBIRLARI

Atamuratova Surayyo Mammatjonovna
Xorazm viloyati Xonqa tumani
41-sonli IDUM ning amaliyotchi psixologi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7257257

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘quvchilarini kasbga yo‘naltirishda dastlabki pedagogik jarayonlar tahlil etilgan bo‘lib, bu jarayonda o‘qituvchining pedagogik mahorati, kasb tanlashga oid bilim va ko‘nikmalari, vazifalari, shuningdek kasb tanlashda shaxs hislatlari, o‘quvchi psixologiyasi, o‘quvchilarni kasb tanlashga tayyorligini ko‘rsatuvchi mezonlar mazmuni haqida ma’lumot berilgan.
Kalit so‘zlar: kasb, layoqat, jamiyat, malaka, ko‘nikma.

Jamiyatda ta’lim tizimini rivojlantirishning strategik yo‘nalishi – bu insonning turli sohalarida maqsadli mustaqil faoliyati asosida uning intelekt va ahloqiy rivojlanishidir. Jahonning rivojlangan davlatlari qatori mamlakatimizda ham ta’limdagi islohotlar jarayonida mustaqil ta’limni rag‘batlantirish muhim yo‘nalish sifatida kelmoqda. Pedagogning kasbiy layoqatliligini tarbiyalash fenomenini tadqiq qilishga bir qator olimlarning ishlarida o‘z ifodasini topgan. Bu mualliflar kasbiy layoqatlilik – ishonchlilik sifatlari bilan birgalikda o‘qituvchining kasbiy – individual hodisa sifatida pedagogik madaniyatini tavsiflaydi degan fikrni olg‘a surganlar. O‘z navbatida, kasbiy layoqatlilik tushunchasi, V.A.Slastenin ta’kidlaganidek, pedagogning pedagogik faoliyatini amalga oshirishga nazariy hamda amaliy tayyorligining birligini ifodalaydi va uning kasbiy shakllanganligini tavsiflaydi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida insonlarning yaxshi yashashida, faoliyatida to`g‘ri kasb tanlashning ahamiyatini turli xil kasblarning insonga qo`yadigan talablarini; kasblar olami, kasblar shajarasi, O`zbekiston xalq xo`jaligidagi muhim kasblar, kasblar tasniflagichi; kichik mutaxassislar tayyorlash tizimi; kasblar, mehnat shart-sharoitlari, vositalari, fani, maqsadi bo`yicha shajaralanishi, o`quvchilarni o`z qiziqish va moyilliklari, o`z xarakterining o`ziga xos xususiyatlarini, o`z nerv tuzilishi, psixikasi, o`z qobiliyati va ehtiyojlarini kasblar to`ғrisida ma’lumot olish maktablarini ayrim kasb mehnat bozori talablari asosida ehtiyojning o`zgarib borishini, salomatligining tanlagan kasbiga mos kelishi, hududda joylashgan o`rta maxsus, kasb-hunar o`quv yurtlarida ta’lim yo`nalishini ixtiyoriy tanlashi; o`qishni davom ettirish imkoniyatlari. Kelgusi mavqeini bilishi zarur.

Kasbni to‘g`ri tanlash – inson turmushida muhim qadamdir, yosh avlodning butun hayotidagi muvaffaqiyat ko‘p jihatdan kasbning qanchalik to‘g`ri tanlanishiga

bog`liq. Kasbni to‘g`ri tanlash har bir maktab o‘quvchisining qiziqishiga, mayliga, qobiliyatiga va imkoniyatlariga mos bo‘lishi uchun uning sog`lig`ini, o‘zlashtirishini va hissiyotlarini hisobga olish lozim, bular ijtimoiy foydali va unumli mehnatda hammadan ko‘ra ko‘proq qaror topadi va namoyon bo‘ladi. Odam bajarayotgan ishlariga ijodiy munosabatda bo‘lib, mehnat unumdorligini doimo oshirib borsa, tanlagan kasbiga zo‘r qiziqish bilan qarasa, o‘z ishining ijtimoiy ahamiyatini tushunsa, uning qobiliyatlari mehnatda takomillashib borsa, o‘shandagina u mehnatdan qoniqish hosil qiladi va xursand bo‘ladi, bunday hoolda har bir shaxs jamiyatga eng ko‘p naf keltiradi. Mana shu aytgan gaplardan kasb tanlashning g`oyat muhim ijtimoiy ahamiyati kelib chiqadi. Kasb-korni erkin tanlash juda katta ahamiyatga ega. Odam shug`ullanayotgan ishini yaxshi ko‘rsa, bundan u xursand bo‘ladi, qoniqish hosil qiladi, zo‘r tashabbus ko‘rsatadi, toliqmay mehnat unumini oshiradi. Maktab o‘quvchilarining kasb tanlashi ongli zaruriyat bo‘lishi va ayni vaqtda jamiyat manfaatlariga mos bo‘lib tushishi, yigit va qizlarning kamolot yo‘lida shaxsiy mudaolarini qondirishi lozim. Buning uchun yuksak darajada ma`lumotli bo‘lish zarur, hozirgi asrimizda bunday ma`lumotsiz fan-texnika ildam taraqqiy etishi mumkin emas. Ummmehnat va maxsus malakalarni, kasbga bo‘lgan qiziqishlarini shakllantirishning bunday imkoniyatlari ob`ektiv zaminga ega bo‘lib, voqelikda har kuni amalda oshirilmoqda

Kasbga yo‘naltirish – bu har bir individumning o‘ziga xos individual xususiyatlari va mehnat bozorining ehtiyojlarini hisobga olgan holda, o‘z kasbiy o‘rnini topishi uchun shaxsga ta’sir etishning ilmiy asoslangan shakl, usul va vositalar tizimidir. U insonning kasbiy qiziqishi va imkoniyatlari hamda jamiyatning aniq bir kasbiy faoliyat turiga ehtiyojlarining mutanosibligiga erishishga yo‘naltirilgandir.

Kasbga yo‘naltirish – mohiyat va samaradorlikni baholash ko‘rsatkichlariga ko‘ra ijtimoiy-iqtisodiy kategoriyadir. Kasbga yo‘naltirishni hal etish vazifalari bo‘yicha ijtimoiy-iqtisodiy, tibbiy-fiziologik va psixologik-pedagogik mohiyatga ega muammodir. Kasbga yo‘naltirish insonning qobiliyati va iqtidorini maqsadli rivojlantirishda, uning kasb mahorati, ish qobiliyati va salomatligini asrashga imkon yaratadi hamda aholini ijtimoiy himoyalash va uning bandligi sohasidagi davlat siyosatining muhim elementlaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. kasbga yo‘naltirish shaxsning mehnat salohiyatidan samarali foydalanish, uning ijtimoiy va kasbiy faolligini oshirish hamda majburiy ishsizlikning oldini olishda muhim rol o‘ynaydi. Kasbga yo‘naltirish tadbirlari inson tomonidan o‘z kasbiy malakasini oshirishning qulay shakllarini izlash, ijtimoiy-iqtisodiy tashabbuskorlik, intellektual va mehnat mustaqilligini rivojlantiradi.

Yosh avlodni ongli ravishda kasb tanlashga tayyorlashga, uni har tomonlama va barkamol rivojlantirishning shart-sharoiti sifatida qaraladi. Bu shaxsning ma’naviy,

aqliy, mehnat, estetik va jismoniy tarbiyasi, ya’ni barcha o‘quv-tarbiya jarayoni bilan uzviy birlikda amalga oshiriladi.

Kasbga yo‘naltirish quyidagi qismlarni o‘z ichiga oladi:

Kasbiy axborot, kasbiy maslahat, kasbiy tanlov va saralash, kasbiy moslashish.

Kasbiy axborot – ma’lum bir kasbni egallash hohishi bo‘lgan shaxsga, turli mutaxassisliklarni egallashning shakl va sharoitlariga, kasbiy malakalarning o‘sish imkoniyatlariga mehnat bozorining holati va ehtiyojiga, kasbiy qiziqishlarning shakllanishiga, shaxsning istak va ko‘nikmalariga qo‘yilgan talablar hamda zamonaviy kasblarning istiqboli va mazmuni to‘g‘risidagi ma’lumotlarni to‘plash, targ‘ibot qilish chora-tadbirlaridir.

Kasbiy maslahat – kasb tanlash yoki faoliyat turinio‘zgartirishda yordamga muhtoj bo‘lgan shaxsning individual-psixologik xususiyatlari, shaxsiy fazilatlari, kasbiy qiziqishlari, moyilligi, sog‘ligi va mehnat bozori ehtiyojlarini o‘rganish asosiyda psixologik-maslahatchi bilan ilmiy tashkil etilgan o‘zaro muloqot tizimidan iborat.

Kasbiy tanlov va saralash – kasbiy faoliyatning alohida turlariga yaroqlilik darajasini aniqlashga yo‘naltirilgan shaxsning psixofiziologik xususiyatlari (tanlash) yoki aniq bir kasbga bo‘lgan psixofiziologik me’yoriy talablar (saralash) asosida shaxsni har tomonlama o‘rganish tizimidir.

Kasbiy moslashish – ishlab chiqarishda kasbiy faoliyatning ijtimoiy-psixologik va tashkiliy-texnik sharoitlariga shaxsni moslashtirishga, uni muvofaqqiyatli ravishda kasbni egallashi uchun shart-sharoitlarni yaratishga yo‘naltirilgan choralarning majmuaviy tizimidir.

Professiografiya (axborot, tashxis, korreksiyalovchi, shakllantiruvchi) va kasbiy tashxis (shaxsni o‘rganishning psixologik, psixofiziologik, tibbiy va boshqa usullarining majmui) kasbga yo‘naltirishning axborot uslubiy ketma-ketligining asosi hisoblanadi.

O`quvchilar kasblarni tahlil qila olishi; o`zlarining shaxsiy sifatlarini, qiziqishini va salomatlik darajalarini to`g‘ri baholay olishlari, kasblarning insonga qo`yadigan talablari bilan o`zlarining individual xususiyatlarini taqqoslay olishlari, shaxsiy kasbiy rejalarini tuza olishlari zarur.

O`quvchilar Xalq xo`jaligi asoslari bo`limi bo`yicha xalq xo`jaligi sohalarini, xalq xo`jaligida ro`y berayotgan islohotlarni, bozor iqtisodiyoti talablarini, davlat xususiy korxonalarini, kooperasiya, firma, shirkat, konsernlar, ularda ishlab chiqarishni tashkil etish shakllari, texnologik jarayonlar, mahsulotlarni tayyorlash bosqichlari, tabiatni ishlab chiqarishning zararli ta’siridan muhofaza qilish, mahsulot qiymatini arzonlashtirish yo`llari, qishloq xo`jaligida ishlab chiqarishning davriyligini, maromli, oqimligi; ishlab chiqarishni rejalashtirish, irrigasiya va meliorasiya ishlarini; mehnat qonunchiligini.

Kasb-hunarga yo‘naltirish ishlarini rivojlantirishning asosiy bosqichlari.

Kasb-hunarga yo‘naltirish ishlarini rivojlantirishning asosiy bosqichlari quyidagicha:

Birinchi bosqich (maktabgacha ta’lim yoshi) – maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda (katta guruh) mehnat bilan band bo‘ladigan insonlarga, ularning mashg‘ulotlariga, shuningdek, qo‘llaridan keladigan faoliyat turlari bo‘yicha dastlabki mehant ko‘nikmalarini ijobiy, hissiy-ta’sirchan shakllantirish;

Ikkinchi bosqich (1-4 sinflar) – kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda bilishga oid va o‘yin ko‘rinishidagi ijtimoiy-foydali mehnat faoliyatini amalga tatbiq qilish orqali, mehnatga hurmat, uning inson hayotida va jamiyatda tutgan o‘rnini anglashini, ota-onalarining kasblariga hamda ommaviy kasblarga bo‘lgan qiziqishini rivojlantirish;

Uchinchi bosqich (5-7 sinflar) – o‘smirlar kasbiy yo‘naltirilganlik bo‘yicha kasb tanlash va jamiyatdagi o‘z o‘rnini topish bilan bog‘liq bo‘lgan qiziqishi, qobiliyati, ijtimoiy qadriyatlarning izlanuvchan – sinchkov ko‘rinishlarini shakllantirish;

To‘rtinchi bosqich (8-9 sinflar) – o‘quvchilarda kasbiy o‘zlikni anglashni shakllanish davri, ya’ni o‘quvchilarni aniq bir kasbni tanlashning shaxsiy ma’noga egaligini tushunib yetishi, qadriyatlar to‘g‘risidagi o‘z tasavvurlarini, faoliyat sohasini tanlashning jamiyat maqsadlari bilan qiyoslay olshini shakllantirish davri;

Beshinchi bosqich (akademik litsey va kasb-hunar kollejlarining birinchi kurs o‘quvchilari) – ijtimoiy-kasbiy maqomni aniqlash, ya’ni aniq bir mehnat faoliyati sohasidagi bilim va ko‘nikmalar haqida har taraflama tasavvurlarni shakllantirish, ularni o‘zlashtirishga kirishish, ishlab chiqarish mehnat jamoasining tartib-qoida va qadriyatlariga qo‘shilishni shakllantirish davri;

Oltinchi bosqich (kasb-hunar kollejlarining oxirgi kurs o‘quvchilari, oliy o‘quv yurtlari talabalari) – kasbiy faoliyatga kirishish. Bu kasbiy faoliyatga jiddiy tayyorgarlik hamda mehnat jamoasidagi ish va tajribaning shakllanish davri;

Ettinchi bosqich (katta yoshdagi mehnat bilan band bo‘lgan odamlar, ishsizlar) – shaxsiy imkoniyatlar va oldingi kasbiy – ijtimoiy tajribalarni hisobga olgan holda, zarurat bo‘lganda boshqa kasbiy faoliyatga qayta yo‘naltirish.

Davlat kasb-hunarga yo‘naltirish tizimi bilan bir qatorda fuqarolar va korxonalarga kasb-hunarga yo‘naltirish masalalari bo‘yicha pullik xizmat ko‘rsata oladigan, jumladan, tijorat yo‘nalishidagi byuro, agentliklar tuzilishi mumkin.

Cheklangan mehnat qobiliyatiga ega bo‘lgan shaxslarni kasb-hunarga yo‘naltirish mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish, sog‘liqni saqlash vazirliklari zimmasiga yuklatiladi. Tizimning barcha boshqaruv bosqichlarida mazkur vazirliklar shu ish uchun mas’ul xodimlar ajratadi.

Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarida turli patologiyalarga mansub nogironlarni kasbiy tayyorgarlik olishlari uchun maxsuslashtirilgan bo‘linmalar tormog‘i yaratilishi lozim.

Kasb-hunarga yo‘naltirish ishlarini umumiy ilmiy-metodik ta’minoti, tegishli toifali xodimlarni qayta tayyorlash, malakasini oshirish, ijitmoiy-iqtisodiy, psixologik-pedagogik va tibbiy-fiziologik muammolari bo‘yicha ilmiy tekshirishlarni muvofiqlashtirish ishlarini O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligining O‘quvchilarini kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik respublika Tashxis markazi amalga oshiradi.

Agar bolalar erkin fikrlashni o‘rganmasa, berilgan ta’lim samarasi past bo‘lishi muqarrar. Albatta, bilim kerak. Ammo bilim o‘z yo‘liga. Mustaqil fikrlash ham katta boylikdir. Umumta’lim maktablarining oqsoq tomonlari haqida gapirar ekanmiz, bir muhim muammoni ta’kidlamasdan o‘tolmaymiz. Bu muammo – bugun 9-sinfni bitirayotgan bolalarimiz taqdiri. Respublikamizda taxminan 5 million 200 ming maktab o‘quvchisidan 9-sinfni bitirayotganlar 450 ming nafar bolani tashkil qiladi.

Xo‘sh, o‘zimizcha bir tasavvur qilib ko‘raylik 9-sinfni tugatayotganlarning keyingi yo‘li – taqdiri qanday bo‘lib qolmoqda?

Ma’lumotlarga qaraganda, ularning 250 ming nafarga yaqini, ya’ni 55 foizi 10-sinfda o‘qishni davom ettirar ekan, taxminan 100 ming nafari hunari – texnika yoki maxsus o‘quv yurtlariga kirishi mumkin. Qolganlari esa – gap 100 ming nafar bolalarimiz haqida ketayapti – hisob-kitob bo‘yicha, umuman ko‘chada qolmoqda. Bu ma’lumot ham to‘liq emas. 11-sinfni bitirayotganlardan 20-25 ming nafari, ya’ni hammasi bo‘lib, 10 foizi oliy o‘quv yurtlariga o‘qishga kirishi mumkin.

Qolgan 90 foizi esa na bir aniq ixtisos, na bir ertangi hayotga kerak bo‘ladigan malaka va na bir kasb-hunarni egallay olmayapti. Va shuning oqibatida 16-18 yashar yigit-qizlarimiz o‘z qobiliyati, havasi, intilishiga mos, hayotda o‘ziga munosib o‘rin topolmayapti. Kimki bu raqamlarni, bu achinarli holatni chuqur tahlil qilsa, yuragidan o‘tkazib, o‘zining shaxsiy dardiday anglasa, albatta, bunday vaziyatga beparvo bo‘lib qolishiga ishonmayman. SHuning uchun ham bugungi zamon talabi, ertangi kelajagimizning tashvishlari bizdan xalq ta’limi tizimini isloh qilish zarurligini taqozo etmoqda.

O‘QUVCHILARNING OG‘ZAKI NUTQINI RIVOJLANTIRISH USULLARI

Olimova Gavxaroy Nosirjonovna
Farg'ona viloyati Farg'ona tumani
4-sonli informatika va axborot texnologiyalariga ixtisoslashtirilgan davlat umumiy o'rta ta'lim maktabi boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7257267

Annotatsiya: Bolalarda og‘zaki nutqni rivojlantirish ularning kelajagi uchun katta ahamiyatga ega bo‘lgan jarayon. Ushbu jarayon har bir bolada har xil bosqichda o‘tadi, bu esa ularning psixologiyasi va ta’lim muassasidagi olayotgan ta’limga bog‘liq. Ushbu maqolada o‘quvchilarning og‘zaki nutqini rivojlantirishning afzalliklari va usullari haqida batafsil bayon qilinadi.

Kalit so‘zlar: og‘zaki nutq, yozma nutq, o‘quvchilar psixologiyasi, maktab, ta’lim dasturi, interaktiv o‘yinlar va h.k.

Ma’lumki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqlaridagi nuqsonlarni bartaraf etish o‘quvchilar va logopedlar zimmasiga yuklanadi. Talaffuzdagi kamchiliklarni aniqlashda bolaning nutqini tekshirib ko‘rish, nutq buzulish sabablarini o‘rganish lozim. Buning uchun har bir bola nutqini tekshirish varaqasi to‘ldirilib, qaysi tovushlar to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri talaffuz qilayotgani belgilab boriladi. Nutq ostirish-ongli o‘qishni, so‘zlash va yozishga o‘rgatishni, til haqida o‘quvchilarning yoshi va tushunchasiga mos bo‘lgan bilim berishni, ularning lug‘at boyligini oshirishni, boshqalarning nutqiga e’tibor va qiziqishni o‘stirish, kitob o‘qishga muhabbat uyg‘otishni ko‘zda tutadi. Ba’zi bolalar tovushlarni noto‘g‘ri talaffuz qilibgina qolmay, ularni bir-biridan farqlay hamolmaydilar. Nutqdagi bunday kamchiliklar darslarni o‘zlashtirishda bolalar uchun sezilarli qiyinchiliklarni tug‘diradi. Bunday hollarda logoped mashg‘ulotlar yordamiga muxtoj bo‘ladilar.

Ijodiy qayta hikoyalashda hikoya kontekstni yoki shaklini o'zgartirish orqali aytiladi o'qilayotgan hikoya yoki hikoyani yangi epizodlar bilan to'ldirish orqali.

Sahnalashtirish yoki sahnalashtirishda o‘quvchilar o‘qilgan hikoyani sahnalashtirilgan hikoyaga aylantiradilar. Qilmoq Bu, ular hikoyaning ssenariysi, kostyumi, imo-ishoralari haqida o'ylashadi ishtirokchilar, monologni dialogik nutqqa aylantiradi (bu eng ko'p til o‘rgatish nuqtai nazaridan muhim ish).

O‘qilishi kerak bo‘lgan hikoyaga rasm chizishda o‘quvchi o‘qilgan rasmdan rasm tanlaydi o‘qilgan yoki chizilgan asar mazmuniga ko‘ra rassomlar tomonidan chizilgan rasmlar o'zini tasvirlaydi. Agar talaba rasmni yaxshi chiza olmasa, u og'zaki o'zi chizmoqchi bo'lgan rasmni tasvirlaydi, ya'ni so'zlar bilan rasm chizadi.

O'qilgan hikoyani davom ettirish usuli maktab amaliyotida keng qo'llaniladi. Bu usul hikoya mazmuni davom ettirish imkonini beradigan asarlarda qo‘llaniladi.

Chiroyli so‘zlashni, savodli, to‘g‘ri yozishni, o‘z fikrini ravon va aniq bayon etishni bilmagan yoko etolmagan o‘quvchi bilimlarni muvafaqqiyat bilan o‘zlashtira olmaydi. Har bir insonning nutqi chiroyli, mukammal, talaffuzi aniq, ravon bo‘lsa, fikrlash doirasi keng, idrok qilishi ham teran bo‘ladi. Nutq orqasli odamzot o‘zining ichki hissiyotlarini ham bayon qiladi, nutq esa barcha insonlarda ham bir xilda-to‘la rivojlangan yoki shakillangan bo‘lavermaydi. Ertak ustida ishlashda bolalarni ertakni o‘qishgagina emas, balki uni aytib berishga o‘rgatish ham muhimdir. Ertak aytish og‘zaki nutqni o‘stiradi, bolalar nutqini yangi so‘z va iboralar bilan boyitadi, ona tiliga muhabbatni tarbiyalaydi. Nutq ikki ko‘rinishga ega –og‘zaki, va yozma nutq. Bular o‘zaro uzviy bog‘langan bo‘lsa ham, har birining o‘ziga xos xususiyati bor. Og‘zaki nutqda tovuchlar, so‘zlar nutq orqali talaffuz qilinsa, eshitish a’zolari orqali qabul qilinadi. Shuning uchun o‘quvchilarning og‘zaki nutqini o‘stirishida, avvalo ularning nutqidagi kamchiliklar sabablarini aniqlash, uni bartaraf etish yo‘llarini izlab topishimiz kerak.

Og‘zaki nutiqqa o‘rgatishning ilk davrida daktiologiya (qo‘l alifbosi) dan foydalaniladi. Bu narsa bolalarning tovushlarni talaffuz qilib, o‘zlashtirib borganlari sari faqat yordamchi vosita bo‘lib xizmat qiladi. Yuqori saviyada yozilgan badiiy asarlar bolalarning nutq normalarini (me'yorlarini) muvaffaqiyatli o‘zlashtirishlariga hamda tilning emotsional tomonlarini his etish qobiliyati rivoj¬lanishiga, og‘zaki nutqning intonatsion ifodaliligi shakllanishiga ta'sir etadi. So'zlashish-suhbat metodidan bolalar lug‘atini faollashtirishda foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bu metod orqali bola lug‘atidagi so‘zlardan o‘rinli foydalanishga, gaplarni to‘g‘ri tuzishga o‘rganib boradi. Bunda o‘qituvchi kichik guruhda tabiiy obyektlar va ular¬ning modellari (o‘yinchoqlar, suratlar)ga tayanish usullaridan, katta guruhlarda esa so‘zli didaktik o‘yinlardan foydalanadi.

Qayta hikoya qilish metodidan besh yoshli bolalar guruhida tashkil etiladigan ishlarda keng foydalaniladi. Uning yordamida bolalar nutqining leksik, grammatik, intonatsion jihatlari shakl-lanadi. Ular bog‘lanishli dialogik va monologik nutqni badiiy asar namunalari yordamida amaliy tomondan egallab oladilar. Badiiy asarlarni qayta hikoya qilishga o‘rgatishda o‘qituvchining asosiy vazifasi mazkur yoshdagi bolalarga mos bo‘lgan, mazmuni va tili jihatidan bolalarga tushunarli bo‘lgan asarlarni tanlashdir. Hikoya o‘ylab topish (to‘qish) metodi bolalarni ijodiy izla-nishga: kuzatganlari bo‘yicha hikoya tuzish; xotiradan hikoya tuzish; xayoliy hikoya tuzishga o‘rgatadi. Nutq ikki shaklga ega - og'zaki va yozma. Ular bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lsa-da, ularning har biri o'ziga xos xususiyatlarga ega. Og'zaki nutqda so'zlar nutq orqali talaffuz qilinganda tovushlar eshitish organlari orqali qabul qilinadi. Shuning uchun o‘quvchilarning og‘zaki nutqini rivojlantirishda

avvalo ularning nutqidagi kamchiliklarning sabablarini aniqlashimiz va uni bartaraf etish yo‘llarini izlashimiz kerak. Chiroyli gapirishni, savodli bo‘lishni, to‘g‘ri yozishni, o‘z fikrini ravon va aniq ifodalashni bilmagan o‘quvchi bilimni muvaffaqiyatli o‘zlashtira olmaydi. Har bir insonning nutqi go‘zal, mukammal, talaffuzi aniq va ravon bo‘lsa, tafakkur doirasi keng, idroki chuqur bo‘ladi. Nutq orqali inson o‘zining ichki tuyg‘ularini ham ifodalaydi, nutq esa hamma odamlarda bir xilda to‘la takomillashib, shakllana olmaydi. Ba'zi bolalar nafaqat tovushlarni noto'g'ri talaffuz qiladilar, balki ularni bir-biridan ajrata olmaydilar. Nutqdagi bunday kamchiliklar bolalar uchun darslarni o'zlashtirishda sezilarli qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Bunday hollarda nutq terapevtlari o'qitishning yordamiga muhtoj. Og'zaki nutqni o'rgatishning birinchi davrida daktiologiya (qo'l alifbosi) qo'llaniladi. Bu faqat yordamchi vosita bo'lib xizmat qiladi, chunki bolalar tovushlarni talaffuz qiladi va o'zlashtiradi.

Boshlang'ich o'rta sinfda ona tili darslarida barcha sinflarning etakchi roli nutqni rivojlantirish bo'lib, u savod o'rgatish, nozik yozish ko'nikmalarini rivojlantirish va fikrlash doirasini kengaytirish vazifalarini o'z ichiga oladi. Bu darslarda ko`proq amaliy maqsadlarni ko`zlash, nutqda til resurslaridan foydalanish ko`nikmalarini shakllantirish, ijodiy fikrlash, o`quvchilarda til sezgirligini tarbiyalash zarur. Ularning og'zaki nutqini muntazam ravishda tarbiyalash tegishli nutqda, matn tuzishda amaliy yordam beradi. Masalan, "Kim sezgir", "Bu nima", "Ismingizni ayt" o'yinlari. Bu turdagi mashqlar o‘quvchilarning yangi harfni o‘rgatgandan keyin qay darajada o‘zlashtirganligini tekshirish va mustahkamlash maqsadida o‘tkaziladi. O‘qituvchi doskadagi harflarni ma’lum tartibda teradi va ularni o‘qib bo‘lgach, o‘quvchilar navbatma-navbat dars o‘tadi. Keyin harflar bolalar sezmasdan almashtiriladi. Shu bilan birga o‘quvchilarning sezgirligi va topqirligi baholanadi va rag‘batlantiriladi. Shunday qilib, har bir darsda, qaysi mavzu bo‘lishidan qat’i nazar, o‘quvchilarning ongli, ravon, to‘g‘ri va ifodali o‘qishini ta’minlash, nutqini yaxshilashga intilish birinchi navbatdagi vazifamizdir.. Bu mashg‘ulotlar o‘quvchilarga yil davomida olgan bilimlarini namoyish etish, tahlil qilish va mustahkamlashga, og‘zaki nutqni rivojlantirishga, eslab qolish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Ma'lumki, nutq tafakkur bilan bog'liq, shuning uchun u tafakkur bilan uzviy bog'liqdir. liksiz o'sadi. Darsda o‘qilgan asarni o‘quvchilarning ongli ravishda anglab olishlari, asosiy mazmun, g‘oyani tushunishlari uchun tahlil, sintez, taqqoslash, umumlashtirish kabi mantiqiy usullar qo‘llaniladi. O'qilgan asarni tahlil qilishda turli ish usullari qo'llaniladi. Bolalar hikoyaning bosh qahramonlarini aytib berishadi, o'qituvchi rahbarligida ishning sxematik rejasini tuzadilar (tugun, kulminatsiya, yechim).

Aytish mumkinki, nutqni rivojlantirish darslarida, ayniqsa, bolalar katta pul to'laydilar badiiy asarlarni o‘qish va hikoya qilishga e’tibor. Badiiy asarlarni o‘rgatish va sahnalashtirish hikoyalarni qayta aytib berish, she’r yod olish zimmasiga katta

mahorat va mas’uliyat yuklaydi o'qituvchi. Agar badiiy asarning mazmuni muallif tomonidan yorqin ifodalangan bo'lsa, in ishtirokchilarning nutqlari (nutqlari) bolalarga ifodali, mazmunli, bu bolalarning his-tuyg'ularini, his-tuyg'ularini, xarakterini rivojlantirish, voqealar uzoq vaqt esda qoladi, lug'atni saqlab qolish uchun ijobiy ta'sir qiladi nutqni boyitish va grammatik jihatdan to'g'ri shakllantirish. Bolalar osonlikcha o'qituvchining ish bo'yicha savollariga javob berish, ba'zi so'zlarni, jumlalarni takrorlash, qahramonlarning ijobiy va salbiy tomonlarini tasvirlab bering, o'qituvchiga taqlid qilishga harakat qiling va ularning ovoziga taqlid qiling.

Foydalangan adabiyotlar:

1.Ma'qulova B. va boshqalar. Boshlang'ich sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlari. T., «O'qituvchi», 1996- yil.

2..Mirzaev I. Dars tahlili. T., «O'qituvchi», 1985- yil.

3.Oripov K., Obidova M. Ifodali o'qish. T., «O'qituvchi», 1982- yil.

4.To'rt yillik boshlang'ich sinflar dasturi. T., «O'qituvchi», 1999- yil.

5.Umarova M, Xudoyberganov M. Bayonlar to'plami.T."O'qituvchi",1992-yil.

6.Qosimova K. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodiicasi. T., O'qituvchi, 1985- yil.

ONA TILI DARSLARINI INTEGRATSIYA USULLARIDA TASHKIL QILISH

Bazarova Dilnoza Bazarovna
Jizzax viloyati Forish tumani
Forish tumani Kasb-hunar maktabi O‘IBDO‘
O‘zbek tili va adabiyoti fani o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7257276

Annotatsiya: Hozirgi globallashuv sharoitda mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish, jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvini ta’minlashda har tomonlama kamol topgan yuksak ma’naviyatli, zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini chuqur egallagan shaxsni tarbiyalab yetishtirish, uning ilmiy dunyo qarashini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada ona tili darslarini samaradorligini oshirish, shuningdek, ona tili darslarini o‘qitish jarayonida integratsiyalashgan darslarda fanlararo aloqadorlikni ta’minlash masalalari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlari: integratsiya, ona tili, innovatsiya, fanlararo aloqadorlik, adabiyot, matematika, integratsion ta’lim.

Annotatsion: In the current context of globalization, it is important to develop the country's economy, to bring up a person with a high level of spirituality, modern management mechanisms, to form his scientific worldview, to ensure its integration into the world community. This article discusses the issues of increasing the effectiveness of mother tongue lessons, as well as ensuring interdisciplinary links in integrated lessons in the process of teaching mother tongue lessons.

Keywords: integration, mother tongue, innovation, interdisciplinary, literature, mathematics, integrated education.

Bugungi kunda ta’lim sohasida olib borilayotgan islohotlarning asosiy mohiyati ta’lim mazmuni va shaklini takomillashtirishga qaratilgan. Fan-texnika taraqqiyoti, jamiyatimizning demokratlashuvi, axborot maydonining kengayib borishi kabi omillar o‘quvchilarning shaxsiy xususiyatlariga, jumladan, idrok eta olish, tasavvur va fikrlash, aqliy qobiliyatlarining rivojlanishiga olib keldi. O‘quv jarayonida fanlararo aloqadorlikning amalga oshirilishi ta’lim sifatining oshirilishiga jiddiy ta’sir ko‘rsatib, ta’limni modernizatsiyalash, innovatsion o‘qitish imkoniyatlarini kengaytiradi. Hozirgi kunda ta’lim tizimiga kiritilayotgan pedagogik texnologiya jarayonida ham innovatsiyalar va integratsiyalarning yorqin misolidir. So‘nggi yillarda respublikada integratsion ta’limni rivojlantirishga katta e’tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida Qonun”i, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da [1] ta’lim mazmuni bilan shaklini bosqichma bosqich

takomillashtirish ko‘zda tutilgan. Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarning 70 foizi ta’lim tizimida integrativ xarakterdagi o‘quv dasturlar va darsliklar bilan ishlamoqdalar. Umumta’lim fanlarini o‘qitishga zamon talablari asosida yondashish, ta’limda eng ilg‘or texnologiyalarni qo‘llash davr talabiga aylandi. Ta’lim jarayonini yangi mazmun va yangi shaklda yo‘lga qo‘yishda integrativ yondashuv talab etiladi. “Integratsiya” so‘zi lotincha integration - tiklash, to‘ldirish, “integer” butun so‘zidan kelib chiqqan.[2.:21] Integratsiya g‘oyasi XVIII asrning yigirmanchi yillarida ingliz olimi G. Spenser tomonidan fanga kiritilgan[2.:32]. Integratsiya muammosini hal etish borasida olimlar birmuncha ishlarni amalga oshirganlar. Rivojlangan davlatlarda ta’lim mazmunini integratsiyalash borasida muhim va dolzarb ishlar amalga oshirilgan. Angliya, Yaponiya, Vengriya, Gong Kong davlatlarda ta’lim mazmunini integratsiyalashga erishilgan.[2.:32] Shaxs dunyoqarashining shakllanishida ma’naviy-axloqiy tarbiya ham muhim o‘ringa ega bo‘lib, uni samarali tashkil etish o‘quvchida ma’naviy-axloqiy ongni shakllantirishga yordam beradi.

Fanlararo aloqa va integratsiyaning maktablarda o‘qitish va tarbiyalashdagi ahamiyati juda ko‘p pedagog olimlar tomonidan ko‘rib chiqilgan. Ta’lim integratsiyasi o‘quvchi faoliyatiga, bu faoliyatning samaradorlik ko‘rsatkichi muntazam ortib borishiga yo‘naltirilgan, uning bosh maqsadi bilimlarni samarali o‘zlashtirishdangina iborat emas, aksincha, bilimlarni o‘quvchi eng qulay, oddiy tushuncha va tasavvurlardan murakkabga tomon boruvchi izlanish-intilishlari asosida uzluksiz o‘zlashtirilishini ko‘zda tutadi. Oddiy mavzular asta-sekin murakkablashib, ma’lumot, tushuncha, tasavvurlar shaklidan yaxlit, mujassam bilim va malakaga aylanib boradi. Bu bilim hamda malakalardan o‘quvchilar zarur vaziyatlarda muayyan hayotiy muammoni hal qilishda bemalol foydalanish layoqati tarkib toptiriladi.[4.:87] Integratsiyaning ta’lim sistemasida muhimligini birinchilardan bo‘lib mashhur pedagog – I.F. Gerbart tushuntirib bergan. U ta’limda integratsiyani qo‘llashning to‘rtta yo‘nalishini sanab bergan. Bular quyidagilar: [2.:49]

Aniqlilik;

Asotsiatsiyaviylik;

Tizim;

Metod.

Integratsiyaning birinchi va ikkinchi yo‘nalishlari bilim olishga yo‘naltirilgan bo‘lib, ikkinchi va uchinchi yo‘nalishlari eski bilimlar va yangi bilimlarni bir- biri bilan uzviy bog‘lash demakir. I.F Gerbart bu yo‘nalishlar orqali integratsiyalashuv jarayoni mukammal ravishda sodir bo‘ladi deb aytib o‘tgan[2.:53].

Bilamizki, uzluksiz ta’lim tizimida ona tilini o‘qitish asosiy o‘rin egallaydi. XXI asr - axborot texnologiyalari asri. Ona tili darslariga noan’anaviy darslarni olib kirish va uni ta’lim mazmuniga singdirish, dars o‘tishning yangi-yangi usullarini topish DTS talablarini bajarishga zamin yaratadi[5.:21]. Shu jihatdan olib qaraganimizda

ham ta’lim tizimida ona tili darslarini boshqa fanlar bilan bog‘lab o‘rgatish darsning samarali bo‘lishini ta’minlaydi. Ona tili darslari boshqa o‘quv predmetlaridan alohida, mustaqil yashay olmaydi. Aksincha u ta’lim bosqichlarida o‘rganiladigan xilma-xil o‘quv predmetlari, xususan, adabiyot, matematika, fizika, informatika, texnologiya, geografiya, xorijiy tillar bilan o‘zaro aloqadorlikda o‘rganilsa, o‘z samarasini beradi. Chunki ta’lim tizimida fanlararo aloqadorlik – integratsiya darslarini tashkil etish o‘quvchilarning mavzuni tez va oson anglashiga olib keladi. Birinchi navbatda, ona tili adabiyot fani bilan bog‘lab o‘rgatiladi. Ona tili va adabiyot darslarini bir o‘qituvchi olib borishi ularni o‘zaro bog‘lab aloqada o‘rgatishga katta imkoniyat yaratadi. Adabiyot so‘z san’ati bo‘lganligi tufayli, ona tilini asosli ravishda anglamasdan turib, o‘quvchilar oldida adabiyotning go‘zalligi va qudratli tarbiya vositasi ekanligini namoyish qilish mumkin emas. Yuqori sinfda badiiy asarning tili o‘rganilayotganda stilistik tahlil mashg‘ulotlari o‘tkaziladi. Stilistik tahlilda asarning g‘oyaviy mazmunini ifodalovchi til vositalari aniqlanadi, muallifning so‘z tanlash, gap tuzish mahorati ko‘zdan kechiriladi. Masalan, Oybekning “Qutlug‘ qon” romani bo‘yicha mustaqil mashg‘ulot olib borilar ekan, o‘quvchilarda yozuvchining so‘z tanlash va so‘zlarni o‘zaro bog‘lash usullari, shuningdek tinish belgilarining ishlatilishi aniqlanadi. Ona tili darslarini adabiyot bilan uyg‘unlikda olib borish, o‘quvchilarning badiiy-estetik dunyoqarashlarini yanada boyishiga olib keladi. Aynan ona tilida biron bir nazariy ma’lumot o‘rganilayotgan bir paytda o‘quvchilarga aynan shu damda adabiyotdan o‘tilayotgan hikoya, asardan parchalardan misollar topib kelish, ruboiy, g‘azallardagi so‘zlarni til nuqtayi nazaridan tahlil qilishga o‘rgatib borilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Davlat ta’lim standartlarida o‘quv fanlari orasidagi aloqadorlik, ona tili fanining boshqa o‘quv fanlarini o‘rganishga ta’siri qayd etilib, “Ona tili o‘qitishda o‘quvchilarning mantiqiy tafakkurlarini rivojlantirishda aniq fanlar yo‘nalishdagi fanlarni o‘rganishga ijobiy ta’sir” ko‘rsatishi uqtirilgan[5.:35].

Integratsiyalashtirish natijasida tejab qolingan vaqt mobaynida darslikdan tashqari ma’lumotlar berishimiz mumkin bo‘ladi [2.:85]. Masalan ona tili darsi bilan bilan adabiyot darsini integtasiyalashtirish jarayonida har ikkala fanga tegishli bo‘lgan savol bilan murojaat qilamiz, natijada o‘quvchi ikkala fandan ham o‘tganlarini takrorlab oladi va qo‘shimcha o‘zi bilganlarini ham ifoda etadi. Bunday maqsadni amalga oshirihda bizga interaktiv metodlarimiz yordam beradi. Qo‘yilayotgan muammo har ikkala darsga taaluqli bo‘lishi lozim. Darsda integratsion texnologiyani qo‘llash jarayonida foydalaniladigan metod va vositalarning xilma-xil bo‘lishini ta’minlash integratsiyalashgan darslarni yanada qiziqarli bo‘lishini ta’minlaydi. Darslarning sifat samaradorligi oshadi.

Maktabda ona tili va matematika darslari o‘rtasidagi predmetlararo aloqani o‘rnatish uchun potensial imkoniyatlar mavjud [5.:63]. Jumladan, ona tili darslarida

matematik mavzulardagi mashqlarga o‘rin berilishi, matematika darslarida o‘quvchilarning til madaniyatini oshirishga doir ishlar amalga oshirilishi fanlararo uzviylikni ta’minlashda katta imkoniyatlar yaratadi. Masalan, matematika darslarida “Agar....bo‘lsa, u xolda....” shaklidagi jumlalarni quyi sinflardayoq qo‘llay boshlanadi va uni mantiqiy hosil bo‘lishlik simvoli bilan belgilab ko‘rsatiladi. Ona tili darslarida ham qo‘shma gap mavzusida gapning ko‘rinishi yuqoridagi shaklda bo‘lishi uqtirib o‘tiladi. Shu mavzuni o‘qitishda “Agar uchburchakda tomonlaridan birining kvadrati uning qolgan ikki tomoni kvadratlarining yig‘indisiga teng bo‘lsa, u holda uchubrchak to‘g‘ri burchakli bo‘ladi” yoki “Agar burchaklar vertikal bo‘lsa, u holda ular teng bo‘ladi” shaklidagi matematik jumlalarni tahlil qilish mumkin. Bu esa ona tili o‘qitish sifatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Shu bilan birga ona tili fanini texnologiya fani bilan ham bog‘lab o‘qitish mumkin. Ona tili darslarida ayrim mavzularni o‘rgatish jarayonda kasb-hunarga oid misollarni qo‘llash orqali ham ona tili va texnologiya fanlarini bir-biriga bog‘lash mumkin. Jumladan, turdosh otlar mavzusi o‘rganilayotganda duradgorlik, tikuvchilik, pazandachilik va boshqa kasblarga doir atama va so‘zlardan keng foydalanish, ularni o‘quvchilarning o‘zlariga topshirish, uydan yozib kelish uchun vazifa qilib berish mumkin. Bunday ishlar orqali o‘quvchilar har xil kasb-hunarlar bilan tanishadilar, ulardan shu kasb-hunarga ma’lum darajada qiziqish va ishtiyoq uyg‘onadi. Bundan tashqari ona tili fanining tarix, geografiya, botanika, fizika fanlari bilan ham bog‘lab o‘rgatish ta’lim tizimida fanlararo bog‘lanishning samarali foyda beradi.

Ma’lumki, darsni o‘tishda, ayniqsa, unga ijodiy yondashishda ta’limiy, tarbiyaviy axborotli rivojlantiruvchi maqsadlar amalga oshiriladi. Har bir o‘qituvchi dars mashg‘ulotlarini olib borishda o‘z faoliyatini tahlil qila bilish va shu asosida tegishli xulosa chiqara olishga erishish kerak. Agarda o‘qituvchi o‘zi o‘tkazayotgan mashg‘ulotlarning samaradorligini baholay olmasa, u holda yo‘l qo‘ygan kamchiliklarini ham sezmaydi va uning faoliyatida ijodiy yondashuv amalga oshmaydi. Zamonaviy o‘qituvchi uchun yangi texnologiyaga asoslangan integratsion dars o‘tish, ijodiy faoliyat sari qadam qo‘yilganligini ifoda etadi. Shu bilan birga ta’lim sifati va mo‘ljallangan natijalarga erishish uchun integratsiyalangan texnologiyalar orqali quyidagi vazifalarni bajarish majburiyati turadi.

- ta’lim tizimida o‘quvchi nimani bilishi, bajara olishi va u qanday shaxsiy xususiyatlarga ega bo‘lishi zarur ekanligi haqida axborot mavjud bo‘lshi zarur.

- o‘quvchi o‘quv fanlari bo‘yicha berilayotgan bilimlarni xotirasida saqlabgina qolmay, balki shu asosda o‘z tafakkurini tizimli ravishda rivojlantirib borishi zarur;

- ijodiy o‘quv faoliyati muhitini yaratish lozim: ushbu faoliyatga faqat ma’ruza asosida emas, balki harakat maqsadli yo‘naltirilgan jarayon va ularning natijasida olinadigan mahsulotga ega bo‘lish orqali erishiladi;

- ta’lim tizimi ishonchli tashxis, o‘quvchining bilimini ob’yektiv nazorat qilish va baholash mezonlariga ega bo‘lishi kerak[4.:48].

Yuqorida ko‘rsatilgan ishlarni amalga oshirish, o‘z navbatida, bir qator tashkiliy chora-tadbirlarni amalga oshirilishini taqozo etadi. O‘qituvchi darsga puxta tayyorgarlik ko‘rishi bilan birgalikda, uni amalga oshirish uchun qanday dars turi va uslublardan foydalanishini aniq bilish lozim. Integratsion darslarda dars turlari va uslublar:[2.:96]

Dars jarayonida ishlatish uchun ko‘rgazmali qurollarni, o‘quv materiallarini to‘g‘ri tanlash va undan samarali foydalana olish kerak;

Sinf jamoasi va har bir o‘quvchiga uning o‘ziga xos harakter xususiyatidan kelib chiqqan holda yondashish darkor;

Sinf o‘quvchilarining faolligini oshirishga qaratilgan tadbirlarni to‘g‘ri belgilash, ayniqsa ularning mustaqil fikr yuritishlari uchun sharoit yaratish lozim. Yuqoridagilarga asoslanib, xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, O‘quv jarayonida fanlararo aloqadorlikning amalga oshirilishi ta’lim sifatiga kuchli ta’sir ko‘rsatib:

ta’limning modernizatsiyalash, innovatsion o‘qitish imkoniyatlarini kengaytirish imkonini beradi;

umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’limda uzviylik va uzluksizlikning ta’minlanishida muhim omil vazifasini bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Mirziyoyev Sh.M. Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida // PF-6084-son. – T., 2020

2.Mavlonova R. Boshlang‘ich ta’lim integrasiyasi. -T.:,2009.

3.Djurayev R. H. Ta’limda interfaol texnologiyalar. – T.: 2010

4.Xoliqov A. Pedagogik mahorat. – T.: 2011

5.To‘xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova T. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. – T.: 2010.

6.Aripov M. va boshq. Axborot texnologiyalari: – T.: 2003

METHODS ON HOW TO IMPROVE TEACHING READING

Kurbanova Nargiza Ibrakhimovna
Teacher of English at the 21th school
Yunusabad district Tashkent
https://doi.org/10.5281/zenodo.7257285

Annotation: As is known, the activity in the assimilation of information in schoolchildren occurs on the basis of their own views and interests, which is the main means of motivating educational activities. At the same time, it is necessary to take into account the personal individualization of students, correlate speech actions with their real feelings, thoughts and interests.

Keywords: assimilation of information, cognitive activity, comprehensive development, visual memory

As lexical units accumulate, many schoolchildren need visual support because it is extremely difficult to perceive speech only by ear. This is especially true for those schoolchildren whose visual memory is better developed than auditory memory. That's why reading is so important.

Reading is one of the most important types of communicative and cognitive activity for students. This activity is aimed at extracting information from a written fixed text. Reading performs various functions: it serves for practical mastery of a foreign language, is a means of learning a language and culture, a means of information and educational activities and a means of self-education. As you know, reading contributes to the development of other types of communicative activity. It is reading that gives the greatest opportunities for the education and comprehensive development of schoolchildren by means of a foreign language.

When teaching reading at the initial stage, it is important to teach the student to read correctly, that is, to teach him to voice graphemes, and extract thoughts, that is, to understand, evaluate, and use the information of the text. These skills depend on how fast the child reads. By reading technique we mean not only the fast and accurate correlation of sound and letter, but also the correlation of the sound-letter bundle with the semantic meaning of what the child is reading. It is the high level of mastery of the reading technique that allows you to achieve the result of the reading process itself – fast and high-quality information extraction. However, this is not possible if the student does not have enough language skills, does not know how or reproduces sounds incorrectly.



Every century comes up with its own methods of teaching reading. Then he forgets them, in order to "rediscover" them a few decades later and admire them anew. Everyone has their own charm. However, let's look at all this diversity. There are two main, fundamentally opposite methods of teaching reading. One is called the whole word method, the other is phonological. For a long time, there were discussions on whether phonetics should be taught at all. By 1930, a number of studies had been conducted on this topic, and everyone came to the conclusion that phonetics was necessary, the only question was how and to what extent to give it to schoolchildren. For example, such an experiment was set up. A group of schoolchildren aged five to six years was divided in half, with the first subgroup being taught to read by the method of whole words, the second by the phonological method. When the schoolchildren started reading, they were tested. At the first stage, the schoolchildren from the first group read aloud and to themselves better. "Phonological" schoolchildren coped more easily with unfamiliar words and by the end of the second grade surpassed their classmates in terms of perception and richness of vocabulary. According to the observations of scientists, "pedigreed" schoolchildren made typical mistakes. For example, reading the caption under the picture, they replaced words that were close in meaning. Instead of "tiger" they could say "lion", instead of "girl" - "schoolchildren", instead of "car" - "wheels". The desire

to fix the word for a strictly defined meaning led to the fact that during the whole year of study these schoolchildren could not learn to read new words without anyone's help. In fairness, it should be said that "phonological" schoolchildren had difficulty reading those words where the letters were rearranged or replaced with similar ones. Thus, it became clear that phonetics is necessary for most small readers. Recent studies have confirmed that people spell words. But due to the fact that this process happens instantly, it seems that we perceive the whole word.

Going further in research, psychologists realized that reading is saying a text to yourself. Proponents of the theory of perception of the text as a whole believed and believe that we perceive words from the text directly. But experiments have shown that while reading to yourself, the same part of the brain is involved as when reading aloud. So, in order to read freely, it is necessary to easily and quickly recognize letters and correlate them with sounds. And the simplest cramming of phonetics turns out to be much more effective than other tricks and techniques.

Oddly enough, you can learn to read without knowing the alphabet. Followers of the "whole words" method urge not to teach the child letters. And only recently have the final conclusions of scientists become known: only knowledge of letters makes the process of learning to read as successful as possible. An experiment was conducted. Schoolchildren were shown cards with words. Only in one group these words were captions under pictures, and in the other the same words were given without illustration. Each group was presented with the same four words. Then the schoolchildren were connected, the cards were shuffled and shown again. It turned out that children learn words only on the cards they studied on. That is, a child who remembers words with an illustration is much less likely to recognize the graphic appearance of the word than someone who memorized the spelling in its "pure form".

This indirectly confirms the fact that the alphabet is necessary. But the main thing is not how the letters are called, but what they mean. Schoolchildren should not so much know the names and sequence of letters as learn to pay attention to the letters, perceive them as part of the whole. In addition, the alphabet is an abstract code. A kid who has dealt with real things before begins to use symbols, and this is the first step to the development of abstract thinking. There cannot be one universal method of teaching reading in any language. But the general approach can be: to start learning with an understanding of letters and sounds, with phonetics. This principle works in almost any language. Even in China, where hieroglyphs are traditionally used in writing, for the last 50 years children have been taught to read words using the Latin alphabet first, and then they switch to the traditional spelling. In some languages, the relationship between letters and phonemes is very, very complicated. For example, in English, many words are read completely differently than they are written. The rules of reading depend on whether the syllable is closed or open, on the

order of letters and on their combinations with each other. Some sounds can affect the pronunciation of others and so on. That is why the alphabet for James Pitman's initial reading instruction and the whole-language method (perception of the text as a whole) used to be very popular in English. Today, in America, at the state level, a project is being considered for the mandatory introduction of phonetics into the curriculum in all states. A few decades ago, the method was the same: first, schoolchildren learned the names of letters, then sounds, and then connected letters into syllables. The difficulty was that first graders could not learn the difference between how a letter is called and how it is pronounced for a long time. The syllables turned out to be long, and it was very difficult for the child to keep several letters in his head. In recent years, the principle of warehouses - phonemes has been successfully used. So, we found out that a child needs to know phonetics. But this does not mean that the kid should memorize boring rules and distinguish qualitative reduction from quantitative. The main thing that needs to be maintained is an interest in studying. And there is one rule here: the child is interested as long as his capabilities coincide with the tasks set.

It is necessary to make sure that the child succeeds so that his successes are obvious. For example, take for mastering a couple of dozen words denoting objects in the house. If you hang signs with words on these objects, the baby will soon begin to recognize familiar inscriptions. Then you can play a guessing game, a lotto game with the same words - and the child will feel confident in his abilities.

Only against the background of positive emotions will further training be effective. But it is not a sin to prepare the youngest schoolchildren for learning to read in the future. The recipe here is simple: read aloud to them as much as possible. Moreover, the texts should exceed the language level of the child in their vocabulary. In addition, correct reading, according to experts, involves pauses, unfinished thoughts, complex questions that require reflection. One-and-a-half-year-old schoolchildren, whose parents read books in this way, outstripped their peers in development by eight months!

So, despite the ongoing debate about how to teach reading, a mandatory element has bee;n defined that does not depend on a particular language: mastering the correspondences between letters and sounds. This step is the first, but not the last on the way to a deep and complete mastery of native speech.

Reference:

1.Hewings, A. and Hewings, M. Grammar and Context, London, Routledge. 2004

2.Wells, W. H. G. An experimental approach to the interpretation of focus in spoken English’ in Johns-Lewis, C. (ed.) Intonation in Discourse, London, Croom Helm. 1986

3.Kama Einhorn. ESL Activities and Mini-Books for Every Classroom. Scholastic Publishing. New York. 2011

MARG‘ILONIYLAR OILASINING FIQH ILMIGA QO‘SHGAN HISSALARI

Isoqjonov Muhammadibrohim
O‘zbekiston xalqaro Islom akademiyasi magistranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.7257298

Annotatsiya: Ushbu maqolada asosan fiqh faniga Farg‘ona vodiysidan bo‘lgan olim Burhoniddin Marg‘iloniy va uning avlodlari haqida yoritiladi. Bu sulola bir necha asrlar davomida ilmiy jihatdan juda ham muhim o‘rin egallab kelgani va bu jarayonlar davomida o‘zlari yozgan kitoblar hamda ilmiy yangiliklar bilan fan rivojiga qo‘shgan hissalari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: fiqh, islom huquqshunosligi, Marg‘ilon, Umar Marg‘iloniy, Burhoniddin Marg‘iloniy, usul al-fiqh, “Hidoya”, atama, isteloh.

Movaraunnahr fiqh maktabi tarixida Burhoniddin al-Marg‘iloniy va uning avlodlarining o‘rni juda kata hisoblanadi. Ular fiqhiy sulola bo‘lib shakllanib, ancha yillar davomida Movaraunnahr huquqiy fonida katta e’tiborga loyiq ishlar bilan mashhur bo‘lib kelganlar. Sulolaning asosiy tilga olinadigan vakili Burhoniddin al-Marg‘iloniy hisoblanib, olimning asl ismi Ali ibn Abu Bakr ibn Abdujalil al-Farg‘oniy al-Marg‘iloniy sanaladi. Alloma haqida boshqa ulamolar faqih, hofiz, mufassir, hamma ilmlarni puxta o‘zlashtirgan olim, zohid, shoir odob va ilmda unga o‘xshashini ko‘zlar ko‘rmagan hamda nozik masalalarda ham uning qo‘li uzin va ko‘plab mashhur imomlar qo‘lida ilm olgan, deya ta’riflaydilar[8].

Tadqiqotlarga ko‘ra, olimning tug‘ilgan yili haqida aniq ma’lumotlar keltirilmagan. Bu boradagi ilmiy izlanishlar tadqiqotchilarni uch toifaga bo‘linishiga olib kelgan. Ba’zi ulamolar Burhoniddim al-Marg‘iloniyning tug‘ilishini hijriy 511-yilda bo‘lgan desalar, boshqa bir ulamolar hijriy 530-yil, milodiy 1135-yilga to‘g‘ri kelishini ta’kidlaganlar. Boshqa bir tur ulamolar, ya’ni Umar Rizo Kahola kabilar esa bu narsada hech bir so‘z aytmaganlar[9]. Bundan kelib chiqadiki, olimning tug‘ilgan yili borasida aniq faktlarni toppish qiyin. Lekin manbalarning aksari allomaning 511-yili tug‘ilganini ta’kidlaydi. Bu haqida Abdulhay Laknaviy shunday yozadi: “Hijriy 511-yil rajab oyida dushanba kuni asr namozidan so‘ng tug‘ilgan”[10].

Burhoniddin al-Marg‘iloniyga berilgan nisbat borasida ham tadqiqotchilar so‘z yuritib, u kishini ba’zilari al-Farg‘oniy deb keltirsa, boshqa tadqiqotchilar al-Rishtoniy deya tilga olganlar. Yana boshqa manbalarda al-Marg‘iloniy shaklida ma’lumotlar beriladi. Bu nisbatlarning har birining olim uchun o‘z ahamyati mavjud sanaladi. Rishtoniy nisbasining Marg‘iloniy nisbasidan oldin bo‘lishining sababi

[8] Favaidul bahiyya. (141-bet).
[9] Tarikh fiqh me Hidoya ur sohibi hidoya ka maqam 11-14-betlar.
[10] Favaidul bahiyya. (141-bet).

allomaning Rishtonda tug‘ilgani bo‘lsa, ikkinchi tomondan esa o‘rta asrlarda Rishton Marg‘ilondan katta shahar bo‘lgan. Shuning uchun ham Rishton Marg‘ilondan oldin qayd etilgan. Nasablari ko‘pincha ana shunday zikr qilinadi[11]. Lekin ayrim manbalarda olim Rishtonda emas, balki Marg‘ilonda tug‘ilgani ham zikr qilingan. “Olim Marg‘ilonda tug‘ilganlar. Marg‘ilon Movaraunnahr hududidagi viloyat bo‘lmish Farg‘onadagi shaharlardan biri hisoblanadi. Farg‘ona voidysida bir daryo oqib o‘tgan bo‘lib, uning nomi Sayhun deb nomlanar va ushbu shahar daryoning sharq tarafida joylashgan edi”[12]. Lekin boshqa bir tadqiqotlarga suyanilsa, yuqorida zikr qilingan shaharlarning hammasi olimga bir jihatdan aloqasi borligini ko‘rsatadi. Alloma Rishtonda tug‘ilgan hamda 13 yoshiga yetganda esa Marg‘ilonga ko‘chib o‘tadi va o‘sha yerda hidoya asarining birinchi juzini yozadi lekin asosiy qismini Samarqandda yozib tugatadi[13]. Olimning nasabi Abu Bakr (r.a)ga borib yetadi.

Otalari Abu Bakr ibn Abduljalil o‘z davrining taniqli faqihlaridan biri edi. Alloma dastlab o‘z otalari qo‘lida ta’lim oladilar, keyin Roshidon, Marg‘ilon, Buxoro, Samarqand va boshqa shaharlardagi bir qator madrasalarda, xususan Marg‘ilondagi Pur Siddiq madrasasida o‘n uch yil istiqomat qilib ta’lim oladilar va “Hidoya” asarining birinchi qismini aynan shu muborak manzilda turgan kezlari yozganlar. Bundan Marg‘ilon o‘sha davrda Movarounnahrda ilm va madaniyat markazlaridan biri ekani ma’lum bo‘ladi[14].

Alloma juda ko‘plab ilmlarda peshqadam kishilardan sanalgan. U haqida Alloma Jamoliddin ibn Abdulmalikning ta’kidlashicha, hidoya sohibi 8 ta ilimni juda yaxshi bilgan[15]. Ammo taboqot kitoblarining aksarida olim haqida berilayotgan ma’lumotlarda deyarli barcha shar’iy ilmlarda uning mukammal o‘zlashtirgan kishilardan bo‘lgani ta’kidlangan. Olimning bir ilmga cheklanib, nomi o‘sha ilmning o‘zi bilangina bog‘lanishiga “Hidoya” asarining juda ham katta shuhratga erishgani sababidan deb hisoblanadi. Bu asar ulamolar va oddiy xalq orasida shunchalar tanilib ketdiki, Burhoniddin al-Marg‘iloniyning nomi aksar o‘rinlarda fiqh ilmi bilangina bog‘lanadigan bo‘ldi. Bunga yana bir misol tariqasida yana bir holatni ko‘rish mumkin: toboqot janirida yozilgan asarlarning ko‘pida olimning o‘g‘llari yoki nabiralaridan birini zikr qilishda “hidoya sohibining o‘g‘li” yoki “hidoya sohibining nabirasi” deb zikr etib o‘tiladi.

Olim fiqh fanidan boshqa fanlarda ham saviyasi yuqori bo‘lganligiga yana bir dalil shuki, muhaddis imom at-Termiziyning “Al-jome’”sini Shayxul Islom Ziyouddin Abu Muhammad Soid ibn As’addan silsilaviy olgan[16].

[11] Hidoya. Adolat nashriyoti. Toshkent. 2000-yil. 4-bet.
[12] Tarikh fiqh me Hidoya ur sohibi hidoya ka maqam 11-14-betlar
[13] https://ar.wikipedia.org/wiki/ va hidoya.
[14] Marg’ilon allomalari. Rahmatulloh Fayzullayev va Nodirjon Abdulahatov. 22-bet. Toshkent 2014.
[15] (Javohir ul-Mudiyya 2/628).
[16] (Javohir ul-Mudiyya 2/628).

Burhoniddin Marg‘inoniy Samarqandda buyuk allomalar Najmiddin Abu Hafs Umar ibn Muhammad an-Nasafiy, shuningdek, Abul Lays Samarqandiy huzurida ta’lim oladilar va o‘sha yerda hijriy 573 yil zul-qa’da oyining 4-kuni (milodiy 1178 yilning aprel oyida) Hidoya asarini yozishni tugatganlar.

544/1149-yilda muborak haj safariga boradilar. Allomaning haj safariga borishlari bir tomondan ibodat maqsadida bo‘lsa, ikkinchi asosiy maqsad o‘z ilm va bilimlarini oshirish niyati edi. Hajdan qaytib kelayotib Marg‘inoniy Marv shahrida to‘xtaydilar va u yerlik allomalardan ham tahsil oladilar. Ular orasida Muhammad ibn al-Husayn ibn Nasr ibn Abdulaziz Ziyouddin al-Bandinijiy ham bo‘lib alloma u zot huzurida hadis tinglaydilar. So‘ngra Balxga kelib bu yerda buyuk olim Abu Shujo‘ Umar ibn Muhammad al-Bistomiy huzurida u zotga tegishli barcha asarlardan dars oladilar.

Uzoq davom etgan riyozat va izlanishlar natijasida Burhoniddin Marg‘inoniy hazratlariga “Burhoniddin” (“Islom dinining yorqin hujjati”) degan yuksak unvon beriladi va o‘z davrining hanafiy mazhabi bo‘yicha buyuk faqihi darajasiga ko‘tariladilar. Tahsil yillari tugab Burhoniddin Marg‘inoniy yetuk faqih sifatida Samarqandga qaytib keladilar va bu yerda shayx ul-islom mansabiga tayinlanadilar.

Burhoniddin al-Marg‘iloniy o‘z davrining yetuk ulamolaridan dars oladi. Ular orasida eng birinchi navbatda aqida ilmi borasida mashhur “Aqoid an-Nasafiya” asari muallifi Najmiddin Abu Hafs Muhammad ibn Ahmad an-Nasafiy manbalarda ta’kidlanadi.

Shuningdek, “Qozixon fatvosi” kitobining muallifi Faxriddin Abul Mafoxir Hasan ibn Mansur O‘zgandiy, Sodrush shahid Hisomiddin Umar ibn Abdulaziz ibn Umar ibn Ali al-Poykandi, Abdurazzoq ibn Nasr ibn Ja’far ibn Sulaymon al-Marg‘iloniy, Qavomiddin Ahmad ibn Abdurashid Umar ibn Muhammad Ahmad ibn Abdulloh ibn Ziyoislom Abu Shujjo‘ al-Bayomi, Ahmad ibn Abdulaziz Ziyouddin Muhammad ibn Husayn al-Bandiyji kabilarni ko‘rishimiz mumkin[17].

Olim fiqhga oid o‘nlab asarlar ta’lif etgan bo‘lib, ulardan bizga oltitasi yetib kelgan. Allomaning bizga ma’lum bo‘lgan asarlarini ko‘p tadqiqotlarda sanab o‘tiladi. “Hidoya”, “Bidoya”, “Kifoyatul muntahiy”, “Tajnis”, “Mazid”, Mansik ul-haj”, “Majmaun navozil”, “Faroiz”[18] kabilar shular jumlasidandir. Ba’zi tadqiqotlarda bu kitoblarning nomlari boshqacha nom bilan ham tilga olinadi. “Majmaun navozil” kitobini Qutlu Bug‘a va boshqa ba’zi tadqiqotchilar “Muxtarotun navozil” deb keltiradilar. Ba’zi tadqiqotchilar esa ikkovini ham qo‘shib, “Muxtarot majmaun navozil”, deya yozadilar.

Faroiz kitobini olimning o‘zi “Faroz ul-Usmoniy deya nomlagan. Bu kitob aslida meros masalasida bo‘lib, shayx Usmoniy degan olim yozganlar. U kishi fiqh

[17] Hidoya, 8-bet.
[18] Toj ut-tarojim. 2007-bet.

ilmida juda mohir sanalganlar. Lekin bu kitobni olimning o‘zi yakunlay olmay qolgan. Davomini esa Burhoniddin al-Marg‘iloniy yakunlab, o‘sha olimning fazilati va jalolati sababidan “Faroiz al-Usmaniyya” deya atagan[19].

Olimning hayoti yo‘li va ijodidan xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, uning Islom ilmlari, xususan, fiqh fanining rivojiga qo‘shgan hissasi juda ham ulkan hisoblanadi. Bu borada hamma tadqiqotchilar yakdil fikrdalar. Allomaning bu mehnatlarining asosi kitob ta’lif qilishga borib taqaladi. Shuning bilan birgalikda uning avlodlari ham shar’iy ilmlarda, aniqroq qilib aytganda fiqh ilmida uzoq yillar davomida ko‘plab foydali ishlar qilganlar. Bu mehnat ko‘plab qirralarda amalga oshirilgan. Tadqiqotlarga batafsil yondashadigan bo‘linsa, bu sulola vakillarining biri o‘z yurtining qozisi bo‘lgani, yana boshqasi, kitob ta’lif qilgani, yana biri mudarrislik qilib o‘zlarini ko‘rsatgani ayon bo‘ladi.

Burhoniddin Marg‘inoniyning o‘zlari kabi fiqh ilmida faoliyat olib borgan uch o‘g‘illari borligi aytilib, ularning ismlari quyidagicha zikr qilinadi:

1. Imoduddin ibn Ali ibn Abu Bakr ibn Abduljalil al-Marg‘inoniy.
2. Nizomiddin Umar ibn Ali ibn Abu Bakr ibn Abduljalil al-Marg‘inoniy.
3. Jaloliddin Muhammad ibn Ali ibn Abu Bakr ibn Abduljalil al-Marg‘inoniy.

Burhoniddin Marg‘inoniyning o‘g‘illari ham fiqh ilmini otalaridan o‘rganganlar va bu borada fatvo chiqaradigan darajaga etganlar[20].

Imoduddin ibn Ali ibn Abu Bakr ibn Abdujalil al-Farg‘oniy bo‘lib, otalari Ali ibn Abu Bakr ibn Abduljalil hidoya asari muallifi hisoblanadilar. “Fusul al-Imodiyya” asari muallifining otasi sanaladi. Olim otasi va qozi Ali Zahiriddin al-Buxoriyning qo‘lida faqih darajasiga yetadi hamda ikki inilari kabi fatvoda gapi olinadigan kishilardan bo‘lib yetishadi. Allomaning “Qozining odobi” nomlangan kitobi bor[21].

Olim shayxul Islom Umar Nizomiddin al-Farg‘oniy bo‘lib, “Hidoya” asarining muallifi bo‘lmish Ali ibn Abu Bakr ibn Abduljalil o‘gillari hisoblanadilar. U kishi ham akalari Jaloliddin Muhammad singari otalarining qo‘llarida faqih bo‘lib yetishadilar hamda fatvo borasida ishonchli kishilardan biridek maqomga yetadilar. Alloma “Javohir ul-fiqh”, “Favoid” va shu kabi asarlar muallifi sanaladilar[22].

Kunyalari Abu Hafs bo‘lgan. 600-yildan so‘ng vafot etgan[23]. U kishining bitta inilari bo‘lgani qayd etilgan lekin ikkita ekanligi mo‘tabar toboqot kitoblarida zikr qilinmagan[24]. Bu ma’lumot tarixiy, qadim kitoblarga tayanib keltirilgan. Lekin zamonaviy tadqiqotlarda va boshqa manbalarda olimning yana bitta, jami uchta o‘g‘li

[19] Tarikh fiqh me Hidoya ur sohibi hidoya ka maqam 19-bet.
[20] Marg’ilon allomalari. Toshkent 2014. 22-bet.
[21] Favoidul bahiyya, 146-147.
[22] Favoidul bahiyya, 149-bet.
[23] (Javohir ul-mudiyya, 2/657-bet).
[24] (Berlin Regia kutubxonasi. Toboqotus saniyya 9/14 qo’lyozma).

bo‘lganligi va ular hammalari faqih bo‘lganligi qayd etilgan. Allomaning ana shu o‘g‘illarining ismi Muhammad ibn Burhoniddin sanalgan.

Muhammad ibn Burhoniddin Ali ibn Abu Bakr ibn Abduljalil Abul Fath Jaloliddin al-Farg‘oniy. Olim otasining bag‘rida o‘sib, ilm va odobdan namuna bo‘la oladigan darajaga yetdi. Otasining qo‘lida fiqh ilmini mukammal o‘rganib, asrining mo‘tabar faqihlaridan bo‘lib yetishdi[25]. Laqablari Imoduddin bo‘lgan[26].

Bundan tashqari allomaning nabiralari va ulardan keying avlodlari ham fiqh fani va butun shar’iy ilmlar borasida peshqadamlardan hisoblanganlar. Istiqomat qilib turgan yurtlarida biror bir yangi masala chiqadigan bo‘lsa, marg‘iloniylar sulolasining o‘sha zamonda ilmda peshqadam bo‘lib turgan vakiliga murojaat qilingan. Ana shunday kishilardan biri Abdurahim Abulfath Zayniddin ibn Abu Bakr hisoblanganlan. Abdurahim Abulfath haqida “Favoid al-bahiyya” kitobida Abdulhay Laknaviy shunday zikr qilib tilga oladilar:

“Abdurahim Abulfath Zayniddin ibn Abu Bakr Imodiddin. Olim “Hidoya” sohibi bo‘lmish Burhoniddin al-Marg‘iloniyning o‘g‘illari Imoduddinning o‘g‘li hisoblanadi. Alloma “Fusulul Imodiya” asarini ta’lif qilgan. Otasi va mashhur olim, “Fusul al-Usturishoniy” asarining muallifi Mujiddin Muhammad al-Usturushoniyning shogirdi Ali Hisomiddin al-Alyabodiylarning qo‘lida mohir faqih bo‘lib yetishadi.

Olim “Fusulul imodiyya” asarini hijriy 651-yilning Sha’bon oyida Samarqandda ta’lif qilib tugatadi. Alloma o‘zi bu haqida shunday ma’lumot keltirib o‘tgan: “Fusulul imodiyyani o‘qib chiqib, uning turli hukmlarni o‘zida jamlagan va ko‘plab foydalarni o‘z ichiga olgan kitob bo‘lganini angladim”. Kitob davomida muallif bobosini “bobom Burhoniddin al-Marg‘iloniy” deb, Umar al-Marg‘iloniyni esa “amakim Nizomiddin” deya keltirishga odatlangan[27].

Marg‘iloniylar sulolasining yana bir ko‘zga ko‘ringan ulamolaridan biri Abdulavval ibn Burhoniddin Ali ibn Imodiddin ibn Jaloliddin Muhammad ibn Zayniddin Abdurrahim ibn Imodiddin ibn Ali ibn Abu Bakr sanaladi. Bu kishi haqida mo‘tabar tarix asarlarining aksarida batafsil ma’lumotlar keltirib o‘tilgan. Shuning o‘zidan ham ko‘rinib turibdiki, olimning hanafiy fiqhi va Movaraunnahr fiqh maktabida tutgan o‘rni anchagina salmoqli hisoblandi. Olim haqida alloma Abdulhay Laknaviy o‘zining “Favoid ul-bahiyya” asarida shunday bayon qilgan:

“Abdulavval ibn Burhoniddin Ali ibn Imodiddin ibn Jaloliddin Muhammad ibn Zayniddin Abdurrahim ibn Imodiddin ibn Ali ibn Abu Bakr. Olim juda puhta faqih hamda muhaddis, mufassir va turli ilmlarni o‘zlashtirgan alloma bo‘lgan. Jaloliddin Karloniyning qo‘lida faqih bo‘lib yetishgan. Undan “Hidoya” asarini eng kata

[25] Favoidul bahiyya, 142.
[26] (Javohir ul-Mudiyya 3/277).
[27] Favoidul bahiyya, 94-bet.

bobosigacha sanadi bilan rivoyatini olgan. Allomaning o‘zidan esa Shamsiddin al-Qoriyniy shogird tushib olgan. Unga 814-yili ijoza yozib beradi”[28].

Burhoniddin Marg‘inoniyning avlodlari haqida gapirganda Fazlulloh ibn Abdulvohid ibn Abu Lays Ibn Alouddin ibn Abul Qosim ibn Muhammad ibn Muhammad ibn Muhammad ibn Mahmud ibn Muhamad ibn Muhammad ibn Mahmud ibn Abu Lays Nasr as-Samarqandiy al-Laysiy al-hanafiy nomini ham keltirish o‘rinli.786 hijriy yilda tug‘ilib 874 yilda vafot etgan mazkur alloma o‘z vaqtida Samarqandning yetuk faqihi bo‘lib, onasi Burhoniddin Marg‘inoniyning avlodlaridan bo‘lgan[29].

Sulolaning asli ilmiy salohiyati Burhoniddin al-Marg‘iloniyning bobolariga borib taqaladi. U kishi ham o‘zining avlodlari kabi shar’iy ilmlar, xususan hadis, fiqh kabi ilmlarda zamonasining peshqadamlaridan bo‘lgan. Bunga yorqin dalillardan biri shuki, o‘sha paytlarning ko‘zga ko‘ringan ulamolaridan biri Shamsul aimma Saraxsiydan ilm olganlar. Burhoniddin al-Marg‘iloniy bobolarini yod etib shunday xotirlaganlari tarix asarlarida keltiriladi:

“Mulla Ali al-Qori Hidoya sohibining bobosini ham zikr qiladi. Uning ta’kidlashicha, bobosining ismi Umar ibn Habib bo‘lgan hamda shamsul aimma Saraxsiyning qo‘lida faqih bo‘lib yetishgan. Hidoya sohibi bobosi haqida shunday zikr qilgan: “Men undan xilofot masalalarini oldim”. Yana bir xabarda: “U menga hadis aytar edi, men yosh edim va u aytgan hadislarni yodlar edim” [30], deya ta’kidlagan.

U kishining vafotlari esa 593.h/1196.m-yilda, zulhijjaning 12-kuni, seshanba kunida vafot etgan. Aksar ulamolar u kishining vafotlari shu kunda bo‘lganiga ittifoq qilganlar. Lekin bu masalada ham ba’zi ulamolar ixtilof qilganlar va 592.h/1195.m-yilda bo‘lgan deya bayon qilganlar[31]. Imom Marg‘iloniy Samarqand yaqinidagi bir qabristonga dafn qilinganlar. U yerda uch yuzga yaqin Muhammad ismli ulamolar dafn qilingan.

Marg‘iloniylar oilasiga tegishli eng katta ilmiy yodgorlik bu Burhoniddin al-Marg‘iloniy ta’lif etgan “Hidoya” asari sanaladi. Muallifning o‘zi yoki bu sulolaning nomi qayerda bo‘lsada, zikr qilinar ekan, eng birinchi navbatda ilm ahlining ko‘z o‘ngiga shu kitob keladi. Chunki bu asarning shariat ilmlari, xususan, furu al-fiqh masalalarini usul al-fiqh, balog‘at, mantiq va aqliy dalillar bilan mukammal yoritib berilishi ham bu asarning mavqeyini juda ham oshirib yuboradi. Bu manbaning fiqh manbalari orasida muhim deya ta’kidlanishining yana bir sababi uning mazhablar orasidagi va hanafiy mazhabining ichidagi ixtilofli masalalarga aqliy jihatdan beqiyos yechimlar berib ketilganidadir. G‘arblik sharqshunos tadqiqotchilar Paula Youngman

[28] Favoidul bahiyya, 85-bet.
[29] Marg’ilon allomalari. Rahmatulloh Fayzullayev va Nodirjon Abdulahatov. 22-bet. Toshkent 2014.
[30] Favoidul bahiyya, 141-bet.
[31] Tarikh fiqh me Hidoya ur sohibi hidoya ka maqam 11-14-bet.

and Rebecca Skresletlar “Hidoya” haqida Hidoya o‘z davrining eng avtaritet ishi bo‘lgan deb hisoblanadi”[32], deya e’tirof qilganlar. Aslida ham shunday bo‘lib, ko‘pgina sharq olimlari ham bu narsani e’tirof qilganlar. Imom Marg‘iloniy yashagan davrdagi ilmiy muhit juda ham rivojlangan bo‘lib, ana shu davrdayoq asarning bu darajada yuqori baho berilishi asarning qiymati beqiyos ekanligidan dalolat qiladi. E’tiborga sazovor bo‘lgan yana bir jihat shuki, Hidoya asari fors, ingliz, rus kabi turli tillarga tarjima qilingan.[33]

Olim “Hidoya” asarini ta’lif qilar ekan, asosiy manba sifatida Qur’oni karim va hadisi shariflarga tayanadi. Shu qatorda sahoblar, tobeinlarning ham qavllariga katta ehtimom bildiradi. O‘z o‘rnida to‘rt mazhab ulamolarining ham qarashlarini yoritib, ular o‘rtasidagi ixtiloflarga yechim ham berib o‘tadi. Olim ko‘proq Abu Hanifaning shogirdlari Abu Yusuf, Muhammad ash-Shayboniy va Zufarlarning asarlaridan ko‘p havola keltiradi[34].

“Hidoya” asariga turli davrlarda juda ko‘plab sharhlar yozilgan. Hoja Xalifa, ibn Qutlubg‘o va Abdulhay Laknaviy kabi tadqiqotchilarning ta’kidlashlaricha, asarga yozilgan sharhlar soni o‘ttiz beshtani tashkil qiladi. Lekin “Hidoya”dan qisqartma qilib olingan “Al-Viqoya” hamda uning ham qisqartmasi “Muxtasar ul-Viqoya”larga ham yozlgan sharhlarni qo‘shiladigan bo‘lsa, “Hidoya”ga taalluqli sharhlar soni elliktadan oshib ketadi. Mana ma’lumotlardan ham ko‘rinib turibdiki, imom Marg‘iloniyning bu asari fiqh fanida juda katta ahamyatga ega sanaladi.

Marg‘iloniylar sulolasi vakillari nafaqat kitob ta’lif qilish bilan balki, o‘zlari yashab turgan zamonda qozilik va muftiylik ishlarida ham yetakchi bo‘lib, doimo bu masalalar ularga ishonib topshirilgan. Komilxon Kattayev o‘zining Samarqand shahrining 2750-yilligiga bag‘ishlab yozgan “Samarqandning buyuk allomalari” kitobida shunday to‘xtalib o‘tadi: “Hazrati Imom Burhoniddin Marg‘inoniyningh sharofatlik avlodlari ham o‘zlari kabi huquqshunoslik sohasida Benazir bo‘lishgan edilar. Movaraunnahr tarixida qancha podsho-yu hukmdorlar kelib-ketishmasin, hammavaqt mamlakat shayxulislomlik mansabiga Burhoniddin Marg‘iloniyning avlodlaridan ilmlirog‘i tayinlanar edi. Ular mamlakatning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy va ma’rifiy hayotida katta ro‘l o‘ynashib, yirik ta’sirlar ko‘rsatishgan edilar. Jumladan Amir Temur davrida – shayxulislom Abdulmalik; Ulug‘bek Mirzo davrida – Shayxulislom Isomuddin; Abu Said Mirzo davrida – shayxulislomlar Mavlono Burhoniddin va Nizomiddin Mas’ud; Bobur Mirzo davrida – shayxulislom Abulmakorim kabilar faoliyat ko‘rsatishgan. Shul tariqa manbalarga qaraganda “Hidoya sohibi bo‘lmish Hazrati Burhoniddin Marg‘inoniyning avlodlari, sulola

[32] The literature of Islam. Paula Youngman and Rebecca Skreslet. American Theological Library Association. 2006. Toronto. Oxford. Lanham,Maryland. 82-bet. Chapter-4.
[33] Komiljon Kattayev. Samarqandning buyuk allomalari. 99-bet. Zarafshon, Samarqand. 2007.
[34] Hidoya 18-bet.

asoschisining sharofati ila 400 yilga yaqin vaqt mobaynida Movaraunnahrda shayxulislomlik mansabida sarafroz bo‘lishgan edi”[35].

Marg‘iloniylar oilasi tomonidan fiqh ilmiga ulkan hissa bo‘lib qo‘shilgan ish bu Burhoniddin al-Marg‘iloniyning o‘g‘illari Nizomiddin Umar al-Marg‘iloniy qalamiga mansub “Javohir ul-fiqh” asari hisoblanadi. Bu asar haqida Xoja Xalifa shunday ta’rif keltiradilar: “Bu kitob Nizomiddin ibn Burhoniddin Marg‘iloniyga tegishlidir. U kishi hidoya sohibining o‘g‘lidirlar. Kitob 1-jilddan iboratdir. Kitob: “To‘g‘ri dinni zohir qilgan Zotga hamdlar bo‘lsin”, deya boshlanadi[36]. Ma’lumotlarga ko‘ra bu asar Armeniya poytaxti Yerevanda saqlanadi[37]. Bu asar ijtimoiy, ma’naviy, madaniy va huquqiy hamda iqtisodiy masalalarni o‘zida qisqa holda yoritib berishi bilan ham ahamyatli sanalib, ulamolart tomonidan e’tirof etilgan. Ushbu kitob bugungi kunimiz uchun ham juda ham dolzarb jihatlarni ochib bera oladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Burhoniddin Marg‘iloniy va Mar’giloniylar oilasi musulmonlarga juda katta xizmatlar qilib o‘tganlar. Ularning xizmatlari nafaqat Islom shariatining o‘zida bo‘ldi, balki ular Movaraunnahrdek katta hududning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy, madaniy, xususan, huquqiy hayotida juda katta ahamayatga ega sulola bo‘lganlar. Ularning eng katta hizmatlari kitob ta’lif qilish orqali qo‘shilgan bo‘lsa-da, lekin bu sulolaning to‘rt yuz yil davomida mintaqa hududida shayxulislomlik vazifasida faoliyat olib borganliklari ham mana shu hududda fiqh fanining rivojiga qo‘shgan hissalaridan darak beradi. Bunga yorqin misol qilib “Hidoya” asarini olishimiz mumkin. Bu asar o‘sha vaqtning o‘zidayoq shunchalik mashhur bo‘lib ketdiki, uni nafaqat hanafiy mazhabi olimlari balki, boshqa mazhab vakillari ham mo‘tabar sanadilar va undan o‘zlarining mazhablarida foydalanishga kirishdilar. Yozilganiga qancha asrlar o‘tib ketgan bo‘lsada, bu asar madrasalarda fiqh fanidan asosiy qo‘llanma sifatida foydalanib kelindi. Shu vaqt davomida o‘ttizdan ziyod sharhlar yozildi va qisqartmalar ham qilindi. Shu jumladan bu kitob bugungi kunda ham o‘zining dolzarbligini yo‘qotmagan. Hozirgi kunda ham bu asarga sharhlar yozish to‘xtamagan. Balki bu kitobning zamonaviy kundagi ilmiy ahamyatini ochib beradigan turli kitoblar yozilishda davom etmoqda. Zamonaviy hayotimizning har jabhasiga doir jihatlarni yoritishda ahamyatli manba vazifasini amalga oshirib kelmoqda. Shu kunlarda yurtimizda “Hidoya”ning yangi nashrini o‘zbek tilida chop qilingani ham buning yorqin isboti sanaladi.

[35] Komiljon Kattayev. Samarqandning buyuk allomalari. 96,97-betlar. Zarafshon, Samarqand. 2007.
[36] Xoja xalifa, Kashfuz zunnun. Dorul ihyout turos al-arabiyya. Bayrut. 615-bet
[37] Masadirud dirosatul Islamiyya, 5-juz. 342-bet. Dki.

O‘ZBEK SHE’RIYATIGA O‘Z JUMLASI BILAN KIRIB KELGAN SHOIRA HALIMA XUDOYBERDIYEVANING 75 YILLIGIGA BAG‘ISHLANADI

Masharipova Danakhon Atabekovna
O‘zbekiston Respublikasi
Ichki ishlar vazirligining ixtisoslashgan maktab-internati
ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7257668

Annotatsiya: ushbu maqolada o‘zbek she’riyati - badiiy adabiyotida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan shoira Halima Xudoyberdiyevaning ijodining badiiyati xususida fikrlar beriladi.Xususan, shoira she’rlarining mavzu ko‘lami, she’rlaridagi poetik obraz timsollari tahlili keltiriladi.
Kalit so‘zlari: she’riyat, badiiy olam, poetik obraz, Halima Xudoyberdiyeva.
Annotation: This article provides insights into the art of Uzbek poetry - the work of the poetess Halima Khudoiberdiyeva, who has a place in the literature of literature. is given.
Keywords: poetry, art world, poetic image, Halima Khudoiberdiyeva.
Аннотация: в данной статье дается осмысление искусства узбекской поэзии - дается творчество поэтессы Халимы Худойбердиевой, занявшей место в художественной литературе.
Ключевые слова: поэзия, художественный мир, поэтический образ, Халима Худойбердиева.

O‘zbek adabiyoti shunday chamanzorki, unda gullar ko‘p, chechaklar ko‘p. Bu bog‘da bir-biriga o‘xshamaydigan, bir-birini takrorlamaydigan shoirlar avlodi qayta-qayta bo‘y cho‘zaveradi. Halima Xudoyberdiyeva ana shunday shoirlar avlodidandir.

Qalam ahli o‘zbek she’riyatida ayol obrazida, uning qalb kechinmalari orqali xalqimizning eng yaxshi xususiyatlarini ochib berishga harakat qildilar. Ayolga adabiyotda juda muhim va favqulodda rol berilgan.

Asarning asosiy qahramoni bo‘lmasdan ham, u ijod jarayonida qandaydir o‘ziga xos belgi keltiradi.Va shu bilan birga, ayol har doim sir bilan o‘ralgan bo‘ladi, uning xatti-harakatlari chalkashlik va sarosimaga sabab bo‘lishi mumkin. Ayol ruhiyatiga, uning qalbiga kirib borish, uni tushunish Olamning eng qadimiy sirlaridan birini yechish bilan barobardir. Chunki ayol siymosida sir yashirin[1.:65]. Bu esa ijodkordan katta mehnatni, fidoyilikni talab qiladi. Mana shunday ruh tarjimonlaridan biri Halima Xudoyberdiyevadir.

Halima Xudoyberdiyeva tuyg‘ularga boy, zamondoshlarning baxti va dardi, ona Vatan, jonajon xalqiga muhabbat bilan yo‘g‘rilgan ajoyib she’rlari bilan ko‘zga tashlanib turadi.

Shoira she’riyatining mavzu va ma’no ko‘lami keng, teran. Uning she’rlarida ona Vatan, ota-ona, ayol va bola mavzulari ustunlik qiladi.

Halima Xudoyberdiyevaning deyarli barcha she’rlarida chuqur insoniy va ijtimoiy iztiroblar, dardlar, sevinchlar, oliyjanob xayollar, mardona o‘ylar juda ta’sirli, yorqin aks ettirilgan. Shoira she’rxonni chin va samimiy tuyg‘ular tasviri yordamida o‘ziga tuyg‘udosh qiladi.

Halima Xudoyberiyeva ijodi 60-yillarning o‘rtalaridan boshlanib, hozirgacha uning ko‘plab she’riy to‘plamlari kitobxonlar hukmiga havola qilingan. Uning o‘nlab dostonlari, davrning muhim masalalariga bag‘ishlangan publisistik maqolalari chop qilingan. Xususan, shoiraning “Ilk muhabbat”, “Oq olmalar”, “Chaman”, “Suyanch tog‘larim”, “Muqaddas ayol”, “Bu kunlarga yetganlar bor”, “Hurlik o‘ti”, “To‘marisning aytgani”, “Saylanma”, “Yo‘ldadirman” kabi turli janrlarga mansub asarlari kitobxonlar ommasining ma’naviy mulkiga aylandi.

Shoira ijodining tadqiqodchilaridan biri To‘xtasin Jalolov shunday yozgan edi: “Hamma – o‘zbek ayollar she’riyatida kutilmagan hodisa ungacha bu san’at koshonasida qandaydir bir sukunat, osudalik hukm surib, kishini mudroq bosardi. Halima bu dargohga bo‘ron bo‘lib, suron bo‘lib kirdi-da, to‘liqib –to‘lib, oshiqib-shoshiqib baland pardalarda qo‘shiq boshlanadi”:

Men shunchaki o‘ylagim kelmas,
Hayol – sharob misol qilsin sarxusht, mast.
Men shunchaki kuylagim kelmas,
Ovoz pardalarim chidab bersa bas [7.:29].

Agar shoiraning ovoz pardalari chidab bersa, u yerni, ko‘kni larzaga keltirib kuylashga tayyor. Bu “mushtipar“ ayolning mungli ovozi emas, mardona ovoz, bu she’r narasi!

Shoira she’riyati – sharqona hayot haqiqatini boricha, hech qanday ortiqcha bo‘yoqlarsiz satrlarga chizadi. Uning ijodini ulkan daryo toshqiniga qiyoslash mumkin. Chunki bu daryoning har toshqini sizni o‘z domiga tortadi. Butun jismu-joningiz, ruhingiz va yuragingizni butkul egallaydi. U shunchaki o‘ylab, shunchaki kuylashdan yiroq. Agar ovoz paychalari chiday olsa, ularni yorgudek “toshqinib” kuylaydi. Bu shoiraning o‘zigagina yarashguvchi, o‘zigagina xos bo‘lgan tug‘yoni va hech kimnikiga o‘xshamas shiddatining ko‘rinishi.

Shoira she’riyatida har yer, har narsada Vatan isi, Vatan tarovati bor. Nomi tilga olinmasa-da, har joyda o‘z “egasi” bor. “Vatandir bu” she’rida shunday satrlarga duch kelasiz:

Bu yer kimning, bu ko‘k kimning

Egasi bor har o‘t, chimning
O‘z yerida o‘zbegimni
O‘zi qolgan Vatandir bu [8.:319].

Iborhim G‘afurov tabiri bilan aytganda “Halima she’riyat — badiiyatga o‘z jumlasi bilan kirib keldi. Zotan, adabiyotga — badiiyotga faqat xos jumla bilan kiradilar: bir jumla o‘qiganda darhol bu Qodiriy, bu Usmon Nosir deydilar. Halima ham ilk she’rlaridanoq shunday shoir bo‘ldi: jumlasiga qarab oltmish yildan beri “Bu Halima!” — deydilar. Binobarin, biron she’rida birovga o‘xshamadi. Ergashganligi rost, ammo o‘xshashi yo‘q. Jumlalarida qilichning shuvillashi, daryoning, aynan esa ona Sirdaryoning shovullashi eshitilib turadi. Ilk she’rlarida, oltmishinchi yillar avvallarida o‘zi yozganday, ajdodlarning “qiynalib-qiynalib” yozgan so‘zlarini to‘ymay o‘qidi, ularga g‘arq bo‘ldi, tarovatlariga to‘ymadim, dedi” [5.:10].

O‘zbek she’riyatida ichki olam qiyofasiga va ayol qalbining murakkab kechinmalariga juda katta e’tibor beriladi. Shuning bilan birga ayol qalbi tasviri erkak ijodkorlar she’riyatida ham, ayol ijodkorlar she’riyatida ham o‘ziga xos tarzda voqelanadi. Adabiyotning tarixi, buguni va ertasini ayol obrazisiz, ularning go‘zal siymolarisiz, qalblarining o‘tli haroratisiz tasavvur eta olmaymiz.

Shoira ijodida chaqmoqday chaqnagan, momaqaldiroqdek gumburlagan, selday toshib kelgan she’rlar ko‘p. Lekin, shoiraning mana shunday she’rlari orasida ayol muhabbati, uning qudrati, nozik qalb egasi ekanligini ko‘rsatuvchi she’rlari alohida mavqega ega. Halima Xudoyberdiyeva inson yuragiga yaqin mavzularning yangi-yangi qirralarini ocha bordi. U Nodirabegim, Uvaysiy, To‘marislar qiyofasiga kirdi. Shoira o‘z she’rlarida “yurak shoirasiman…ayol muqaddas! — dedi va ayol uchun uning sha’ni-shavkati uchun madhiyalar aytdi. Ayolni ojizalik puchmoqlaridan chiqardi. Bu kabi jihatlar Halima Xudoyberdiyeva she’riyatining eng ulug‘, o‘ta ta’sirchan g‘oyasiga aylandi. Bu holat esa shoira ijodida juda katta ijtimoiy aks sado berdi.

Shoira Halima Xudoyberdiyeva o‘zining O‘tgan ulug‘ karvonlar, bobolari, momolarining davomchisi ekanini har lahza his etib, bu mas’uliyatni chuqur tushunib qalam tebratadi. Halima Xudoyberdiyevaning «Tilovchiman» degan she’rida shunday satrlarga duch kelamiz:

Men kim,
Men bir munglig‘ singil, tilovchiman,
Og‘alarim kiprigim-la silovchiman.
Og‘alarim bir-biridan kechar oson,
Jonim ipdir, men ularni ulovchiman.
Borlig‘imni yaratganlar ishq, ohlardan,
Qonlar, shonlar kechgan yovqur guvohlardan.
O‘ch olganda yog‘iylardan, gumrohlardan

To‘marisning qo‘llarini qo‘llovchiman[7.:10].

She’rning birinchi bandidagi ayol obrazi – mehribon va mushtipar singil siymosida tasvirlanadi. Aka-ukalari uchun jon rishtasi ekanligi e’tirof etiladi, ikkinchi bandda esa, dushmanning oldida, yog‘iyning qarshisida qasoskor, botir, dushmanga omonlik bermaydigan, jonajon Vatan sha’ni, erki uchun hech ikkilanmay aziz jonini garovga qo‘yib qo‘liga qilich olib, jangga kirgan To‘maris singari tasvirlanadi. Dushmanlari qarshisida To‘maris singari jasoratli siymo sifatida maydonga chiqadi. She’rning keyingi satrlarida:

Bihamdilloh, qolsam hamki sinib, qurib,
So‘z aytarman xoki-turob bo‘lib turib.
Avlodimni qaytmaslikka ont ichdirib,
Amir Temur yo‘llaridan yo‘llovchiman [7.:11]

Ushbu misralarni o‘qir ekansiz haqiqiy vatanparvar, erkparvar o‘zbek ayolining siymosini ko‘rasiz. Shoiraning bu misralarini o‘qib, Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Zahiriddin Muhammad Boburdek vatanparvarlarni, Beruniyu Ibn Sinolarni, Navoiylarni tarbiyachisi, ularning maslahatguylari – onalari - o‘zbek ayollari bo‘lganligi uchun ham buyuklikka daxldorligini qalbdan his qilish mumkin.

Halima Xudoyberdiyeva she’rlariga teranroq razm solsak, biron she’ri biroviga o‘xshamaydi. Uning she’rlarida qalbdan taralayotgan ayol muhabbati, mehri mujassam. Ayol bu ona, yaratuvchi, buyuk hilqat egasi. Uning qalbi nozik va shu noziklik qa’rida buyuklik mujassamdir. Ayol qalbining butun go‘zalligini ayolgina yaxshi his qila oladi. Ayolning go‘zalligi, uning mehru muhabbati haqida bir qancha shoirlar qalam tebratishgan. Lekin, ayol ijodkorlarimiz satridagi ayolning qalb kechinmalari o‘zgacha jilvalangan.

Halima Xudoyberdiyevaning she’rlari kutilmagan poetik obrazlarga, pinxona tuyg‘ularning nozik jilvalari tasviriga asoslanadi. Shoira bir she’rida “Osmon yozib o‘chirar chaqmoq aytgan so‘zlarni” deydi. Yana bir she’rida “Yulduzlar ko‘kdan tushib, ko‘klarga tushgan kun” deya o‘sha kun shiddati, kishilar kayfiyatini ko‘taringki bir tarzda ifodalaydi. Yana bir asarida lirik qahramon ruhiyatini “Boshim uzra egiladi savob bo‘lib oy” degan tashbeh orqali ifodaladi. Shoira nafaqat narsa va hodisalar mohiyatiga balki lirik qahramon ruhiyatiga ham chuqur nazar tashlab, takrorlanmas manzaralar yaratadi. Shoira she’rlaridagi badiiy psixologizm –u voyaga yetgan hayotiy sharoit bilan bog‘liqdir. “Qiror ko‘ngil sinig‘i”, “Bu dunyoning ko‘zlari”, “Eldoshlarim ichra yurib”, “Men ketsam” kabi asarlaridagi ramzli obrazlar (Qushcha, Bog‘, Dala-dasht, Oy, Tuproq) shoira tuyg‘ularini tarbiyalagan shaxsiyatni shakillantirgan qishloq hayoti, tuproq isi silsilasidan iborat.

Halima Xudoyberdiyeva she’riyatini kitobxonlar diliga yaqin qilib turgan omillardan yana biri bu asarlarda ifodalangan poetik obrazlarning xaqchilligidir.Bu sohada esa ijodkor ong - dunyoqarashi bilan bog‘liq ravishda uning olamini va

odamini tushinishi, tabiat va jamiyat voqealigini tushuntirish, fikrlash tarzi va til xususiyatlari bilan mantiqiy bog‘liq, bir butun narsadir.

Halima Xudoyberdiyeva she’rlarida turli timsollarni, poetik obrazlarni qo‘llaydi. Misol uchun:

Ko‘klam-ku, beparvo o‘taveradi
Qayta kelaverar yana bir zamon.
Mening umr kemam yelib boradi,
O‘sha qish atalmish qirg‘oqqa tomon. [8.: 42]

Bu she’rda ko‘klam–yoshlik, navqironlik, qish-qarilik, umr esa kema timsolida. Haqiqatan ham, bu misralarda to‘g‘ri tashbehdan, ya’ni o‘xshatishdan foydalanilgan. Hammamiz yoshligimizda jo‘shqin, navqiron bo‘lamiz. Umr o‘tgani sari bizdagi jo‘shqinlik tobora kamayaveradi, qarilik qirg‘og‘iga asta-sekin qadam qo‘yaveramiz. Ana shunday kema yelgani sari ko‘klam ketidan sekin-sekin qish fasli kirib keladi.

Aqlim tanibmanki, yo‘ldaman, yo‘lda,
Toblab qo‘ydi, ancha yo‘llar qiynog‘i.
Aniq qancha yo‘l bor, hali mo‘ljalda,
Mo‘ljalsiz yo‘llarning yo‘qdir sanog‘i. [8.: 84]

Halima Xudoyberdiyevaning bu she’ridagi yo‘l timsolida umr mavzusi yoritilgan bo‘lib, umr poetik obraz hisoblanadi. Shoira bu she’ri orqali bizga umr mo‘ljalini to‘g‘ri qo‘ymog‘imiz lozimligini ta’kidlaydi. Mo‘ljal bu bizning maqsadimiz. Ya’ni bugungi hayotimizda biz o‘z oldimizda aniq bir maqsadni qo‘yib olishimiz darkor, negaki mo‘ljalsiz umr insonni ancha qiynab qo‘yadi.

Halima Xudoyberdiyeva ijodini kuzatar ekanmiz, shoiraning ko‘p she’rlarida umr poetik obraz qilib olinganligiga guvoh bo‘lamiz. Aksariyat she’rlaridan ko‘rinib turibdiki, umrni chopag‘on otga, ko‘klamga, qishga, qayiqqa yoki yo‘lga qiyoslaydi.

She’rga mehr qo‘yganlarga uning taftini alqatadi. She’riyat nomli go‘zal bog‘da havaskor ijodkorlarga o‘z g‘unchalarining quloch yozmog‘iga ko‘maklashadi. Daryoning toshqinidan ruh orom oladi, mavjlari yurakka surur bag‘ishlaydi. Ikki daryo tutashgan joyda, ummon hosil bo‘ladi. Bu ummon esa barchani o‘z qariga tortadi. Bir qarashda uning haybati odamni cho‘chitadi, biroq u qanchalar haybatli bo‘lsa, shunchalar fusunkor ko‘rinadi. Ummon tubi cheksiz, oxiri ko‘rinmaydi. Ammo chinakam yutug‘i ham uning ana shu chuqurligidadir.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, Halima Xudoyberdiyeva hozirgi zamon o‘zbek she’riyati bilan birga nafas olgan, uning eng ilg‘or tamoillarini o‘z ijodida istifoda qilgan, millat, Vatan va xalq taqdiriga, umuminsoniy masalalarga befarq qaray olmagan bezovta qalb egasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Rahimjonov N. Mustaqillik davri o‘zbek she’riyati. – T.: 2007

2.Normatov U. Yetuklik.. – T.: 1988
3.Normatov U. Ijod sehri. – T.: 2007
4.Mirvaliyev S. O‘zbek adiblari. – T.: 2016
5.G‘afurov I. Daryoning ovozi. Halima Xudoyberdiyevaning “Buyuk qushlar” she’riy to‘plamiga yozgan so‘z boshi. – T.: 2012
6.Abdulla Oripov. Jonfidolik. Halima Xudoyberdiyevaning “Saylanma” she’riy to‘plamiga yozgan so‘z boshi. – T.: 2000
7.Halima Xudayberdiyeva. Saylanma. – T.. 2000
8.Halima Xudoyberdiyeva.Buyuk qushlar. – T.: 2012.

ZAMONAVIY O‘ZBEK SHE’RIYATIDA POETIK TAFAKKURNING YANGILANISHI FAXRIYOR SHE’RLARI MISOLIDA

Mo‘minova Nurxon
Andijon davlat universitetining Pedagogika instituti
o‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi magistranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.7257687

Annotatsiya: ushbu maqolada zamonaviy o‘zbek she’riyatida poetik tafakkurning yangilanishi xususida fikrlar berilgan. Shuningdek, xalqimizning millatparvar shoiri Faxriyorning ba’zi she’rlaridagi poetik obraz timsollari tahlili keltirilgan.

Kalit so‘zlari: she’riyat, poetik tafakkur, poetik timsol, lirik qahramon, Faxriyor.

Annotatsion: This article is about the renewal of poetic thinking in modern Uzbek poetry. the quality of the analysis of po image emblems in some poems of the nationalist poet of our people Faxriyor.

Keywords: poetry, poetic thinking, poetic emblem, lyrical hero, Faxriyor.

Аннотация: Данная статья посвящена обновлению поэтического мышления в современной узбекской поэзии. Качество анализа эмблем по изображению в некоторых стихотворениях поэта-националиста нашего народа Фахриёр.

Ключевые слова: поэзия, поэтическое мышление, поэтическая эмблема, лирический герой, Фахриёр.

She’riyat asrlar davomida adabiyotning asosiy turi sifatida o‘zini namoyish qilib kelgan she’riy asarlarda lirik qahramonlarning his - tuyg‘u va kechinmalari, orzu umidlari va maqsadlari, albatta davr bilan bog‘liq bo‘ladi. Ko‘p davrlarda she’riyat jamiyat va ijtimoiylikka hizmat qilib keldi. Ammo, yangi o‘zbek zamonaviy she’riyati degan tushincha paydo bo‘lgani, she’riyatimizda tub burilish amalaga oshirilganidan dalolat.

“Bungi o‘zbek she’riyat kechagi she’riyat emas, balki o‘zining ko‘pkina, xususan, shakliy - mazmuniy mundarijasiga ko‘ra yangilangan poeziyadir. Shu bilan birga, bugungi she’riyat kechagi she’riyatdan uzilib qolgan alohida hodisa emas. Ular o‘rtasida vorisiylik, uzviylik davom etib kelayotir”.

Poetik tafakkur davrlar o‘tishi bilan yangilanadi. Bugungi o‘zbek zamonaviy she’riyatining yorqin namoyondasi Faxriyor she’rlari misolida yangi poetik tafakkur tuyg‘ularini ko‘rib chiqamiz.

Sevgilim
umidlarimni uzib
guldasta yasadim
sen uchun
uzilgan ko‘nglimni qog‘ozday yoyib
dastani o‘radim
chiroyli qilib [2]

She’rning eng avvalo shakli boshqachaligi bilan e’tiborli, unda barcha so‘zlar kichik harflar bilan yozilgan va hech qanday tinish belgi yo‘q.

Shakl ham erkinlikni ko‘rsatib turibdi. Bu erkinlik mazmunga ham ko‘chgan, albatta Umidi uzilgan inson o‘sha uzilgan umidlaridan sevgilisiga guldasta tutishi, va uni uzilgan ko‘ngliga o‘rab bir dasta hosil qilishi ajoyib hodisa. Bunda lirik qahramonning o‘ziga hosligi va sevgan insoniga haqiqiy guldasta emas balki, unga tuyg‘ularidan (uzilgan, toptalgan) hislaridan guldasta yasab sovg‘a qilishi lirik qahramonning hech kimga o‘xshamagan alohida shaxsligidan darak.

Moylanmagan oshiq - moshuqday tovush g‘ijirlaydi.
tishlar orasida to‘kilar shovullab [3]

Albatta uylanmagan oshiq -moshiqdan chiqayotgan tovush hech qanday ma’no bermaydi. Faqat uning moylanganidan dalolat beradi. Ammo insonning nutqiy tovushlari ma’noga ega. Shoir bu satrlar bilan bizning tishlarimizdan to‘kilayotgan tovushlar ham oshiq - moshiq g‘ijillashidek ma’no anglatmay qoldi. Faqat unga may ya’ni, ma’no - mazmun kerak xalos deganday.

Ko‘rib turibsizki, shoir she’rlarida ijtimoiylik bor, ammo u shaxs haqida va shaxsning alohida xususiyatlari haqida.

Darhaqiqat, zamonaviy o‘zbek she’riyati ham sharq, ham g‘arb an’analarini o‘z ichiga olmoqda.

Endilikda ahli ijodkordan erkin yurak, erkin fikir va o‘ziga xos nozik tuyg‘ularning namoyishini kutmoqda.

"She’rni she’r qiladigan, o‘quvchi ko‘ngil olamini nurlantiradigan muhim omil - tuyg‘uning samimiyligiga e’tibor tobora ortib borayotir. Bu tamoyillarning namoyon bo‘lishi yangi zamon o‘zbek she’riyatining badiiyat jihatidan jahon adabiyotining yuksak namunalaridan qolishmasligini anglatadi" [4]

Darhaqiqat, o‘zbek she’riyatida poetik tafakkurning yuksalishi kelgusi avlod she’riyatiga ham o‘z ta’sirini o‘tkazadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Ulug‘bek Hamdam. Erkin adabiy tafakkur va bugungi o‘zbek she’riyati. O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. 2013 48- son.

2.Fahriyor. Darsning shakli. Tug‘ilgan kun.

3.Fahriyor. Geometrik bahor. 2004

4.Jabborov N. Yangi o‘zbek she’riyatida tamoyillar.

BUGUNGI KUNDA MAMLAKATIMIZDA XOTIN-QIZLARGA TA'LIM TIZIMIDA YARATILAYOTGAN IMKONIYATLAR

Primov Sunnatillo Elmurod o'g'li
O'zbekiston milliy unversteti Ijtimoiy fanlar fakulteti
Milliy g'oya,ma'naviyat asoslari va huquq ta'lim
yo'nalishi 2- bosqich talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7257755

Annotatsiya : Mazkur maqolada bugungi kunda mamlakatimizda xotin-qizlarga yaratilayotgan ta'lim imkoniyatlar va ular qo'llab- quvvatlash maqsadida ta'lim sohasida amaliyotga oshirilayotgan keng ko'lamli islohatlar,shunindek jamiyat hayotida xotin-qizlarning nufuzi haqida qisqacha to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: islohat,qo'llab-quvvatlash, kasbiy ko'nikma, davlat granti, oliy ta'lim, parametr,kengaytirish,qamrab olish, kadr, imkoniyat.

Аннотация: В данной статье кратко рассматриваются образовательные возможности, созданные для женщин в нашей стране сегодня и масштабные реформы, реализуемые в сфере образования для их поддержки, а также роль женщин в обществе.

Ключевые слова: реформа, поддержка, профессионализм, государственный грант, высшее образование, параметр, расширение, охват, кадровое обеспечение, возможность.

Annotation: This article briefly discusses the educational opportunities created for women in our country today and the large-scale reforms being implemented in the field of education to support them, as well as the role of women in society..

Keywords: reform, support, professionalism, state grant, higher education, parameter, expansion, coverage, staffing, opportunity.

Bugun O'zbekiston ayollari har bir jabhada o'z o'rniga ega bo'lib borayotganini barchamiz bevosita amalda ko'rib turimiz. Xotin –qizlarni, ijtimoiy -siyosiy faoligini oshirish,ularni qo'llab-quvvatlashga doir juda ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. Xotin – qizlarni ta'lim va kasbiy ko'nikmalar olishlari,munosib ish topishlariga har tomonlama ko'maklashish, tadbirkorlikni qo'llab- quvvatlash, iqtidorli yosh xotin-qizlarni aniqlash va ularni qobilyatini to'g'ri shakillantirish uchun barcha imkoniyatlar ishga solinmoqda. Birgina ta'lim tizimda xotin-qizlarga berilayotgan imkoniyat misolida ham ko'rishimiz mumkin. Jamiyatda ayollar rolini oshirish, ehtiyojmand oilalar qizlari uchun,, ijtimoiy lift " tamoyili asosida xotin-qizlarni oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasini kengaytirish maqsadida alohida davlat grant o'rinlari ikki barobarga oshirilmoqda. Oliy ta'lim mussasalarilariga o'qish qabul

qilish davlat buyurtmasi parametirlarini shakillantirish bo‘yicha kadrlar buyurtmachilari ehtiyojlarini,, quota.idm.uz “ elektron portali orqali aniqlanmoqda. Davlat buyurtmasi parametirlari doirasida yoshlarni oliy ta’limga qamrab olishni kengaytirish, shuningdek xotin-qizlar uchun esa alohida davlat granti e’lon qilinmoqda o‘tgan 2020-2021 yiliga nisbatan 2022 yilda xotin-qizlar uchun qabul kvotasini 25 foizga oshirish rejalashtirmoqda. Xotin-qizlarni ijtimoiy – siyosiy faoligini oshirish,ularni qo‘llab – quvvatlashga doir islohatlarning mazmun- mohiyati va ahamiyatini aholi o‘rtasida keng targ‘ib qilish,xotin – qizlarning ta’lim va kasbiy ko‘nikmaqlar olish, munosib ish topishlariga har tomonlama ko‘maklashish, tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash, iqtidorli yosh xotin- qizlarni aniqlash va ularning qobiliyatini to‘g‘ri yo‘naltirish, hududlarda ayniqsa, qishloqlarda xotin – qizlarga ko‘rsatiladigan tibbiy-ijtimoiy xizmatlar sifatini oshirish, xotin –qizlar o‘rtasida sog‘lom turmish tarzini ta’minlash borasida Prezidentimiz Shavkat Miziyoyev tashabbuslari bilan ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Bu esa bugungi xotin – qizlarga qanchalik e’tibor berilayotganing yorqin namunasi hisoblanadi.Har bir rivojlangan mamlakatlarning rivojlanishida asosiy rolni ta’lim tizimi bajarmoqda va mamlakatda o‘zaro tenglikni ta’minlashga qaratilayotgan ya’ni erkaklar va xotin- qizlar o‘rtasidgi gender tenglikni ta’minlash ham qaysidir ma’noda jamiyat rivojini ta’minlab bermoqda.Bizning malakatimiz O‘zbekiston respublikasining asosiy qomusi hisoblanmish Konstitutsiyamizda ham belgilab o‘tilgan. Xotin –qizlar va erkaklar teng huquqlidir. O‘zbekisto respublikasi konstitutsiyasi 46- moddasi. Bugungi kunda xotin – qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlari kafolatlari bevosita o‘z tasdiqini topmoqda. Xotin- qizlarni bugungi kunda oliy ma’lumotli qilish, qolaversa ularni ta’lim olishi uchun keng imkoniyatlar yaratib berish maqsadida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilayotganini ko‘rishimiz mumkin.Birgina 2021-2022 o‘quv yili uchun xotin – qizlarga ajratilgan 4 foizli davlat granti uchun respublika bo‘yicha jami 940 ta joy ajratildi.

Ajratilgan joylar viloyatlar va Toshkent shahri hamda Qoraqalpag‘iston respublikasi bo‘yicha taqsimlab chiqildi.[38] Shuningdek kam ta’minlangan oiladan chiqqan xotin- qizlar, to‘liqsiz oilada tarbiyalanayotgan, ya’ni ota yoki onasi vafot etgan xotin – qizlar, 14y oshgacha bo‘lgan ikki va undan ortiq farzandlarni tarbiyalayotgan, boshqa qarindoshlaridan,alohida yashayotgan yolg‘iz ayolarning qizlari,shaxsiy uy-joyiga ega bo‘lmagan,ijarada yashayotgan oilalar, ota-onalaridan biri yoki har ikkisi ishsiz bo‘lgan va ish qidiruvchi shaxs sifatida aholi bandligiga ko‘maklashish markazlarida hisobatda turganlar, nogironligi bo‘lgan farzandi bor oilalardan chiqqan xotin- qizlar, oliy ma’lumotli xotin- qizlar bilan qamrab olish darajasi respublikaning o‘rtacha ko‘rsatkichlaridan ikki yoki undan ortiq marta past bo‘lgan tumanlari, shunindek, olis va borish qiyin bo‘lgan hududlarda yashovchi

[38] Sh. Mirziyoyev “Oliy Majlisga murojaatnoma”si 2020 yil

oilalardagi qiz farzandlari (ularni o‘z hududida 3 yil ishlab berish sharti bilan) qabul qilish haqida prezidentimizning alohida qarorlari qabul qilingani ham biz uchun quvonarli hisoblanadi.[39] Chunki oliy ta’lim olishni xohlovchi opa-singilarimiz uchun juda ham qulay imkoniyatlardan biri hisoblanadi. Hozirgi paytda O‘zbekistonda xotin- qizlar orasida ish olib borishning yangi shakillari yuzaga keldi. Bu esa o‘z navbatida, davlatimizning boshqaruv masalasida jahon tajribasidan foydalanishga yo‘naltirilgan siyosatida, O‘zbekistonda mavjud imkoniyatlarni ishga solgan holda amalga oshirilayotganini ko‘rishimiz mumkin. Xotin-qizlar qizlarni orasida tadbirkorlikni ayniqsa, ayollar o‘rtasida qandolatchilikni, tikuvchilikni, to‘quvchilikni yanada rivojlantirish bo‘yicha amaliy ishlar amalga oshirilmoqda.O‘zbekistonda hozirgi paytda xotin- qizlarning asosiy qismi o‘qimishli, tabiatdan faoldirlar. Ular orasida akademiklar, olimlar, o‘z sohasinig yirik mutaxassislari ko‘pchilikni tashkil qilmoqda. Shunday ekan bu salohiyat egalaridan jamiyatimizni har tamonlama yuksaltirishda oqilona foydalanishimiz kerak. Shu o‘rinda Buyuk Britaniyaning sobiq bosh vaziri, taniqli davlat arbobi Margaret Teacherning,, Agar siz biron –bir narsa aytilishini xohlasangiz – erkakga topshiring, ammo biron-bir narsa amalga oshirilishini xohlasangiz –ayolga topshiring “ degan oqilona fikrini yodga olish joiz. [40]Albatta, bu so‘zlarni yarim hazil, yarim chin qabul qilishimiz mumkin. Lekin O‘zbekiston ayollari ham jamiyatimiz siyosiy hayotida o‘zlarining salmoqli hissalarini qo‘shishga qodir ekanliklarini inkor etmasligimiz lozim.Davlatimiz tomonidan fuqarolarimizning turmush tarzini yaxshilash, xotin-qizlarimizning huquqlarini himoya qilish yuzasida qator qonunlar qabul qilinmoqda. Bu esa ayollar tashkilotining davlat va boshqa jamoat tashkilotlarning davlat va boshqa jamoat tashilotlari bilan hamkorligida ishlar amalga oshirilmoqda.Davlat rahbarining 2020 yil 24 yanvarda O‘zbekiston respublikasi Oliy majlisiga murojatnomasida ham grant asosida o‘qitishda qizlar uchun alohida qo‘shimcha imtiyozlar yaratish va mutassadi tashkilotlar oldiga bu borada nomzodlar tayyorlash tizimini vazifasi qo‘yildi.,, Qizlarimiz uchun alohida grantlar ham ajratiladi.Xotin –qizlar qo‘mitasiga ushbu grantlar asosida o‘qitishga nomzodlarni ishlab chiqish vazifasi qo‘yilgan edi. 2019 yil statistik ma’lumotlarga ko‘ra, oliy ta’lim sohasida ham xotin-qizlar soni oshgan va talabalarning 40 foizi xotin-qizlar bo‘lgan,bu 2011 yildagi ko‘rsatkichdan 36 foiz ko‘p demakdir.Xotin-qizlarning savodxonlik darajasi esa 99,98 foizni tashkil etadi. Ma’lumki, oliy ta’lim olish imkoniyatlarining kengaytirilishi ayollar orasida ish bilan ta’minlanganlik darajasini oshirishda muhim omil.Shuningdek, bizni siyosat va ijro hokimyati boshqaruvida ham ayollar soni va nufuzini oshirishga chaqirishdan to‘xtamasligimiz kerak, chunki xotin-qizlar ma’lumotli va intellektual salohiyatining

[39] https://lex.uz
[40] M. Tetcher “Ta’lim va uning inson hayotidagi o’rni”, 1998 202-bet

yuqori bo‘lishi pirovard natijada umumilliy yuksalish,yangi sivilizatsion jarayonlarning boshlanishiga kuchli turtki berishi tarixiy tajribadan ma’lumdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.Ubaydullayev.R.A Mustaqil O‘zbekistonda:ayol,oila va jamiyat Toshkent:.2016

2.O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi Toshkent:.2021

3.O‘zbekiston respublikasi prezidentinig Oliy majlisga murajatnomasi Toshkent:.2020 yil 24 yanvar

4.T.Narbayeva.O ’zbekistonda xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilishning innovasion modeli Toshkent:.2020

5. M. Tetcher “Ta’lim va uning inson hayotidagi o‘rni”, 1998 202-bet

O'QUVCHI-YOSHLARNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MUAMMOLARINI OLDINI OLISH VA ULARNI BARTARAF ETISH

Shamuratova Feruza
Xorazim viloyati Urganch tumani 32-maktab psixologi
Ruzimova Tamara
Xorazim viloyati Urganch tuman 8-maktab psixologi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7257760

Annotasiya: Ma'lumki, yosh avlodni jismonan baquvvat,ma'naviy ruhiy jihatidan sog'lom qilib tarbiyalash,hozirgi kunning dolzarb muommolaridan biridir.
Kalit so'zlar: Tarbiya,ota-ona,farzand,oila,individual,muhit.

Ma'lumki, XXI-asr axborot texnologiyalari asri bo'lganligi bois, shaxslararo munosabatlar keskin jadallashib bormoqda. Internet, ommaviy axborot vositalari orqali kirib kelayotgan informasiyalar insoniyatning psixologiyasiga ta'sir etmoqda. Bu o'z navbatida ma'naviy bo'shlig'i mavjud insonlarga salbiy ta'sir ko'rsatmasdan qolmaydi. Bu esa bizning o'tish davridagi nav-nihol o'smir o'quvchi yoshlarimizni be'etibor qoldirmaydi. Shunday ekan oiladagi, mahalladagi, maktabdagi ta'lim-tarbiyaning o'rni benihoya kattadir.Umuman olganda o'quvchi-yoshlar o'rtasida qanday ijtimoiy-psixologik muammolar mavjudligini aniqlab olsak?

O'quvchi-yoshlar o'rtasida yuzaga keladigan ijtimoiy-psixologik muammolar:

- Tushkunlik
-Stressga tushish
-Tajavvuzkor bo'lib qolish
-O'z-o'ziga ishonchsizlik
-O'z-o'ziga yuqori baho berish
-Yakkalanib qolish
-Hayotdan sovib ketish
-Irodasizlik
-O'g'irlik, ichkilik
-chekishga ruju qo'yish
-O'z joniga suiqasd qilish
-Yot g'oyalarga berilish
-Ommaviy madaniyatga berilish
-Jinoyat qilish
-G'oyaviy bo'shliq mavjudligi

Afsuski, bu jumlalarni yana ko'proq davom ettirsak bo'ladi. Bularning barchasi ota-onaning noto'g'ri tarbiyasi, oilaviy davom etadigan nizolar, ota-onaning

ajrashishi, moddiy etishmovchilik, boshqalardan ajralib turadigan nuqson mavjudligi, nosog'lom oila, noto'liq oila, atrof-muhitning, ustozining, tengdoshlarining salbiy ta'siri natijasida kelib chiqadi. Shu o'rinda ota-onaning ayrim yo'l qo'yadigan xatolarini ko'rib chiqsak: Ota-ona: “Bolamni hech kimdan kam qilmay deb, hech narsaga zoriqtirmay” deb farzandini qarindoshlarning qo'liga tashab, chet elga pul topish maqsadida ketadi, lekin bolasining tarbiyasi o'zgarayotganini, ularning ota-ona mehriga to'ymayotganligini sezishmaydi. Bu bolada salbiy holatlarni keltirib chiqaradi. Yoki turmush sinovlariga bardoshlari etmay, ota-onaning ajralishi, bolalarning tirik etim qolishi, otalarning ichkilikka ruju qo'yishi va bolalarning tarbiyasiga eitibor bermaslik. Bunday misollarni ko'plab keltirishimiz mumkin. Nima uchun oilaga ko'p to'htalyapmiz, boisi, farzand ko'p vaqtini oilada o'tkazadi. Xalqimizda shunday naql bor: “Qush inida ko'rganini qiladi” degan. Farzandini boshqa bolasi bilan yoki tengdoshlari bilan solishtirish. Farzandlar o'rtasida o'zaro ziddiyatlarni keltirib chiqaradi. Ayrim hollarda kuzatamiz ota-ona farzandi bilan birgalikda turli saviyasiz, ma'nosiz, urush-o'limni targ'ib qiluvchi turk seriallarini tomosha qilib o'tirishadi. Farzand bu kinolardan to'g'ri xulosa chiqaradi deb kim kafolat bera oladi? Farzandni mehnatga o'rgatish ham tarbiya hisoblanadi. Agar bola maktabga borsa, uy ishlari bilan shug'ullansa, charchashi va dam olishi mumkin, bekorchi narsalarga bo'sh vaqti qolmaydi. Xuddi shuningdek, farzand tarbiyasiga ota-ona bilan birgalikda biz pedagog, psixologlar ham birdek mas'ulmiz. Ularning tarbiyasiga ota-ona kabi pedagog hodimlar ham ayrim kamchiliklarga yo'l qo'yishi mumkin. Sinfda barcha o'quvchining oldida haqorat qilishi, tanbeh berishi, barcha o'quvchilarni bir ko'zda ko'rmasligi va hakazo. “Barchaning oldida berilgan nasixat bu kamsitilish bilan barobar” deyishadi olimlarimiz. Shuning uchun individual suhbatlashish lozimdir. O'quvchi bilan ishlashda uning o'ziga xos individual xususiyatlariga tayanish lozim. Individual yondashuvning vazifalari bola rivojlashini individual usullari, imkoniyatlari, shaxsiy faolligini oshirish, uni shaxsini betakrorligini ochib berishdan iboratdir. Muhimi bolani o'ziga xos individual xususiyatlari bilan kurashish emas, balki ularni rivojlantirish, bolani potensial imkoniyatlarini o'rganish va tarbiyaviy ishlarni individual rivojlantirish prinsipi bo'yicha qurish darkor. Bolalar bilan ishlayotganda ularni har bir toifasiga qanday millatga xosligi, dunyoqarashi, dinidan qat'iy nazar ishonch uning qiziqishlarini hisobga olib, unga ochiq ko'ngillik bilan munosabat o'rnatish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Sh.Xalilova. “Ta'limda boshqaruv psixolgiyasi”, Toshkent-2011.

2.Kamilova N.G. “Muammoli o'smir: tashxis, tadqiqot metodlari. O'quv qo'llanma. Toshkent, Nizomiy nomidagi TDPU, 2004.

3. G'oziev E. Psixologiya (Yosh davrlar psixologiyasi). O'quv qo'llanma-Toshkent, “O'qituvchi” 1994.

IJTIMOIY PSIXOLOGIK MUNOSABAT MEZONLARI

Xodjayeva Gulyor Ahmedovna
Madaminova Madina Abdirasulovna
Urganch tumani 14-sonli maktab psixologlari
https://doi.org/10.5281/zenodo.7257776

Ma’lumki, munosabat subyektiv hodisa sifatida, tashqi olamni aks ettirishdagi ong faolligi va uning regelativ funksiyasini ta’minlash bilan bog‘liq tarzda tarkib topadi. insondagi munosabatlar tizimi faoliyat motivi va o‘z maqsadini amalga oshirishga qaratilgan hissiy-irodaviy sifatlar orqali namoyon bo‘ladi.

Аннотация: В данной статье рассматривается деталь – шток буровой машины. Определение материала детали и его свойств. Режимы предварительной термической обработки.

Ключевые слова: Шток, материал детали, буровая машина, термической обработки, прочность, шероховатость.

Горное машиностроение является ведущей и важнейшей отраслью хозяйства страны. Выпуск горной техники нового технического уровня, улучшенного качества, более высокой производительности, надежности и безопасности в эксплуатации, ставит перед машиностроителями более сложные задачи. Решающую роль в выполнении поставленной задачи должны сыграть совершенствование технологии, технологического производства, его автоматизация и механизация.

Для того чтобы постоянно удовлетворять растущие запросы производства, машиностроения, необходимо постоянно разрабатывать новые технологические процессы на базе нового оборудования, механизация и автоматизация производства.

Отрасль науки, занимающаяся изучением закономерностей, действующих в процессе изготовления машин в необходимом количестве в сочетании с качеством при наименьшей себестоимости, называется технологией машиностроения.

Материал детали – сталь 30ХГСА.

Шток представляет из себя пруток круглого сечения, соединяющий поршень с ползуном в гидравлических механизмах привода поступательного движения. Шток применяется, когда используются обе полости цилиндра (по ту или другую сторону поршня). Диаметр штока обычно определяется его прочностью, жесткостью и устойчивостью.

Шток работает в буровой машине, который работает в специфических условиях: суровые климатические условия, запылённость горных выработок, работа в горизонтальных и наклонных пластах. В связи с этим к ней

предъявляются высокие требования по производительности, безопасности, надёжности управления, технико-экономическим показателям. А высокие показатели можно получить, если оборудование комплекса имеет высокое качество изготовления.

Данная деталь относится к особоответственным высоконагруженным деталям. Сталь из которой она изготавливается должна иметь улучшенную пластическую и прочностную характеристики, обладает высокой трещиностойкостью и низкой чувствительностью к концентрации напряжений, должна иметь повышенную прочность и надежность.

Данный шток необходимо улучшить до твердости 269..302 НВ. Разработанная технология изготовления штока должна обеспечивать прочность, износостойкость, коррозионную стойкость и надёжность детали в эксплуатации.

Требования, предъявляемые к штоку:

- рабочую поверхность штока необходимо подвергнуть закалке ТВЧ на глубину h1,5…3 до твердости 48…54 HRCэ;[1]

- рабочая поверхность должна быть выдержана по 7-му квалитету;

- отклонение рабочей поверхности от цилиндричности 0,6 мм;

- шероховатость поверхности должна соответствовать следующим параметрам:

рабочей поверхности Ra 0,16

остальные поверхности Rz 40 и Rz 80.

Определение материала детали и его свойств

Учитывая ответственность и напряженность работы современных горных машин, эксплуатируемых при больших давлениях, следует выбрать ту марку стали, которая наиболее удовлетворяет требованиям по прочности, твердости, упругости, ударной вязкости, пластичности, усталостной прочности, обрабатываемости, износостойкости и экономичности.

Принимая во внимание перечисленные выше требования, а также то, что гидроцилиндры относятся к особо ответственным деталям, работающим при циклических нагрузках, шток изготавливается из стали 30ХГСА.

Химический состав стали, %

Табл. № 1

Марка стали	Химический состав, % ГОСТ 4543-71							
	C	Si	Mn	Cr	Ni	P	S	Cu
30ХГСА	0,28-0,34	0,9-1,2	0,8-1,1	0,8-1,1	не более			
					0,3	0,025	0,025	0,3

Сталь 30ХГСА подвергают улучшению, т.е. закалке и высокому отпуску. Сталь закаливают при температуре 800-880 ^{o}C с охлаждением в масло и проводят отпуск при 550-650 ^{o}C. После такой термообработки структура стали - сорбит отпуска. Сталь имеет высокий предел текучести, малую чувствительность к концентраторам напряжений, высокий предел выносливости и достаточный запас вязкости. Кроме того, улучшенные стали обладают хорошей прокаливаемостью и малой чувствительностью к отпускной хрупкости. При полной прокаливаемости сталь имеет хорошие механические свойства, повышается сопротивление росту имеющихся трещин.[2]

Режимы предварительной термической обработки

Для стали 30ХГСА применяют предварительную термообработку (ПТО) – нормализацию с высоким отпуском. Такую ПТО проводят с целью достижения твердости материала заготовки 200-230 НВ, чтобы улучшить обрабатываемость резанием и снятия остаточных напряжений после ковки. Данную деталь следует нагревать в подвешенном состоянии для равномерного прогрева и уменьшения деформации. Термическую обработку деталей в подвешенном состоянии проводят в шахтных печах. [4]

Нормализация проводится при температуре 930 ^{0}C с охлаждением на воздухе. Время процесса 168,75 мин. Оборудование – шахтная печь ПШО 10.10/12

Высокий отпуск – при температуре 600 ^{0}C с охлаждением на воздухе. Время процесса 202,5 мин. Оборудование – шахтная печь ПШО 10.10/1

Режимы окончательной термической обработки

В качестве окончательной термообработки применяют улучшение. Процесс улучшения заключается в проведении закалки при температуре 800-880 ^{0}C и последующего высокого отпуска при 550-630 ^{0}C.

Закалка проводится при температуре 820 ^{0}C с охлаждением в масло. Время процесса 156,25 мин. Оборудование – шахтная печь ПШЗ 10.10/12

После закалки необходимо промыть детали в моечной машине типа МКП-06.20.М01

Высокий отпуск проводится при температуре 600 ^{0}C с охлаждением на воздухе. Время процесса 187,5 мин. Оборудование – шахтная печь ПШО 10.10/12

Литература:

1.Справочник технолога – машиностроителя, в 2-х т. Т1/ под редакцией А. Г. Косиловой, Р.К. Мещерякова – М.: Машиностроение, 1985. – 656с.

2.Справочник технолога – машиностроителя, в 2-х т. Т2/ под редакцией А. Г. Косиловой, Р.К. Мещерякова – М.: Машиностроение, 1985. – 496с.

3.Балабанов А.Н. Краткий справочник технолога – машиностроителя. М.: Изд-во стандартов, 1992. – 464с.

4.В.М. Зуев. Термическая обработка металлов: Учеб. для проф. учеб. заведений. – М.: Высшая школа, 2001. – 288 с.: ил.

ФИЗИКА ПӘНІ САБАҚТАРЫНДА АҚПАРАТТЫҚ ТЕХНОЛОГИЯЛАРДЫ ҚОЛДАНЫП, ОҚУШЫЛАРДЫҢ ҚЫЗЫҒУШЫЛЫҚТАРЫН ДАМЫТУ

Үсенова Фариза
22 -жалпы орта мектептің физика пәні мұғалімі
Өзбекстан, Науаи облысы Кенимех ауданы
https://doi.org/10.5281/zenodo.7257967

Аннотатция: Бұл мақалада ақпараттық технологияларды физика сабағында қолдану, оқушы өтілетін тақырып мазмұнын оңай түрде қабылдау,есте сақтап қалу,ойлау қабілетін асыру, логикалық сезімін дамыту жөнінде қарастырылып, ақпараттық технологиялардың негізгі міндеттері жөнінде түсінік берілген.

Кілт сөзі: Технологиялық жетістіктердің бірі –интерактивті тақта.

Өзбекстан Республикасы Президентінің 2021 жыл 19 наурыздағы «Физика саласында тәлім сапасын асыру және ғылыми зерттеуді дамыту шаралары жөніндегі» ПҚ-5032- қарарында физика пәнінің оқыту сапасын асыру, сабақ барысында заманауи оқыту әдістерін қолдау, амалға асыру, қабілетті оқушыларды саралау,еңбек базарында бәсекеге қабілетті мамандарды дайындау, ғылыми зерттеу және инновацияларды дамыту, практикалық тиімділікке бағыттауға үлкен мән беру жұмыстары назарға алынған. Осыған орай, бүгінгі күн заман талабына сай мектептерге жаңа буын оқулықтарымен қоса оқу-әдістемелік пен методикалық әдістер ұсынылуда.

Елімізде оқыту мазмұны жаңартылып 11 жылдық білім беру жүйесіне көшу мақсатында жаңа буын оқулықтарының негізінде жасалған бағдарламалар мектептің жаңа жүйеге көшуін, әрбір мұғалімнен жаңаша жұмыс істеуін, батыл шығармашылық ізденісін, оқушылардың белсенділігі мен қызығушылығын арттыруды талап етеді. Сондықтан, мұғалім өз білімін жан-жақты жетілдіре отырып, оқушыны қызықтырып оқыту керек екені сөзсіз.

Қазіргі кезде физика пәнін оқытатын мамандарға қойылатын талап жаңа технологиялық әдістерді қолдана отырып, сапалы білім беру. Олардың ойлау, есте сақтау, мәліметті қабылдау,көру қабілеттерін жетілдіру және танымдық күшін қалыптастыруға жағдай жасау.Сонымен бірге мұғалімнің басты міндеті компетентті оқушыны тәрбиелеп, өмір жолына дұрыс бағыт беру болып табылады.Әрине бұл тынбай еңбектену мен ізденістерді талап етеді. Мұғалім қандай әдіс түрінен пайдаланса да, өтілетін тақырыптың мазмұнын кең ашып, берілетін білім түсінуге оңай, қолайлылық принциппен меңгертілуі қажет.

Оқушыға білім беруде жеке оқушылардың қабылдау мүмкіндіктерін, ойлау қабілетін, үлгеру ерекшелігін, жас ерекшелігін, білім мен дағдыны меңгеру мүмкіндіктерін ескеріп отырып, оқушының ақпараттық технологиялық сауаттылығын бірте-бірте дамытып барған жөн. Сондықтан да физика сабағында ақпараттық технологиялардан кең түрде пайдаланып, оқушылардың пәнге деген қызығушылығын арттырып бару қажет.

Ал,ақпараттандырудың бағыты XXI ғасырдың талаптарына сәйкес қоғамды дамытудың жоғары тиімділікті технологияларына сүйенген жаңа білім стратегиясына көшу болып табылады. Қазіргі білім жүйесінің ерекшеліктеріне: оның іргелігінің алдын алу сипаты және осыларға қол жеткізу мүмкіндіктері жатады. Ақпараттық технологиялардың негізгі міндеттері: • Сабақта ақпараттық технологиялар құралдарын қолдану; • Практикалық шараларды анықтап, жүзеге асыру; • Ғылыми – ізденушілік және оқу - әдістемелік жұмыстар жүргізу; • Ақпараттық технологиялардың қағидалар; - Жеке тұлғаның интеллектуалдық жеке шығармашылық қабілеттерін дамыту; - Технологиялық құрал арқылы алынатын білімдер мен мәліметтердің түсініктілігі; - Білім мен тәрбиенің бірізділігі; - Жалпы компьютерлік сауаттық. Технологиялық жетістіктердің бірі –интерактивті тақта. Ол оқушылардың оқыту бағдарламасындағы көмекші құрал. Интерактивті тақтаның маңыздылығы: - Интерактивті тақтада жазба құралдары, маркерлер, құрал-саймандар панелі қарастырылған.

Интерактивті тақта барлық жастағы балаларды оқыту бағдарламасымен үйлесіп оқытудың әртүрлі стильдерін қолдануға мүмкіндік береді. Оқушылар визуальды материалдарды жақсы қабылдауына, сонымен қатар сабақтың жаңа сырларын, туындаған мәселелерді бірігіп шешуге, талқылауға мүмкіндік алады. Оқушылар білім алу процесінде бір уақытта оқып,тыңдап тапсырмаларды алуына мүмкіндік туғызады. Қажетті ақпараттарды белгілеуге және зейіндерін аударуға барлық идеалдарды байланыстырып немесе олардың айырмашылықтарын ойластырып талқылауда әртүрлі түстер интерактивті тақтада қолайлы орындалады. Мұндай мәліметтерді физикалық формулалар, графиктер, схемалар, иллюстрациялар, физикалық құбылыстардың динамикалық бейнесі, тәжірибеге арналған құрылғылардың тізімі, аспаптардың сипаттамалары және т.б. жатқызуға болды. Мұғалім араласпай – ақ, оқушылар өздері меңгеруге тиісті болған ақпараттарды қабылдайды. Қажетті ақпараттарды жинақтауда,электрондық техникаларды енгізуде уақыт үнемдейді, қарастырып отырған жүйе құрамында электрондық құрылғылармен жұмыс дағдысын қалыптастыруға қолайлықтар жаратады. Физика – оқушылардың ойлау қабілетін қалыптастыратын және дамытатын негізгі буын. Ол оқушылардың интеллектін, логикалық ойлауын және шығармашылық

қабілеттерін дамытуға, табиғат заңдылықтарын толығымен түсінуге ықпал жасайды. Физика пәнінде ақпараттық технологияларды қолдану пәнді оқытуда оқушыға дүниенің заңдарын терең меңгертіп қоймай, оқушының ойын дамытып, эмоциясына, сезіміне қозғау салады. Өзіне қажетті мазмұны мен мәліметті ақпарат көзінен таңдап өз бетінше ойланып, шешім қабылдауға дағдыланады. Сондай-ақ сабақ өтуде интерактивті тақтаны қолдануда сабақ тиімділігін арттырады. Компьютердегі интернет жүйесіндегі ақпараттық мәліметтерді сабақ тақырыбына байланысты қажеттісін таңдап тікелей қолдану мүмкіндігіне ие болады. Сонымен қатар оқушыда интернеттен материал іздеп қана қоймайды, әлемдік байланыс торабына кіруді де үйренеді.

Жаңа ақпараттық технологияны физика сабақтарында пайдаланудың тиімді жолы, оқушылардың білім, білік дағдыларын қалыптастыруға қызығушылығын арттырып, түрлі деңгейдегі есептерді шығарып, оны талдай білуге үйретеді. Логикалық ойлау қабілеттерін дамытып, интернет желісінен сабаққа қажетті деректерді өз бетімен ізденуге, компьютерлік сауаттылықтарына жол ашуына көмектесіп, сабақта алған білімдерін өмірде қолдана білуге тәрбиелейді.

Пайдаланған әдебиеттер:

1.Г.Бегманова“Жалпы психология” әдістемелік қолданба (лекция мәтіндер жинағы) 2003, 9-12 -39 б

2. Б.Б.Жолдасова “Инновациялық технологияларды білім беруде қолдану” 2007. ж

YUQORI SINFLARDA TO‘LA KVADRAT TENGLAMANI O‘RGATISH METODIKASI

Yadgarova Dilsoz Xamidullayevna
Toshkent viloyati Chirchiq shahar 2 – sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi matematika fani o‘qituvchisi
Ibatova Nargiza Xomudovna
Toshkent viloyati Chirchiq shahar 2 – sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi matematika fani o‘qituvchisi
Namatova Gulsara Bekchanovna
Toshkent viloyati Chirchiq shahar 21 – sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi matematika fani o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7258018

“Agar bizlar haqiqatan nimanidir bilsak, bu matematikani bilganimiz tufaylidir”
Per Gassendi

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumiy o‘rata ta’lim maktabi o‘quvchilari uchun kvadrat tenglamalarni yechishning bir nechta qulay usullari va kasr sonlar haqida batafsil tushuncha berilgan.

Tayanch iboralar: Metodika, umumiy metodika, xususiy metodika, umumta’limiy maqsad, tarbiyaviy maqsad, matematik tushuncha, teoremalarni isbotlash metodlari, taqqoslash metodi, matematik tushunchalarni umumlashtirish.

Matematika so`zi qadimgi grekcha - mathema so`zidan olingan bo`lib, uning ma’nosi «fanlarni bilish» demakdir. Matematika fanining o`rganadigan narsasi (ob’ekti) materiyadagi mavjud narsalarning fazoviy formalari va ular orasidagi miqdoriy munosabatlardan iborat. Hozirgi davrda matematika fani shartli ravishda ikkiga ajraladi.

1) elementar matematika, 2) oliy matematika.

Elementar matematika fani maktab matematika kursining asosini tashkil qiladi. Maktab matematika kursininng maqsadi o`quvchilarga ularning psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda matematik bilimlar sistemasi ma’lum usulda (metodika) orqali o`quvchilarga etkaziladi. (Metodika so`zi grekcha so`z bo`lib, «yo`l» degan ma’noni beradi). Matematika metodikasi pedagogika va didaktika fanining asosiy bo`limlaridan biri bo`lib, jamiyatimiz taraqqiyoti darajasida ta’lim maqsadlariga mos keluvchi matematikani o`qitish, o`rganish qonuniyatlarini o`rganadigan mustaqil fandir. Matematika metodikasi ta’lim jarayoni bilan bog`liq bo`lgan quyidagi uch savolga javob beradi:

1. Nima uchun matematikani o`rganish kerak?
2. Matematikadan nimalarni o`rganish kerak?
3. Matematikani qanday o`rganish kerak?

O`rta umumta'lim maktablaridamatematika o`qitishning maqsadi

O`rta maktablarda matematika o`qitishning maqsadi quyidagi uch omil bilan belgilanadi:

1. Matematika o`qitishning umumta'limiy maqsadi.
2. Matematika o`qitishning tarbiyaviy maqsadi.
3. Matematika o`qitishning amaliy maqsadi.

Matematika o`qitishning umumta'limiy maqsadi o`z oldiga quyidagi vazifalarni qo`yadi:

a) O`quvchilarga ma'lum bir dastur asosida matematik bilimlar tizimini berish. Bu bilimlar tizimi matematika fani to`g`risida o`quvchilarga etarli darajada ma'lumot berishi, ularni matematika fanining yuqori bo`limlarini o`rganishga tayyorlashi kerak. Bundan tashqari, dastur asosida o`quvchilar o`qish jarayonida olgan bilimlarining ishonchli ekanligini tekshira bilishga o`rganishlari, ya'ni isbotlash va nazorat qilishning asosiy metodlarini egallashlari kerak.

b) O`quvchilarning og`zaki va yozma matematik bilimlarini tarkib toptirish.

Matematikani o`rganish o`quvchilarning o`z ona tillarida xatosiz so`zlash, o`z fikrini aniq, ravshan va lo`nda qilib bayon eta bilish malakalarini o`zlashtirishlariga yordam berishi kerak. Bu degan so`z o`quvchilarning har bir matematik qoidani o`z ona tillarida to`g`ri gapira olishlariga erishish hamda ularni ana shu qoidaning matematik ifodasini formulalar yordamida to`g`ri yoza olish qobiliyatlarini atroflicha shakllantirish demakdir;

v) O`quvchilarni matematik qonuniyatlar asosida real haqiqatlarni bilishga o`rgatish. Bu erda o`quvchilarga real olamda yuz beradigan eng sodda hodisalardan tortib to murakkab hodisalargacha hammasining fazoviy formalari va ular orasidagi miqdoriy munosabatlarni tushunishga imkon beradigan hajmda bilimlar berish ko`zda tutiladi.

Bunday bilimlar berish orqali esa o`quvchilarning fazoviy tasavvur qilishlari shakllanadi hamda mantiqiy tafakkur qilishlari yanada rivojlanadi.

Matematika o`qitishning tarbiyaviy maqsadi o`z oldiga quyidagilarni qo`yadi:

a) O`quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish. Bu g`oya bilish nazariyasi asosida amalga oshiriladi.

b) O`quvchilarda matematikani o`rganishga bo`lgan qiziqishlarni tarbiyalash.

Bizga ma'lumki, matematika darslarida o`quvchilar o`qishning dastlabki kunlaridanoq mustaqil ravishda xulosa chiqarishga o`rganadilar. Ular avvalo kuzatishlar natijasida, so`ngra esa mantiqiy tafakkur qilish natijasida xulosa

chiqaradilar. Ana shu chiqarilgan xulosalar matematik qonuniyatlar bilan tasdiqlanadi.

Matematika o`qituvchisining vazifasi o`quvchilarda mustaqil mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish bilan birga ularda matematikaning qonuniyatlarini o`rganishga bo`lgan qiziqishlarini tarbiyalashdan iboratdir.


v) O`quvchilarda matematik tafakkurni va matematik madaniyatni shakllantirish. Matematika darslarida o`rganiladigan har bir matematik xulosa qat'iylikni talab qiladi, bu esa o`z navbatida juda ko`p matematik tushuncha va qonuniyatlar bilan ifodalanadi. O`quvchilar ana shu qonuniyatlarni bosqichma-bosqich o`rganishlari davomida ularning mantiqiy tafakkur qilishlari rivojlanadi, matematik xulosa chiqarish madaniyatlari shakllanadi. O`quvchilarni biror matematik qonuniyatni ifoda qilmoqchi bo`lgan fikrlarni simvolik tilda to`g`ri ifodalay olishlari va aksincha simvolik tilda ifoda qilingan matematik qonuniyatni o`z ona tillarida ifoda qila olishlariga o`rgatish orqali ularda matematik madaniyat shakllantiriladi.

1. Kvadrat tenglama tushuncqhasiga ta'rif berilaylik.

T a ' r i f . $ax^2+bx+c=0$ ko`rinishidagi tenglamalar to`la kvadrat tenglama deyiladi. Bu erda x - o`zgaruvchi, $a, b, c$- ixtiyoriy o`zgarmas sonlar, $a > 1$.

2) Kvadrat tenglamaning xususiy hollari ko`rib chiqiladi. Buni jadval tarzida bunday ifodalash mumkin.

To`la kvadrat tenglama



3. Hosil qilingan keltirilgan va chala kvadrat tenglamalarga aniq misollar keltiriladi. Masalan,

$$2x^2 – 3x – 4 = 0,\ x^2 – 5x – 6 = 0,$$
$$3x^2 + 5x = 0,\ 2x^2 + 7x = 0,\ 5x^2 = 0, \ldots$$

4. Kvadrat tenglama tadbiqiga doir hayotiy misollar keltirish kerak. Masalan, $s = \frac{gt^2}{2}$ formula fizika kursidan bizga ma'lum, bu tenglamani echish $gt^2–2s=0$ ko`rinishidagi chala kvadrat tenglama holiga keltirib, so`ngra echiladi.

5. Kvadrat tenglamaning ildizlarini hisoblash formulasini keltirib chiqarish.

1 - u s u l. $ax^2 + bx + c = 0$ tenglama ildizlari topilsin. Buning uchun quyidagi ayniy almashtirishlarni bajaramiz:

$$ax^2+bx+c=a\left[x^2+\frac{b}{a}x+\frac{c}{a}\right]=a\left[x^2+2\cdot\frac{b}{2a}x+\frac{c}{a}\right]=$$

$$=a\left[x^2+2\cdot\frac{b}{2a}x+\frac{b^2}{4a^2}-\frac{b^2}{4a^2}+\frac{c}{a}\right]=$$

$$=a\left[\left(x^2+2\cdot\frac{b}{2a}x+\frac{b^2}{4a^2}\right)-\frac{b^2-4ac}{4a^2}\right]=$$

$$=a\left[\left(x^2+\frac{b}{2a}\right)^2-\frac{b^2-4ac}{4a^2}\right]=0;\quad a\neq 0$$

$$\left[x+\frac{b}{2a}\right]^2=\frac{b^2-4ac}{4a^2};$$

$$x_{1,2}=-\frac{b}{2a}\pm\frac{\sqrt{b^2-4ac}}{2a}=-\frac{b\pm\sqrt{b^2-4ac}}{2a};$$

$$x_1=-\frac{-b+\sqrt{b^2-4ac}}{2a};\quad x_2=-\frac{-b-\sqrt{b^2-4ac}}{2a}$$

2- u s u l .

$ax^2 + bx + c = 0$

$ax^2 + bx = –c \mid \cdot 4a,$

$4a^2x^2 + 4abx = –4ac \mid + b^2,$

$4a^2x^2 + 4abx + b^2 = b^2 – 4ac,$

$(2ax + b)^2 = b^2 – 4ac;$

$$2ax_{1,2}+b=\pm\sqrt{b^2-4ac}$$

$$x_{1,2}=\frac{-b\pm\sqrt{b^2-4ac}}{2a}$$

$$x_1=\frac{-b+\sqrt{b^2-4ac}}{2a}$$

$$x_2=\frac{-b-\sqrt{b^2-4ac}}{2a}$$

Agar $ax^2+bx+c=0$ da $a=1$ bo`lsa, $x^2+bx+c=0$ ko`rinishdagi kvadrat tenglama hosil bo`lib, uning echimlari quyidagicha bo`ladi:

$$x_{1,2}=\frac{-b\pm\sqrt{b^2-4c}}{2}=\frac{-b}{2}\pm\sqrt{\frac{b^2}{4}-c}$$

Agar $b=p;\ c=q$ desak, $x^2+px+q=0$ bo`ladi, uning echimlari

$$x_1=\frac{-p}{2}+\sqrt{\frac{p^2}{4}-q}\ \text{va}\ x_2=\frac{-p}{2}-\sqrt{\frac{p^2}{4}-q}$$

bo`ladi.

3 - u s u l . $x^2 + px + q = 0$ (1)

$b^2 = q;\quad 2ab = p$ desak,

$b=\pm\sqrt{q}, \quad a=\pm\frac{p}{2\sqrt{q}}$

bularni (1) ga qo`ysak, u quyidagi ko`rinishni oladi.

$x^2 + 2abx + b^2 = 0$ *(2)*

(2) ga a^2x^2 ni qo`shsak va ayirsak $x^2+2abx+b^2+a^2x^2-a^2x^2=0$ bo`ladi, $a^2x^2+2abx+b^2-\ a^2x^2+x^2=0$ yoki $(ax+b)^2-a^2x^2+x^2=0$ belgilashga ko`ra $b=\pm\sqrt{q};\quad a=\pm\frac{p}{2\sqrt{q}}$ edi, shuning uchun

$$\left(\frac{px}{2\sqrt{q}}+\sqrt{q}\right)^2-\frac{p^2}{4q}x^2+x^2=0;$$

$$(px+2q)^2-p^2x^2+4qx^2=0;$$

$$px+2q=\pm x\sqrt{p^2-4q};$$

$$2q=x(-p\pm\sqrt{p^2-4q});$$

$$x_{1,2}=\frac{2q}{-p\pm\sqrt{p^2-4q}}$$

1 - m i s o l. $x^2-3x-4=0;\quad p=-3;\quad q=-4$

$$x_{1,2}=\frac{-p}{2}+\sqrt{\frac{p^2}{4}-q}=\frac{3}{2}\pm\sqrt{\frac{9}{4}+4}=\frac{3}{2}\pm\frac{5}{2};$$

$x_1=4;\quad x_2=-1$

$$x_{1,2}=\frac{2q}{-p\pm\sqrt{p^2-4q}}=\frac{2\cdot(-4)}{3\pm\sqrt{9+16}}=\frac{-8}{3\pm5};$$

$$x_1=\frac{-8}{-2}=4;\ x_2=\frac{-8}{8}=-1;$$

2 - m i s o l. $x^2-5x-6=0;$

$p=-5;\quad q=-6$

$$x_{1,2}=\frac{2q}{-p\pm\sqrt{p^2-4q}}=\frac{2\cdot(-6)}{5\pm\sqrt{25+24}}=-\frac{12}{5\pm7};$$

$$x_1=-\frac{12}{12}=-1;\ x_2=\frac{-12}{-2}=6;$$

Kasr son tushunchasini kiritish va uni o‘rgatish metodikasi

Butun sonlar to‘plamida har doim qo‘shish, ayirish, ko‘paytirish amallarini bajarish o‘rinlidir, lekin bo‘lish amali har doim bajarilavermaydi. Chunki bir butun sonni ikkinchi butun songa bo‘lganda har doim bo‘linmada butun son hosil bo‘lavermayda.

Masalan, 7:2 = 3.5, 9:4 = $2\frac{1}{4}$, ... Bu erda hosil qilingan bo‘linmadagi 3,5; $2\frac{1}{4}$, ... sonlari butun sonlar to‘plamida mavjud emas. Umuman olganda $m:x=n,\ m\neq0$

ko‘rinishdagi tenglamaning yechimi butun sonlar to‘plamida har doim mavjud emas, bu tenglama har doim $x=\frac{n}{m}$ ko‘rinishdagi yechimga ega bo‘lishi uchun kasr tushunchasini kiritish orqali butun sonlar to‘plamini kengaytirib, unga barcha manfiy va musbat kasr sonlarni qo‘shish kerak. Bu degan so‘z $\left\{-\frac{p}{q},0,\frac{p}{q}\right\}$ ko‘rinishdagi ratsional sonlar to‘plamini hosil qilish kerak deganidir. Shundagina $mx=n$ ko‘rinishdagi tenglamalar har doim yechimga ega bo‘ladi. Bu erda r va q lar natural sonlardir. Yuqoridagi mulohazalarga ko‘ra ratsional songa quyidagicha ta’rif berish mumkin: $\frac{p}{q}$ *ko‘rinishdagi qisqarmas kasrga ratsional son deyiladi.*

Endi kasr tushunchasini kiritish uchun foydalaniladigan misollarni ko‘rib o‘taylik.

Agar bir metr uzunlikdagi yog‘ochni o‘zaro teng ikki bo‘lakga bo‘linsa, u holda bo‘laklarning har birining uzunligi ana shu yog‘och uzunligining yarmiga teng bo‘ladi va uni $\frac{1}{2}$ kabi yoziladi. Agar ana shu bir metr uzunlikdagi yog‘ochni o‘zaro teng uch bo‘lakka bo‘linsa, u holda bo‘laklardan har birining uzunlngi shu yog‘och uzunligining uchdan biriga teng bo‘ladi va uni $\frac{1}{3}$ kabi yoziladi. Xuddi shuningdek, $\frac{1}{4}, \frac{1}{5}, \frac{1}{6}$ ...

Agar bir metr uzunlikdagi yog‘ochni teng uch bo‘lakka bo‘lib, undan ikki qismini oladigan bo‘lsak, olingan uzunligini $\frac{2}{3}$ kabi yoziladi.

Agar ana shu yog‘ochni to‘rt bo‘lakga bo‘lib, undan uch qismini olsak, olingan qism uzunligini $\frac{3}{4}$kabi ifodalanadi. Yuqorida qilingan mulohazalarga asoslanib kasr tushunchasining ta’rifini quyidagicha berish mumkin.

Kasrlar uch xil bo‘ladi:

1. To‘g‘ri kasrlar. 2. Noto‘g‘ri kasrlar. 3. O‘nli kasrlar.

1. Agar kasrning surati uning maxrajidan kichik bo‘lsa, bunday kasrlarni ***to‘g‘ri kasrlar*** deyiladi.

Masalan: $\frac{1}{2}, \frac{3}{4}, \frac{1}{6}$ ....

2. Agar kasrning surati uning maxrajidan katta bo‘lsa, bunday kasrlarni ***noto‘g‘ri kasrlar*** deyiladi. Masalan, $\frac{5}{2}, \frac{7}{4}, \frac{17}{5}$ ... .

3. Agar kasrning maxraji bir va nol sonlaridan iborat bo‘lsa, bunday kasrlarni ***o‘nli kasrlar*** deyiladi. Masalan, $\frac{1}{10}$=0,1; $\frac{1}{100}$=0,01; ... .

Xulosa qilib shuni aytishimiz o‘quvchilarni matematikada o‘qitishda o‘quvchilarga misollarni yechishda nazariy va amaliy bilimlarni birgalikda mujassamlashtirilgan holda o‘quvchilarga tushunchlar berish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Algebra: 7-sinf uchun darslik (Sh.O.Alimov, Yu.M.Kolyagin, Yu.V.Sidorov, M.I.Shabunin) T., «O‘qituvchi», 1996 yil.
2. Algebra: 8-sinf uchun darslik (Sh.O.Alimov, Yu.M.Kolyagin, Yu.V.Sidorov, M.I.Shabunin) T., «O‘qituvchi», 1996 yil.
3. Algebra va analiz asoslari: o‘rta maktablarning 10-11 sinflari uchun darslik (Sh.O.Alimov, Yu.M.Kolyagin, Yu.V.Sidorov, M.I.Shabunin) T., «O‘qituvchi», 1996 yil.
4. Alixonov S. «Matematika darslarida umumlashtirish» T., «O‘qituvchi», 1989 yil.

8–9 YOSHLI GIMNASTIKACHILARNING JISMONIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI

Jo‘raboyev Nodirbek Nuriddinovich
Surxondaryo viloyati Denov tumani 54-umumiy o‘rta ta’lim maktabi
jismoniy tarbiya fan o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7258073

Annotatsiya: Ushbu maqolada so‘nggi yillarda gimnastik elementlarning murakkablashib borishi yosh gimnastikachilar jismoniy sifatlarini rivojlantirish va takomillashtirish masalasiga alohida e’tibor qaratmoqda. Ammo ko‘pincha shu sifatlarning rivojlanganlik darajasi gimnastik elementlarni samarali o‘zlashtirish imkonini bermaydi.

Kalit so‘zlar: jismoniy va funksional imkoniyatlar, yuklamalar, gimnastik mashqlar, kombinatsiyalar, sportchilar, tayyorgarlik, ilmiy-tadqiqot.

Yosh sportchilarni tayyorlash, shu jumladan gimnastika bo‘yicha iste’dodli sportchi bolalarni yetishtirish o‘quv-trenirovka jarayoni yangicha ilmiy nazar bilan yondoshish hamda samarali pedagogik texnologiyalar yaratish darkorligini taqozo etadi. Sport amaliyoti tajribasi shuni ko‘rsatadiki, sportchilarni tayyorlashda qo‘llaniladigan an’anaviy uslub va vositalar ko‘p yillik tayyorgarlik jarayonining muayyan bosqichida o‘z samaradorligini yo‘qotishi yoki sustlashtirishi mumkin. Natijada, sport natijalari ham, jismoniy va funksional imkoniyatlar ham taraqqiyotdan to‘xtashi ehtimoldan holi emas. Bunday vaziyatni kelib chiqishi tabiiy holatdir. Chunki organizmning yuklamalarga moslashish imkoniyati cheksiz bo‘lmaydi, an’anaviy yuklamalarga ko‘nikish hosil bo‘ladi, ixtisoslashtirilgan maxsus mashqlar sport mahoratini o‘sishiga qudrati etmay qoladi. Ma’lumki, yildan yilga gimnastik mashqlar dasturi yangicha mazmun va mohiyatga ega bo‘lib, ijro etilayotgan harakat kombinatsiyalari borgan sari murakkablashib borayapti. Binobarin, ushbu vaziyat gimnastik ko‘pkurash turlari istiqbolini oldindan belgilab berish imkonini yaratadi. Bularning barchasi olimpiada o‘yinlarining ommalasha borishi, ularning dasturlari va medallar sohiblari geografiyasining kengaya borishi hamda katta sportning professional va tijorat qiyofasiga kirib borayotganligi bilan bog‘liqdir. Bu esa o‘z navbatida mashg‘ulot va musobaqalar yuklamasi hajmi hamda shiddatini ortishi, sportchilar mahoratining o‘sishi, tayyorgarlikning yangi samarali uslub va vositalarini ishlab chiqish va amalga tadbiq etish, katta sport yo‘nalishidagi ilmiytadqiqot ishlarining jaddallashishi va shu jarayonni ta’minlashda qo‘llanilidagan ilmiy-tadqiqot asboblarining yangi avlodini yaratilishi, malakali sportchilarning tayyorgarlik jarayonini kompyuter tizimi asosida nazorat qilish, sport anjomlari,

uskunalari va sport kiyimlarini takomillashib borishiga asoslanadi. Sport industriyasining keng quloch yozishi, sport infrastrukturasining rivojlanib borishi, xalqaro musobaqalar taqvimining kengayishi, sportchi va murabbiylarning turli mamlakatlarda faoliyat koʻrsatishi, sport va ilmiy axborot hajmining ortib borishi, ilmiysport markazlari va koʻpdan-koʻp tayyorgarlik bazalarining tashkil etilishi bilan belgilanadi. Shu bilan bir qatorda, ta'kidlash joizki, katta sportga olib chiquvchi koʻp yillik tayyorgarlik tizimidan joy olgan dastlabki tanlov va sportga yoʻnaltirish jarayoni zamonaviy sportning oʻta dolzarb va fundamental ahamiyatga ega masalalardan biridir. Gimnastik mashqlarga dastlabki oʻrgatish jarayonida bolalar trenerlari, aksariyat hollarda, ayrim muammolarga duch kelishi kuzatilib turadi. Jumladan, hatto eng oddiy gimnastik element texnikasiga oʻrgatishda muayyan jismoniy sifatlarning rivojlanganlik darajasiga tayaniladi. Jismoniy sifatlarni rivojlantirish jarayoni turli malakali sportchilarni tayyorlash tizimining ustivor va ajralmas qismiga mansubdir. Koʻpgina tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, ushbu sifatlarni rivojlantirish samaradorligi harakat malakalariga oʻrgatish muddati va shu malakalarni oʻzlashtirish sur'atini belgilaydi. Soʻnggi yillarda gimnastik elementlarning murakkablashib borishi yosh gimnastikachilar jismoniy sifatlarini rivojlantirish va takomillashtirish masalasiga alohida e'tibor qaratmoqda. Ammo koʻpincha shu sifatlarning rivojlanganlik darajasi gimnastik elementlarni samarali oʻzlashtirish imkonini bermaydi. Shunday vaziyatlarda odatda ikki yoʻnalishda tashkil etiladigan maxsus mashgʻulotdan foydalanish tavsiya etiladi. Ushbu turdagi mashgʻulotlarning yoʻnalishlaridan biri - bu harakat qobiliyatini shakllantirish, ikkinchisi - harakat koʻnikmalarinitarbiyalash. Qayd etilgan vazifalarni alohida mustaqil va birgalikda hal etish mumkinligidan qat'iy nazar muvofiq jismoniy sifatlarni ham bir yoʻla rivojlantirish zarur boʻladi. Binobarin, zamonaviy gimnastik mashqlarni samarali oʻzlashtirish ustivor jihatdan ixtisoslashtirilgan jismoniy tayyorgarlikka bogʻliqdir. Jismoniy tayyorgarlik umumiy va maxsus jismoniy sifatlarni rivojlantirish jarayonini oʻz ichiga oladi. Mutaxassis olimlarning fikriga koʻra, dastlabki tayyorgarlik bosqichida shugʻullanayotgan yosh gimnastikachilarda shu yoshda qulay kechadigan jismoniy sifatlarni, jumladan, tezkorlik-kuch, egiluvchanlik, chaqqonlik va alohida koordinatsion sifatlarni rivojlantirmoq lozim. Ushbu jismoniy sifatlarni rifojlantirishda qaysi biriga ustunlik bilan yondoshish masalasida mutaxassislar fikri turlicha. Bir guruh mutaxassislar tezkorlik, kuchtezkorlik sifatlari va koordinatsion qobiliyatga urgʻu berish lozimligini ta'kidlaydilar. Ular shu sifatlarga ustunlik berilishini bolalarning yosh xususiyatiga mutanosib ekanligi bilan izohlaydilar. Boshqa bir guruh olimlar jismoniy sifatlar oʻrtasidagi uzviy bog„liqlikni e'tiborga olgan holda, mazkur yoshdagi bolalarda barcha sifatlarni barovar rivojlantirish muhimligiga e'tibor qaratadilar. Shu bilan bir qatorda yosh gimnastikachilar jismoniy tayyorgarligining asosiy jismoniy sifatlarini

turli yo‘nalishda, jumladan gimnastik elementlarga mos yo‘nalishda o‘rganish bo‘yicha o‘tkaziladigan tadqiqotlar deyarli yo‘q ekanligi kuzatildi. Ko‘p yillik musobaqa amaliyotida sport natijalarining o‘sishini ta’minlash dastlabki tayyorgarlik bosqichida olib boriladigan o‘quv-trenirovka mashg‘ulotlari samaradorligini oshirish zarurligiga e’tibor qaratadi. Keyingi bosqichlarda yosh gimnastikachilar tayyorgarlik jarayonini boshqarish yuksak sport mahorati talablari doirasida amalga oshirilishi darkor. Buning uchun maksimal sport natijalarini ko‘rsatish mumkin bo‘lgan yosh davrigacha harakat qobiliyatlarini takomillashtirishga qaratilgan uslub va vositalardan unumli foydalanish lozim bo‘ladi. Zamonaviy gimnastikada o‘rgatilishi zarur bo‘lgan harakat malakalariga xos jismoniy sifatlarni qisqa muddat ichida rivojlantirish imkoniyatini yaratuvchi uslub va vositalar qo‘llaniladi. Bu esa o‘z navbatida gimnastik snaryadlarda ijro etiladigan mashqlarni tezroq o‘zlashtirish va bu masalaga ko‘proq vaqt ajratishni taqozo etadi. Gimnastikachilarning texnik tayyorgarligi ularning jismoniy sifatlariga asoslanadi. Agar gimnastikachining jismoniy imkoniyati gimnastik element texnikasi talablariga javob bermasa, birorta mashqni maromida bajarish mumkin bo‘lmaydi. Boz ustiga, texnik mahoratni takomillashtirish nuqtai nazaridan kuchga oid tayyorlov mashqlari tarbiyalanayotgan sifatni yuksak darajada shakllanishini ta’minlashi kerak. Bu borada gimnastikachilarga maxsus yo‘naltirilgan mashg‘ulotlar az qotadi. Ayniqsa, musobaqa davrida gimnastikachilar uchun o‘rganilayotgan elementlarga xos sifatlarni shakllantirish muhim ahamiyatga egadir. Binobarin, shunday ekan, har bir muayyan vaziyatda harakat malakasiga o‘rgatish jarayoni o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lishi zarur. Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki jismoniy sifatlarni rivojlantirish jarayoni shunday tashkil etilishi lozimki, oldindan o‘zlashtirilgan bir guruh mashqlar nafaqat boshqa turdosh mashqlar elementlariga o‘rgatish masalasini engillashtirishi darkor, balki dastlabki o‘zlashtirilgan mashqlar qayd etilgan turdosh mashqlarga o‘rgatishda asosiy manba bo‘lib xizmat qilishi maqsadga muvofiqdir. Bunga etakchi texnik xususiyatlarga ega keng gimnastik mashqlar majmuasiga asosan ishlab chiqilgan muvofiq jismoniy va maxsus harakat tayyorgarligi hamohang bo‘lishi mumkin. Tashkiliy va uslubiy jihatdan bunday ixtisoslashtirilgan tayyorgarlik nafaqat tasnifiy asosda uyushtirilishi kerak, balki maxsus tanlangan o‘quv-trenirovka mashqlari yordamida olib borilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar:

1.Umarov M.N., Eshtaev A.K. Planirovanie i raspredelenie sredstv trenirovki gimnastov na nachalnom etape podgotovki. Ucheb. posobie. – T.: UzGIFK, 2004. - 154 s.

2. Eshtayev A.K. Gimnastika darsi: O‘quv qo‘llanma. - T.: 2004. – 120 b.

3. Umarov M.N. Gimnastika: O‘quv qo‘llanma. – T.: Vneshin vestrom, 2015. – 400 b.

ADABIYOT DARSLARIDA MUMTOZ ASARLARNI O‘RGANISH METODIKASI
METHODS OF STUDYING CLASSICAL WORKS IN LITERATURE LESSONS
МЕТОДИКА ИЗУЧЕНИЯ КЛАССИЧЕСКИХ ПРОИЗВЕДЕНИЙ НА УРОКАХ ЛИТЕРАТУРЫ

Ubaydullayeva Orasta Ziyodullayevna
Qashqadaryo viloyati Qarshi shahri
5-maktabning ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi
Ubaydullaeva Orasta Ziyadullaevna
Karshi city of Kashkadarya region
Teacher of 5th school's native language and literature
Убайдуллаева Ораста Зиедуллаевна
Город Карши Кашкадарьинской области
Учитель родного языка и литературы школы № 5
https://doi.org/10.5281/zenodo.7258081

Annotatsiya: Ta’limni rivojlantirish orqali kelajak farovonligiga erishish maqsadida, yosh avlodni o‘qitishga e’tibor kuchaymoqda. Ta’lim tizimiga STEAM, PBL kabi ta’limning zamonaviy yondoshuvlari kirib keldi. Ushbu maqolada shu usullardan biri PBL asosida adabiyot darslarini tashkil qilish hamda mumtoz adabiyotni organish uchun turli usullardan foydalanish xususida tavsiyalar bermoqchiman.

Annotation: In order to achieve future well-being through the development of education, attention is paid to the teaching of the younger generation. The education system has been introduced into modern peer-to-peer learning, such as STEAM, PBL. In this article, I would like to give recommendations on the organization of literature lessons on the basis of one of these methods PBL, as well as the use of various methods for organising classical literature.

Аннотация: С целью достижения будущего благополучия посредством развития образования усиливается внимание к обучению подрастающего поколения. В систему образования вошли современные подходы к образованию, такие как STEAM, PBL. В данной статье я хотел бы дать рекомендации по организации уроков литературы на основе одного из этих методов, а также по использованию различных методов для изучения классической литературы.

Kalit so‘zlar: muammoli ta’lim, PBL, yechim, bilim, Kaizen usuli, nazariy qoidalar, she’riy san’atlar.

Keywords: case study, PBL, solution, knowledge, Kaizen method, theoretical rules, poetic arts.

Ключевые слова: кейс стади, PBL, решение, знание, метод кайдзен, теоретические положения, поэтическое искусство.

Ta’lim olish jarayonida adabiyot fanini san’at darajasida o‘rganish uchun badiiy mahorat masalalarini kengroq tushunish va badiiy asarlarni chuqurroq tahlil etish zarur. Badiiy asar tahlili juda katta mahorat va bilim talab etadi. Shu o‘rinda biz she’riy asarlar tahlili xususida so‘z yuritmoqchimiz. Maktab darsliklarida she’riyat qoidalari bilan birgalikda she’riy san’at lar ham o‘rganiladi. Buning natijasida o‘quvchi so‘z sana’tining mohiyatini anglaydi, suratni emas siyratni ko‘ra oladi, asarning salmog‘ini his qiladi va g‘oyaviy mazmunni tushuna oladi. Shu tufayli darslarning qiziqarli va jonli o‘tishini nazarga olib quyidagi ta’lim usulidan foydalangan holda tavsiyalar berishga harakat qilmoqchiman. Ya’ni darsda zamonaviy yondoshuv PBL asosida ham muammoli ta’lim usulidan foydalanish mumkin. P-problem-muammo, B-based-asoslangan, L-learning-o‘rganish. Demak, muammoli vaziyatlarni muhokama tarzida o‘rganish.

O‘quvchilarga she’riy san’atlar qoidasi o‘rgatiladi: Tazod, tashxis, talmih, intoq, husni ta’lil, tardu aks, tajohuli orif, tamsil va xakozo. Masalan,

Tazod-qarshilantirish ma’nosini bildiradi, ya’ni she’rda qarama-qarshi ma’noli so‘zlarni eltirish orqali ta’sirchan badiiy timsollar yaratiladi. Masalan:

Boshni fido qilg‘il ato boshig‘a,
Jismni qil sadqa ano qoshig‘a,
Tun-kuningni aylagali nur fosh,
Birisin oy angla, birisin quyosh.

Tashxis-jonlantirish: hayvonlar, qushlar, jonsiz narsalarga inson xususiyatlarini ko‘chirish san’atidir. Masalan, Lutfiyning

Yuzidin lola rang eltib uyolib shahrga kirmas,
Kishikim bo‘ynidin bog‘lab keturmoguncha sahrodin
Baytda lolaga insoniy xususiyatlarni ko‘chirish holatini ko‘ramiz.

Talmih- nazar solmoq ma’nosini bildiradi, she’r yoki nasrda mashhur tarixiy voqealar, afsonalar, adabiy asarlar yoki maqollarga ishora qilish san’atidir.

Senga bersun ilohi Nuh umrin,
Manga ham Furqatingda sabri Ayub.

Atoyining bu baytida Nuh va Ayub payg‘ambarlarga ishora qilingan. O‘quvchilar uchun ushbu ishora qilingan payg‘amparlarimiz, qahramonlar, farishtalar, voqealar, mashhur asarlar haqidagi ma’lumotlar ham g‘oyatda qiziqarlidir.

Intoq-so‘zlatish, gapirtirish (nutqlantirish) ma’nosini ifodalaydi. Ya’ni badiiy asarda hayvonlar yiki jonsiz narsalarni odamlarga o‘xshatib so‘zlatish nazarda tutilgan. Navoiyning “Lison ut-tayr”dostonida tovusning so‘zi.

Men qusheman qasru gulshan ziynati,

Naqshu rangim ahli olam hayrati.

Tardu aks-teskari qilib takrorlash. Birinchi misrada kelgan so‘z yoki so‘birikmalari keyingi misrada o‘rnini almashtirib qaytarish. Masalan, Bobur bayti:

Ko‘ngulga bo‘ldi ajoyib **balo qaro** soching,

Shikasta ko‘ngluma ermish **qaro balo** soching.

O‘quvchilrga muammoli masala yuklanadi. Buni mumtoz asarlarimizni o‘rganish jarayonida amalga oshirsak maqsadga muvofiq. Masalan, adabiyot darsida Lutfiy, Navoiy, Fuzuliy, Ogahiy, Nodira, Uvaysiy Atoyi kabi shoirlar she’rlarini badiiy tahlil qilish jarayonida qo‘llashimiz mumkin.

O‘quvchilarga quyidagicha muammoli savollar beriladi.

G‘azallardagi badiiy tasvirlarga e’tibor bering, kim ko‘p she’riy san’at turini aniqlay oladi?

Bu muammo guruhga yoki yakka o‘quvchiga yuklanishi mumkin, jarayon davomida o‘quvchi olgan nazariy bilimini amalda qo‘llashga harakat qiladi.

Birinchidan, berilgan she’rni qayta-qayta o‘qiydi, natijada mazmunni anglaydi!

Ikkinchidan, o‘quvchi diqqatini jamlaydi va bir muammoning ustida bosh qotiradi, natijada yechim topa oladi, bundan o‘ziga ishonch tuyg‘usi ortadi.

Uchinchidan, she’riyat qoidalarini nazariy ma’lumotlarni mustahkam o‘rganib oladi, natijada shakl va mazmun mohiyatini farqlay oladi. Sababi she’riy san’atlar yo so‘z shakli bilan yoki mazmuni bilan bog‘liqku.

To‘rtinchidan, ijodkorlikka ishtiyoq uyg‘onadi, ya’ni qiziqish natijasida o‘zi ham qayta shunaqa bayt yoki she’r yozishi mumkin.

Beshinchidan, ma’lum muammoli vaziyatlar, aslida murakkab emasligini, vaziyat yechimini topa olishni o‘rganadilar.

Darslarda muammoli vaziyatlarni muhokama tarzida o‘rganish o‘qituvchini maqsad sari oson olib boradi, o‘quvchida mustaqil ishlash qobiliyatini rivojlantiradi.

O‘quvchiga tayyor tahlillarni bersak, san’tlarini ham aytib birma-bir tahlil qilib bera olamiz biz ustozlar, lekin o‘quvchining ongida bu vaqtincha saqlanadi. O‘quvchi qachonki mustaqil holda shu san’at turlarini topib ololsagina, bu hech qachon esidan chiqmaydigan qat’iy bilim bo‘ladi.

Ushbu muammolarni yeshimini topish hamda yodda saqlash uchun LABIRINT usulidan foydalanishni tavsiya qilaman.

LABIRINT				
Yuzidin lola rang eltib uyolib shahrga kirmas, Kishikim bo‘ynidin bog‘lab keturmoguncha sahrodin		Tazod		... teskari qilib takrorlash. Birinchi misrada kelgan so‘z yoki so‘birikmalari keyingi misrada o‘rnini almashtirib qaytarish
Ko‘ngulga bo‘ldi ajoyib balo qaro soching, Shikasta ko‘ngluma ermish qaro balo soching.		Tashxis		... so‘zlatish, gapirtirish (nutqlantirish) ma’nosini ifodalaydi. Ya’ni badiiy asarda hayvonlar yiki jonsiz narsalarni odamlarga o‘xshatib so‘zlatish nazarda tutilgan
Men qusheman qasru gulshan ziynati, Naqshu rangim ahli olam hayrati.		Tardu aks		... nazar solmoq ma’nosini bildiradi, she’r yoki nasrda mashhur tarixiy voqealar, afsonalar, adabiy asarlar yoki maqollarga ishora qilish san’atidir.
Senga bersun ilohi Nuh umrin, Manga ham Furqatingda sabri Ayub.		Intoq		... jonlantirish: hayvonlar, qushlar, jonsiz narsalarga inson xususiyatlarini ko‘chirish san’atidir.
Boshni fido qilg‘il ato boshig‘a, Jismni qil sadqa ano qoshig‘a, Tun-kuningni aylagali nur fosh, Birisin oy angla, birisin quyosh.		Talmih		... qarshilantirish ma’nosini bildiradi, ya’ni she’rda qarama-qarshi ma’noli so‘zlarni eltirish orqali ta’sirchan badiiy timsollar yaratiladi.

Yana shuni ta’kidlash joizki, dars jarayonida muammoli vaziyatlar berilishi bilan birga, natijaning tahlilida o‘qituvchining tanqidiy yondoshuvi ham o‘quvchilarni izlanuvchanlikka yo‘naltiradi. Shu o‘rinda jadvalli topshiriqlardan foydalanish eng faol usullardan biri hisoblanadi. Bunda o‘quvchi mustaqil ishlaydi va esda saqlaydi.

Jadvalli topshiriq: Savollarga javob bering. Jadvalni to‘ldiring.

G‘azalning qofiyalanish tartibini belgilang.	Qofiyadosh so‘zlarni va radifni aniqlang.	Ostiga chizilgan so‘zlarning mazmunini izohlang.	G‘azalning qisqacha mazmunini sharhlang.	G‘azalda qo‘llangan badiiy san’atlarni toping.

Mumtoz adabiyotda lug‘atlar ustida ishlash muhim ahamiyat kasb etadi. Quyidagi namunaviy topshiriqdan ham ijodiy foydalanish samaralidir.

1. Darslikda berilgan parchani o‘qing. Adabiy tildagi so‘z boyligingizni oshiring, eski o‘zbek adabiy tilidagi so‘zlarning bugungi kundagi muqoblini topib, yod oling.

T/r	eski o‘zbek adabiy tili	Adabiy til	T/r	eski o‘zbek adabiy tili	Adabiy til	T/r	eski o‘zbek adabiy tili	Adabiy til
1	Kajrav		6	Sipehr		11	Zalil	
2	Arimadim		7	Ravanda		12	Hiylapesha	
3	Bebok		8	Nujum		13	Xudroy	

Kaizen usuli ham adabiyot darslarida qo‘llash uchun qulay va samarali usullardan hisoblanadi. Sinf o‘quvchilari 4-5 ta kichik guruhga bo‘linadi. Har bir guruh berilgan barcha ruboiy va g‘azallarni o‘qishadi. Unda **Kaizen** usulini qo‘llab so‘zlarning lug‘aviy ma’nolarini yodda saqlaydilar. G‘azal baytlarini tahlil qiladilar.

Topshiriqni bajarish bo‘yicha ko‘rsatma

Kaizen jarayonini to‘rt bosqichda amalga oshirish mumkin. Har bir qadam nimani anglatishini qisqacha ko‘rib chiqamiz:

1. G‘azallarni tahlil qilishni, so‘zlarning lug‘aviy ma’nosini tushunishni va unga qanday erishish mumkinligini aniqlang, ya‘ni oldindan rejalashtiring;

2. Re‘jani bajaring va uning bajarilishini ta‘minlash uchun zarur bo‘lgan barcha o‘zgarishlarni amalga oshiring ya‘ni doimiy talabchanlikni yo‘qotmang;

3. Natijalaringizni tekshiring, baholang va takomillashtirish imkoniyatlarini aniqlang;

4. Oldingi bosqichlarda erishilgan natijaga qarab doimiy tuzatishlar kiritib boring.

Kaizen falsafasining eng asosiy ma’nosi Siz doimiy ravishda maqsadingiz uchun kichik nimanidur amalga oshirib borasiz.

Demak, yuqorida aytib o‘tganimizdek **Kaizen** metodining asosiy mazmuni, kuniga kichik - kichik o‘zgarishlar orqali muntazam rivojlanishga intilishdir!

Kaizen metodining mavzu uchun sxemasi

1-qadam. Maqsadga mos reja tanlash	2-qadam. Rejani bajarishdagi zaruriyat va talabchanlik	3-qadam. Natijalarni tekshirish, baholash va takomillashtirish	4-qadam. Natijaga qarab tuzatishlar kiritib borish

Xulosa shuki, mohir pedagoglar darsni san’at darajasida o‘tadilar. Muammoli ta’lim usullaridan foydalanish orqali o‘quvchining mustaqil ishlashga o‘rgatishi bilan darsning samaradorligini oshirish mumkin.

Muammoli ta’lim usulidan barcha fanlarni o‘qitishda foydalanish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.Hojiahmedov. She’riy san’atlar va mumtoz qofiya. T-1998
2. Yo‘ldoshev Q. Adabiyot o‘qitishning ilmiy–nazariy asoslari. –T.: O‘qituvchi, 1996. – 151 b
3. Avliyakulov N.X., Musaeva N.N. Modulli o‘qitish texnologiyalari. – T.: “Fan va texnologiyalar” nashrièti, 2007.
4. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta’limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari / Monografiya. – T.: Fan, 2007
5. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar / Ta’lim muassasalari pedagog-o‘qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar. – T.: “Iste’dod” jamg‘armasi, 2008.

ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА СПОРТ-СОҒЛОМЛАШТИРИШ ИШЛАРИНИ ТАШКИЛ ҚИЛИШ

Рахматов Баёзиддин Камолиддинович
Сурхондарё вилояти Денов тумани 3-умумий ўрта таълим мактаби
жисмоний тарбия фан ўқитувчиси
https://doi.org/10.5281/zenodo.7258097

Аннотация: Таълим муассасаларида жисмоний тарбия ва спорт, соғломлаштириш тадбирларини такомиллаштириш уларнинг ёш авлодни жисмонан баркамол инсон қилиб тарбиялашда катта аҳамият касб этади. Ушбу мақолада таълим муассасаларида жисмоний тарбия ва спорт, соғломлаштириш тадбирлари хисобланган эрталабки бадан тарбия, жисмоний тарбия дарслари, спорт тўгаракларидаги машғулотлар, спорт мусобақалари ва байрамларида ҳамда жисмоний машқ билан мустақил шуғулланиш ва табиат омиллари ёрдамида чиниқиб бориш масалалари ҳақида сўз боради.

Калит сўзлар: жисмоний тарбия, бадан тарбия, спорт, мустақил шуғулланиш, спорт тўгараклари, мусобақалар.

Аннотация: Важную роль в воспитании подрастающего поколения как физически здоровых людей будут играть совершенствование физического воспитания и спорта, оздоровительные мероприятия в учебных заведениях. В статье рассматриваются занятия физкультурой и спортом в образовательных учреждениях, утренняя физкультура, занятия физкультурой, спортивные секции, спортивные соревнования и праздники, а также самостоятельные упражнения и тренировки с помощью природных факторов.

Ключевые слова: физическое воспитание, физическое воспитание, спорт, самостоятельная практика, спортивные секции, соревнования.

Annotation: An important role in the upbringing of the younger generation as physically healthy people will be played by the improvement of physical education and sports, and recreational activities in educational institutions.The article deals with physical education and sports in educational institutions, morning physical education, physical education, sports sections, sports competitions and holidays, as well as independent exercises and training using natural factors.

Keywords: physical education, physical education, sports, independent practice, sports clubs, competitions.

Мамлакатимизда ёшларни жисмонан соғлом ва ақлан етук бўлиб тарбиялашда хар бир вилоят ёшлари ўртасида дўстлик, хамкорлик ва ўзаро бирдамлик ришталарини боғлаш мақсадида уч босқичли спорт мусобақалри ва

байрамлари ташкил этилган. Мактаб ўқувчилари ўртасидаги мусобақалар “Умид нихоллари”, касб-хунар коллежлари талабалари ўртасида спорт мусобақалар “Баркамол авлод” спорт ўйинлари ҳамда олий ўқув юртлари талабалари ўртасида “Универсиада” спорт мусобақалари ташкил этилди ва доимий равишда навбат билан хар бир вилоятларда ўтказилиб келинмоқда. Бу мусобақалар замирида асосан ўқувчи ёшларининг жисмоний баркамоллигини ошириш, мехнат ва мудофаа ишларига лаёқатли қилиб тарбиялаш, энг мухими соғлом турмуш тарзи кўникмаларини шакиллантиришда жисмоний тарбия ва спортдан мақсадли фойдаланиш мужассамлаштирилган. Кун тартибидаги жисмоний тарбия тадбирлари ўқувчи ва талабаларни соғломлаштириш ва жисмоний ривожлантириш жараёни узлуксизлигини таъминлаш мақсадида ўқув юртларида ўқувчи ва талабалар кун тартибида жисмоний тарбия тадбирлари белгиланади ва амалга оширилади.[1]

Кун тартибидаги тадбирлар мазмуни Жисмоний тарбия дастури асосида тузилади ва режалаштирилади. Жисмоний тарбия тадбирларини ташкил этишда жисмоний маданият жамоаси ташкилотчилик ва раҳбарлик вазифасини бошқаради. Жисмоний тарбиянинг кун тартибидаги тадбирлари ўқувчи ва талабаларни жисмоний ривожланишга соғлиғинимустаҳкамлашга ва чиниқтиришга ақлий қобилиятларни оширишга, тартиб интизомни мустахкамлашни амалга оширади. Жисмоний тарбия тадбирларини мунтазам ўтказиб бориш ўқувчи ва талабаларни ўзини —ўзи назорат қилиш, кун тартибига риоя қилиш ҳамда фаоллигини мустаҳкамлашга ўргатади. Жисмоний тарбия тадбирлари ўқув юртларининг таълим ва тарбиявий ишлари шаклларидан бўлиб ўқув машғулотлари билан мувофиқ ҳолда ташкил этилиши керак. Жисмоний тарбия жараёнида ўқитувчилар ўқувчиларни ҳаракатларга ўргатиш ва жисмоний машқлар техникасини эгаллашда таълим услублари ёрдамида таълим босқичлари вазифаларни ҳал этадилар. Таълим муассасаларида жисмоний машқларга ўргатиш жараёни таълим тамойиллари ва услубларини тўғри ташкил этилишига боғлиқ. [2]

Жисмоний тарбияда таълим жараёни ўқувчи ва талабаларни жисмоний тарбия ва спортга оид махсус билимлар билан қуроллантириш ҳамда жисмоний машқлар ва ҳаракатлар техникаси, малака ва кўникмасини ҳосил қилиш вазифаларини ҳал этади. Жисмоний тарбияда шуни кўриш мумкинки, машқларни кўп маротаба ҳар хил талаблар асосида такрорлаш ва мустаҳкамлаш жисмоний машқлар техникаси бажаришда ҳечбир қийинчилик бўлмаслигини таъминлайди. Бу билан ҳаракат малака ва кўникмалари такомиллашиб боради. Жисмоний ва спорт тайёргарлигининг асослари. [3]

Жисмоний тарбия ва спорт машғулотларида тайёргарликнинг ҳар хил турлари (техникавий, тактик, назарий, руҳий-иродали, жисмоний). Жисмоний

тайёргарлик умумий ва махсус жисмоний сифатлар: куч, тезкорлик, чидамкорлик, эпчиллик, эгилувчанлик: ёшига қараб табиий ривожланишда ўзгариш. Жисмоний ривожланиш сифатида асосий воситалар ва режалар қонуниятини таъкидлаш. [4]

Оммавий спорт ва юқори натижалар спорти, уларнинг мақсади ва вазифаси. Спорт машғулотлари ва уни айрим қисмларини тўлиқ жараёндан тузилиши. Спорт машғулотлари усулларининг негизи. [5]

Спорт тайёргарлигини режалаштириш ва ташкилий тадбирлар. Машқ бажариш машғулотлар тузилишининг яхлитлиги асоси. Эрталабки бадан тарбия машқлари. Ўқув машғулотларгача ўтказиладиган эрталабки гимнастика-таълим муассасасида ҳар куни дарслар бошлангунча ўтказиладиган жисмоний машқлардир. Машғулотларгача бўладиган гимнастика асосан тарбиявий ва соғломлаштириш масалаларини ҳал этади. Очиқ ҳавода ўтказиладиган машқлар ўқувчи ва талабалар организмини чиниқтиришга ҳам ёрдам беради. Эрталабки бадан тарбия машғулотлари ўқувчиларда тартиб интизомни ҳам тарбиялайди. Бу машғулотлардан сўнг ўқув кунини уюшган ҳолда бошлаш амалга оширилади. [6]

Эрталабки бадан тарбия машғулотларида ўқувчилар жисмоний тарбия дарслари жараёнида ўрганган умуривожлантирувчи машқларни бажарадилар. Эрталабки бадан тарбия машғулотларига шифокор таъқиқламаган ўқувчиларнинг барчаси қатнашадилар. [6]

Эрталабки бадан тарбия машғулотларига директор ва ўқув ишлари директор ўринбосари рахбарлик қилади. Машғулотни жисмоний тарбия ўқитувчилари олиб борадилар. Шу билан бирга ёшлар уюшмаси аъзолари ва фаол спортчи ўқувчилар ҳам машғулотларни ташкил этишда иштирок этадилар. Умумий жисмоний тайёргарлик ва спорт тўгараклари. иложи борича кўпроқ ўқувчи ва талабаларни, шу жумладан, жисмоний ривожланишда бир оз оқсаётган болаларни ҳам жалб этиш лозим. [7]

Спорт тўгаракларининг раҳбарлари муайян спорт турининг машғулотларини ўтказиш услубиятини, ўқувчи ва талабалар билан олиб бориладиган машғулотларнинг ўзига хослигини яхши билишлари керак. Ўқувчи ва талабаларнинг жисмониний ривожланиши ҳамда жисмоний тайёргарлигини ва ёш, жинс хусусиятларини ҳисобга олган холда улар махсус спорт муассасаларидаги жисмоний тайёргарлик ва спорт тўгаракларига жалб этилади.[8]

Спорт машғулотларини тўғри ташкил этиш ва бошқаришда, спорт турлари билан шуғулланишида организми ривожланишининг ҳамда спорт натижаларини кўрсатишни ижобий натижаларига эришиш мумкин. Умумий жисмоний тайёргарлик тўгараклари ўқувчи ва талабаларни жисмоний

ривожлантиришни таъминлаб тўгарак машғулотлари иш фаолияти, йил давомига қуйидагича режалаштириш мумкин. Кузда — ҳаракатли ва спорт ўйинлари, енгил атлетика, қишда—қишки спорт турлари, гимнастика, кураш машғулотлари, бахорда — кросс тайёргарлиги, спорт ўйинлари, ёзда—сузиш машғулотлари ўтказилади. Умумжисмоний тайёргарлик машғулотлари жисмоний тарбия асосида ташкил этилади. Мусобақалар ва спорт байрамларида ўқувчи ва талабаларнинг умумий жисмоний тайёргарлиги назорат қилиб борилади. Тўгараклар аъзолари 15 — 20 кишидан иборат бўлиши мумкин. Гурухлар ёши, жинси ва жисмоний тайёргарлиги бир ҳил даражадаги ўқувчи ва талабалардан сараланади. Тўгарак машғулотлари хафтасига бир ёки икки марта ўтказилади.[9]

Ҳар бир машғулот 60 минут атрофида бўлиши мумкин. Жисмоний тайёргарлик гурухларига гурух сардорлари тайинланиб улар мураббийларга ёрдам берадилар. Ўқув юртларда спорт турлари бўйича тўгараклар ҳам фаолият кўрсатиб, бу тўгаракларга жисмоний тайёргарликка эга, шахсий қизиқишлари ва жисмоний қобилиятли бўлган ўқувчи ва талабалар жалб этилади. Спорт тўгараклари жисмоний тарбия дастури асосида иш олиб борадилар. Спортчи ўқувчиларни жисмоний тайёргарлиги гурух машғулотлари ва спорт мусобақалари, байрамларда назорат қилиб турилади.[10]

Тўгарак машғулотлари хафтасига 3 — 4 маротаба ташкил этилиб, 60 — 90 минут давомида ўтказилади. Спорт тури бўйича зарурий жихозлар ва мутахссис тарбиячиларнинг мавжудлиги ҳамда машғулот ўтиш жойлари талабга жавоб бериши шароитида ҳам малакали спортчилар тайёрлаш имконини беради. Сайрлар, экскурсиялар, юришлар. Сайрлар, экскурсиялар ва сайёҳлик юришлар катта таълим ва тарбия аҳамиятга молик. Чунки бу жараёнда ўқувчи ва талабалар табиат, жонажон ўлка ва унинг диққатга сазовор жойлари билан танишадилар. Бу тадбирлар юриш, югуриш ва ўйин малакаларининг такомиллашишига ёрдам беради, организмни чиниқтиради ва соғлиғини мустахкамлайди ҳамда юриш—туриш, ўз—ўзига хизмат қилиш, жойни мўлжалга олиш ва хоказо кўникмаларни эгаллашга имкон яратади.[11]

Шунингдек, улар жамоани қарор топтириш ва мустахкамлашда, дўстлик, ўртоқлик хиссини тарбиялашда бебаҳо ахамият касб этади. Бу тадбирлар ёрдамида ўқувчи ва талабалар табиатнинг соғломлаштирувчи кучлари қуёш, сув, ҳаво ёрдамида чиниқиб борадилар, мамлакатимизнинг табиати ва тарихий обидалари хақида тушанчага эга бўлиб борадилар. Сайёхлик юришлар давомида ўқувчи ва талабаларда ҳаётий зарур жисмоний ҳаракатлар юриш, югуриш, сакраш, тирмашиб чиқиш, ошиб ўтиш, малака ва кўникмалари шаклланиш билан бирга табиат омиллари ёрдамида чиниқиш ва сув муолажалари сузиш, чўмилиш билан қабул қилишни амалга оширадилар.

Ўқувчи ва талабаларда сайёхлик юришларда керакли жиҳозлардан фойдаланиш ҳаракатланиш усуллари дала жойларида овқатланиш ва дам олиш, ўйинлар билан маданий хордиқ чиқариш ва спортга доир тадбирлари ўтказилади. Спорт мусобақалари ва байрамлари. Спорт мусобақалари таълим муассасасидаги жисмоний тарбияга оид дарслардан ташқари ишнинг энг қизиқарли шаклларидан биридир. Улар ўқувчи ва талабаларни уйда ва жисмоний маданият жамоаларидаги доимий жисмоний машғулотларга жалб этишга ёрдам беради, ўқувчи ва талабаларнинг жисмоний тайёргарлигини оширади, соғлиғини мустахкамлайди. Мусобақалар, дарсдан ташқари ишнинг бошқа турлари қатори, таълим муассасасининг умумий йиллик иш режасига киритилади. Ўқув йилининг бошида мусобақаларни ўтказиш муддати, қоидалари ва дастурлари аниқ белгилаб олинади. Бу муддатларни ҳисобга олган ҳолда мусобақаларга олдиндан тайёргарлик кўрилади. [12] Ҳар бир мусобақа муайян низомга мувофиқ ўтказилади. Низомда мусобақанинг мақсади ва вазифалари, вақти ва ўтказилиш жойи, қатнашувчилар, дастури, ўтказилиш шарти ва ҳисобга олиш, энг яхши иштирокчиларни ва командаларни мукофотлаш тартиби, аризалар шакли ва уларни тақдим этиш муддати кўрсатилади. Спорт байрамлари тантанали кунларга бағишланиб ўтказилиш мумкин. Спортчилардан тузилган гурухлари иштирок этадилар. Спорт байрамлари спортчиларни чиқишлари, байрамни очилиши, байроқ кўтариш, давлат ва ёшлар мадахиясини ижро этилиши, ўқувчи ва талабаларни жисмоний машқлар ва ҳаракатларни ташкил этиши, оммавий тадбирлар ўйин кулги, ғолибларни аниқлаш ғолиб жамоа ёки якка тартибдаги иштирокчини таёрланган совғалар билан табриклаш ҳамда байрам якунида уюштирилган тадбирни ёки байрамни ёпилиши маросимини тантанали равишда ўтказилади. Тадбирда иштирок этганларга рағбатлантиришлар ва файрий ёрлиқлар берилади ва келгуси тадбирларга таёргарлик кўрадилар. Мустақил машғулотлар: Ўқувчи ва талабаларнинг бўш вақтларини жисмоний тарбия ва спорт тадбирлари билан ўтказиш учун уларнинг ихтиёрий ҳаракатланиши таъминланади. Бу тадбирлар жисмоний машқлар ва ҳаракатлар билан шуғулланиш малака ва кўникмаси шаклангандан сўнг мустақил машғулотлар шаклида ўтказилиши мумкин. Ўқувчи ва талабаларни жисмоний тарбия ва спорт билан шуғулланишларининг мустақил шакли мазмунини умумжисмоний тайёргарлик машқлари, умумривожлантирувчи машқлар, жисмоний фазилатларни ривожлантириш, буюмлар, жисмлар ва жихозлардаги машқлар, спорт ва ҳаракатли ўйинлар шаклида ўтилади. Табиат қўйнига сайрлар, чўмилиш ҳамда қуёшда тобланиш муолажалари ҳам мустақил машғулотлар шаклида ташкил этилиши мумкин. Жисмоний машқларни турлари уларни бир-бирига боғлиқ гурухларга саралашдир. Бунинг натижасида таъсири ва

хусусиятларига кўра машқлар тақсимланади. Жисмоний машқлар жисмоний фазилатларни ривожлантириш ҳамда ҳаракат малака ва кўникмаларини шакллантириш даражасига мувофиқ сараланади. Улар жисмоний тарбия назарияси ва услубиёти, жисмоний машқлар биомеханикаси ва спорт физиологияси йўналишларида хар хил шаклда кўринади. Ўқувчи ва талабаларни жисмоний тарбия ва спорт тадбирларида жисмоний ривожлантириш жараёнлари жисмоний ҳаракатлар ва жисмоний машқлар бажариш ёрдамида ташкил этилади. Жисмоний ривожланиш даражалариболаларнинг тана тузилишидаги ижобий ўзгаришлар бўй ўсиши, вазн ортиши, ўпканинг тириклик сиғими кенгайи ҳисобига кўкрак қафасини айланасини ортиши, мускул кучини ортиши муносабати билан тана қисмлари мускулларнии шаклини ўзгариши, юрак қон-томир тизими ва бошқа органларнинг жисмоний юкламаларга чидамлилиги ортишида намоён бўлади ва улар доимо назорат остида бўладилар.

Адабиётлар:

1. Жисмоний тарбия. А.Нормуродов.Тошкент.1998

2. Рахимов М.М. Спорт машғулотларининг назарияси ва усулияти асослари. Дарслик. 2000 й.

3. Жисмоний тарбия ва спорт. Солиев Х. Андижон. 2001.

4. Шарипова Д.Д. и др. Формирование здорового образа жизни. Учебное пособие. 2001 г.

5. Юнусова Ю.М. Основў спортивной тренировки. Учебное пособие. 2002 г.

6. Саломов Р.С., Керимов Ф.А. Жисмоний тарбияда педагогик технологиялар. Ўқув қўлланма. 2002 й.

7. Керимов Ф.А. Спорт соҳасидаги илмий тадқиқотлар. Дарслик. 2003 й.

8. Жисмоний тарбия назарияси ва усулияти. А.Абдуллаев, Ш. Хонкелдиев.Тошкент.2005

9. Узлуксиз таълимда оммавий спорт-соғломлаштириш ишларини самарали

бошқариш.Ахматов М. С.Тошкент.2005

10. Жисмоний тарбиядан синфдан ташқари ишлар дастури. Тошкент.2005-2009

11. Усмонходжаев Т.С. ва бошқа. Болалар ва ўсмирлар спорти машғулотлари назарияси ва услубиятлари. 2005 й.

12. Жисмоний тарбиядан тўгарак машғулотлари дастури. Тошкент.2005-2009 20. Rambler: ru. Провайдердан Интернет материаллари. 2007-2009

INKLYUZIV TA’LIMNING TASHKIL ETILISHI VA UNING ISTIQBOLLARI

Rushana Xamrayeva Kozim qizi
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU
Qarshi filiali 1-bosqich magistranti Kompyuter injiniringi yo‘nalishi
Pokiza Jalolova Muzaffarovna
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Qarshi filiali
Axborot-ta’lim texnologiyalari kafedra mudiri
https://doi.org/10.5281/zenodo.7258116

Annotatsiya: Ushbu ishda inklyuziv ta’limda raqamli texnologiyalarni qo‘llash samaradorligi, inklyuziv ta’limda zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash samaradorligi va istiqbollari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: inklyuziv ta’lim, raqamli texnologiya, masofaviy ta’lim va interaktiv xizmatlar, elektron pedagogika.

Har qanday jamiyatda yosh avlodning har tomonlama yetuk, komil inson bo’lib voyaga yetishiga, munosib fuqarolar sifatida ulg’ayib, davlat taraqqiyoti va gullab-yashnashiga ulush qo’shishlariga umid bog’lanadi. Butun jahon bolalariga tegishli bo’lgan bolalar huquqi haqidagi Konventsiyada, O’zbekiston Respublikasining «Ta’lim to’g’risida»gi Qonunida, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» singari qator muhim me’yoriy hujjatlarda ko’rsatilishicha, barcha bolalar, shu jumladan, jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bor bolalar ham mehnat qilish, ta’lim olish, hayotda o’z o’rnini topish huquqlariga egadirlar.Respublikamizda ijtimoiy tashabbuslarni qo’llab-quvvatlash jamg’armasi tomonidan 2007 yildan buyon «O’zbekistonda Inklyuziv ta’lim» loyihasi amalga oshirib kelinmoqda. Loyiha hamkorlari: O’zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi; Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligi; Navoiy shahridagi «Umr» imkoniyati cheklangan bolalarga yordam berish markazi, Samarqand shahridagi «Hayot» nomli nogironlarga yordam berish markazi, Jizzax shahridagi «Istiqbolli avlod» markazi, Qashqadaryo viloyatining Qarshi shahridagi «Umid» tashabbuslarga ko’mak berish va rivojlantirish markazi, Termiz shahridagi «Imkon» imkoniyati cheklangan bolalar va oilalarga ko’mak berish markazi, Farg’ona viloyatining Qo’qon shahridagi «Ziyo» maxsus zaruratli bolalarga ijtimoiy ko’mak berish markazi, maqsadli hududlar hokimliklari; O’zbekistondagi Shvetsariya elchixonasidir. Ushbu loyiha doirasida Toshkent, Guliston, Qarshi, Samarqand, Termiz, Andijon, Qo’qon, Nukus, Buxoro, Urganch shaharlaridagi maktabgacha ta’lim muassasa, maktab, kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarda imkoniyati cheklangan bolalar aralash guruhlarda inklyuziv texnologiya asosida ta’lim-tarbiya

olishmoqda. Mamlakatimizda imkoniyati cheklangan bolalar ta’limtarbiyasi va ularning ijtimoiy hayotga moslashuviga qulay sharoitlar yaratib berilmoqda. Ularni jamiyatga integratsiya qilish, avvalo, imkon qadar salomatligini tiklash maqsadida «Imkoniyati cheklangan bolalar uchun umumiy ta’lim loyihasi» asosida ish yuritib kelinmoqda. Bunda, asosan, inklyuziv ta’lim imkoniyatlaridan foydalanish ko’zda tutilmoqda. Inklyuziv ta’limni chuqurroq o’rganish, u bilan bog’liq muammolarni aniqlash, samaradorlik jihatlarini asoslab berish dolzarb ilmiy muammoga aylanmoqda. Chunki inklyuziv ta’lim usuli barcha bolalarning ruhiy-jismoniy holatidan qat’i nazar ta’lim jarayonida to’laqonli ishtirok etishini ta’minlashga qulay imkoniyat yaratadi. Ayniqsa, u alohida yordamga muhtoj bolalarning atrofdagilar bilan muloqotda bo’lishi, ijtimoiy muhit talablariga javob bera oladigan bo’lib ulg’ayishi, o’z kundalik-maishiy ehtiyojini qondira olish ko’nikmalarini egallashi, hayotga moslashib, umumta’lim maktablarida sog’lom tengdoshlari bilan teng sharoitlarda o’qiy olishi, ular bilan o’zaro do’stona munosabatga kirishishi, darslarni o’z vaqtida o’zlashtirishi, topshiriqlarga mas’uliyat bilan yondashishi uchun qulayliklar tug’diradi. Shuni nazarda tutib, mazkur monografiyada inklyuziv ta’limning o’ziga xos samaradorlik belgilarini asoslash, uni oiladan, maktabgacha ta’lim muassasalaridan boshlab oliy ta’limgacha bo’lgan uzluksiz ta’lim jarayonida yo’lga qo’yish uchun zaruriy pedagogik-psixologik yondashuv yo’llarini aniqlash ko’zda tutildi. Shunisi borki, inklyuziv ta’lim nafaqat nogiron bolalar o’rtasida, balki sog’lom turmush tarziga asoslangan oilada tarbiyalanayotgan bolalar o’rtasida, maktabgacha ta’lim muassasalarida, maktablarda, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida ham fanlarni o’zlashtirish darajasi turlicha bo’lgan o’quvchilar uchun qulay imkoniyatlar yarata oladi. U orqali o’quvchilarning bir-biriga ijobiy ta’sir ko’rsata olishiga erishish yaxshi natija keltiradi. Lekin ba’zan sog’lom bolalar bilan nogiron bolalar orasidagi tafovut sezilib qolishi, nogiron bola o’z tengdoshlariga qo’shilmay, tortinishi, o’z imkoniyatlaridan foydalana olmasligi sabab uyalib turishi, kamsitilishi, ayrimlari esa oilada haddan tashqari erka o’stirilganligi tufayli qaysarlik, injiqlik qilishi kuzatiladiki, bunday sharoitda ta’lim amaliyoti va ta’lim xizmatlarini tashkillashtirishda o’zgarishlar qilishga to’g’ri keladi. Bularning barchasi inklyuziv ta’lim jarayoni 6 o’ziga xos murakkabliklarga ega ekanligini va shu sohada ishlaydigan o’qituvchilar, sinf rahbarlari, tarbiyachilar, kasbiy mahorat ustalari zimmasiga jiddiy talablar va mas’uliyatlar yuklashini oydinlashtiradi hamda tadqiqot mavzusining serqirra va murakkabligidan dalolat beradi. Olib borilgan izlanishlar va tadqiqotlar asosida inklyuziv ta’lim texnologiyasiga quyidagicha ta’rif berish mumkin: «Inklyuziv ta’lim texnologiyasi (ITT) – bu uzluksiz ta’lim tizimida maxsus yordamga muhtoj bolalar va yoshlar uchun mehribonlik bilan tizimli yondashadigan, individuallashgan, sharoitga qarab o’zgaruvchan, maxsus o’quv dasturlari, materiallari, vositalari va metodlari yordamida ta’lim-tarbiyaning pedagogik-

psixologik jihatlarini zamonaviy talablarga mos olib boriladigan jarayondir».1 Inklyuziv ta’limni oiladan maktabgacha ta’lim muassasalarida, umumta’lim maktablarida, kasb-hunar kollejlari va oliy o’quv muassasalarida joriy etish natijasida imkoniyati cheklangan insonlarga nisbatan umumiy munosabat o’zgarayotgani ma’lum bo’ldi. Bu esa ularning hayotda muvaffaqiyat qozonishi uchun omil bo’lib xizmat qilishi mumkin. Inklyuziv ta’lim imkoniyati cheklangan bolalarga umumta’lim jarayonidagi barcha tadbirlarda faol va muntazam ishtirok etish imkonini beradi. Buning natijasida stereotiplar shakllanishining oldi olinib, ko’rsatiladigan individual yordam imkoniyati cheklangan bolalarni jamiyatdan ajratib qo’ymaydi. Ular olgan ko’nikmalarini umumlashtirish imkoniga ega bo’lishadi. Imkoniyati cheklangan insonlar uchun ishlab chiqilgan va jamiyatga rejali asosda joriy etilayotgan inklyuziv ta’lim strategiyasi o’qishning uzluksiz va muttasilligini ta’minlaydi. Oila – bolalar bog’chasi – maktab – kasbhunar kolleji – ish bilan ta’minlash – ushbu tizim kelajakda ota-onalarga imkoniyati cheklangan bolalarini umumta’lim muassasalari va oliy o’quv yurtlariga bemalol, xavfsiramasdan olib kelishlari uchun zamin yaratadi.

Inklyuziv ta’lim rasmiy ta’lim tushunchasidan ancha kengroq. Bu ta’limda ko‘proq o‘qishda, o‘rganishda imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlanadi. Inklyuziv maktab o‘qituvchisi va inklyuziv bog‘chada tarbiyachi qanday sifatlarga ega bo‘lish kerak? Inklyuziv ta’limda o‘qituvchining kasbiy mahorati bosh omil hisoblanadi. Avvalo O‘qituvchi inklyuziv tafakkurga ega bo‘lishi va ta’lim sifati mas’uliyatini o‘z zimmasiga olishi shart.Inklyuziv ta’lim berish o‘qituvchilar ishi sifatining asosiy mezonlari – o‘qituvchi o‘quvchilarning turli toifada ekanligiga qaramay barcha bolalarning huquqini himoya va hurmat qilishi.Yana bir sifat – hamkorlikni yo‘lga qo‘yish. Chunki o‘qituvchilar uchun hamkorlik va o‘zaro fikr almashish muhimdir.O‘qituvchi o‘z faoliyatini tizimli baholab borishi, muntazam malakasini oshirishi, alohida ta’lim ehtiyojlari bor bolalarning intizomli va muassasalar aro guruhlar bilan samarali ishlashi uchun liderlik hamda boshqaruv malakalarini qo‘llash, muammolarni birgalikda hal qilish, keng qamrovli maktab hamkorligini yo‘lga qo‘yish kabi xislatlarga ega bo‘lish kerak.

Ma’lumki, inklyuziv ta’limda maxsus ta’lim ehtiyojidagi bolalar barcha bolalar bilan birga ma’lum maqsadda turli qobiliyatlarga muvofiq guruhlashtiriladi.

Maxsus ta’lim aqliy, jismoniy tashqi ko‘rinishga muvofiq amalga oshirilsa, inklyuziv ta’lim bolaning qobiliyati va imkoniyatlariga ko‘ra belgilanadi.Maxsus ta’lim o‘qitishning maxsus va alternativ dasturlari orqali o‘qitilsa, inklyuziv ta’lim bolaga yo‘naltirilgan va moslashtirilgan, yo‘riqnomali, barchaga mo‘ljallangan o‘quv dasturi asosida o‘qitiladi.Inklyuziv ta’limning o‘ziga xos muhim jihati shundaki, bolalar va o‘qituvchi bir birlaridan o‘rganishadi hamda muammolarni birgalikda hal etishadi.Bu ta’lim bir tomonlama bo‘lmasligi kerak. Imkoniyati cheklangan bolada

o‘ziga bo‘lgan ishonchni oshirish, ko‘nikma va qobiliyatini rivojlantirish, yoshligidan o‘rganishni rag‘batlantirishda oila ishtiroki muhim.

Inklyuziv ta’lim jarayonida ota-onalar bilan ishlash ham muhim. Ta’kidlash joizki, alohida ehtiyojli ota-onalarga ularning farzandlari jamiyatning bir bo‘lagi bo‘lish huquqiga ega ekanini tushuntirish, bu ishonchni ularning ongiga yetkazish kerak. Mamlakatimiz ta’lim tizimida bu masalaga alohida e’tibor qaratiladi. 2020-yil oktyabrda qabul qilingan Prezidentimizning alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yana-da takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi qarori bunga misol bo‘la oladi.Unga ko‘ra, tajriba-sinov tariqasida shaharlarda va Toshkent shahrining tumanlarida joylashgan bittadan maktablarda inklyuziv ta’lim joriy qilinadi.Qoraqalpog‘iston respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida joylashgan bittadan maktablarda alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun boshlang‘ich tayanch sinflar ochiladi.

САВОД ЎРГАТИШ ЖАРАЁНИДА ИННОВАЦИОН УСУЛЛАР

Н.А.Мўминова
Фарғона вилояти Қува тумани
59-мактаб бошланғич синф ўқитувчиси
https://doi.org/10.5281/zenodo.7258120

Резюме: Ушбу мақолада бошланғич синфда савод ўргатиш жараёни учун самарали натижаларга олиб келадиган инноватцион усуллар ёритиб берилган.

Таянч сўзлар: Инноватцион ёндашув, савод ўргатиш жараёни, самарали натижа, бошланғич синф, ўқувчи, товуш, ҳарф, таълим, тарбия.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёев таъкидлаганидек, «Олдимизда турган энг муҳим ва долзарб масалалардан бири – юксак маънавиятли, замонавий билим ва касб-ҳунарларга, ўз мустақил фикрига эга бўлган ёшларни миллий ва умуминсоний қадриятлар руҳида тарбиялашдан иборат эканини барчамиз яхши тушунамиз»[1] . Муҳтарам Президентимиз Ш.М.Мирзиёев томонидан ҳар бир жабҳага инноватцион ёндашишнинг талаб қилиниши замирида келажак авлодни баркамол қилиб тарбиялаш масаласи ётганлигини англаш вақти етиб келди. Бугунги кунда бошланғич синф ўқитувчилари ҳам инноватцион ёндашган ҳолда таълим-тарбия жараёнини ташкиллаштирииш замон талабидир**.**

[1]Мирзиёев Ш.М. Демократик ислоҳотларни изчил давом эттириш, халқимиз учун тинч ва осойишта, муносиб ҳаёт даражасини яратиш – барқарор тараққиёт кафолатидир. / Тадбиркорлар ва ишбилармонларҳаракати – Ўзбекистон Либерал-демократик партиясининг VIII съездидаги маърузаси. // «XXI ASR», 2016 йил 21 октябрь, 44-сон.

[2]Қосимова К., Матжонов С., Ғуломова Х., Йўлдошева Ш., Сариев Ш. Бошланғич синфларда она тили ўқитиш методикаси.Т., ТДПУ. 2008 58-бет.

Бошланғич синф ўқитувчилари мактабга қадам қўйган болани педагогик-психологик жиҳатдан ўрганиб, ўқиш кўникмаларини “Алифбе” дарслиги асосида сабр ва матонат билан ҳосил қилади.[2]Унли ва ундош товуш-ҳарфлар таҳлил-таркиб методи орқали ўргатилган.Биринчи синфларда товушларни ўргатиш - товушни ҳарфга, ҳарфни товушга айлантириш - ақлий фаолияти мураккаб жараён бўлиб, айрим устозларимиз бунга эътибор беришмайди, натижада бола товуш билан ҳарфни фарқига бормайди. Товуш савод ўргатишнинг асоси бўлиб, ҳар бир бошланғич синф ўқитувчиси савод ўргатиш даврида инноватцион усуллар орқали сўз ва бўғинларни товуш томонидан анализ ва синтез қилишни, товуш ва уларнинг артикулятциясини анализ1

қилиш машқлари орқали ўргатишни, дикция (равшан, бурро гапириш) устида ишлашни ва логопедик ишларни олиб боришни билиши лозим. Савод ўргатиш жараёнида унли ва ундош товушларнинг шакли ва орфоепиясини самарали усуллар, воситалар орқали ўқувчилар онгига етказишни, интерфаол методларини тавсия этамиз.

1.Ўқувчиларнинг бугунги дарсда олган билимларини текшириш мақсадида: **“Кластер”**методи доскада ўйин тарзида ўтказилади. “Қабул қилиб олдим” ўйини ўтказилади.Ўйин қуйидаги тартибда ташкил этилади:Столга шу кунгача барча ўрганилган, бир нечта ўрганилмаган кесма ҳарфлар аралаштирилиб қўйилади. Икки ўқувчи ўз дўконларида ҳарфларни қабул қилиб оладилар. Дўконлар болаларга қарши қаратилаган парталар бўлиб, мазкур парталар тўрда, бошқа партaлардан 0,5-1млар чамаси ораликда ажралиб туради. Биринчи дўконда фақат унли, иккинчи дўконда фақат ундош ҳарфлар қабул қилинади. Ўқувчилар дўконга келиб олган ҳарфларининг номини, ҳарф товуш хусусиятларини айтиб берадилар ва кесма ҳарфларни дўкондорга топширадилар. Жавоблар қониқтирмаса, дўкондор (ўқувчи) таърифни тўлдиради. Ўтирган ўйин иштирокчиларининг берган жавобларига қўшимча қилишлари мумкин. Ўйин сўнггида ўқувчилар фаолиятига баҳо берилиб, ўрганилган ҳарфлар миқдори аниқланади.

Бўғин ўқиш ва сўз тузишга доир машқлар ечиш.Ҳарф териш картонида да, до, ди, ду каби бўғинлар тузиб кўрсатилади. Шу бўгинларга бўғин қўшиб сўз ҳосил қилинади:

Дала, дада, даҳа в. ҳ. к.

Доно, доим, доир в. ҳ. к.

Дутор, дугона в. ҳ. к.

Диван, диёр, Динора в. ҳ. к

“КУЧ БИРЛИКДА” ЎЙИНИ

Бу ўйинни ўтказиш учун ҳар бир гуруҳ учун алоҳида-алоҳида расм берилади.

Масалан:

1-гуруҳга: гулзорда меҳнат қилаётган болаларнинг расми.

2-гуруҳга: “Мустақиллик байрами” акс этган сур`ат.

3-гуруҳга эса мактаб боғида меҳнат қилаётган ўқувчиларнинг расми берилади.

Бунда ҳар бир гуруҳ алоҳида ўз мавзуларига расм асосида матн тузадилар.Ҳар бир гуруҳ аъзоси матн тузишга ўз ҳиссасини қўшишга ҳаракат қилади.Берилган вақт мобайнида қайси гуруҳ тез,чиройли ва мазмунли матн тузса,шу гуруҳга рағбат карточкаси берилади.

Капалак	Укки	Банк
Камалак	Икки	Илк
Каптар	Ҳикоя	Билак
Калит	Ака	Тилак

Фойдаланилган адабиётлар:

1.Мирзиёев Ш.М. Демократик ислоҳотларни изчил давом эттириш, халқимиз учун тинч ва осойишта, муносиб ҳаёт даражасини яратиш – барқарор тараққиёт кафолатидир. / Тадбиркорлар ва ишбилармонлар ҳаракати – Ўзбекистон Либерал-демократик партиясининг ВИИИ съездидаги маърузаси. // «XXI АСР», 2016 йил 21 октябрь, 44-сон.

2.Абдуллаева Қ. ва бошқалар. “ Савод ўргатиш дарслари.” Т., “Ўқитувчи ”, 2012 й.

3.Қосимова К., Матжонов С., Ғуломова Х., Йўлдошева Ш., Сариев Ш. Бошланғич синфларда она тили ўқитиш методикаси.Т., ТДПУ. 2008 58-бет.

4.Сафарова Р, Иноятова М, Шокирова М, Шермаматова Л ”Алифбе” 1-синф учун дарслик. Тошкент “Маънавият”-2018 й.

ХОДИМЛАРГА БЕРИЛАДИГАН РАҒБАТЛАНТИРИШЛАР АУДИТИНИНГ ЗАРУРИЯТИ

Нажимова Нигора Ибрагимовна
СамИСИ “Магистратура” бўлими МА-120 гуруҳ магистранти
Илмий рахбар: доцент в.б.PhD **Д.Д.Пашаходжаева**
https://doi.org/10.5281/zenodo.7258134

Аннотация: Ушбу мақола корхоналарда ходимларга бериладиган рағбатлантиришлар аудитининг зарурияти, унда аудитнинг вазифалари ва амалга ошириш чоралари масалалари куриб чикилган.

Калит сўзлар: Меҳнат ҳақи, аудиторлик текшируви, корхоналар, ҳисоб даври, баҳолаш, меъёрий ҳужжатлар.

Аннотация: В данной статье рассматривается необходимость проведения аудита системы стимулирования работников на предприятиях, в том числе цели аудита и меры реализации.

Ключевые слова: Заработная плата, аудит, предприятия, отчетный период, оценка, нормативные документы.

Abstract: This article discusses the need for an audit of incentives for employees in enterprises, including the objectives of the audit and implementation measures.

Keywords: Salary, audit, enterprises, accounting period, evaluation, regulatory documents.

Мамлакатимизда амалга оширилаётган иқтисодий ислоҳатлар аҳоли фаровонлигини оширишга хизмат қилмоқда. Президентимиз ҳам қатор маърузаларида аҳоли даромадларини ошириш бўйича таъкидлаб келмоқда, чунончи “Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегиясида ижтимоий адолат тамойили асосида аҳолининг ёрдамга муҳтож қатламларини қўллаб қувватлаш ва камбағалликни бартараф этиш давлат сиёсатининг устувор йўналиши этиб белгиланган. Аслида бу юртимиздаги халқпарвар ишларнинг узвий давомидир”[44].

Бугунги жадал ривожланаётган иқтисодий муносабатлар шароитида эркин бозор муносабатларининг қонуний ва асосли ташкил этилишида аудит хизматининг ўрни беқиёс.

Меҳнатга ҳақ тўлаш бўйича ҳисоб-китобларни аудиторлик текширувидан ўтказишнинг мақсади қуйидагиларни аниқлашдан иборат:

[44] https://president.uz/uz/lists/view/5160

тўлиқлик – барча муомалаларнинг бухгалтерия ҳисоботида акс эттирилганлиги, ҳисобга олинмай қолган ҳисоб-китоблар йўқлиги;

мавжудлик – баланс тузиш санасига меҳнат ҳақи, ҳисобдор суммалар ва бошқалар бўйича мажбуриятлар мавжудлиги ва ушбу мажбурият суммаларнинг катта-кичиклиги;

ҳуқуқ ва мажбуриятлар – меҳнатга ҳақ тўлаш бўйича ҳисоб-китобларга доир мажбуриятлар суммалари қонунийлиги ва тўғрилиги учта (шаклан, қонунийлик ва ҳаққонийлик) мезонларидан келиб чиққан ҳолда;

баҳолашлар – меҳнатга ҳақ тўлаш бўйича ҳисоб-китобларга доир мажбуриятларнинг меъёрий ҳужжатларга мувофиқ равишда баҳоланганлиги;

аниқлиги – меҳнат ҳақи ва ундан ушланадиган суммалар, хизмат сафари бўйича суткалик харажатлар суммаси ва бошқаларнинг тўғри ҳисобланганлиги, бухгалтерлик ҳисоботи маълумотларининг синтетик ва аналитик ҳисоб регистрларидаги маълумотларга мослиги;

ҳисоб давринг чекланганлиги – меҳнатга ҳақ тўлаш бўйича ҳисоб-китобларга доир барча мажбуриятлар қачон вужудга келган бўлса, айнан мана шу ҳисоб даврида акс эттирилганлиги;

тақдим этиш ва баён қилиш – меҳнатга ҳақ тўлаш бўйича ҳисоб-китобларга доир мажбуриятларнинг барчаси ҳисоб ва ҳисоботга оид меъёрий ҳужжатларга мувофиқ баён қилинган, туркумланган ва тақдим қилинганлиги.

Қўйилган мақсадга эришиш учун аудиторлик текширувида қуйидаги вазифалар ҳал этилиши лозим:

1-жадвал

Меҳнатга ҳақ тўлаш бўйича ҳисоб-китоблар аудитида ҳал этиладиган вазифалар

Аудитнинг вазифалари	Меҳнатга ҳақ тўлаш бўйича ҳисоб-китобларни аудиторлик текширувидан ўтказиш бўйича саволлар
1. Меҳнатга ҳақ тўлаш бўйича ҳисоб-китобларга доир муомалаларни ҳисобга олиш ва ички назорат самарадорлигининг ҳолатини баҳолаш	Меҳнат ҳақи тўлаш ва ҳисобдор суммаларни беришни белгиловчи ҳужжатларнинг мавжудлиги ва таҳлили. Кадрлар, иш вақти ва ишлаб чиқарилган маҳсулот (иш, хизмат) ҳисобини ҳужжатлаштиришнинг ташкил этилишини баҳолаш. Меҳнатга ҳақ тўлаш ва меҳнат ҳақидан ушланадиган суммалар турларининг классификатори (туркумлагичи) мавжудлиги. Меҳнат ҳақи ва ҳисобдор суммалар берилиши устидан назорат.

	Ҳисобот кўрсаткичларининг синтетик ва аналитик ҳисоб регистрлари маълумотларига мослиги.
2. Ходимлар билан меҳнат ҳақи бўйича ҳисоб-китоблар тўғрисидаги ҳисоб ва ҳисобот маълумотларининг ишончлилигини текшириш.	Ҳақ турлари бўйича меҳнат ҳақи ҳисоблашнинг тўғрилиги. Меҳнат ҳақидан ушланадиган суммалар тўғрилиги. Меҳнат ҳақи харажатларини таннарх таркибига қўшишнинг асослилиги. Солиққа тортиш мақсадида жами даромадни ҳисобга олишнинг тўғрилиги.
3.Давлат бюджетидан ташқари фондлар билан ҳисоб-китобларни ҳисоблашнинг тўғрилиги	Бюджетдан ташқари фондларига тўловларни ҳисоблаш базасини аниқлашнинг тўғрилиги.
4. Ҳисобдор шахслар билан ҳисоб- китобларга доир ҳисоб ва ҳисобот маълумотларининг ишончлилигини текшириш.	Ҳисобдор шахсларга бўнак беришнинг асосланганлиги. Бўнак ҳисоботларининг ўз вақтида тақдим этилиши. Ҳисобдор суммаларни ишлатишнинг ҳужжатлар билан асосланганлиги. Солиққа тортишнинг тўғрилиги. Ҳисобдор шахслар билан ҳисоб-китобларни бухгалтерия ҳисобида акс эттиришнинг тўғрилиги.
5. Ходимлар билан бошқа муомалалар бўйича ҳисоб-китоблар тўғрисидаги ҳисоб ва ҳисобот маълумотларнинг ишончлилигини текшириш.	Кредитга сотилган товарлар учун ҳисоб-китобларни ҳисобга олишнинг тўғрилиги. Қарз беришнинг қонунийлиги ва асослилиги. Камомад ва ўғирликларнинг айибдор шахслар зиммасига тўлиқ олиб борилиши. Моддий зарарни қоплашга доир ҳисоб-китобларни ҳисобга олишнинг тўғрилиги.
6.Ички ҳисоб-китоб муомала-ларини текшириш натижалари бўйича умумий хулоса	Текширув бўйича ишчи ҳужжатлар материалларини умумлаштириш ва таҳлил қилиш. Хатоларнинг катта- кичиклигини (жиддийлигини) аниқлаш. Хатоларнинг ҳисобот ишончлилигига таъсирини аниқлаш.

Корхоналар амалиётида меҳнатга ҳақ тўлаш бўйича қуйидаги камчиликлар кўпроқ учраганлиги сабабли аудитор аудит жараёнида ушбу камчиликларга алоҳида эътибор бериш лозим: ойлик маошлари ва ставкалар ҳажмининг штат

жадвали ва лавозим маошлари схемасида белгиланганидан ошиб кетиши; иш ҳақига ҳар хил қўшимча ва устамаларнинг ноқонуний тайинланиши; қўшиб ёзишлар; ишбай расценкаларнинг ошириб кўрсатилиши; ишчилар ва муҳандис—техник ходимлар меҳнатига ҳақ тўлаш учун белгиланган меҳнат ҳақи фонди ҳисобидан котибалар, шахсий ҳайдовчилар ва ҳар хил бошқарув хизмати ходимларига ҳақ тўлаш кабилар. Масалан, “ASIA CARPET TEXTILE” МЧЖ ходимларига ҳисобланган меҳнат ҳақини аудиторлик текширувидан ўтказишда қуйидагича натижалар аниқланиши мумкин:

2-жадвал

“ASIA CARPET TEXTILE” МЧЖнинг ходимларига ҳисобланган меҳнатЁ ҳақи бўйича аудиторлик текшируви натижалари тўғрисида маълумот

№	Ходимларнинг исми,шарифи	Корхона маълумотлари бўйича	Аудиторлик текшируви бўйича	Четланиш
1	Ганиев Феруз Нормаматович	3 000 000	3 000 000	0
2	Махмудов Фарход Мирмадийевич	1 785 000	1 785 000	0
3	Хамрокулов Азим Равшанович	1 800 000	1 800 000	0
4	Мажидов Хотам Хамидович	1 455 000	1 455 000	0

Ноқонуний қўшимча ҳақ белгилаш, айрим ҳолларда ҳисобланган меҳнат ҳақини ўзлаштириш, ўзлаштириш мақсадида материал қийматликларни сотиб олиш ёки сметада кўзда тутилмаган харажатларни ёпиш учун сохта ходимларни ишга қабул қилиш ҳоллари ҳам учрайди.

Иш ҳақининг белгиланган вақтда берилмаслик ҳоллари мавжудлиги, агар шундай ҳолатлар бўлса, унинг сабаблари (ўз вақтида молиялаштирилмаганлик, ҳужжатларни банкка ўз вақтида тақдим қилмаслик ва бошқалар) ни аниқлаш зарур.

Ҳисоблашув-тўлов ва тўлов ведомостларидаги суммаларнинг жамланишини арифметик текшириш мақсадга мувофиқ. Бу ведомостларда ҳар бир алоҳида олинган ходим бўйича суммалар тўғри жамланганида, жами суммани атайлаб ошириб ёзиш ҳолларини аниқлашга имкон беради. Бундай хатолар нафақат меҳнат ҳақи харажатларининг ошиб кетишига, балки пул маблағларининг ўзлаштирилишига ҳам олиб келади.

Меҳнат ҳақи ҳисоб-китобини текширгандан сўнг меҳнат ҳақига доир харажатларни счетлар, маъсулият марказлари ва таннарх ҳисоблаш объектлари бўйича гуруҳлаш ва умумлаштиришнинг тўғрилигини аниқлаш зарур.

Республикамизда амалга оширилаётган иқтисодий ислоҳотларнинг туб негизида аҳолини ижтимоий ҳимоя қилиш, қилган меҳнатига яраша тақдирлаш ҳамда турмуш фаровонлигини ошириш масаласи ётади. Ушбу масалаларни ҳал этиш борасида бухгалтерия ҳисоби соҳасида ҳам ижобий ишлар амалга оширилмоқда, ҳусусан инсон меҳнат қилар экан, унинг меҳнати ҳисобини тўғри ташкил этиш ва тўловлар ҳамда ажратмаларни ўз вақтида олиб туришни тақозо этади. Меҳнатга ҳақ тўлаш бўйича ҳисоб-китобларни аудиторлик текширувидан ўтказишдан асосий мақсад бухгалтерлик ҳисоботидаги ички ҳисоб-китоб муомалаларига доир меҳнат ҳақи бўйича кредиторлик ва дебиторлик қарзлари акс эттириладиган бўлимнинг ишончлилиги, қўлланилаётган ҳисоб ва солиққа тортиб услубиётининг амалдаги меъёрий ҳужжатларга мувофиқлиги тўғрисида фикр шакллантиришдан иборат.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1.Ўзбекистон Республикаси қонуни. Аудиторлик фаолияти тўғрисида. 2021 йил 25 февраль, № ЎРҚ-677

2.Абдуллаев Р.А. Бухгалтерский учет и аудит. Учебное пособие. –Ташкент, 2011;

3. Абдукаримов Б.А. Корхона иқтисодиёти. Дарслик.//-Т.: Фан, 2005. - 288 б.;

4.Аудит. Ўқув қўлланма /Тўлахўджаева М.М., Жўраев Т.И, Гулямова Ф.Г.ларнинг умумий таҳрири остида. – Т.: БАМА нашр. Маркази. 1 том

5.Мусаев Ҳ.Н. Аудит. Дарслик. – Т.: Молия, 2003

6.https://president.uz/uz/lists/view/5160

САЙЙИД ИСЛОМХЎЖА – ХИВА ХОНЛИГИНИНГ БОШ ВАЗИРИ

Рахманова Мархабо
Эрназарова Мунира
Болтаева Моможон
Хива туманидаги 12-умумий
ўрта таълим мактаби ўқитувчилари
https://doi.org/10.5281/zenodo.7258147

Аннотация: Ушбу мақолада Хива хонлигининг бош вазири Саййид Исломхўжанинг ҳаёт фаолияти ҳақида сўз юритилади. Саййид Исломхўжанинг бош вазир сифатида амалга оширган ислоҳотлари ва у бино қилдирган меъморий обида ҳақида маълумот берилган.

Калит сўзлар: Хива хонлиги, Ҳазорасп, бош вазир, Саййид Исломхўжа, ислоҳот дастури, саноат, Исломхўжа мадрасаси ва минораси.

Исломхўжа Иброҳимхўжанинг иккинчи ўғли бўлиб, 1872 йилда туғилган. Бадавлат ва обрўли оилада ўсган Исломхўжа ёшлигидан яхши тарбия олди. Олдин у махсус ўқитувчилар ёрдамида савод чиқарди, кейинчалик эса мадрасада ўқиди.

Отаси 1882 йилда вазир лавозимига тайинланиб, оиласи Хивага кўчгандан сўнг, ёш Исломхўжа хоннинг фарзандлари билан бирга саройда тарбияланди. 1889 йилда вазир Иброҳимхўжа вафот қилган вақтда унинг ўғли 15 ёшлик Исломхўжа хонликнинг Бош закотчиси ҳисобланарди.

Амакиси Сайид Абдуллахўжа вазир қилиб тайинлангач, Исломхўжа Хазораспга ҳоким қилиб юборилди. Хазораспдаги 10 йиллик фаолияти давомида Исломхўжа етук давлат арбоби сифатида танилди. Ниҳоят 1898 йилда Муҳаммад Раҳимхон уни яқинда вафот қилган бош вазир Сайид Абдуллахўжанинг ўрнига тайинлайди.

Исломхўжа 26 ёшида бош вазир бўлган XX аср бошларидаги ўта мураккаб сиёсий шароитда Сайид Исломхўжа хонликда саноат ва қишлоқ хўжалик ишларини йўлга қўйиш, савдо-сотиқни ривожлантириш ва маданий ҳаётни жонлантириш ишларига катта эътибор берди.

У 1903, 1907, 1911, 1913 йилларда Россия шаҳарларига сафар қилган вақтида рус маъмурлари билан фойдали музокаралар олиб борди ва кўплаб шартномаларни имзолади. Натижада Урганч ва Хонқа шаҳарларида янги ёғ заводлари қурила бошланди. Урганчда "Рус-Осиё банки" бўлими очилди. Хонликнинг Хива, Янги Урганч, Тошҳовуз, Хонқа, Хазорасп ва бошқа шаҳарларида капиталистик саноат ишлаб чиқариш корхоналари қурила

бошланди. Исломхожанинг хонликда обрўси ва салоҳияти кундан - кунга ошиб борди. У кўп марта Муҳаммад Раҳимхоннинг топшириғига кўра туркман сардорлари билан музокаралар юритди.

1910 йилда Вазири Акбар Исломхўжа хоннинг янги халқнинг осойишта ва фаровон турмуш кечириши билан боғлиқ бўлган барча масалалар ўрганилиб, тез фурсатда ҳал қилинсин деган фармонини эълон қилдирди. Ушбу ишларни амалга оширишни хурматли Исломхўжа Иброҳимхўжа ўғлига топширдик" дейилади фармонда.

Исломхўжа шаҳарда маъмурий бинолар қуришга ҳам бошчилик қилди. Унинг ташаббуси билан 1910-1912 йилларда янги услуб мактаби, почта-телеграф биноси, мадраса ва минора, ҳамда шаҳар касалхонаси қурилди.

Саййид Исломхўжа ҳаётлик даврида Ичан Қалъада мадраса ва минора қурдиради (1908—10). Мадраса(42,8*32,5)нинг бош тарзи икки қаватли. Ҳовли (23×20) атрофи бир қаватли кичик ҳужралар (жами 42 та) билан ўралган. Бош тарзининг ҳовлига қараган иккинчи қаватида айвон бор. Мадрасанинг жануби шарқидаги масжид гумбазли, меҳроби кошин ва ганчкори нақш билан безатилган. Олд томонида Хивадаги энг баланд минора (44,6 м) қад кўтарган. Асосининг диаметри —9,5 м. Юқорига томон ингичкалашиб боради. Кўк, яшил рангли нақшлар билан бел-боғлар ишланган. Қафасасига панжаралар ўрнатилиб, юқориси муқарнасли шарафа ва қубба б-н якунланган. Минора шаҳарнинг деярли ҳамма томонидан кўзга яққол ташланиб туради. Исломхўжа мадрасаси ва минораси обидасини қуришда меъмор Худойберган ҳожи, наққошлар Эшмуҳаммад Худойбердиев, Болта Воисов ва бошқалар катнашганлар. 1913 йилда Саййид Исломхўжа бир гуруҳ фитначилар томонидан ўлдирилади. Унинг истаги ўзи қурдирган мадрасада мангу қўним топиш эди. Лекин хали мадраса ўз фаолиятини бошламаган эди. Дастлаб мадрасада дафн маросимини ўтказишни истамаган Исломхўжанинг ўғли Абдусаломхўжа отасининг жасадини Хива шаҳрида жойлашган Саййид Моҳи рўйи жаҳон мақбарасига жойлаштиради. Кейинчалик бу мақбарага Саййид Исломхўжанинг фарзандлари ҳам дафн этилган.

Саййид Исломхўжа Хива хонлиги тарихида ёркин из қолдирсан атоқли давлат арбоби, маърифатпарварвар ва йирик ислоҳотчи эди.

Адабиётлар:

1.Садуллаев А., Сотлиқов А., Абдуллаев О. Саййид Исломхўжа. – Тошкент, 2005. – 120 б.

2.Туркистон чор мустамлакаси даврида. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Биринчи китоб. – Тошкент: Шарқ, 2000. – 368 б.

3.Қаюмов М. XX аср бошида Хива хонлигида ислоҳотчилик ҳаракатларининг бошланиши (Вазир Саид Исломхўжа фаолияти мисолида) // O‘zbekiston tarixi. – Тошкент, 2004. №3. – Б.53 – 59.

4.Қўшжонов О., Полвонов Н. Хоразмдаги ижтимоий-сиёсий жараёнлар ва ҳаракатлар (XIX аср иккинчи ярми – XX аср биринчи чораги). – Тошкент: «Abu matbuot – konsalt» МЧЖ, 2007. – 388 б.

5.Хива – минг гумбаз шаҳри / Масъул муҳаррир А.Азизхўжаев. – Тошкент: Шарқ, 1997. – 168 б.

ЎРТА ОСИЁ ШАХАРСОЗЛИГИДА МЕЪМОРИЙ АНСАМБЛ ВА КОМПЛЕКСЛАР ТУЗИШ САНЪАТИ

Джамилова Мафтуна Дилмурод қизи
ТАҚИ Магистранти
https://doi.org/10.5281/zenodo.7258153

Аннотация: Ушбу мақолада Ўрта Осиё шаҳарсозлигида меъморий ансамбл ва комплекслар тузиш санъати ҳақида сўз боради. Ансамбл ва комплекс атамаларининг ўзаро фарқи ва умумий жиҳатлари кўриб чиқилади. Шунингдек, ансамбл ва комплексларнинг турлари ҳақида маълумотлар берилади.

Калит сўзлар: ансамбл, комплекс, жамоат бинолари, маҳалла марказлари, турар-жой бинолари, ҳаробалар, оловхона, майдон, қўш услуб, жуфт ансамбл.

Кириш. Қадим-қадим замонлардан бошлаб дунё маданий тараққиётида маълум ўрин тутиб келаётган Ўрта Осиё меъморчилигига қизиқиш бугунги кунда ҳам ниҳоятда ўсиб бормоқда. Айни пайтда замонавий шаҳарсозлигимиз ва меъморчилигимиз нафақат сайёхарнинг эътиборини ўзига жалб қиляпти, балки бу ҳудудда яшаётган халқ эътиборини ҳам тортяпти [1].

Маълумки ҳар бир шаҳар, қишлоқ ёки бошқа бирор турдаги аҳоли яшаш жойларининг диққатга сазовор қисми алоҳида бежирим қилиб қурилган иморат ёки бинолар мажмуаси билан намоён бўлади. Бинолар туркумининг бадиий жиҳатдан ўзаро яхши боғланганлиги меъморий ансамбль ёки комплекс деб номланади. Аммо шу бугунгача качон "ансамбл" ва қай пайт "комплекс" сузини ишлатиш ҳақида маълум бир қонуният йуқ. Бу эса ўз навбатида баъзан шунчаки ёнма-ён жойлашган иморатларни хам ансамбл деб аталишига олиб келмоқда. Бундай ноаниқликларга маълум даражада йўл куймаслик учун Ўрта Осиё меъморчилигида ансамбл ва комплекс қандай шаклланишини ва бунинг учун шу иморатларнинг келиб чикишини кўриб чиқишимиз лозим.

Асосий қисм. Меъморчилик ҳақидаги адабиётларда ансамбл ва комплекс ибораларининг баъзан ноаниқ ишлатилаётганлиги бу борада илмий фикрлар йуқлигидан эмас. Аксинча мана шу тушунчаларни талқин этишга бағишлаб Н. В. Баранов, А. В. Бунин, В. Л. Воронина, А. И. Иконников, В. В. Косточкин, В. А. Лавров, В. Смолина ва бошқалар қатор илмий мақолалар эълон қилишган. Бу изланишларда меъморий Ансамбл ҳар хил нуктаи назардан баён этилган. В. В. Косточкин ибораси билан айтганда баъзилар бадиий уйгунлашган бинолар гуруҳини ансамбль деб аташса, худди шунинг ўзини бошқалар комплекс дейишади. Гап шундаки, мутахассисларнинг барчаси меъморий ансамблнинг

шаклланиши учун биринчи омил булиб биноларнинг ўзаро бадиий жихатдан уйгунлашуви деб ҳисоблайдилар [1,2,3]. Бироқ қўшимча омил сифатида баъзилари (В. В. Косточкин) бундай бинолар бир даврда ва бир ёки икки меъмор томонидан қурилган булиши керак, деб ҳисоблашса, бошқалари (В. Л. Воронина) яхши қурилган шаҳар ансамбл, бир неча биноларнинг узвий боғланиши хам ансамбл ва уларнинг мажмуаси ҳам ансамбл дейишади [2]. Агарда биз бу фикрлага амал қилсак бир хил меъморий усулда қурилган Бухородаги "Қўш Мадраса" (Абдуллахон ва Модарихон мадрасалари)ни ансамбл деб шу усулда қурилган Улугбек ва Абдулазизхон мадрасалари (бу ҳам Бухорода) ни ансамбл демаслигимиз керак [3]. Ёки бутун Хивани ҳам унинг Ичон қалъасини ҳам ва Қутлуғ Мурод Иноқ ва унинг рўпарасидаги Аликулихон мадрасаларининг жойлашувини ҳам ансамбл дейишимиз лозим бўлади. Унда нима ансамблу нима ансамбл эмас, деган фикр тугилади ва шунчаки ёнма-ён жойлашган биноларнинг барчаси ансамбл бўлиб кетади. Ансамбл (шаҳар) ичида ансамбл пайдо булади. Бизнингча, бу унчалик тўгри фикр эмас.

Умуман олганда "ансамбл" ва "комплекс" иборалари бадиий эстетик категория сифатида шаҳар ёки бошқа бирон турдаги аҳоли истиқомат қилувчи ҳудуддаги диққатга сазовор иншоотлар туркумини ифодалашда ишлатилади [3, 4,5]. Агар биз бу сўзларнинг луғавий маъносига эътибор берадиган бўлсак, "ансамбл" ибораси французча “ensemble” сўзидан олинган бўлиб, биргаликда яхлит, уйғунлашмоқ деган фикрни англатади. "Комплекс" эса лотинча “complex” иборасидан олинган бўлиб бир гуруҳга бирлашмоқ ифодасини билдиради. Шундай қилиб меъморий ансамбл деб биноларнинг ўзаро бадиий уйғунлашган туркумини, комплекс деб эса функционал ёки бирор бир техникавий ҳамда технологик зарурат асосида уюшган иморатлар туркумини тушуниш зарур. Бир неча ансамбллар ҳам ўзаро ансамбллар комплексини ташкил этади [4, 5, 6].

Агар бевосита Ўрта Осиё шаҳарсозлигидаги меъморий ансамбларга эътибор берадиган бўлсак, шу нарса маълумки Самарканд, Бухоро, Хива каби қадимий шаҳарларнинг таркибий қисмини туркум-туркум қилиб қурилган жамоат бинолари, маҳаллалар марказлари ва уларнинг атрофини қуршаб олган турар-жой бинолари ташкил этади. Мана шу жамоат бинолари ва маҳалла марказларининг қурилиш услубида маълум қонуниятлар аниқланган. У ҳам бўлса уйғунлашган муҳит — ансамбл яратиш санъатидир [5, 6, 7]. Ўрта Осиёнинг иссиқ табиий иқлими қадим замонлардан бошлаб шаҳар қурилишида майдон ва кўчаларнинг маълум тарзда шакллантирилишини тақозо этган. Чунончи милоддан олдинги минг йилликнинг ўрталарида мавжуд бўлган шаҳарчаларнинг бугунги ҳаробалари — Бозор қалъа, Бургут қалъа, Калъали

Қир ва бошқаларни ўрганар эканмиз, жамоат биноларининг маълум даражада ажратиб қурилганлигини кўрамиз [8].

Жонбоз қалъада (милоддан олдинги IV—III асрлар) эса шаҳарнинг бош эҳроми — оловхона алоҳида майдонда қурилиб, атрофидаги иморатлар билан маълум даражада соддароқ ансамбл кўринишини ташкил этган. Милоднинг бошларида (I—VI асрлар) нуфузли шаҳар сифатида, бугун эса Тупроқ қалъа номи билан маълум бўлган вайроналарнинг шаҳар арки, бош ибодатхонаси, савдо иншоотлари алоҳида майдонни композицион жиҳатдан бирлаштириб, ўзига хос ансамбл турини беради. Унинг структурасида ҳовуз ҳам бўлган деган тахмин бор [9].

